

JON BIVER

SHAYTONNING XO'RAGI

Xafalikning
halokatli tuzog'idan
ozod yashash

Butun dunyo bo'ylab 6.000.000 tadan ko'proq nusxada tarqatilgan

Aziz Do'stim,

Ehtimol, bu xabar hayotingizda haqiqat bilan eng muhim to'qnashuv bo'lishi mumkin. Men uni yozganim uchun emas, ammo uning mazmuni uchun bu haqida ishonch bilan aytyapman. Bu osmondan kelgan xabardir; shaxsan men bu kitobni birinchi bo'lib o'qiganim uchungina unda mening ismim yozilganiga ishonaman. "Shaytonning xo'ragi" kitobida aytilgan vasvasa yoki xafagarchilik masalasi ko'pincha biz duch keladigan va yengib o'tishimiz kerak bo'lgan eng qiyin to'siq va tuzoqlardan biri hisoblanadi.

Kitob yozilgandan buyon, dunyo bo'ylab, olti million nusxadan ortiq, turli shaklda va ko'plab tillarda tarqatilgan. Biz butun dunyodan bu xabar odamlarga qanday ta'sir qilgani, asirlarni ozod qilgani va ko'plarga dushman changalidan xalos bo'lish va Xudo ularga tayyorlaganidan eng yaxshisini olish uchun kuch bergani haqida son-sanoqsiz miqdorda guvohliklarni oldik.

Bu kitobni butun dunyo bo'ylab yetakchilar va bo'lajak yetakchilarga sevgimning belgisi hamda boshqalarga ham o'rnidan turish va ozodlik olishlariga yordam berishi mumkin bo'lgan vosita sifatida yetkazishim kerakligini Rabbiiy mening yuragimga aniq soldi.

Do'stim, Xudo menga bu xabarni berganidan so'ng hayotim tubdan o'zgardi. Ushbu kitobda joylashgan haqiqatlarni ochganingiz sari, hayotingiz o'zgarishi uchun ibodat qilaman. Bu xabar sizga va xizmatigingizdagi odamlarga qanday ta'sir qilgani haqidagi guvohliklaringizni eshitishdan juda xursand bo'laman.

Masihdagi birodaringiz,

Jon Biver

JohnBevere@ymail.com



MessengerX



Messenger
INTERNATIONAL

JON BIVER

**SHAYTONNING
XO'RAGI**

**Xafalikning
halokatli tuzog'idan
ozod yashash**

The Bait of Satan, by John Bevere, Uzbek Latin

© 2025 Messenger International

MessengerInternational.org

Originally published in English as The Bait of Satan
Additional resources in Uzbek Latin by John and Lisa Bevere are
available for free download and video streaming at
MessengerX.com and on the **MessengerX** App
To contact the Author: JohnBevere@ymail.com

This book is a gift from Messenger International and is
NOT FOR SALE

«Shaytonning xo'ragi», Jon Biver, O'zbek tilida lotincha

© 2025 Messenger International

MessengerInternational.org

Ilk bora ingliz tilida, «The Bait of Satan» nomi ostida chop etilgan
Jon va Liza Biverlar tomonidan qo'shimcha manbalarni O'zbek tilida lotincha
MessengerX.com va **MessengerX** ilovasi orqali bepul ko'chirib olish mumkin.
Muallifning elektron manzili: JohnBevere@ymail.com

Bu kitob – “Messenjer interneyshnl”ning hadyasi va SOTISH MAN ETILADI.



App Store AQSHda va boshqa mamlakatlarda ro'yxatga olingan Apple Inc.ning tovar belgisidir.
Google Play va Google Play logotipi Google LLC ning tovar belgisi.

CHUQUR MINNATDORCHILIK BILDIRAMAN...

Rabbiydan so'ng mening eng ardoqli do'stim bo'lmish, turmush o'rtog'im Lizaga minnatdorchilik bildiraman. Sen haqiqatan ham muruvvatli ayolsan.

Bizlarni er va xotin qilib qo'shgani uchun Rabbiydan to'abad minnatdorman. Bu kitobni chop etishda beg'araz yordaming uchun rahmat.

Bu loyiha yozib bitirilishi uchun otalari bilan o'tkazadigan vaqtlarini qurbon qilgan o'g'illarim Addison, Austin, Aleksandr va Ardenga ham minnatdorman. Bolalar, sizlar mening yuragimning quvonchisizlar.

Mazkur nomaga ishongan va uni chop etishga ruhlantirgan Jon Masonga; qobiliyati va tahrir qilishda yordami uchun Debora Poulaliona; va mazkur loyihada biz bilan mehnat qilgan Xarizma hauzning to'liq shtatiga – chuqur minnatdorchiligimni bildiraman.

Eng muhimi, bizning samoviy Otamizga, Uning ta'riflashga til o'jiz in'omi uchun; Rabbimiz Iso Masihga, Uning inoyati, haqiqati va sevgisi uchun va Muqaddas Ruhga, mazkur loyiha jarayonida sadoqatli boshqaruvi uchun astoydil minnatdorchiligimni bildiraman. Mazkur kitob muallifdan sovg'a va sotish uchun mo'ljallanmagan.

MUNDARIJA

<i>SO'Z BOSHI</i>	5
<i>KIRISH</i>	9
1. MEN XAFA BO'LDIMMI?.....	13
2. OMMAVIY XAFALIK.....	23
3. BU MEN BILAN QANDAY SODIR BO'LDI?.....	37
4. MENING OTAM, MENING OTAM!.....	51
5. RUHIY DARBADARLAR QANDAY TUG'ILADI.....	67
6. HAQIQATDAN YASHIRINIB.....	83
7. ISHONCHLI POYDEVOR.....	97
8. LARZAGA SOLINISHI MUMKIN BO'LGAN HAMMA NARSA LARZAGA SOLINADI.....	113
9. VASVASA TOSHI.....	133
10. TOKI BIZ ULARNI VASVASAGA SOLMAYLIK.....	153
11. KECHIRIM: BERMASANGIZ – OLA OLMAYSIZ.....	167
12. QASOS – BU TUZOQ.....	183
13. QOPQONNI CHETLAB O'TISH.....	197
14. MAQSADIMIZ: YARASHISH.....	209
<i>XOTIMA: AMALIY QADAMLAR</i>	221

SO‘Z BOSHI

Siz qo‘lingizda tutib turgan mazkur kitob – balki hayotingiz davomida siz uchratadigan haqiqatga eng muhim qarama-qarshilikdir. Bu kitobni men yozganim uchun bu so‘zlarni aytayotgan emasman, balki uning mavzuining mohiyoti uchun aytyapman. Xafalikning manbai – shaytonning xo‘ragining o‘zagi bo‘lib, u ko‘pincha eng qiyin to‘siqdir va har bir kishi unga shaxsan duch kelishi va uni yengib o‘tishi kerak.

Iso Masihning shogirdlari juda ko‘p buyuk va diqqatga sazovor mo‘jizalar haqida guvohlik berishdi. Ular hayrat bilan ko‘r ko‘zlarning ochilishini va o‘liklarning tirilishini ko‘rdilar. Ular Iso Masihning hayotga tahdid soluvchi dovulga jim bo‘l deb buyurganini eshitdilar. Ular minglab odamlarning bir necha non va baliqchalar bilan to‘ydirilganini ko‘rdilar. Iso Masih qilgan mo‘jizalarning soni shu qadar cheksiz ediki, Muqaddas Yozuvning aytishiga ko‘ra – butun

dunyodagi kitoblar ularni sig'dira olmaydi.

Hech qachon ilgari odamzod Xudoning mo'jizaviy qo'li haqida bu qadar quyundek quyiladigan hamda sezilarli yo'l bilan guvohlik bergan emas edi. Shogirdlar hayratlanib va lol bo'lib qolgan bo'lsalar ham, ularni shubha qirg'og'iga olib borib qo'ygan narsa – bu mo'jizalar emas edi. Yo'q, bunday da'vat keyinroq, Iso Masihning yerlik xizmati xotimasiga yaqinroq vaqtda keladi. Iso Masih shogirdlariga dedi: "Agar birodarlaringiz kunida yetti marta sizga qarshi gunoh qilsa va kuniga yetti marta: "Men tavba qildim", – deb sizning oldingizga kelsa, siz uni kechirishingiz lozim". Ularning zudlik bilan bergan javoblari: "Imonimizni ko'paytirgin" bo'ldi (Luqo 17:3-5). Mo'jizalar, o'liklarni tiriltirish yoki dengizni tinchlantirish – imonni ko'paytirish haqidagi o'tinchga sabab bo'lmadi; balki sizga qarshi noto'g'ri munosabatda bo'lgan odamlarni kechirish haqidagi oddiy amr.

Iso Masih: "Xafaliklarning kelmasligi mumkin emas", – dedi (Luqo 17:1). Gap xafa bo'lishga sabablar bo'lmasligi haqida emas, balki siz ularga qanday javob berishingiz haqida. Afsuslanarli fakt shundan iboratki, ba'zilar emas, balki ko'pchilik xafa qilingan va asirlikda tutilmoqda.

Bu kitob chop etilayotganiga o'n yil bo'lmoqda. Bu vaqt mobaynida bizlar alohida shaxslardan, oilalardan va xizmatlardan – ular bu kitobdagi Xudoning So'zi haqiqatlari vositasida shifo topganlari va o'zgarganlari haqida son-sanoqsiz xatlar va ko'plab guvohliklar oldik. Bizlar sizlarni ruhlantirish uchun bulardan namuna ilova qildik. Bularning barchasi uchun bizlar quvonamiz va bor sharafni Xudoga beramiz!

Bir yetakchi o'rtoqlashdi: "Bizning jamoatimiz katta bo'linishning o'rtasida edi. Bu umidsizdek tuyular edi. Men "Shaytonning xo'ragi"dan, bir nusxadan har bir xizmatchiga berdim. Bo'linish chetlatildi va bizlar hozir birlikdamiz!"

Ko'plab oilalar saqlab qolindi. Keyingi kunlarda, Nebraskada voizlik qilganimdan so'ng, bir oila mening oldimga keldi. Xotini

gunohini e'tirof etdi: "Meni o'n yil oldin shu jamoatning xizmatkorlari xafa qilgan edilar. Men achchiqlandim va shubhalanuvchi, doimo o'zimni va mavqeimni himoya qiladigan bo'lib qoldim. Mening og'rig'imdan mening oilam ham azoblandi va mening erim men bilan ajralish jarayonida edi. U najot topmagan edi va jamoatda qiladigan ishi yo'q edi. Kimdir "Shaytonning xo'ragi"ning bir nusxasini mening qo'limga tutqazdi. Men uni o'qib chiqdim va kam vaqt ichida xafalik va achchiqlanishdan to'liq ozod bo'ldim. Mening erim mening hayotimdagi o'zgarishlarni ko'rganida, u o'zining hayotini Iso Masihning boshchiligiga topshirdi va ajralish jarayonini to'xtatdi". Eri jilmayib, xotinining yonida turar edi. Ayol bo'lishishni tugatganidan so'ng u hayotidagi va uyidagi ajoyib o'zgarishlar haqida guvohlik berdi!

Men Floridadagi Nepl shahrida voizlik qilgan vaqtimdagi guvohlik mening yuragimga qadaldi. Men so'zlashni boshlashimdan ozroq vaqt oldin semiz, o'rta yoshlardagi bir kishi jamoat qarshisida turdi va o'zining fojeaviy hikoyasini yig'lab so'zlab berdi: "Mening butun hayotim davomida men va Xudo orasida devor bordek tuyular edi. Men boshqalar Xudoning huzurini his qilayotgan yig'inlarga qatnashar edim, bu vaqtda men hammadan ajralgan holda qotib qarab turaverar edim. Hatto men ibodat qilganimda ham yengillik ham, Xudoning huzurini ham sezmas edim. Bir necha hafta oldin "Shaytonning xo'ragi" kitobi mening qo'limga tushib qoldi. Men uni to'liq o'qib chiqdim. Men bir necha yil oldin shaytonning xo'ragini yutib qo'yganimni angladim. Men olti oylik bo'lganimda meni tashlab ketgani uchun oyimdan nafratlanar edim. Men uning oldiga borib, uni kechirishim kerakligini tushundim. Men qo'ng'iroq qildim va o'ttiz uch yil davomida ikkinchi martagina u bilan suhbatlashdim. Men yig'ladim: "Oyi, meni tashlab ketganingiz uchun mening qalbmida sizga nisbatan butun hayotim davomida kechirimsizlik bor edi". U yig'lay boshlab dedi: "O'g'lim, men ham seni tashlab ketganim uchun o'ttiz sakkiz yil davomida o'zimdan nafratlanib yashamoqdaman".

U davom etdi: "Men uni kechirdim va u o'zini kechirdi. Endi bizlar yarashdik".

So'ngra ajoyib qismi sodir bo'ldi: "Endi meni Xudoning huzuridan ajratib turgan devor yo'qoldi".

Shu tufayli u bundan qutuldi va yig'lar edi. U keyingi so'zlarni qiynalib aytdi: "Men hozir Xudoning huzurida go'dak kabi yig'layapman".

Men bu asirlikning kuchini va realligini bilaman. Men bir necha yillar davomida buning falaj qiluvchi azobiga asir bo'lgan edim. Bu kitob nazariya emas. Bu tanaga aylangan Xudoning So'zi. Bu men shaxsan boshimdan kechirgan haqiqatga to'lib toshgan. Men bu sizni quvvatlantirishiga ishonaman. O'qishingiz jarayonida Rabbiydan imoningizni ko'paytirishini so'rang! Siz imonda o'sishingiz jarayonida, U sharaf oladi, siz esa quvonchga to'lasiz! Xudo sizni o'ta duo qilsin.

– Jon Biver

KIRISH

Jonivorlarni qopqonga tushirgan har bir kishi biladiki, qopqon muvaffaqiyat qozonishi uchun ikki narsaga ega bo'lishi kerak: Jonivor qoqinib ilinishi uchun u yashirin bo'lishi kerak, jonivorni qopqonning halokatli jag'lariga jalb qilish uchun unda yolg'on xo'rak bo'lishi kerak.

Jonlarimizning dushmani bo'lmish shayton o'zining avrovchi va halokatli qopqonlarini qo'yishda bu strategiyalarning ikkalovini ham qo'llaydi. Uning qopqonlari ham yashirin, ham yolg'on xo'rakli.

Shayton va uning sheriklari bo'lmish yovuz ruhlar, ko'plab imonlilar o'ylaganlaridek oshkor harakat qilmaydi. U ayyor va avrashdan lazzatlanadi. U o'z hatti-harakatlarida ziyrak, yovuz va makkordir. Yoddan chiqarmang: u o'zini nur farishtasi qilib ko'rsatishi mumkin. Agar bizlar Xudoning So'zi orqali yaxshi va yomon narsalarni to'g'ri ajratishni o'rgangan bo'lmasak, bizlar uning

qopqonlari nima uchun qo'yilganini anglay olmaymiz.

Uning o'ta avrovchi va yashirin yolg'on xo'raqlaridan biri – har bir Masihiy o'z hayotida duch keladigan narsa: xafalikdir. Aslida, xafalikning o'zi u hali qopqonda turgan vaqtida halokatli emas. Ammo bizlar uni qabul qilsak va hazm qilsak, uni yuragimizda boqsak, shundagina bizlar xafa bo'lamiz. Xafa bo'lgan odamlar ko'plab quyidagicha salbiy hosillar bera boshlaydilar: yaralash, jahllanish, g'azablanish, rashk, norizolik, janjal, xafalik, nafrat va hasad.

Ko'pincha xafalikni qabul qilganlar hatto qopqonga tushganlarini bilmay qoladilar. Ularning diqqatlari ular bilan naqadar yomon munosabatda bo'lganlariga qaratilganligi tufayli, ular o'zlarining achinarli ahvollarini payqamaydilar. Ular haqiqatning yuziga qarashni rad qiladilar. Bizlarni ko'r qilish uchun dushmanning eng mahsuldor usuli bu – bizlarning diqqatimizni faqat o'zimizga qaratishdir.

Bu kitob mazkur halokatli qopqonni ochib beradi va qanday qilib uning changalidan qochib qutulish va undan ozod turish mumkinligini yoritadi. Xafalikdan ozodlik har bir masihiy uchun hayotiy muhimdir, chunki Iso Masih bu dunyoda yashab, xafa bo'lish uchun sabablarga duch kelmasligi mumkin emasligini aytgan (Luqo 17:1).

Amerika jamoatlari bo'ylab va men bu voizlikni voizlik qilgan boshqa xalqlarda 50%dan ortiq odamlar tavba qilishga chaqirish da'vatiga javob berdilar. Bu katta ko'rsatkich bo'lsa ham, baribir hali har bir kishi shunday javob bergan emas. Mag'rurlik ba'zi odamlarni shunday javob berishdan tutib turadi. Men odamlarning mazkur qopqondan ozod bo'lganlaridan so'ng shifo topganlarini, ozod bo'lganlarini, Muqaddas Ruhga to'lishganlarini va ibodatlariga javob olganlarini ko'rdim. Ular odatda yillab izlagan narsalarni, bir lahzada, ozod bo'lganlarida olganlarini e'tirof etadilar.

Yigirmanchi asrning so'nggi qismida jamoatda bilim juda ko'paydi. Ammo hatto bilimning shu qadar ko'payishiga qaramasdan, shunday tuyuladiki, bizlar imonlilar, yetakchilar va jamoatlar orasida bo'linishlarni boshimizdan kechirmoqdamiz.

Bunga sabab: haqiqiy sevgining yo'qligi tufayli xafalik ulkan va

chuqur ildiz otganligidir. “Bilim manman qiladi, sevgi barpo qiladi” (1-Korinfliklarga 8:1). Ko‘plab imonlilar mana shu avrovchi qopqonga tushganlar va bizlar bu normal hayot tarzi deb hisoblaymiz.

Ammo Masihning kelishidan oldin haqiqiy Masihiylar ilgari hech qachon bo‘lmagan darajada birlashadilar. Men ishonamanki, bugun sanoqsiz ayollar va erkaklar mana shu xafalikning qopqonidan ozod bo‘ladilar. Bu butun davlatni qamrab oladigan ruhiy uyg‘onishning xalqalaridan biri bo‘ladi. Imonsizlar Iso Masihni bizlarning bir-birimizga bo‘lgan sevgimizga qarab ko‘ra boshlaydilar, ular bizlarda sevgi yo‘qligi uchun Uni ko‘ra olmagan edilar.

Men shunchaki bir kitob yozish uchun kitob yozilishiga ishonmayman. Xudo mazkur nomani mening yuragimda yondirdi va men uning turg‘un hosillarini ko‘rdim. Bir cho‘pon mazkur mavzuni voizlik qilganimdan so‘ng menga: “Men hech qachon bir vaqtning o‘zida shuncha odamning ozodlik olganini ko‘rgan emasman,” – dedi.

Xudo mening yuragimga bu shunchaki boshlanishi ekanligini aytdi. Ko‘plab odamlar mazkur kitobni o‘qish jarayonida va Muqaddas Ruh ularni yo‘naltirishiga bo‘ysunganlarida ozodlik oladilar, shifolanadilar va qayta tiklanadilar. Men ishonamanki, siz bu sahifalardagi so‘zlarni o‘qishingiz jarayonida Ustoz va Maslahatchi uni shaxsan sizga yo‘naltiradi. U shunday qilishi jarayonida mazkur vahiy so‘zi sizning hayotingizga va xizmatigingizga buyuk ozodlik olib keladi.

Boshlashingizdan oldin, keling, birgalikda ibodat qilamiz:

Ota, Iso Masih nomi bilan so‘rayman, men bu kitobni o‘qishim jarayonida sen Muqaddas Ruhing bilan O‘z so‘zingni menga ochgin. Mening yuragimning Seni bilishga va Senga mahsuldorroq xizmat qilishga to‘sqinlik qilayotgan har bir yashirin joyini ochgin. Men Muqaddas Ruhning fosh qilishini qabul qilaman va menga nisbatan irodangni bajarishim uchun inoyatingni so‘rayman. Mazkur kitobni o‘qishim jarayonida Sening ovozingga quloq solishim natijasida Seni yanada yaqindan bilayin.

BIZNING XAFALIKKA QANDAY JAVOB BERISHIMIZ KELAJAGIMIZNI BELGILAYDI

“Shaytonning yolgʻon xoʻragi” bizning hayotimizni va xizmatimizni oʻzgartirdi. Biz buning videosini kamida yigirma marta koʻrdik va kitobini qayta-qayta oʻqib chiqdik. Bizning xizmatimiz bu kitobni va video taʼlimotni – oʻz hayotimizni va boshqalarning hayotini oʻzgartirish uchun qoʻlladi. Mazkur noma juda kuchli va oʻz vaqtida aytilgan.

– S.K.Konnektikut.

MEN XAFA BO'LDIMMI?

Xafaliklar kelmasligi mumkin emas.

– Luqo 17:1

Xizmat yuzasidan Qo'shma Shtatlar bo'ylab sayohat qilar ekanman, men dushmanning o'ta halokatli va avrovchi qopqonini ko'ra oldim. Bu sanoqsiz Masihiylarni hibsda tutadi, munosabatlarga sovuqlik soladi va bizlarning oramizda bo'lgan yoriqlarni kengaytiradi. Bu xafalik qopqonidir.

Xafachilik ularning hayotlariga olib kelgan yaralar va og'riqlar tufayli ko'plab Masihiylar o'z da'vatlarida to'liq faoliyat yurita olmaydilar. Ular ichki imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishdan to'silgan va mahrum qilingan. Ko'pincha ularga yaqin bo'lgan imonlilar ularni xafa qilishgan. Bunday holatlardagi xafachilikda

odam o'zini unga xiyonat qilingandek sezadi. Sano 55:12-14da Dovud shunday faryod qiladi: "Xudoga umid qilaman, qo'rqmayman; Odam menga nima qila oladi? Sening va'dalaring mendadir Xudoim. Seni ulug'layman. Zero Sen mening jonimni o'limdan, mening oyoqlarimni ham to'qishishdan qutqarding, toki men tiriklarning nurida Xudoning yuzi qarshisida yurayin".

Bular bizlar birga o'tiradigan va birgalikda sano kuylaydigan odamlar yoki balki voizlik qiladigan odam bo'lishi mumkin. Bizlar dam olish kunlarimizni ular bilan birga o'tkazamiz, ijtimoiy vazifalarni bajaramiz va ular bilan bir ishxonada vaqt o'tkazamiz. Balki bundan ham yaqinroqdirmiz. Bizlar birga o'sib katta bo'lgandirmiz, unga qattiq ishongandirmiz, yonma-yon yasharmiz. Munosabatlar naqadar yaqin bo'lgan bo'lsa, shu qadar qattiq xafalik bo'ladi! Qachonlardir juda yaqin bo'lgan odamlar orasida eng ulkan nafratni uchratasiz.

Oqlovchilar sizga nikohni bekor qilish jarayoniga oid eng dahshatli va beshafqat hatti-harakatlarni aytib berishlari mumkin. Amerika yangiliklari doimo oilalarda noumidlikka uchragan oila a'zolari tomonidan qotillik sodir etilganligi haqida xabar beradi. Ta'minot, o'sish, himoya chodiri, bizlar sevgini qabul qilib sevgi berishga o'rganishimiz kerak bo'lgan joy – oila ko'pincha bizlarning og'rig'imizning ildizi bo'lib xizmat qiladi. Tarix bizlarga namoyish qiladiki, eng qonxo'r urushlar – bular fuqarolar urushlari – birodar-birodariga qarshi, o'g'il otasiga qarshi, ota o'g'liga qarshi bo'lgan urushlardir.

Xafa bo'lishga sabablar, o'zaro munosabatlar ro'yxati kabi poyonsizdir va bunda o'zaro munosabatlarning naqadar murakkab va oddiy ekanligining farqi yo'q. Mana bu o'zgarmas haqiqatdir: Sizni faqat siz befarq bo'lmagan odamlargina xafa qila oladilar. Siz ulardan ko'p narsani kutasiz, umuman olganda, siz o'zingizni ularga ko'p bag'ishlagansiz. Naqadar odamlardan katta umidga ega bo'lsangiz, qulash shu qadar katta bo'ladi.

Bizning jamoatimizda xudbinlik hukm suradi. Erkaklar va ayollar bugungi kunlarda atroflaridagi odamlarni rad qiladilar va yaralaydilar. Bu bizlarni hayron qoldirmasligi kerak. Muqaddas Yozuv bu sohada so'nggi kunlarda odamlar "o'zlarini sevuvchi" (2-Timotiya 3:2) bo'ladilar deb

aniq so'zlaydi. Bizlar bunday hatti-harakatlarni imonsizlardan kutamiz, ammo Pavlus jamoatdan tashqaridagilar haqida so'zlagan emas edi. U jamoatning ichidagilar haqida so'zlagan edi. Ko'plar yaralangan, ko'ngli og'ritilgan, achchiqlangan. Ular xafa qilingan! Ammo ular shaytonning qopqoniga tushganlarini fahmlamaydilar.

Bu bizning xatoimizmi? Iso Masih bizlarga bu dunyoda yashab, xafa qilinmasligimiz mumkin emasligini aniq aytdi. Baribir ko'plab Masihiylar bu sodir bo'lganida shokka tushishadi, hayratlanishadi va ularning hafsasalari pir bo'ladi. Bunday holatlarda faqat bizlarga nisbatan shunday noto'g'ri munosabatda bo'lishdi deb o'ylaymiz. Bunday munosabat bizlarni achchiq ildiz paydo bo'lishiga ochiq qilib qo'yadi. Shuning uchun bizlar xafalikka nisbatan tayyorlangan va qurollangan bo'lishimiz lozim, chunki bizning javobimiz bizning kelajagimizni belgilaydi.

ALDOVCHI QOPQON

Luqo 17:1dagi "xafalik" so'zi yunon tilidagi "scandalon" so'zidan kelib chiqqan. Bu so'zning ilk qo'llanishlarida u qopqonning yolg'on xo'rak qistiriladigan qismini bildirar edi. Demak bizlar o'rganayotgan bu so'z kimningdir yo'lga qo'yilgan qopqonni bildiradi. Yangi Ahdda bu so'z ko'pincha dushman odamlarni o'z qopqoniga qanday tushirishini ta'riflash uchun ishlatiladi. Xafalik yoki vasvasa bu – shayton odamlarni asir qilish uchun ishlatadigan quroldir. Pavlus yosh Timotiya shunday nasihat qilgan edi:

Xudoning quli esa janjalkash bo'lmasligi kerak. Aksincha, u hammaga xushfe'l, o'rgatishga tayyor, sabr-toqatli bo'lishi kerak. U qarshilik ko'rsatganlarga muloyimlik bilan nasihat qilishi kerak, balki Xudo ularga haqiqatni tanib bilishlari uchun tavba qilishni berar, toki ular shaytonning tuzog'idan ozod bo'lsinlar; chunki ular uning irodasiga asir qilingan edilar.

– 2-TIMOTIYA 2:24-26

Janjallashadigan yoki qarshilikda turadigan odamlar qopqonga tushadilar va shaytonning irodasini bajarishlari uchun asir qilinadilar. Eng achinarlisi shundaki, ular asirlikda ekanliklarini hatto bilmaydilar ham! Daydi o'g'il kabi ular ham o'zlariga kelishlari, uyg'onib, asl holatlarini anglashlari lozim. Ular toza suv o'rniga achchiq suvlar oqizayotganlarini hatto anglamaydilar. Odam aldanganida, u nohaq bo'lsa ham, o'zini haq deb hisoblaydi.

Xafalik qanday sodir bo'lganligidan qat'iy-nazar bizlar xafa bo'lgan odamlarni ikkita katta toifaga bo'lishimiz mumkin:

1. Ularga nisbatan nohaqlik qilingan odamlar.
2. Ularga nisbatan nohaqlik qilindi deb *o'ylaydigan* odamlar.

Ikkinchi toifadagi odamlar bor qalblari bilan ularga nisbatan nohaqlik qilindi deb o'ylaydilar. Ko'pincha ularning xulosalari noaniq ma'lumotga asoslangan, yoki ularning ma'lumotlari aniq, lekin ularning xulosalari noto'g'ri bo'ladi. Nima bo'lganda ham, ular xafa bo'lganlar va ularning onglari qorong'ilashgan. Ular taxminlarga, tashqi ko'rinishga va g'iybat, gap-so'zlarga asoslanib hukm qiladilar.

YURAKNING ASL HOLATI

Dushman odamni xafalik xolatida saqlab turishining bir yo'li – xafalikni mag'rurlik niqobi ostida yashirishdir. Mag'rurlik sizning asl holatingizni tan olishdan tutib turadi.

Bir kuni meni ikkita xizmatchi qattiq xafa qilgan edi. Odamlar: "Ular sizga bunday qilganlariga hech ham ishona olmayapman. Siz xafa bo'lmadingizmi?" – der edilar. Men tezda: "Yo'q, hammasi joyida. Men xafa emasman," – deb javob berar edim. Men xafa bo'lish noto'g'ri ekanini bilar edim, shuning uchun uni inkor qildim va xafalikni o'zimda bosdim. Men o'zimni xafa emasman deb ishontirdim, ammo aslida men xafa bo'lgan edim. Mag'rurlik mening yuragimning asl holatini niqoblagan edim.

Mag'rurlik sizni haqiqat bilan o'rtoqlashishdan tutib turadi. U

sizning tasavvuringizni buzadi. Hammasi joyida deb o'ylaganingizda siz hech nimani, hech qachon o'zgartira olmaysiz. Mag'rurlik sizning yuragingizni qattiqlashtiradi va sizning fahmlashingizning ko'zini qorong'ilashtiradi. U sizning yuragingizni o'zgartirishdan, sizni ozod qilishga qodir bo'lgan tavba qilishdan tutib turadi (2-Timotiya 2:24-26ga qarang).

Mag'rurlik sizni o'zingizni qurbon sifatida qabul qilishingizga olib keladi. Sizning munosabatingiz mana bunday bo'ladi: "Menga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lishdi va nohaqlik qilishdi, shuning uchun mening shunday hatti-harakat qilishim to'g'ri". Siz o'zingizni aybsiz va nohaq ayblangan his qilganingiz tufayli, siz kechirimdan o'zingizni tortasiz. Sizning yuragingizning asl holati sizdan yashirin bo'lsa ham, u Xudodan yashirin emas. Faqat sizga nohaqlik qilganlari uchungina siz xafalikni saqlab turishingizga sizga ruxsat berilmagan. Ikkita noto'g'ri ish to'g'ri ishni keltirib chiqarmaydi!

SHIFO

Vahiy kitobida Iso Masih Laodikiya jamoatiga murojaat qilib avvalo ular o'zlarini "boy, boyib ketgan va hech narsaga muhtoj emas" deb hisoblashlarini aytadi, so'ngra esa ularning asl holatlarini fosh qiladi: "aslida sen baxtsiz, bechora, qashshoq, ko'r va yalang'och ekanligingni bilmaysan" (Vahiy 3:14-20). Ular o'zlarining moddiy kuchlarini ruhiy kuchlariga yo'yib xato qilgan edilar. Mag'rurlik ularning asl holatlarini yashirar edi.

Ko'plar hozir shu ahvoldalar. Men o'sha xizmatchilarga nisbatan qarshilikni olib yurganimni ko'rishga qobil bo'lmaganim kabi, ular ham o'zlarining yuraklarining asl holatini ko'ra olmaydilar. Men o'zimni men xafa bo'lganim yo'q deb ishontirgan edim. Iso Masih Laodikiyaliklarga o'z aldanganlik holatlaridan qanday chiqishlari mumkinligini ko'rsatdi: Xudoning oltinini sotib olish va o'zining asl holatini ko'rish.

Xudoning oltinini sotib oling

Iso Masihning aldovdan ozod bo'lish uchun birinchi nasihati: "Mendan olovda tozalangan oltin sotib olgin", – edi (Vahiy 3:18). Tozalangan oltin yumshoq va qayishqoq, zangdan, korroziyadan va turli xil qorishmalardan xoli bo'ladi. Oltin aynan boshqa metallar (mis, temir, nikel va boshqalar) bilan qorishgan holida qattiq, kam qayishadigan va korroziyaga beriluvchan bo'ladi. Bunday qorishma qotishma deb ataladi. Boshqa metallar naqadar ko'p foizni tashkil qilsa, oltin shu qadar qattiq bo'ladi. Aksincha, naqadar boshqa metallarning foizi kam bo'lsa, oltin shu qadar yumshoq va qayishqoq bo'ladi.

Birdan bizlar parallelni ko'ramiz: Toza yurak toza oltin kabi: yumshoq, nozik va qayishqoq. Ibroniylarga 3:13 yurak gunohning aldovchiligi uchun qattiqlashishini aytadi! Agar bizlar xafalikdan qutulishning chorasini ko'rmasak, u gunohning achchiqlanish, g'azablanish, qarama-qarshilik kabi ko'plab gunoh hosillarini keltiradi. Mazkur qo'shilgan narsalar bizning yuragimizni qotishma oltinni qattiqlashtirgani kabi qattiqlashtiradi. Bular bizlarni noziklik va yumshoqlikdan mahrum qilib, bizlarni hissiz qilib qo'yadi. Bizning Xudoni eshitish va hamma narsani aniq ko'rish qobiliyatimiz pasayadi. Bu aldanish uchun ajoyib muhitdir.

Oltinni tozalash uchun birinchi qadam – uni kukun darajasigacha keltirib ezish va uni flyus degan modda bilan aralashtirishdir. So'ngra aralashma o'choqqa qo'yiladi va katta haroratda eritiladi. Qo'shimcha metallar va barcha gardlar flyusga intilib, yuzaga chiqadilar. Oltin esa (og'irroq bo'lgani uchun) tubida qoladi. Qo'shimcha metallar yoki shlak (flyus bilan aralashgan mis, temir, sink) keyin olib tashlanadi va sizda sof metal qoladi.

Endi esa Xudoning So'ziga diqqat qiling:

Mana, Men seni eritdim, lekin kumushga o'xshatib emas.
Seni azob-uqubat o'tida sinadim.

– ISHA'YO 48:10

Va yana:

Ana shuning uchun, endi agar kerak bo'lsa, turli vasvasalarda bir oz qayg'ursalaringizda quvoninglar, toki sizlarning sinalgan imoningiz olovda sinalib o'tilgan, ammo nobud bo'ladigan oltindan ham qimmatroq bo'lsin. O'shanda Iso Masihning namoyon bo'lishida sizlarga hurmat-izzat, maqto'v va sharaf bo'ladi.

– 1-PETRUS 1:6-7

Xudo odamni azoblar, sinovlar, qayg'ular vositasida poklaydi. Bularning olovi bizning hayotimizdagi Xudoning xarakteridan kechirmaslik, janjalkashlik, achchiqlanish, g'azablanish, hasad va boshqa qorishmalarni ajratib tashlaydi.

Sinovlar va azoblar olovi bo'lmagan joyda gunoh osongina yashirilib oladi.

Gullab-yashnash va muvaffaqiyat davrida hatto betavfiq odam ham yaxshi va saxiy tuyuladi. Har holda, sinovlar olovi ostida qorishmalar yuzaga chiqadi.

Mening hayotimda shunday davr bo'lgan ediki, men ilgari hech qachon duch kelmagan qattiq sinovlarni boshimdan kechirgan edim. Men o'zimga yaqin bo'lgan odamlarga nisbatan qo'pol va dag'al bo'lib qolgan edim. Mening do'stlarim va oila a'zolarim mendan o'zlarini olib qocha boshladilar.

O'shanda men Rabbiyga faryod qildim: "Bu g'azab qayerdan kelmoqda? U ilgari yo'q edi!"

Rabbiy shunday javob berdi: "Bolam, oltin olovda eritilayotgandagina uning qorishmalari va gardlari yuzaga chiqadi".

So'ngra U menga mening hayotimni o'zgartirgan savolni berdi: "Oltin olovga solinishidan oldin sen uning qorishmalarini va gardlarini ko'ra olasanmi?"

Men: "Yo'q," – deb javob berdim.

"Lekin bu ular yo'q degani emas, – javob berdi U, – Sinovlarning

olovi seni qizdirganida bu qorishmalar va gardlar yuzaga chiqadi. Ular sendan yashirin bo'lgan bo'lsa ham, Men ularni doim ko'rib turar edim. Mana endi sen o'zingning kelajagingni hal qiladigan tanlovga egasan: Sen xotiningni, do'stlaringni, cho'ponni, birga ishlaydigan odamlarni ayblab serg'azablikda qolishing mumkin yoki nega mazkur gunoh chiqindisi borligini ko'rib, tavba qilishing, kechirilishni qabul qilishing mumkin. Shunda men o'zimning cho'michimni olaman va bu gardlarni sening hayotingdan olib tashlayman”.

O'zingizning asl ahvolingizni ko'ring

Iso Masih bizning to'g'ri ko'ra olish qobiliyatimiz – aldovdan ozod bo'lishimizning yana bir kaliti ekanligini aytgan. Ko'pincha bizlar xafa qilinganimizda o'zimizni qurbon sifatida qabul qilamiz va bizlarni xafa qilganlarni ayblaymiz. Bizlar yuzaga chiqayotgan achchiqlanishimiz, kechirimsizligimiz, g'azab, hasad va qarshiligimizni oqlaymiz. Ba'zida bizlarni xafa qilganlarni bizlarga eslatadiganlardan achchiqlanemiz. Shuning uchun Iso Masih shunday maslahat bergan: “Ko'rish uchun ko'zingga ko'z moyini surtgin” (Vahiy 3:18). Nimani ko'rish? O'zingizning asl holatingizni! Bu Iso Masih quyiroqda amr qilganidek “rashkli bo'lib, tavba qila olishimiz”ning yagona yo'lidir. Siz faqatgina boshqalarni ayblashni bas qilganingizdagina tavba qila olasiz.

Bizlar boshqalarni ayblab, o'z holatimizni himoya qilganimizda – bizlar ko'rmiz. Bizlar o'z ko'zimizda xoda turganida, birodarimizning ko'zidan xasni olib tashlash uchun kurashamiz. Bu bizlarga ozodlik olib keladigan haqiqat vahiyidir. Xudoning Ruhi bizlarga gunohlarimizni ko'rsatganida, U buni doimo shunday amalga oshiradiki, go'yoki gunoh bizlardan alohida tuyuladi. Bu bizlarga aybdorlik hissini emas, fosh qilinishni olib keladi.

Men shu uchun ibodat qilamanki, siz bu kitobni o'qishingiz jarayonida Xudoning So'zi ongingizning ko'zlarini yoritsin, toki siz asl holatingizni ko'ra oling va siz to'plab yurgan har qanday xafalikdan ozod bo'la oling. Mag'rurlik haqiqatni ko'rishdan va tavba qilishdan tutib turishiga ruxsat bermang.

XAFA BO'LGAN MASIHIY – BU O'ZIGA HAYOTNI QABUL QILGAN, AMMO QO'RQUV TUFAYLI UNI O'RTOQLASHA OLMAYDIGAN ODAMDIR.

O'n yillarcha ilgari, oilaviy hayotimizning yigirma yilidan so'ng, mening erim meni tashlab ketdi, chunki u "boshqa baxtli emas edi". Men to'liq xonavayron bo'lgan edim. Uning tashlab ketishi keltirib chiqargan og'riqdan, tashlab ketilish va rad etilish azobidan qutulish ko'p yillarni oldi. Men Xudodan uni kechirishimga yordam so'radim va haqiqatan kechirdim deb o'ylar edim, lekin hanuzgacha yuragimda men yenga olmagan og'riqni olib yurgan ekanman. Men qachonki uni ko'rsam, bu menga og'riq keltirar edi. "Shaytonning xo'ragi"ni o'qiganimdan so'ng, Muqaddas Ruh meni o'zimning sobiq erim bilan suhbatlashishga va bu xafachilikni olib yurganim uchun kechirim so'rashga ruhlantirdi. Bizlar o'n yil ichida ilk bora suhbatlashdik. Men astoydil ishonamanki, men shifolandim va ozodlik oldim! Meni shu qadar uzoq vaqt ichida asirlikda tutgan bu zanjir yukidan ozod qilgani uchun Xudoga minnatdorchilik bildiraman.

– D. V., NYU YORK

OMMAVIY XAFALIK

O'shanda ko'plar vasvasaga tushadilar, bir-birlarini xoinona tutib beradilar va bir-birlaridan nafratlanishadi. Ko'plab soxta payg'ambarlar ko'tariladi va ko'plarni yo'ldan urishadi. Qonunbuzarlikning ko'payishi tufayli, ko'plarda sevgi soviydi. Oxirigacha chidagan esa najot topadi.

– Matto 24:10-13

Matto Xushxabarining ushbu bobida Iso Masih asr tugashining alomatlarini keltiradi. Shogirdlar Undan: “Sening kelishingning alomatlari qanday?” – deya so'radilar.

Ko'pchilik imonlilar biz Iso Masih kelishiga yaqin qolgan vaqtda yashayotganimizga qo'shiladilar. Uning qaytishining aniq kunini

aniqlashga urinish behudadir. Buni faqatgina Ota biladi. Ammo Iso U qanday vaqtda qaytishini biz bilishimizni aytgan va bu vaqt allaqachon yetib keldi! Biz ilgari jamoatda, Isroilda va dunyoda Muqaddas kitobdagi bashoratlarning bunday miqdorda amalga oshganini hech qachon ko'rmaganmiz. Shuning uchun biz Iso Masih Matto 24-bobda aytgan vaqtinchalik davrda yashayotganligimizni ishonch bilan aytishimiz mumkin.

Iso Masih kelishining muqarrar alomatlaridan biriga e'tibor bering: "Ko'pchilik vasvasaga tushadi (yoki ko'pchilik xafa bo'ladi)...".

Bir qancha yoki ayrim odamlar emas, balki ko'pchilik.

Birinchidan, bizlar shunday savol berishimiz kerak: "Bu vasvasaga tushganlar va xafa bo'lganlar kimlar?" Bu Masihlarmi yoki bizning butun jamiyatimizmi? Biz o'qishni davom ettirib, javob topamiz: "Qonunbuzarlikning ko'payishi tufayli, ko'plarda sevgi soviydi". Ushbu oyatda bizning "sevgi" so'zimizning o'rnida yunoncha: "agape" so'zi turibdi. Bizning Yangi Ahdda "sevgi" deya tarjima qilingan bir qancha yunoncha so'zlar bor, lekin eng ko'p tarqalgan ikkita so'z – bu: "agape" va "fileo"dir.

FILEO – bu do'stlar o'rtasidagi sevgini anglatadi. Bunday sevgi muayyan shartlarda harakat qiluvchi do'stona yaqinlikda namoyon bo'ladi. FILEO: "Sen mening yelkamda, men esa senikida orom olaman" yoki "men bilan muloyim muomalada bo'l, shunda men ham sen bilan aynan shunday muomalada bo'laman", - deydi.

Boshqa tomondan, AGAPE – bu Xudo O'z farzandlarining yuraklariga quyadigan sevgidir. Bu Iso bizga in'om bilan beradigan sevgidir. U shartsizdir. U ishlarga va o'zaro yaqinlikka asoslanmaydi. Bu hattoki uni rad etganlarida ham quyilaveradigan sevgidir.

Biz Xudosiz faqatgina xudbin sevgi bilan sevishimiz mumkin, ya'ni u – uni qabul qilmaganlarida yoki o'zaro yaqinlikni topmaganida, harakat qilishni to'xtatadi. Biroq AGAPE hech narsaga qaramasdan sevadi. AGAPE – bu aynan Iso Masih barchani kechirib, xochda o'lib namoyon qilgan sevgidir. Shunday qilib, Iso Masih aytgan bu "ko'pchilik" – AGAPE sevgisi sovgan Masihlarning.

Hayotimda o'z sevgimni bir insonga ko'rsatish uchun mumkin bo'lgan hamma narsani qilgan vaqtlarim bo'lgan edi. Biroq har safar men unga o'z sevgimni namoyon qilganimda, u odam menga qarata tanqid bilan va qo'pol muomala bilan javob bergandek tuyular edi. Oylar davomida shunday davom etdi va bir kun sabrim tugadi. Men Xudoga shikoyat qilishni boshlab: "Menga bas! Endi bu haqda men bilan gaplashishingga to'g'ri keladi. Men har safar Sening sevgingni bu odamga ko'rsatganimda, u menga jahl bilan javob beradi," – dedim.

Rabbiy menga so'zlab: "Jon, sen Xudoning sevgisida imoningni o'stirishing kerak," – dedi. Men: "Nimani nazarda tutyapsan?" – deya so'radim. U: "O'zining tanasiga ekuvchi tanasidan chirishni o'rib oladi; Ruhga ekuvchi esa Ruhdan mangu hayotni o'rib oladi. Shu yo'sinda yaxshilik qilib, tushkunlikka tushmaylik; chunki agar zaiflashmasak, o'z vaqtida o'rib olamiz", – deya tushuntirdi (Galatiyaliklarga 6:8,9).

Sizlar tushunib yetishingiz kerak: Sizlar Xudoning sevgisini ekaningizda, Xudoning sevgisini o'rib olasizlar. Buni sizlar ekan o'sha daladan imkon qadar o'rib olmasangiz ham, yoki xohlaganingizdek tezda o'rib olmasangiz ham, ushbu ruhiy qonunda o'z imoningizni o'stirishingiz darkor.

Rabbiy davom etdi: "Ulkan muhtojlik vaqtida Meni eng yaqin do'stlarim tashlab ketdilar. Yahudo Meni sotdi, Petrus Mendan tondi, qolganlari esa, o'z jonini qutqarib qolish uchun qochib ketdilar. Faqatgina Yuhanno uzoqdan ortimdan ergashdi. Men uch yil davomida ularga g'amxo'rlik qildim, boqdim va ularga ta'lim berdim. Shunday bo'lsa ham, Men dunyoning gunohi uchun o'layotib, barchasini kechirdim. Men ularning barchasini: Meni tashlab ketgan Mening do'stlarimdan boshlab, hatto Meni xochga mixlagan rim askarlarigacha ozod qildim. Ular kechirim so'ramadilar, lekin Men ularga tekinga berdim. Menda Otaning sevgisidagi imon bor edi. Men sevgi ekib, Xudoning Shohligining ko'pchilik o'g'illaridan va qizlaridan sevgi o'rib olishimni bilgan edim. Sevgi tufayli qilingan Mening qurbonligim tufayli ular Meni sevadilar".

Men sizlarga aytganman: "Dushmanlaringni sevinglar, sizlarni

la'natlayotganlarni duo qilinglar, sizlardan nafratlanayotganlarga yaxshilik qilinglar, sizlarga ozor berayotganlar va sizlarni quvg'in qilayotganlar uchun ibodat qilinglar. Shunda sizlar Osmondagi Otangizning farzandlari bo'lasizlar. Zero U quyoshini yovuzlar va yaxshilar ustidan birdek chiqaradi va yomg'irini haq odamlar hamda nohaq odamlarga birdek yuboradi. Zero sizlarni sevuvchilarni sevsangizlar sizlarga qanday mukofot bor? Soliqchilar ham shunday qilmaydilarmi? Agar sizlar faqat birodarlaringiz bilan salomlashsangizlar afzalroq nima ish qilyapsizlar? Soliqchilar ham shunday qilmaydilarmi?" (Matto 5:44-47).

ULKAN KUTISH

Men namoyon qilgan sevgi, Ruhga ekilganini tushunib yetdim va oxir natijada men o'sha sevgi urug'ini o'rib olaman. O'rim albatta kelishini bilaman, biroq qayerdan kelishini bilmayman. Men endi o'zim sevgan odamdan o'zaro yaqinlikni olmasam, buni omadsizlik deb hisoblamayman. Menga uni yanada ko'proq sevish qobiliyatini berib, u meni ozod qildi.

Agar ko'pchilik Masihiylar buni anglab yetganlarida edilar, ular vasvasaga topshirilmagan va tushmagan bo'lar edilar. Odatda biz shunday sevgini ko'rsatamiz. Biz uning istaklari amalga oshmaganda, tezda hafsalasi pir bo'ladigan xudbin sevgida yuramiz.

Agar men odamlardan nimadir kutsam, o'sha odamlar menga pand berishlari mumkin. Ular meni shu qadar hafsalamni pir qilishlari mumkinki, men ularga nisbatan ishonchimni yo'qotishim mumkin. Biroq agarda men odamlardan hech narsa kutmasam, unda ulardan olganlarimning barchasini nimadir talab qilgandek emas, balki barakadek qabul qilaman.

Bizga yaqin bo'lganlardan ma'lum hatti-harakatni talab qilganimizda, o'zimizni vasvasa va xafalik uchun ochamiz. Boshqalardan qancha ko'p narsalarni kutsak, bizda xafalik va vasvasa uchun shuncha ko'p imkoniyatlar bo'ladi.

HIMOYA DEVORLARIMI?

Xafa bo'lgan birodar mustahkam shahardan qattiqroqdir
va bahslar qasrning to'sini kabidir.

– HIKMATLAR 18:19

Mustahkam shahardan ko'ra, xafa bo'lgan birodar yoki opa-singilni yengish qiyinroqdir. Qadimda shaharlar devorlar bilan o'ralgan bo'lgan. Ular chaqirilmagan mehmonlarni va bosqinchilarni shaharga kirishlariga yo'l qo'ymagan. Shahardagi barcha darvozalar diqqat bilan nazorat qilingan. Soliq to'lamagan kishilar, uni to'lamagunlaricha shaharga kiritilmaganlar. Shuningdek, shaharning farovonligi va xavfsizligi uchun xatarli deb hisoblangan kishilar ham unga kiritilmagan.

Biz xafa bo'lganimizda, yuragimizni xavfdan saqlash uchun va keyin keladigan jarohatning oldini olish uchun devorlar quramiz. Biz talabchan bo'lib qolamiz va kimdan yangi jarohatlar olishdan qo'rqsak, o'shalarni kiritmaymiz. Bizning fikrimizcha bizlarga nimadir berishi kerak bo'lgan kishilarni saralash maqsadida, biz barcha odamlarni sinchkovlik bilan filtrdan o'tkazamiz. Ushbu odamlar bizga qarzlarini to'liq to'lamagunlarigacha, ularning qarshisida darvozani yopib qo'yamiz. Kimni biz tomonda deb hisoblasak, o'sha kishiga o'z hayotimizni ochamiz.

Biroq ko'pincha bu “biz tomonimizda” bo'lgan odamlarning o'zlari ham xafa qilinganlar bo'ladilar. Shunday qilib, yordam berish o'rniga, bizlar paydo bo'lgan devorlarimizning ustiga qo'shimcha toshlarni qo'yamiz. Bu qachon sodir bo'lishini biz bilmasakda, bir kuni ushbu himoya devorlari qamoqxona aylanadi.

Haqoratlangan Masihiylar o'ziga-o'zi baho berish bilan shug'ullanib, diqqat-e'tiborlarini o'zlariga qaratadilar. Biz o'zimizning haq-huquqlarimizni va shaxsiy o'zaro munosabatlarimizni diqqat bilan kuzatamiz. Biz har qanday yangi jarohat olish yo'llaridan o'zimizni xavfsizlantirishimiz uchun butun

kuchimizni sarflaymiz. Agar biz yana jarohatlangan bo'lish xavf-xatariga qarshi qo'rqmasdan bormasak, biz Xudoning shartsiz sevgisini namoyon qila olmaymiz. Bu shart qo'ymaydigan, boshqalarga bizni yaralashga yo'l qo'yadigan sevgidir.

Sevgi o'zinikini izlamaydi, xafa bo'lgan odamlar esa tobora manfaatparast va odamovi bo'lib boradilar. Bunday iqlimda Xudoning sevgisi sovib boradi. Buning tabiiy misoli Muqaddas yerdagi ikkita dengizdir.

Jalila dengizi suvni bemalol qabul qiladi va beradi. U ko'plab, turli xil baliqlarga va dengiz o'simliklariga yashash muhiti yaratib, hayotga to'la. Jalila dengizining suvi lordan daryosi orqali oqib o'tib, O'lik dengiziga qo'yiladi. Biroq O'lik dengiz suvni bermasdan, faqat uni qabul qiladi. Unda hech qanday baliqlar yoki o'simliklar yo'q. Jalila dengizining tirik suvi – O'lik dengizning oqmaydigan suvi bilan birga o'lik suvga aylanadi. Agar hayot o'zida tutib turilsa – u yashay olmaydi: u boshqalarga tekin berilishi kerak.

Shunday qilib, xafa bo'lgan Masihiylar – bu hayotni qabul qiladigan, biroq qo'rquv sababli uni chiqara olmaydigan odamlardir. Buning natijasida esa, hattoki unga kirib keladigan hayot ham xafalik qamoqxonasi devorlarining chegaralarida turg'un bo'lib qoladi. Yangi Ahd bularni qotmalar devorlari deb ataydi.

Zero jangimizdagi qurollar tana izmiga oid emas, balki istehkomlarni barbod qilish uchun Xudo tomonidan qudratlidir. Bular bilan Xudoni tanib bilishga qarshi ko'tariladigan har qanday xayol va kekkayishni yiqitamiz; har qanday fikrni Masihga bo'ysunishi uchun asir qilamiz...

– 2-KORINFLIKLARGA 10:4-5

Bu qotmalar ular orqali o'tadigan barcha ma'lumotlarni o'rganadigan muayyan fikrlash shablonlarini yaratadi. Garchi ular boshida himoyani ta'minlash maqsadi bilan harakatlangan bo'lsalar, endi ular azob-uqubatlar va xatolar manbasiga aylanadilar, chunki bilimga va Xudoni tanib-bilishga qarshi kurashadilar.

Biz barchasini o'zimizning o'tmishdagixafaliklarimiz, xo'rliklarimiz va kechinmalarimiz orqali filtdan o'tkazzak Xudoga ishonishning iloji yo'q deb o'ylaymiz. Biz Xudo aynan aytgan *narsasini* nazarda tutayotganiga ishonmaymiz. Bizlar Xudoni bizning hayotimizda boshqa odamlar tomonidan qo'yilgan standartlar bo'yicha hukm qilganimizda – Uning ezguligiga va sodiqligiga shubha bilan qaraymiz. Biroq Xudo odam emas. U alday olmaydi (Sonlar 23:19). Uning yo'llari bizning yo'llarimiz emas, bizning fikrlarimiz – Uning fikrlari emas (Isha'yo 55:8-9).

Xafa bo'lgan odamlar o'zlarining vaziyatlarini tasdiqlash uchun Yozuvning oyatlarini topadilar, biroq bu Xudoning So'ziga noto'g'ri munosabatda bo'lishdir. Xudoning So'zini sevgisiz bilish – vayron qiluvchi kuch hisoblanadi, chunki u odamni qonunchi qilib, uni mag'rurlantiradi (1-Korinfliklarga 8:1-3). Bu bizlarni kechirimsizligimiz uchun tavba qilishning o'rniga, o'zimizni oqlashga undaydi. Bu shunday muhitni yaratib beradiki, biz bu muhitda yo'ldan ozishimiz mumkin, chunki Xudoning sevgisisiz bilim adashishga olib boradi.

Iso O'zining “ko'plar xafa bo'ladilar” deya tasdiqlagan fikridan so'ng, U zudlik bilan soxta payg'ambarlar haqida ogohlantiradi: “Ko'plab soxta payg'ambarlar ko'tariladi va ko'plarni yo'ldan urishadi” (Matto 24:11). Ular yo'ldan uradigan bu ko'plar kim? Javob: bu xafa bo'lganlar va sevgisi sovib, vasvasaga tushgan odamlardir (Matto 24:12).

SOXTA PAYG'AMBARLAR

Iso bu soxta payg'ambarlarni “qo'y ko'rinishida keladigan bo'rilar” deb atamoqda (Matto 7:15). Bu o'zinikini izlovchi tamagir odamlardir. Ular tashqaridan Masihiylarga, ya'ni, qo'y ko'rinishiga egadirlar, biroq bo'ri tabiatiga egadirlar.

Bo'rilar qo'ylarning atrofida aylanib yurishni yaxshi ko'radilar. Ular masihiylik yig'inining oddiy a'zolari orasida paydo bo'lgani

kabi, minbar ortida ham shunday paydo bo'lishlari mumkin. Bunday odamlar Masihiylar safiga bildirmasdan kirib borish va yo'ldan urish uchun dushman tomonidan yuborilgandir. Ularni ta'limoti va bashorati bo'yicha emas, hosili bo'yicha bilib olish mumkin. Ularning hayotlarining va xizmatlarining hosili unchalik yaxshi bo'lmagan vaqtda, ularning ta'limoti ko'pincha sog'lom bo'lib ko'rinishi mumkin. Xizmatchi yoki oddiy masihiy qanday voizlik qilayotganiga qarab emas, balki qanday yashayotganiga qarab bilinadi.

Bo'rilar har doim sog'lom va kuchli qo'ylarni emas, jarohatlangan va yosh qo'ylarni izlaydilar. Bu bo'rilar odamlar eshitishi kerak bo'lgan narsani emas, eshitishni xohlayotgan narsalarni gapiradilar. Bunday odamlar sog'lom ta'limotni eshitishni istamaydilar, ular kimdir ularning quloqlariga xushomad qilishlarini xohlaydilar. Keling, Pavlus oxirgi kunlar haqida nima deyayotganini ko'rib chiqamiz:

Shuni ham bilginki, oxirgi kunlarda og'ir zamonlar keladi. Chunki odamlar... murosasiz (inglizchada "kechirimsiz")... diyonatning tusiga ega bo'la turib, ammo uning kuch-qudratidan voz kechganlar. Bundaylardan uzoqlashgin! Chunki shunday zamon keladiki, odamlar sog'lom ta'limotga chiday olmaydilar, lekin ular o'z ehtirolariga binoan quloqlariga yoqimli so'zlarni gapiradigan muallimlarni o'zlariga to'playdilar. Ular quloqlarini haqiqatdan o'girib, afsonalarga buradilar.

– 2-TIMOTIYGA 3:1-5; 4:3-4

Ular diyonatning yoki "masihiylikning" tusiga ega bo'lishini, biroq uning kuchidan yuz o'girishlarini bilib qo'ying. Ular diyonatning kuchidan qay tarzda yuz o'girishlari mumkin? Ular masihiylik ularni kechirimsizlikdan kechirimlilikka o'zgartirishi mumkinligini rad etadilar. Ular o'zlarining yuqoridan tug'ilish kechinmalarini gapirishdan va Iso Masihning izdoshlari ekanliklaridan maqtanib

yuradilar. Biroq ular o'zlari maqtanib yurgan narsalar – ularning yuraklarini yorib kirishiga va ularda Masihning tabiatini keltirib chiqarishiga yo'l qo'ymaydilar.

AXBOROT AVLODI

Bu aldangan erkaklar va ayollar bilim uchun rashkka ega bo'lishlarini, ammo bu bilimni hech qachon o'zlari uchun qabul qilmasdan o'zgarishsiz qolishlarini Pavlus vahiyda ko'ra oldi. Mana u bularni qanday ta'rifladi: "...doimo o'qib yuradilar, lekin hech qachon haqiqatni bilishga erisha olmaydilar" (2-Timotiylga 3:7).

Agarda Pavlus bugun tirik bo'lganida edi, u aytganlarini haqiqatda ko'rib, qattiq xafa bo'lgan bo'lar edi. U anjumanlarga, seminarlarga, jamoat xizmatlariga borgan va Yozuvning bilimini kovlayotgan ko'pchilik erkaklarni va ayollarni ko'rgan bo'lar edi. U ularning "muvaqqat qozonuvchi" hayot bilan yanada ko'proq xudbinlarcha yashash uchun "yangi vahiy" topish payida yurganliklarini ko'rgan bo'lar edi. U masihiy xizmatchilar bularning barchasini "to'g'ri sabablar" deya oqlab, bir – birlarini qanday sudga berayotganliklarini ko'rgan bo'lar edi.

U masihiy nashrlarda va radioda Xudoning erkaklariga va ayollariga qanday hujum qilayotganliklarini ko'rgan bo'lar edi. U xarizmatlar xafalikdan qochish uchun bir jamoatdan boshqasiga qanday yugurayotganliklarini ko'rgan bo'lar edi. Ularning barchasi boshqalarni kechira olmayotgan bir vaqtda – Iso Masihning hukmronligini ochiqchasiga tan oladilar. Pavlus: "Ey, sizlar, ikkiyuzlamachi va xudbin avlod! Tavba qilinglar va aldovdan ozod bo'linglar!" – deya baland ovoz bilan baqirgan bo'lar edi.

Sizlar qatnayotgan Muqaddas Yozuv maktablarida va seminarlarda naqadar ko'p vahiy o'layotganingizning, qancha kitob o'qiganingizning, hattoki, necha soat ibodat qilishingizning va Muqaddas Yozuv o'qishingizning ahamiyati yo'q. Agar siz xafa bo'lgan bo'lsangiz va kechirimsizlikda bo'lsangiz hamda bu gunoh

uchun tavba qilishni rad etsangiz – siz haqiqatni tanib – bilishgacha yetib borgan emassiz. Siz vasvasada yuribsiz va o'zingizning ikkiyuzlamachilik hayot tarzingiz bilan boshqalarni ham sarosimaga solmoqdasiz. Sizda qanday vahiy bo'lishidan qat'iy nazar, sizning tanangiz umuman boshqa narsa haqida gapiradi. Siz – o'zidan haqiqatni emas, vasvasa va yolg'ondan iborat bo'lmish achchiq suvni oqizuvchi buloqqa aylanasis.

XIYONAT

Shunda ko'plar xafa bo'ladilar, bir-birlarini xoinona tutib beradilar va bir-birlaridan nafratlanadilar.

– MATTO 24:10, INGLIZCHADAN SO'ZMA-SO'Z TARJIMA

Keling, bu fikrni tekshirib chiqamiz. Agar biz unga yanada diqqat bilan nazar solsak, ketma-ketlikka ega jarayonni ko'ramiz. Xafalik xoinlikka olib keladi, xoinlik esa nafratga olib keladi.

Dastavval aytilganidek, xafa bo'lgan odamlar o'z atroflarini himoya devorlari bilan o'raydilar. O'z-o'zini himoya qilish maqsadimizga aylanadi. Biz o'zimizni nima qilib bo'lsa ham himoya qilishni va xavfsizlantirishni xohlaymiz. Bu bizni xoinlikka qodir qiladi. Biz xoinlik qilganimizda – o'zganing hisobiga va odatda, bizlar o'zaro yaqin munosabatda bo'lgan odamning hisobiga o'z xavfsizligimizni yoki manfaatimizni izlaymiz.

Shunday qilib, Xudoning Shohligida xoinlik – imonli o'zganing hisobiga o'z xavfsizligi va manfaatini izlaganida sodir bo'ladi. O'zaro munosabatlar naqadar yaqin bo'lsa, xiyonat shu qadar dahshatli bo'ladi. Xoinlik ahdning jiddiy buzilishidir. Xoinlik yuz berganida – haqiqiy tavba bo'lmagunicha o'zaro munosabatlar tiklana olmaydi.

Xoinlik jiddiy oqibatlar bilan nafratga olib boradi. Muqaddas Yozuv: "O'z birodaridan nafratlanadigan har kimsa qotildir. Hech bir qotil esa Xudoda mavjud bo'lgan abadiy hayotga ega bo'lmaydi", – deb aniq aytmoqda (1-Yuhanno 3:15).

Bugun biz imonlilar orasida xafalikning, xoinlikning va nafratning misollarini yana va yana uchratishimiz achinarlidir. Bu uylarimizda va jamoatlarimizda nihoyatda keng tarqalgan va endi tabiiy hol hisoblanadi. Biz shunchalik hissiz bo'lib qoldikki, hatto bir xizmatchi boshqasini sudga berayotganini ko'rganimizda – endi boshqa qayg'urmaymiz. Imonli er-xotinlar sudda bir-biriga da'vo qilib, ajrashish sud jarayonini ko'tarayotgani – endi bizni hayron qoldirmaydi. Jamoatlardagi bo'linishlar oldindan aytib bo'ladigan, oddiy holat bo'lib qoldi. Xizmat siyosatlari doimo yuqori darajada o'ynalmogda. Buni jamoatning yoki Osmon Shohligining manfaati uchun deya niqobga solmoqdalar.

Masihiylar ular bilan qo'pol muomala qilmasliklariga va ularning holatlaridan boshqalar o'ziga foyda olmasliklariga ishonchi komil bo'lmaganlaricha, "o'zlarining haq-huquqlarini himoya qiladilar". Nahotki biz Yangi Ahdning nasihatini unutgan bo'lsak?

Nohaqlikka chidab turishingiz siz uchun yaxshiroq emasmi? Biror narsangizdan mahrum bo'lib qolishingiz siz uchun yaxshiroq emasmi?

– 1-KORINFLIKLARGA 6:7

Nahotki bizlar Isoning so'zlarini unutgan bo'lsak?

Ammo Men sizlarga aytaman: "Dushmanlaringni sevinglar, sizlarni la'natlayotganlarni duo qilinglar, sizlardan nafratlanayotganlarga yaxshilik qilinglar, sizlarga ozor berayotganlar va sizlarni quvg'in qilayotganlar uchun ibodat qilinglar".

– MATTO 5:44

Nahotki biz Xudoning amrini unutgan bo'lsak?

Hech narsani raqobat va shuhratparastlik bilan qilmanglar, lekin ongingizda kamtar bo'lib, sizlar bir-biringizni o'zingizdan yaxshiroq deb hisoblanglar.

– FILIPPILIKLARGA 2:3

Nega bizlar bu sevgi qonuni bo'yicha yashamaymiz? Nega bizlar hattoki aldanish xavfi bo'lgan vaziyatda bir-birimiz uchun jonimizni berishning o'rniga, xoinlik qilishga tezmiz? Buning sababi: Bizning sevgimiz sovgan, bu esa biz o'z manfaatimizni izlashimizga va o'zimizni himoya qilishimizga olib keladi. Bizlar o'zimiz uchun o'zimiz g'amxo'rlik qilishga harakat qilganimizda – bizlar uchun g'amxo'rlik qilishni Xudoning qo'llariga ishonib topshira olmaymiz.

Isoga yovuzlik qilganlarida, U yovuzlikka yovuzlik bilan javob qaytarmadi, biroq O'z jonini Xudoga, Haq Sudyaga topshirdi. Yozuv bizlarga Uning yo'lidan borishimizni nasihat qiladi.

Sizlar ana shunga da'vat etilgansizlar. Chunki Masih ham biz uchun azob chekib, bizga namuna qoldirdi, toki biz Uning izidan yuraylik. U hech qanday gunoh qilmagan, Uning og'zidan makkorlik so'zlari ham topilmagan edi. U haqorat qilinganida, haqorat bilan javob qaytarmas edi. U azob chekib, do'q-po'pisa qilmas edi; lekin O'zini Haq Hukmdorga topshirar edi.

– 1-PETRUS 2:21-23

BIZGA QOBILIYAT BERUVCHI

Bizlar tanaga emas, Xudoga umid qiladigan joyga kelishimiz lozim. Ko'pchilik Xudoni o'z hayotining bulog'i deya atab, Uni sharaflaydilar, ammo yetimlar kabi yashaydilar. Ular: "Iso – mening Rabbiiy va Xudoyim", – deya o'z og'izlari bilan e'tirof etib, hayotlarini o'z qo'llarida ushlab turadilar.

Sizlar endi bunday gunoh – xafalik naqadar jiddiy ekanligini ko'ryapsizlar. Agar unga barham berilmasa, u oqibat natijada o'limga olib keladi. Siz xafa bo'lish vasvasasiga qarshi turganingizda, Xudo buyuk g'alabani beradi.

AGAR SHAYTON BIZNI ISTAGAN VAQTIDA YO‘Q QILISHI MUMKIN BO‘LGANIDA EDI, U ALLAQACHON BIZLARNI YO‘Q QILGAN BO‘LAR EDI.

Men bu kitobni o‘qishimdan oldin, men Xudo bilan munosabati yo‘q holatda edim. Men najot topgan edim, ammo Xudo va mening oramda unchalik to‘g‘ri bo‘lmagan nimadir bor edi. Men yo‘qotilish Rabbiy tomonidan emasligini bilar edim, shunchaki muammo nimada ekanligini bilmas edim. Men bir kuni do‘stimning uyida edim va unda Jon Biverning: “Shaytonning xo‘ragi” kitobi bor edi. Men uni uyimga olib keldim va uni o‘qiy boshladim. Men kitobni qo‘limdan qo‘ymas edim. U shu qadar moylangan ediki, mening ruhim uni shunchaki yutar edi. Kitobning yarmiga kelganimda, men va Rabbiyning orasida turgan narsa xafalik ruhi ekanini payqab qoldim.

– S. S., JORJIYA

BU MEN BILAN QANDAY SODIR BO‘LDI?

*Yusuf ularga dedi: ... mana, sizlar menga qarshi
zulm qilishni o‘yladinglar; ammo Xudo...
buni yaxshilikka o‘girdi.
– Ibtido 50:19-20*

Biz birinchi bobda barcha xafa bo‘lgan odamlarni ikkita asosiy guruhga bo‘ldik: 1) Ularga nisbatan nohaqlik qilingan odamlar. 2) Haqiqatda bunday bo‘lmagan bo‘lsa ham, ularga nisbatan nohaqlik qilindi deb o‘ylaydigan odamlar. Men bu bobda birinchi toifaga tegishli bo‘lgan odamlarga e’tibor qaratmoqchiman.

Keling, ushbu savoldan boshlaymiz: Agarda sizga nisbatan haqiqatan ham nohaqlik qilingan bo‘lsa, xafa bo‘lishingiz uchun

asosingiz bormi? Javob olish uchun keling, Yoqubning sevimli o'g'li Yusufning hayotiga qaraymiz (Ibtido 37-38 boblar).

TUSH MUDHISH VOQEAGA AYLANDI

Yusuf Yoqubning o'n birinchi o'g'li edi. Otasi uni boshqa birodarlaridan ko'ra ko'proq yaxshi ko'rgani va unga rangli kiyim sovg'a qilib, boshqalar orasida uni ajratgani uchun katta akalari uni yomon ko'rib qolgan edi. Xudo Yusufga ikkita tush berdi. U birinchi tushida dalada bog'langan bug'doy bog'lamini ko'rdi. Uning bog'lami ko'tarilib, tikka turdi va o'sha vaqtda birodarlarining bog'lamlari uning bog'lamiga sajda qildilar. Ikkinchi tushida u, unga sajda qilib turgan quyoshni, oyni va o'n ikkita yulduzlarni ko'rdi (bu-otasini, onasini va birodarlarini anglatar edi). U o'z tushini birodarlariga aytib berganida, ular, tabiiy, uning quvonchini bo'lishmadilar. Aksincha, uni yanada ko'proq yomon ko'rib qoldilar.

Bundan so'ng ko'p o'tmay, o'nta katta birodarlar yaylov izlashga otasining podasi bilan jo'nadilar.

Yoqub ulardan xabar olish uchun Yusufni yubordi. Katta akalari ularga yaqinlashib kelayotgan Yusufni ko'rib: "Mana, tush ko'ruvchi kelyapti. Kelinglar, uni o'ldiramiz! Keyin uning tushlari nima bo'lishini ko'ramiz. U bizning boshlig'imiz bo'lishini aytdi. U o'lganida, bizlarni boshqarishga urinib ko'rsinchi!" – dedilar. Shunday qilib, u o'sha joyda o'lishi uchun uni chuqur quduqqa tashladilar. Yusufni yirtqich hayvonlar tilka-pora qilganiga otasini ishontirish uchun birodarlari uning kiyimini yechib olib, yirtib tashladilar va hayvonning qoniga beladilar.

Lekin birodarlar Yusufni quduqqa tashlaganlaridan so'ng, Misrga ketayotgan ismoilliklarning karvonini ko'rib qoldilar. Shunda Yahudo: "Ey yigitlar, to'xtanglar, agar biz unga shu chuqurda o'lishiga yo'l qo'ysak, bundan bizga hech qanday foyda bo'lmaydi. Kelinglar, uni qullika sotamiz va uning ustida uncha-muncha pul ishlab olamiz. U baribir biz uchun o'likka aylanadi va hech qachon bizning jonimizga

tegmaydi, biz esa o'ljani o'zaro bo'lishib olamiz", – dedi.

Ular uni o'n ikki kumush tangaga sotdilar. Ular xafa bo'lgan edilar, shuning uchun uni merosdan va oiladan judo qilib sotdilar. Bularning barchasi uning qondosh akalari tomonidan qilinganligini esdan chiqarmang, ularning otasi bir, tanasi va qoni bir edi.

Biz umuman boshqa madaniyatda tarbiyalanganmiz, shuning uchun bu odamlar qanchalik dahshatli ishni sodir etganliklarini tushunishimiz qiyin. Bundan yomonrog'i faqatgina qotillik bo'lishi mumkin xolos! O'sha vaqtlarda o'g'ilga ega bo'lish nihoyatda muhim edi. O'g'illar otalarining nomlarini saqlab qolganlar va unda bor mulkning barchasini meros qilib olganlar. Yusufning birodarlari uni otasining nomini va merosini olish imkoniyatidan umrbod mahrum qilishdi. Ular uni o'z hayot muhitidan sug'urib olib, uning nomini o'chirib tashladilar.

Odamni boshqa mamlakatga qullikka sotganlarida, u o'lguniga qadar qul bo'lib qolar edi. U uylangan ayol ham huddi shunday qulga aylanar, ularning hamma bolalari ham qul bo'lar edilar!

Qul bo'lib tug'ilish qiyin edi, lekin ta'riflab bo'lmas qiyinchilik – bu ulkan boylikning va buyuk kelajakning merosxo'ri bo'lib tug'ilib, ularni yo'qotishga mahkum qilinish edi. Yusuf uchun nima sodir bo'lishini hech qachon bilmaslik osonroq edi. U go'yoki tirik murda edi. Ishonchim komilki, u akalarim qullikka sotganlaridan ko'ra, o'ldirsalar yaxshiroq bo'lar edi, degan vasvasaga tushgan. Yusufning akalari qilgan ishning mohiyati – yovuz va vahshiy edi.

O'TMISHGA NAZAR

Men Yusufning tarixini aytib berayotganimda, sizlar allaqachon uning nihoyasini bilsangiz kerak. Agar bu nima bilan tugashini bilsa, u juda ruhlantiruvchi tarixdir. Biroq Yusuf bu haqida bilmagan. Hammasi quyidagicha tuyular edi: u hech qachon otasini ham, unga Xudo bergan tushning ijrosini ham boshqa ko'rmaydi. U o'zga mamlakatda qul edi. U Misrni tashlab keta olmaydi. U umrbod o'zga odamning shaxsiy mulki edi.

Yusufni fir'avnga o'n yildan buyon xizmat qilib kelgan uning amaldori va qo'riqchilarning boshlig'i Po'tifar ismli odamga sotdilar. Yusuf o'z oilasidan hech qanday xabar eshitmadi va otasi uni o'lgan deb hisoblaganligini tushundi. Oilasining hayoti usiz davom etdi. Otasi Yusufni qachonlardir qutqara olishiga unda hech qanday umid yo'q edi.

Yusuf vaqtlar o'tishi bilan u bilan yaxshi munosabatda bo'lgan xo'jayinida iltifot topdi. Po'tifar Yusufni o'zining butun xonadoni va mol-mulklari ustidan qo'ydi. Lekin Yusufning yashash sharoitlari yana yaxshilanib borayotgan bir vaqtda, Po'tifarning xotinining yuragida nihoyatda yomon narsa tug'ildi. U unga ehtirosli nigohlarini qaratdi va u bilan zino qilishni xohladi. U har kuni uni yo'ldan urishga harakat qildi, biroq Yusuf uni rad etdi. Bir kuni Yusuf bilan yolg'iz qolganlarida, uni burchakka siqib, uni o'zi bilan yotishga majburladi. U rad etdi va shoshganidan, uning qo'lida kiyimini qoldirib qochib ketdi. Yusuf bunday qilganida, ayol o'zini kamsitilgan his qildi va Yusufni zo'rlashga uringanlikda ayblab, qichqirdi. Po'tifar Yusufni fir'avnning qamoqxonasiga tashladi.

Fir'avnning qamoqxonasi Amerikadagi qamoqxonalarga umuman o'xshamasligini aytib o'tish lozim. Men bir qancha qamoqxonalarda xizmat o'tkazganman va ular qanchalik yomon bo'lmasin, fir'avnning zindoni bilan tenglashtirganda, ular shahar tashqarisidagi hovli joyga o'xshar edi. U joyda quyosh nuri ham, xonalarning devorlari ham yo'q edi, faqatgina nurdan va issiqlikdan mahrum qilingan chang bosgan zindon edi. Sharoitlar shafqatsiz va g'ayriinsoniy edi. Mahbuslarni u yerga faqatgina "qayg'u" noniga va suviga ega bo'lib, asta-sekin o'lish uchun tashlar edilar (3-Shohliklar 22:27). Ularga faqatgina tirik qolishlari va azoblanishda davom etishlari uchun yetarlicha ovqat berar edilar. Sano kitobidagi 104:18ga muvofiq, Yusufning oyoqlari kishanlardan og'rir edi va u uning tanasi temir qafasda edi. U bu zindonga o'lish uchun tashlangan edi.

Agar u misrlik bo'lganida edi, unda hech bo'lmaganda ozod bo'lishga qandaydir imkon bo'lar edi, lekin zo'rlashda ayblangan o'zga yerlik qul sifatida juda oz umidga ega yoki umuman umidga

ega emas edi. Bundan og'ir vaziyat bo'lmaydi. Odam faqatgina o'lmasdan naqadar past qulashi mumkin bo'lsa – Yusuf shu qadar qulagan edi.

Siz uning bu zindonning zim-ziyo qorong'uligida fikrlarini tushuna olasizmi? “Men xo'jayinimga o'n yil sodiq va halol xizmat qildim. Men uning xotinidan ko'ra ishonchliroqman. Men Xudoga va o'z xo'jayinimga sodiq qoldim. Menga buning uchun mukofot qanday? Zindon!

Shunday taasurotdamanki, men qancha to'g'ri yo'l tutishga harakat qilsam, menga shuncha yomon bo'lmoqda. Qanday qilib, Xudo bunga yo'l qo'yishi mumkin? Nahotki birodarlarim mendan Xudoning va'dasini ham o'g'irlashga muvaffaq bo'lgan bo'lsa? Nima uchun bu Qudratli, Ahdning Xudosi meni qutqarish uchun mening vaziyatlarimga aralashmadi? Nahotki sodiq va sevuvchi Xudo O'z xizmatkorlariga shunday g'amxo'rlik qilishi kerak bo'lsa? Bu menga nima uchun? Men nima qildim? Men faqatgina Xudodan nimadir eshitganimga ishondim”. Ishonchim komilki, u shunday yoki shunga o'xshash fikrlar bilan kurashgan.

O'sha paytda uning ozodligi nihoyatda chegaralangan edi, lekin unda o'zi bilan sodir bo'lgan voqeaga qanday munosabat bildirishni tanlash huquqi bor edi. U xafa bo'lib, o'z birodarlaridan va oxir natijada Xudodan achchiqlanadimi? Yashashga undaydigan so'nggi sababdan o'zini mahrum qilib, unga berilgan va'daning bajarilishiga bo'lgan har qanday umidlaridan voz kechadimi?

Xudo vaziyatni nazorat qiladimi?

Men o'ylaymanki, bularning hammasi o'tib ketgunicha, biror marta Yusufning ongiga bular – uni davlatni boshqarishga tayyorlash uchun Xudoning ish jarayoni ekanligi kelmagan. U kelajakdagi hokimiyatini uni sotgan birodarlari ustidan qanday qo'llaydi? Yusuf o'z azoblari orqali itoat qilishni o'rgandi. Uning birodarlari Xudo mohirona ishlatgan qurol bo'ldilar. Yusuf Xudoni bergan va'dasi bo'yicha izlaganida bu va'dada qattiq turadimi?

Balki Yusuf o'sha tushlarni ko'rganida, u ularga uning hayotidagi

Xudoning iltifotining tasdig'i deb o'ylagandir. U o'sha paytda hokimiyat – odamni boshqalarning orasidan ajratib tashlash uchun emas, balki xizmat qilish uchun berilishini anglab yetmagan edi. Ko'pincha bunday tayyorgarlik jarayonlarida biz Xudoning ulug'vorligiga qaratilgan bo'lishning o'rniga, vaziyatlarimizning toqat qilib bo'lmasligiga qaraymiz. Buning natijasida biz azob chekamiz va bizning barcha kulfatlarimizda ayblash mumkin bo'lgan odamni izlaymiz. Xudo barchasining oldini olishi mumkinligi va bizga barcha bu dahshatni boshdan kechirishni bermasligi, lekin U bunday qilmaganligi haqidagi haqiqat bilan to'g'ridan-to'g'ri duch kelganimizda biz ko'pincha Uni ayblaymiz.

Yusufning ongida: “Men Xudo haqida menga ma'lum bo'lgan narsalarga muvofiq yashadim. Men Uning nizomlarini buzmadim, Unga qarshilik qilmadim. Men faqatgina Xudoning O'zi bergan tushni aytdim. Buning natijasida men nimaga egaman? Mening birodarlarim menga xoinlik qildilar va men qullikka sotildim! Otam meni o'lgan deb hisoblaydi va meni topish uchun Misrga hech qachon kelmaydi”, – degan fikrlar jaranglashda davom etgan. Uning uchun asosiy aybdorlar birodarlari bo'lgan. Ular uni ushbu zindonga tashlagan kuchlar edilar. Ehtimol u, agarda Xudo u tushida ko'rgan o'sha vaziyatni va hokimiyatni unga bersa, barchasi naqadar boshqacha bo'lishi haqidagi o'ylarni allalagandir. Agar birodarlari uning kelajagini kesib tashlamaganlarida barchasi nechog'lik boshqacha bo'lar edi.

Bizning birodarlarimiz va opa-singillarimiz boshqalarni ayblab, xuddi shu tuzoqqa tushishlarini naqadar tez eshitib turamiz. Masalan: “Agar xotinim bo'lmaganida edi, men allaqachon xizmatda bo'lar edim. U menga qarshilik qildi va mening naqadar ko'p orzularimni barbod qildi”.

“Agar ota-onam bo'lmaganida edi, hayotim yaxshi bo'lgan bo'lar edi. Ular mening shu topdagi holatimda aybdordirlar. Nima uchun boshqalarning ota-onalari yaxshi, meniki esa yo'q? Agar mening ota-onam ajrashmaganlarida edi, mening shaxsiy oilam yaxshi ahvolda bo'lar edi”.

“Agarda in’omimni menda bo’g’gan cho’ponim bo’lmaganida edi, men ozod bo’lgan bo’lar edim va menga hech narsa halaqit bermagan bo’lar edi. U menga xizmatdagi vazifamni bajarishga imkon bermadi. U jamoatdagi odamlarni menga qarshi qilib qo’ydi”.

“Agar avvalgi erim bo’lmaganida edi, menda va mening bolalarimda shuncha pul muammolari bo’lmas edi”.

“Agar jamoatda bu ayol bo’lmaganida edi, yetakchilar bilan munosabatim hozirgacha yaxshi bo’lar edi”.

Bu ro’yxatni cheksiz davom ettirish mumkin. O’zining hamma muammolarida barchani ayblash va agar bu odamlar bo’lmaganida, sizga qanchalar yaxshi bo’lishini tasavvur qilish oson. Sizning hafsalangiz pir bo’lishida va kulfatlaringizda ularni aybdor deb hisoblaysiz.

Men keyingi vaziyatga diqqat qilishni xohlayman: Hech qanday erkak, ayol, bola yoki shayton sizni Xudoning irodasidan chiqara olmaydi! Sizning taqdiringiz faqatgina Xudoning qo’llaridadir. Yusufning birodarlari Xudo unga bergan vahiyni yo’q qilishga tirishib, harakat qildilar. Ular Yusufning tushlariga barham berildi deya o’yladilar. Ularning og’izlari: “Kelinglar endi, uni o’ldiramiz va biror bir chuqurga tashlaymiz... va ko’ramiz, uning tushidan nima chiqar ekan”, – dedi (Ibtido 37:20). Ular uni o’ldirishga chog’landilar. Bu baxtsiz voqea emas edi. Bu tushunib qilingan ish edi.

Ular Yusufga omad uchun biror bir imkoniyat qoldirishni xohlamadilar.

Lekin sizlar nima deb o’ylaysizlar, nahotki ular uni qullikka sotganlarida, Xudo osmonda O’z O’g’liga va Muqaddas Ruhga qarab: “Endi nima qilamiz? Uning birodarlarini nima qilganliklariga qarang. Ular Yusuf uchun bo’lgan Bizning rejamizni barbod qildilar. Biz tezroq nimadir o’ylab topishimiz kerak. Bizda qo’shimcha variantlar bormi?” – degan bo’lsa?

Ko’plab Masihiylar inqiroz vaqtlarida samoda aynan shunday holat sodir bo’lyapti deb o’ylaydilar. Otaning Iso Masihga bunday deyayotganini tasavvur qila olasizmi: “Iso, Jimni ishdan haydadilar,

chunki uning imonli hamkasblari u haqda yolg'on gapirdilar. Bizlar nima qilamiz? Senda yerda qandaydir band bo'lmagan ish joyi bormi?", yoki "Iso, Salli allaqachon 34 yoshda, biroq u hozirgacha turmushga chiqmadi. Senda yerda uning uchun biror-bir uylanmagan erkak bormi? Chunki Men uning uchun tayyorlagan erkak Sallini qoralagan va yuragini Sallidan sovutgan eng yaqin dugonasiga uylandi". Bu bema'ni tuyuladi, biroq bizning reaksiyamiz guvohlik beradiki, biz Xudoni shunday tasavvur qilamiz.

Keling, Yusuf bugungi kunlardagi jamoatlarimizda qanday munosabatda bo'lishi mumkinligini ko'rib chiqamiz. Agarda u bizlarning ko'pchiligimiz kabi bo'lganida edi, nima qilishini bilgan bo'lar edingiz. U qasos rejalarini tuzgan bo'lar edi. U o'zini quyidagicha fikrlar bilan yupatgan bo'lar edi: "Men ulargacha yetib borganimda ularni o'ldiraman! Men bilan shunday qilganliklari uchun ularni yo'q qilaman. Ular bu uchun to'lov to'laydilar".

Biroq, agarda Yusufning akalariga nisbatan munosabati shunday bo'lganida edi, Xudo uni o'sha zindonda chirib ketish uchun qoldirgan bo'lar edi. Chunki agar u qamoqxonadan shunday xohishlar va niyatlar bilan chiqqanida edi, u Isroilning bo'lajak o'nta qabilasidagi boshliqlarning hammasini o'ldirgan bo'lar edi. Ular orasida u orqali Masih tug'ilishi kerak bo'lgan Yahudo ham bor edi.

Ha, Yusuf bilan betavfiqlarcha munosabatda bo'lgan odamlar Isroilning qabila boshliqlari edilar. Xudo esa Ibrohimga undan butun bir xalqni keltirib chiqarishni va'da bergan edi. Ular orqali oxir natijada Rabbiyning O'zi – Iso Masih kelib chiqishi kerak edi! Yusuf xafalik yurakka kirib borishiga ruxsat bermadi hamda Xudoning rejasi u va uning birodarlari uchun ularning hayotlarida mustahkamlandi.

BUNDAN HAM YOMONI BO'LISHI MUMKIN EDIMI?

Zindon Yusuf uchun elash davri bo'ldi, shuningdek, yangi imkoniyatlar davri bo'ldi. Zindonga Yusuf bilan birga tashlangan ikkita mahbus bor edi: ularning ikkalasi ham tashvishlantiruvchi

tush ko'rdilar. Yusuf bu ikkala tushni ham hayron qolarli aniqlik bilan ta'bir qilib berdi. Bir mahbus qatl qilinayotgan bir vaqtda, boshqasi o'z mansabiga tiklanishi kerak edi. Yusuf hademay ozod etilishi lozim bo'lganidan, u qayta fir'avnning iltifotini qozonganida uni esga olishini so'radi. O'sha odam yana fir'avnga xizmat qilishni boshladi, ammo u ikki yil o'tsa hamki, Yusuf haqida bir og'iz ham so'z aytmedi. Bu Yusufning hafsalasi pir bo'lishi uchun yana bir sabab, xafa bo'lishiga yana bir imkoniyat edi.

Xudoda har doim reja bor!

Fir'avn nihoyatda qo'rqinchli tush ko'rganida Yusufning vaqti keldi. Uning sehrgarlari va dono kishilaridan hech biri bu tushning ma'nosini tushuntirib bera olmadi. Aynan o'sha vaqtda qayta tiklangan xizmatkor Yusuf haqida esladi. U Yusuf uning tushini va boshqa mahbusning tushini ta'birini qanday aytib berganini aytdi. Yusufni fir'avnning oldiga olib keldilar va Misr podshohiga bu tush yaqinlashib kelayotgan ochlikni bildirishini ta'bir qildi hamda bu tanglikka qanday tayyorgarlik ko'rish haqida unga dono maslahatlar berdi. Fir'avn tezda Yusufning obro'sini ko'tarib, uni Misrda o'zidan so'ng ikkinchi boshqaruvchi qilib qo'ydi. Yusuf Xudo tomonidan unga berilgan donolik yordamida mamlakatni yaqinlashib kelayotgan mashaqqatli vaqtlarga tayyorladi. Keyinroq ochlik barcha ma'lum xalqlarni qamrab olganida, Yusufning birodarlari yordam olish uchun Misrga borishlariga to'g'ri keldi. Agar Yusuf yuragida birodarlariga qarshi biror narsaga ega bo'lganida edi, bu - uni amalga oshirish uchun qulay fursat bo'lar edi. U ularni qamoqqa umrbod qamab qo'yishi, azoblashi va hattoki o'ldirishi mumkin edi va hech kim uni ayblay olmas edi, chunki u Misrda fir'avndan keyin turuvchi ikkinchi shaxs edi. Uning birodarlari esa fir'avn uchun hech qanday ahamiyatga ega emas edilar.

Biroq Yusuf birodarlariga nonni tekin berdi. Shundan so'ng Misrda uning oilasi uchun eng yaxshi yer ajratib berildi va ular ushbu yerning yog'idan yedilar. Xullas, ularga butun Misrdagi eng yaxshi yer maydoni berilgan edi. Yusuf uni la'natlaganlarni duo qildi,

undan nafratlanuvchilarga ezgulik qildi (Matto 5:44ga qarang).

Xudo Yusufning birodarlari nima qilishlarining barchasini oldindan bilgan. Rabbiy hali Yusufga o'sha tushlarni berguniga qadar yoki hali umuman ularning birortasi tug'ilguniga qadar, ular shunday yo'l tutishlarini bilar edi.

Yanada yaqinroq kelish uchun birodarlari yana qaytib kelganlarida Yusuf ularga nima deganiga e'tibor bering: "Endi esa, sizlar meni bu yerga sotganligingiz haqida qayg'urmang va achinmang, chunki Xudo meni sizlarning jonlaringiz saqlab qolinishi uchun sizlardan oldin yubordi. Zero endi yer yuzida ikki yil ochlik bo'ladi. Yana besh yil yer haydash va o'rish bo'lmaydi. Xudo meni sizlarni yerda tirik qoldirish va sizlarning jonlaringizni buyuk najot bilan saqlab qolish uchun sizlardan oldin yubordi. Shunday qilib meni bu yerga sizlar emas, Xudo yubordi..." (Ibtido 45:7-8).

Sano 104:16-17 oyatlarga nazar tashlang: "Yerga ochlik chaqirdi; har qanday nonning shoxini qirdi. Ularning oldidan odamni yubordi. Yusuf qullikka sotildi".

Yusufni kim yubordi? Uning birodarlarimi yoki Xudo? Ikki guvohning og'zidan biz ko'ramizki, uni Xudo yuborgan. Yusuf o'z birodarlariga: "Meni bu yerga sizlar yubormadingiz", – deya aniq aytgan. Ruhning gapirganiga quloq tuting!

Avval aytganimdek, hech bir o'ladigan odam yoki shayton Xudoning rejasini sizning hayotingizdan siqib chiqara olmaydi. Agar siz bu haqiqatni qabul qilsangiz, u sizni ozod qiladi. Biroq sizni Xudoning irodasidan chiqara oladigan birgina odam bor – bu sizning o'zingiz!

Isroil xalqi haqida fikr yuriting. Xudo ularni Misr qulligidan olib chiqish va Va'da qilingan yerga olib borish uchun ularga haloskorni, Musoni yubordi. Sahrodan bir yil kechganlaridan so'ng, va'da qilingan yerni ko'rib kelishlari uchun Isroil yetakchilaridan ayg'oqchilar yubordi. Ular shikoyat qilib qaytib keldilar. Ular harbiy sohada isroilliklardan ko'ra kuchliroq va bo'ylari balandroq bo'lgan o'sha yerning xalqlaridan qo'rqqan edilar.

Iyeshua bin Nun va Xalebdan tashqari butun Isroil xalqi shu

yetakchilarga qo'shildi. Odamlarga ular o'sha joyda o'lib ketishlari uchun Xudo ularni bu yerga olib kelgandek ko'rindi. Ular Musodan va Xudodan xafa bo'ldilar. Bir yildan ortiqroq vaqt mobaynida vaziyat shu alfozda bo'ldi. Ularning xafa bo'lishlari – ushbu avlodning va'da qilingan yerni hech qachon ko'rmasliklariga olib keldi.

Ko'pgina odamlar Rabbiyga olovda xizmat qilganlar, biroq ular bilan yo betavfiq odamlar, yo tana izmi bilan yashaydigan Masihiylar yomon munosabatda bo'lganliklari sababli qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolganlar. Haqiqat shundan iboratki, haqiqatdan ham ular bilan nohaq muomalada bo'lishgan. Biroq xafa bo'lish – bu ularni Xudoning irodasidan chiqarishni o'z ichiga olgan dushmanning maqsadini bajarishni bildiradi.

Xafalikni qabul qilishni rad etib, siz Xudoning irodasida qolgan bo'lasiz. Agarda siz xafa bo'lsangiz, siz dushmanning shaxsiy niyatini va irodasini bajarishni boshlashingiz uchun u sizni ozroq ishlatadi. Nimani tanlashni qaror qiling. Xafalikdan nariroqda turish ko'p foydaga ega.

Rabbiy bu haqida oldindan bilmasidan turib hech narsa bizga qarshi qilinmasligini tushunishimiz lozim. Agar shayton o'zi xohlaganida bizni halok qila olganida edi, u allaqachon bizni yo'q qilar edi, chunki u odamlarni jon-jahdi bilan yomon ko'radi. Har doim o'zingizda ushbu nasihatga ega bo'ling:

Boshingizga oddiy insoniy vasvasadan boshqa vasvasa kelmagan. Xudo esa sodiqdir, U kuchingiz yetmagan vasvasaga tushishga yo'l qo'ymaydi, lekin vasvasa paytida bardosh berishingiz uchun xalos yo'lini (Inglizchada: “aniq qutulish imkoniyatini”) ham beradi”.

– 1-KORINFLIKLARGA 10:13

Shuni bilib qo'yingki, bu yerda shunchaki “xalos bo'lish imkoniyati” emas, “aniq xalos bo'lish imkoniyati” deyilmoqda. Rabbiy biz kelajakda duch keladigan har bir hujumkor vaziyatni u qanchalik ulkan bo'lmasin ko'radi va undan xalos bo'lishning aniq

imkoniyatini U oldindan nazarga olgan. Yanada hayratlanarlisi shundaki, agarda biz Xudoga bo'ysunsak va xafalikdan ozod bo'lsak, ko'pincha, Xudoning rejasi tugagandek ko'ringani haqiqatda, uning bajarilishi yo'lga aylanadi.

Shunday qilib, bilib oling, xafalikni qabul qilishni rad etib, Xudoga bo'ysuning: "Iblisga qarshi turinglar va u sizlardan qochib ketadi" (Yoqub 4:7). Biz o'z yuragimizga xafalikni kiritmasdan, shaytonga qarshi turamiz. Ehtimol, tush yoki vahiy siz uni kutganingizdan boshqacha amalga oshar, biroq Uning So'zi va va'dalari hech qachon yo'qqa chiqmaydi. Bizlar faqatgina itoatsizligimiz bilan ularni hayotimizdan judo qilish xavfiga egamiz.

XOINLIKNING BOSHQACHA KO'RINISHI

Ko'pchilik Yusuf kabi o'z birodarlari tomonidan bunday azoblarni va bunday dahshatli munosabatni boshdan kechirgan emas. Agarda u bilan uning dushmani shunday yo'l tutganida, bu unchalik og'riqli bo'lmas edi. Biroq bu uning tug'ishgan birodarlari, uning tanasi va qoni edi. Ular uni himoya qilishlari, qo'llab-quvvatlashlari, dalda berishlari va u haqida g'amxo'rlik qilishlari lozim bo'lgan odamlar edilar. Yusuf chidashiga to'g'ri kelgan xoinlikdan ko'ra mudhishroq ssenariy bormi?

BIRODARLAR YOKI OPA-SINGILLAR TOMONIDAN YOVUZLIKNI VA RAD QILINISHNI BOSHDA KECHIRISH BOSHQA GAP, BIROQ OTA TOMONIDAN YOVUZLIKNI VA RAD QILINISHNI QABUL QILISH BOSHQA GAP.

Men maxsus kollej va oliygoh o'qituvchisiman. Men yaqin kunlarda: "Shaytonning xo'ragini" o'qib chiqdim. U mening hayotimga bir qancha vahiyilar olib keldi. Men buning videosini talabalar bilan o'rtoqlashdim va Muqaddas Ruh sinfimizda shu qadar kuchli ediki, har bir kishi xafaliklarini e'tirof qildi va kechirim so'radi. Bir necha bolalar bu ularning hayotlaridagi eng ajoyib kun ekanini aytdilar. Bir talaba ancha muddatdan buyon suhbatlashmaydigan otasi bilan yarashdi. Boshqa birida esa buvasi yaralagan chuqur yaralar shifolana boshladi. Rabbiiy bu bolalarga qudratli tarzda yorqin xizmat qildi. Bu noma uchun sizga rahmat.

– R. F., INDIANA

MENING OTAM, MENING OTAM!

***Mening otam! ...Mening qo'limda yovuzlik, makr
ham yo'qligini bilgin va ishongin. Men senga
qarshi gunoh qilmadim; sen esa jonimni olish
uchun uni izlamoqdasan.***

– 1-Shohliklar 24:11

Biz o'tgan bobda Yusufning birodarlari uni o'ldirishga harakat qilganliklarini ko'rib chiqdik. U xoinlik sababli qanday og'riqni boshdan kechirganligini ko'rdik. Ehtimol, siz bunga o'xshash vaziyatdadsiz. Sizga eng ko'p yaqin bo'lganlar, sevgi va dalda kutgan odamlaringiz tomonidan xoinlikka duch kelgandirsiz. Men ushbu bobda birodarlarning xoinligidan ko'ra, yanada og'riqliroq vaziyatni ko'rib chiqishni xohlayman. Birodarlar tomonidan

yovuzlikni va rad etilishni boshdan kechirish boshqa gap, biroq ota tomonidan yovuzlikni va rad etilishni boshdan kechirish umuman boshqa gap. Men otalar haqida gapirganimda, faqatgina jismoniy otalarni nazarda tutganim yo'q, lekin Xudo bizning ustimizdan qo'ygan har qanday yetakchilarni nazarda tutyapman. Bu bizni sevishi, barpo qilishi, oziqlantirishi va bizga g'amxo'rlik qilishi lozim bo'lgan odamlardir.

SEVGI-NAFRAT MUNOSABATLARI

Otasi xoin bo'lgan misolni ko'zdan kechirish uchun podshoh Shoul va Dovudning orasidagi o'zaro munosabatni ko'rib chiqamiz (1-Shohliklar 16-31ga qarang). Ularning hayotlari, Xudoning payg'ambari Shomuil Dovudni Isroil ustidan podshohlikka moylaganidan so'ng uchrashganlaridan oldinroq birlashgan edi. Dovud: "Bu o'sha Shoulni moylagan odam. Demak, men haqiqatan podshoh bo'lamen", – deb o'ylab, zavq-shavqli o'ylarga cho'kkandir. Shoul Xudoga quloq solmaganligi sababli yovuz ruh tomonidan azoblanar edi. Tinchlik – faqatgina kimdir torli cholg'u asbobini chalganidagina kelar edi. Shoulning xizmatkorlari uning uchun chala oladigan va unga xizmat qiladigan yosh yigitni izlay boshladilar. Shohlikning xizmatkorlaridan biri Iyeshayning o'g'li Dovudni tavsiya qildi. Podshoh Shoul Dovudga odam yubordi va uni xizmat qilish uchun saroyga taklif qildi.

Balki Dovud: "Xudo Shomuil payg'ambar orqali bergan va'dasini bajarishni boshladi. Men podshohlik darajasiga yetishimga shubha yo'q. Bu podshohlik yo'lga mening birinchi qadamim bo'ladi", – deb o'ylagan bo'lsa kerak.

Bir kuni otasi Dovuddan filistinliklar bilan jang maydonida bo'lgan katta akalariga oziq-ovqat olib borib berishini so'radi. Dovud u joyga yetib borib, qirq kun davomida Xudoning qo'shinini haqorat qilayotgan filistinliklarning yakkama-yakka kurashuvchisi Goliyotni ko'rdi. Bu devqomatni yengganga podshoh qizini berishini Dovud bildi.

Dovud podshohning oldiga keldi va undan Goliyot bilan jangga chiqishiga ruxsat berishini so'radi. U Goliyotni o'ldirdi va Shoulning qiziga ega bo'ldi. U allaqachon o'sha vaqtgacha Shoulning iltifotiga ega bo'lgan va podshoh bilan yonma-yon yashashi uchun saroyga taklif qilingan edi. Shoulning to'ng'ich o'g'li Dovud bilan abadiy do'stlik ahdini tuzdi. Shoul Dovudga topshirgan topshiriqlarining barchasida u omadli edi, zero Xudoning qo'li uning ustida edi. Podshoh unga shoh o'g'illari bilan birga bir dasturxondan ovqatlanishni taklif qildi.

Dovud shod edi. U saroyda yashar, podshoh dasturxonidan ovqatlanar, podshohning qiziga uylangan, Ionafan bilan do'stlashgan va o'zining har bir ishida muvaffaqiyatli edi. U Isroil xalqining sevgisini va iltifotini qozondi. U Shomuilning bashorati qanday amalga oshayotganini ko'ra olishi mumkin edi.

Shoul Dovudni o'zining boshqa barcha xizmatkorlaridan afzal ko'rar edi. U unga otasi kabi bo'lib qolgan edi. Shoul uni tarbiyalashiga, o'rgatishiga va bir kun buyuk izzat-ikrom bilan uni taxtga o'tqazishiga ishonchi komil edi. Dovud Xudoning sodiqligidan va ezguligidan xursand edi. Biroq hammasi birdan o'zgardi.

Shoul va Dovud birgalikda jangdan qaytayotganlarida, Isroilning barcha shaharlaridan ayollar chiqdilar va raqsga tushib, shunday kuyladilar:

“Shoul mingtani o'ldirdi, Dovud esa o'n mingtani o'ldirdi”. Bu Shoulni g'azablantirdi va o'sha kundan boshlab, u Dovudni yomon ko'rib qolishni boshladi. Dovud uning uchun kinnor chalayotganida, Shoul ikki marotaba uni o'ldirishga urindi.

Muqaddas Yozuv aytadiki, Shoul Dovuddan nafratlangan. Chunki Xudo u bilan emas, Dovud bilan ekanligini u bilar edi. Dovud qochib ketib qutilib qolishga majbur edi va sahroga qochib ketdi.

Dovud: “Nima bo'lyapti, – deya o'yladi, – ilgari mening tarbiyalovchim bo'lgan odam meni o'ldirishga urinmoqda. Men nima qilay? Shoul – Xudoning moylangan xizmatkori. Agar u menga qarshi chiqsa, menda muvaffaqiyat uchun qanday imkon qoladi? U

Xudoning xalqini boshqaruvchi, Xudoning odami, podshohdir. Nima uchun Xudo bularga yo'l qo'ydi?"

Shoul uch mingta tanlangan isroil qo'shiniga boshchilik qilib, Dovudni bir sahrodan boshqasigacha ta'qib qildi, bir g'ordan boshqasigacha quvdi. Ularning maqsadi faqatgina bitta edi: Dovudni o'ldirish.

O'sha lahzada va'dadan faqatgina soya qoldi. Dovud endi boshqa saroyda yashamas va podshoh dasturxonidan ovqatlanmas edi. U zax g'orlarda yashar va sahroda yashaydigan hayvonlarning oxirigacha yemagan go'shtlarning qoldiqlari bilan oziqlanar edi. U boshqa podshoh bilan birga o'tirmas, aksincha, qachonlardir yelkama-yelka turib jang qilgan odamlar tomondan ta'qib qilinar edi. Unda issiq to'shak va xizmatkorlar yo'q edi, u saroy a'yonlaridan boshqa maqtovlar eshitmas edi. Uning xotinini boshqasiga berdilar. U vatansiz, yolg'iz darbadar bo'lish nima ekanligini tushungan edi.

E'tibor bering, shayton emas, Xudo Dovudni Shoulning panohi ostiga qo'ygan edi. Nima uchun Xudo nafaqat bunga yo'l qo'yib berdi, balki buni rejalashtirdi ham? Nima uchun Dovudning nigohi qarshisida iltifotni namoyon qilishdi, uni birdan qaytarib olish uchunmi? Dovud uchun vasvasa davri boshlandi, u faqatgina Shouldan emas, biroq Xudodan ham nolishi va xafa bo'lishi mumkin edi. Azobli savollar Xudoning donoligiga va Xudoning rejalariga shubha bilan qarash vasvasasini kuchaytirdi.

Shoul har qanday baho evaziga bu yigitni o'ldirishni xohlar edi va uning aqlidan ozishi ko'chayib bordi. Dovud umidsizlikka tushib qoldi.

Nod shahrining ruhoniylari uni podshohning topshirig'i bilan yuribdi deb o'ylab, Dovudni yashash joyi bilan, oziq-ovqat bilan ta'minladilar, shuningdek, unga Goliyotning qilichini berdilar. Dovud Shouldan qochib yurganligini ular bilmas edilar. Rabbiyga Dovud uchun iltijo qilganlaridan so'ng, uni jo'natib yubordilar.

Shoul bu haqda bilib qolib, g'azablendi. U Rabbiyning sakson besh nafar aybsiz ruhoniylarini o'ldirdi va butun Nod shahrini:

erkaklarni, ayollarni, bolalarni, go'daklarni, sigirlarni, eshaklarni va qo'ylarni qilichdan o'tkazdi. U amaliklarning ustidan chiqarilishi kerak bo'lgan hukmni aybsiz odamlarning va hayvonlarning ustidan chiqardi. U qotilga aylandi. Qanday qilib Xudo bunday odamga qachonlardir O'z Ruhini quygan edi?

Bir kuni Shoul Dovud En-gadi sahrosida ekanligini bilib qoldi va o'zi bilan uch ming kishilik qo'shinni olib, uning ortidan jo'nadi. U quvish paytida hojat chiqarish uchun bir g'orning og'zida to'xtadi va uning shundoqqina orqasida Dovud yashirinib turganligini bilmadi. Shoul o'zining yoniga podshohlik kiyimini qo'ydi. Dovud bildirmasdan yashiringan joyidan chiqib, kiyimning bir chetini kesib oldi va bildirmasdan yashirinib oldi. Shoul g'ordan chiqqan zahoti, Dovud yerga qadar sajda qildi va unga: "Mening otam, qaragin! Kiyimingning bir parchasi mening qo'limda! ...Mening qo'limda yovuzlik ham, makr ham yo'qligini bilgin va ishongin. Men senga qarshi gunoh qilgan emasman. Sen esa mening jonimni olish uchun uni izlab yuribsan", - dedi (1-Shohliklar 24:11).

Dovud Shoulga: "Mening otam! Mening otam!" – deya faryod qildi. Sizlarga aniqroq bo'lishi uchun: U: "Mening yuragim qandayligiga qaragin! Mening otam bo'lgan. Men yo'lboshchiga muhtojman!" – dedi. Dovudning yuragida umid yashar edi.

OTALAR QAYERDA?

Men Masihning tanasidagi behisob erkaklarning va ayollarning yuraklarida shunday qichqiriqni eshitganman. Ularning ko'pchiligi Xudoning da'vatiga ega bo'lgan yosh odamlardir. Ular ota uchun: ularni o'qitadigan, sevadigan, qo'llab-quvvatlaydigan va dalda beradigan odam uchun nola qiladilar. Mana, nima uchun Xudo: "U otalarning (yetakchilarning) yuraklarini farzandlariga (Xudoning xalqiga) va farzandlarning yuraklarini otalariga buradi, toki Men kelib, yer yuzini la'nat bilan shikastlamayin", – degan (Mal'axi 4:6).

Bizning mamlakat 1940-1950-yillarda o'z otalaridan (ota-

onalaridan, yetakchilaridan va xizmatchilaridan) ayrilgan va bugungi kunlarda bizning vaziyatimiz tobora yomonlashmoqda. Bizning uylarimizdagi, uyushmalarimizdagi va jamoatlarimizdagi ko'pgina yetakchilar Shoulga o'xshab kelajak avloddan ko'ra, o'zlarining ehtiyojlari tashvishida yuribdilar.

Shunday munosabat tufayli, yetakchilar, o'z xizmat maqsadlariga – xalqqa xizmat qilish mashinasi deb qarash o'rniga, Xudoning xalqiga xizmat maqsadini amalga oshirish manbai deb qaramoqdalar.

Jarohatlangan hayotlar va sinib qolgan odamlarning bahosi bilan erishilgan natija – asosiy maqsadning muvaffaqiyat qozongani bilan oqlanmoqda. Muvaffaqiyat uchun adolat, shafqat, benuqsonlik va sevgidan kechiladi. Ularning qarorlari pulga, shuningdek, yutuqlarining soniga asoslanadi.

Bu Dovud boshidan kechirganidek voqealarni boshdan kechirishga eshik ochadi, boz ustiga, Shoul o'z podshohligini saqlab qolishi kerak edi. Odamlar bilan munosatning bunday ko'rinishi ko'pchilik yetakchilar uchun ma'quldir, chunki ular buni Xushxabar tarqatish maqsadi bilan oqlaydilar.

Naqadar ko'p yetakchilar o'z odamlarini shubha sababli yo'qotadilar? Nima uchun bu yetakchilar bu qadar shubhalanuvchi? Chunki ular Xudoga xizmat qilmaydilar. Ular o'zlarining maqsadlariga xizmat qiladilar. Ular Shoul kabi o'z da'vatlariga ishonmaydilar va bu hasad va mag'rurlik olib keladi. Ular imonli ekanliklarini biladigan boshqa odamlardagi qobiliyatlarni ko'ra oladilar va bunday odamlarni toki ulardan o'zlariga foyda kelgunicha ishlatishga harakat qiladilar. Shoul Dovudning o'zi uchun xavf-xatar ekanligini ko'rmagunicha uning muvaffaqiyatlaridan rohatlandi. Shundan so'ng u Dovudni mansabda pasaytirdi va uni o'ldirish uchun imkon izladi.

Men kimga ishonishni izlayotgan juda ko'p yosh erkaklar va ayollar bilan suhbatlashganman. Ular o'rganishni, yetakchisiga quloq solishni xohlaganlar va ularga ota bo'lishi uchun kimnidir izlaganlar. Biroq Xudo ular rad etilish va yolg'izlik orqali o'tishlariga yo'l qo'ygan. Bu – Xudo Dovudda hosil qilgan narsani ularda ham

hosil qilishni xohlagani uchun sodir bo'ldi. Ruh nima deyishiga diqqat bilan quloq soling.

Dovud Shoul uni yovuz va isyonkor odam deb hisoblaganligidan tashvishda edi. U o'z yuragini tekshirishi kerak edi: "Men nimada nohaqman? Nima uchun Shoulning yuragi menga qarshi shunchalik tez qarshi bo'lib qoldi?" Dovud agar u Shoulga o'z sevgisini isbot qilishga moyassar bo'lsa, uning inoyatiga qaytishini, shundagina Shomuilning bashorati amalga oshishini o'ylagan. Mana, nima uchun u hayqirgan: "Menga seni o'ldirishimni aytdilar, biroq men senga shafqat qildim. Men faqatgina kiyimingning bir chetini kesib oldim, toki sen mening qo'limda yovuzlik ham, isyon ham yo'qligini ko'rib, bila olgin" (1-Shohliklar 24:11ga qarang).

Otasidan va yetakchisidan rad etilganlikni boshdan kechirgan odamlarning barchasi o'z-o'zini ayblashga moyildirlar. Ular azob bilan o'ylaydilar: "Men nima qildim? Nahotki mening yuragim nopok edi? Yetakchining yuragini kim menga qarshi qaratdi?" So'ngra ular yana qabul qilingan bo'lishlari uchun har doim o'zlarining aybsiz ekanliklarini isbotlashga urinadilar. Biroq bu qanchalik azobli bo'lmasin, ular buni qancha ko'p tirishib qilsalar, o'zlarini shuncha ko'p rad etilgan his qiladilar.

KIM MEN UCHUN QASOS OLADI?

Shoul Dovud uni o'ldirishi mumkin bo'lganini, ammo buni qilmaganini ko'rganida, u Dovudning oliyanobligini tan oldi. Shu sababli u va uning odamlari ketdilar. Dovud bunday deb o'ylagan bo'lsa kerak: "Endi podshoh meni qayta tiklaydi. Endilikda bashorat amalga oshadi. Shubhasiz, u mening yuragimni ko'radi va menga nisbatan munosabati o'zgaradi".

Bunchalik tez emas, Dovud! Oradan bir necha kun o'tganidan so'ng, Dovud Gaxil tepaligida yashirinib yurganligini Shoulga yetkazdilar. Shoul yana o'zi bilan yana o'sha uch mingta askarni olib Dovudning orqasidan jo'nadi. Dovudning hafsalasi pir bo'lganligiga

ishonchim komil. Dovud Shoul uni ongli ravishda va qat'iy o'ldirishni xohlayotganligini tushunib yetdi. U rad etilganlikni naqadar his qilgan bo'lishi kerak! Shoul Dovudning yuragini bilar edi, shunda ham unga qarshi turdi. Dovud Aversa bilan birga Shoulning lageriga kirdi. Soqchilaridan birortasi uni ko'rmadi, chunki Xudo ularni qattiq uyquga solib qo'ygan edi. Bu ikkala odam butun qo'shin orasidan Shoul uxlayotgan joygacha o'tib bordilar.

Aversa Dovudga dedi: Xudo hozir dushmaningni sening qo'llaringga topshirdi. Shunday ekan, men uni bir zarbada nayza bilan yerga mixlab qo'yishimga ruxsat bergin; men uni ikkinchi marta qaytarib o'tirmayman (1-Shohliklar 26:8). Aversaning Dovud unga Shoulni o'ldirishga ruxsat beradi deb o'ylashiga asoslari bor edi.

Birinchidan, Shoul sovuqqonlik bilan sakson besh nafar aybsiz ruhoniylarni va ularning oilalarini o'ldirdi.

Ikkinchidan, Shoul uch mingta qo'shini bilan Dovudni va uning izdoshlarini o'ldirishga ko'tarildi. "Agar sen birinchi bo'lib dushmaningni o'ldirmasang, – o'yladi Aversa, – u albatta seni o'ldiradi. Bu o'z-o'zini himoyalashdir. Har qanday qonunlar va xalqlararo sud bunday qilishga ruxsat beradi!"

Uchinchidan, Xudo Dovudni Shomuil orqali Isroil podshohligiga moylagan. Agar Dovud Shomuilning bashoratini ko'rishni xohlasa, u o'z merosiga erishishi kerak.

To'rtinchidan, Dovud va Aversa to'g'ri Shoulning oldiga yaqinlasha olishlari uchun Xudo butun qo'shinni qattiq uyquga solgan edi. Xudo buni yana nima uchun qildi? Bu Aversaga adolatni tiklash uchun yagona imkoniyatdek tuyuldi.

Bu barcha sabablar ishonarli ko'rindi. Agar Dovud ozgina bo'lsa ham Shouldan xafa bo'lganida edi, u o'zini haq xisoblab, Aversaga Shoulni nayza bilan yerga mixlab qo'yishiga ruxsat bergan bo'lar edi.

Dovudning javobiga quloq soling: "Uni o'ldirmagin; zero Rabbiyning moylanganiga qarshi qo'lini ko'targan kishi, jazosiz qolarmikan? ...Rabbiy tirikdir! Rabbiy uni shikastlasin yoki uning kuni keladi va u o'ladi yoki urushga borib halok bo'ladi. Rabbiyning

moylanganiga qarshi qo'limni ko'tarishga Rabbiy menga yo'l qo'ymaydi" (1-Shohliklar 26:9-10).

Shoul aybsiz odamlarni o'ldirgan va Dovudning o'limini xohlagan bo'lsa ham uni o'ldirmadi. Dovud o'zi uchun qasos olmadi, biroq buni Xudoning qo'llariga topshirdi.

Bunga to'g'ridan-to'g'ri o'sha joyda nihoya qo'yilganida edi, Dovud uchun va Isroil xalqi uchun yengil bo'lgan bo'lar edi. Xalq – cho'ponsiz qo'y podasidek ekanligini Dovud bilar edi. Bo'rilar o'zlarining shaxsiy xudbinona xohishlari uchun ularni talon-taroj qilayotganlarini u bilar edi. O'zini himoya qilmaslik unga qiyin bo'lgan, bundan ham qiyinrog'i – o'zi sevgan xalqini aqldan ozgan podshohdan himoya qilish bo'lgan. Shoul uni o'ldirmagunicha tinchlanmasligini bilsa ham, Dovud shu qarorni qabul qilgan edi.

U birinchi marta Shoulga shafqat qilib, o'z yuragining toza ekanligini isbotladi. Hattoki Dovudda Shoulni o'ldirishga ikkinchi marta imkon bo'lganida ham u unga tegmadi. Shoul Rabbiyning moylangani edi va Dovud uni hukm uchun Rabbiyning qo'llariga topshirdi. Bugun qancha odam Dovudnikidek yurakka ega? Biz boshqa jismoniy qilich bilan o'ldirmaymiz, biroq biz qilichning boshqacha turi: til bilan bir-birimizdan qasos olamiz. "O'lim va hayot – tilning hokimiyatidadir" (Hikmatlar 18:21).

Jamoatlar bo'linmoqda, oilalar parchalanmoqda, nikohlar titramoqda va umidning halok bo'lishi natijasida yuzaga keladigan xafalik, jahl, alam bilan aytilgan shiddatli so'zlar ostida sevgi o'lmoqda. Do'stlar, oila va yetakchilar tomonidan xafa qilinib, bizlar alam va g'azab bilan charxlangan so'zlar bilan hujum qilamiz. Balki aytilayotgan gaplar orqali berilayotgan ma'lumot shubhasiz to'g'ri va aniqdir, ammo ularning aytilishidan maqsad nopokdir.

Hikmatlar 6:16-19-oyatlarda oraga nifoq va bo'linish soluvchi, Rabbiy uchun jirkanch ekanligi aytiladi. Bizlar nimanidir ajratish, o'zaro munosabatlarni buzish yoki kimningdir obro'siga putur yetkazish niyati bilan aytganimizda, hattoki bu haqiqat bo'lsa ham, biz biribir Xudoni haqorat qilgan bo'lamiz.

XUDO MENING YETAKCHIMNING GUNOHLARINI FOSH QILISH UCHUN MENI ISHLATMOQDAMI?

Xudo bizning hozirgi xizmatimiz uchun menga va rafiqamga eshik ochib berishidan avval, yetti yil davomida men yordam berish xizmati bilan shug'ullanganman va yoshlar xizmatining cho'poni edim. Yoshlar xizmati cho'poni bo'lgan xizmatim paytida, jamoatimizda meni, jumladan, mening voizliklarimni ham yoqtirmagan bir odam bor edi. Odatda meni bunga o'xshash narsalar bezovta qilmaydi, biroq bu daf'adagi vaziyatda bu odam jamoatda e'tiborga ega edi.

Xudoning so'zini poklik bilan va jasorat bilan yosh odamlarga voizlik qilishni Xudo menga buyurganligini bilar edim. Bu yetakchining o'g'li mening guruhimda edi. Bu yosh yigit o'z yuragida tobora ko'p fosh qilinishni his qildi. Bir kun u bizning oldimizga ko'z yoshlari bilan keldi. U afsusda edi, chunki u o'z uyida ko'rgan hayot tarzi Xudoning standarti bilan oshkora to'g'ri kelmasligini va bu standartlar bo'yicha yurishga men uni va boshqa yoshlarni da'vat etganimni tushungan edi.

Shu voqea va boshqa shaxsiy kelishmovchiliklar uning otasini mendan qutulish uchun qat'iy qarorga kelishga undadi. U katta cho'ponning oldiga o'zining yolg'on ayblovlari bilan menga qarshi uning g'azabini qo'zg'atish uchun bordi. Shundan so'ng, u mening oldimga kelib, katta cho'pon menga juda ham qarshi ekanligini, biroq u meni himoya qilganini aytdi. Bilvosita menga yo'naltirilgan tanqidiy mulohazalar bildirila boshlandi. Bu odam menga jilmayib boqar edi, biroq meni yo'q qilishni niyat qilgan edi.

Yoshlar guruhining bir necha a'zosi meni xizmatdan bo'shatishmoqchi ekanini eshitganliklarini aytishdi. Bu xabar o'sha odamning o'g'li tomonidan tarqatildi, u buni yomonlik uchun qilmadi, balki shunchaki uyida eshitganini takrorlagan edi. Bu meni g'azablantirdi va shoshib qolishga olib keldi. Men o'sha odamning oldiga bordim va u aytganlarining barchasini tan oldi, biroq u faqatgina katta cho'ponning fikrlarini takrorlagan emish.

Oylar o'tdi va vaziyatni o'zgartirish shunchaki noilojdek tuyuldi. U menga katta cho'pon bilan uchrashishimga imkon bermasdan, cho'pon bilan mening oramdagi barcha aloqalarni barbod qildi. Bu faqatgina menga emas, balki bu odamning g'azabiga uchragan barcha cho'ponlarga tegishli edi.

Biz bu jamoatda qolishimizni yoki bizni quvib yuborishini bilmasdan, mening oilam doimiy bosimlar ostida qoldi. Biz uy sotib oldik, xotinim homilador edi va boradigan joyimiz yo'q edi. Xudo meni bu jamoatga olib kelganligini bilar edim va ketishni xohlamas edim.

Xotinim nihoyatda asabiylashib: "Azizim, ular seni haydab yubormoqchi ekanliklarini bilaman. Menga bu haqda hamma gapiryapti," – dedi.

Men unga: "Ular meni ijaraga olmaganlar va meni Xudoning ruxsatisiz hayday olmaydilar," – dedim. U meni yuzaga kelgan vaziyatni inkor qilyapti deb o'yladi, shuning uchun es-hushimni yig'ib olishimni so'radi.

Nihoyat meni haydab yuborishga qaror qilganliklarining xabari keldi. Katta cho'pon yoshlar xizmatida o'zgarish bo'lishini jamoatga e'lon qildi. Men hali ham u bilan o'sha yetakchi bilan bo'lgan kelishmovchilik haqida gaplashmagan edim. Menga keyingi kunda u bilan va o'sha yetakchi bilan uchrashishimni aytdilar. Xudo juda aniq qilib, o'zimni himoya qilmasligim kerakligini aytdi.

Men keyingi kunda o'z cho'ponim bilan uchrashganimda, uning o'z xonasida yolg'iz o'tirganini ko'rib hayron qoldim. U menga qarab: "Jon, Xudo seni bu jamoatga yubordi. Men ketishingga yo'l qo'ymayman," – dedi. Men yengil tortdim. Xudo meni eng so'nggi soniyada himoya qildi.

"Nima uchun bu odam senga bunchalik qarshi? – deb so'radi cho'pon, – iltimos, uning oldiga borib, munosabatlaringizni to'g'rilagin".

Men o'sha uchrashuvdan so'ng, tez orada, o'sha yetakchi mening majburiyatlarim sohasida qilgan qarorining yozma dalilini topdim. Bu uning chinakam maqsadlarini fosh qilar edi. Men buni

katta cho'ponga yetkazishga tayyor edim.

Shu kuni meni qamrab olgan yoqimsiz hisni yengish uchun qirq besh daqiqa davomida ibodat qildim. Men: "Xudo, bu odam nopok va qonunbuzar. U fosh bo'lishi kerak. U bu xizmat uchun vayron qiluvchi kuchdir. U haqiqatda kim ekanligini cho'ponga aytishim kerak! Xabar bermoqchi bo'lganlarimning barchasi hissiyotga emas, balki xujjatlarga asoslangan dalillardir. Agar bu to'xtatilmasa, qonunbuzarlik butun jamoatga singib ketadi," – dedim.

Nihoyat ta'bim xira bo'lib, to'ng'illadim: "Xudo, men uni fosh qilishimni xohlamaysanmi, Seni to'g'ri tushundimmi?"

Men bu so'zlarni aytganimda, Xudoning tinchligi yuragimni to'ldirdi. Men hayron qoldim. Xudo mening nimanidir boshlashimni xohlamaydi, shuning uchun men o'sha dalil qog'ozini uloqtirdim. Keyinchalik men vaziyatga xolisona qaraganimda, men bu jamoatda kimnidir himoya qilishdan ko'ra, o'zim uchun o'ch olishni xohlaganligimni tushunib yetdim. Mana, men aslida nimani xohlagan ekanman. Mening maqsadim xudbinona emasligiga o'zimni ishontirdim. Men ma'lum qilmoqchi bo'lgan ma'lumotlarim aniq edi, biroq maqsadim nopok edi.

Vaqtlar o'tdi va bir kuni men jamoatning tashqarisida, ish oldidan ibodat qilayotganimda, mendan qutulishni o'ylagan o'sha yetakchi yaqinlashib keldi. Xudo menga uning oldiga borib, o'zimni past olishimni aytdi. Men darhol himoyalanishni boshlab: "Yo'q Rabbii, u mening oldimga kelishi kerak. Bu barcha muammolarni u yaratmoqda," – dedim. Men ibodat qilishda davom etdim, biroq Rabbii men albatta uning oldiga borib, o'zimni past olishimni yana talab qila boshladi. Buni Xudo aytayotganini bilar edim. Unga o'z ishxonamdagi telefondan qo'ng'iroq qilib, uning oldiga bordim. Ammo mening nima deganim va buni qanday aytganim, agar Xudo mening ustimdan ishlamaganida bo'lishi mumkin bo'lganidan ko'ra ancha boshqacha edi.

Men undan chin yurakdan kechirim so'radim. "Men sizni tanqid qildim va hukm qildim," – deya tan oldim. U o'sha ondayoq

yumshadi va biz bir soat davomida suhbatlashdik. U bilan boshqa ba'zi cho'ponlar orasida muammo qolgan bo'lsa ham, o'sha kundan boshlab menga qarshi uning hujumlari to'xtadi. Olti oydan so'ng, men o'z davlatimdan tashqarida xizmat qilib yurgan vaqtda, bu odamning qilib yurgan barcha yomonliklari katta cho'ponga ma'lum bo'libdi. Buning menga dahli yo'q edi, ammo u xizmatning boshqa sohalariga taalluqli edi. Uning qilib yurgan ishlari men bilganimdan yanada yomonroq ekan. U xizmatdan darhol haydaldi.

Hukm amalga oshirildi, biroq mening qo'llarim bilan emas. U menga qilmoqchi bo'lgani, o'zining boshiga tushdi. Ammo bu u bilan sodir bo'lganida, men baxtli emas edim. Men u va oilasi uchun og'rindim. Men uning og'rig'ini tushundim, chunki o'zim uni boshdan kechirgan edim.

Men uni olti oy oldin kechirgan edim, endi esa, uni sevar va unga yomonlikni xohlamas edim. Men bir yil oldin undan g'azablanganimda haydalganida edi, men shodlanar edim. (Biroq o'sha paytda men unga nisbatan xafalikni umuman tutib turmasligimni bilar edim). Itoat qilish va o'zi uchun qasos olishni rad etish meni "xafalik" deya nomlangan qamoqxonamdan ozod qilgan kalitdir.

Bir yildan so'ng men uni aeroportda uchratdim. Men Xudoning sevgisi bilan to'lgan edim. Men yugurib borib, uni quchoqlab oldim. U endi hammasi yaxshi ekanligini aytganida men chin yurakdan baxtli edim. Agar men o'shanda uning oldiga, ishxonaga borib, o'zimni past olmaganimda edi – men o'sha kuni aeroportda uning ko'zlariga qaray olmas edim. O'sha vaqtdan so'ng bir necha yil o'tdi, biroq men uni yaxshi ko'raman va uning Xudoning irodasida bo'lganini ko'rishni chin yurakdan xohlayman.

Dovud Xudoga Shoulning sudyasi bo'lishiga qaror qilganida, donolik qildi. Sizlar: "Xudo O'z xizmatkori Shoulni hukm qilish uchun kimni ishlatdi?" – deb so'rashingiz mumkin. Filistinliklarni. Shoul o'g'illari bilan birga filistinliklar bilan kurashib, jang maydonida o'ldi. Bu xabar Dovudga yetib borganida, u xursand bo'lmadi. U yig'ladi.

Bir odam Dovudga u Shoulni o'ldirganini aytib maqtandi. U bu

bilan uning iltifotiga sazovor qiladi, deb o'ylagan edi, biroq uning xabari teskari natija keltirib chiqardi. "Sen qanday qilib Rabbiyning moylanganini o'ldirish uchun qo'lingni ko'tarishga qo'rqmading?" – deb so'radi Dovud. U ushbu odamni qatl qilishlarini buyurdi (2-Shohliklar 1:14-15).

Dovud Yahudo o'g'illari uchun qo'shiq bastaladi hamda Shoul va uning o'g'illari kuylashlarini buyurdi (2-Shohliklar 1:17). U xalqqa buni Filistin shaharlarida e'lon qilmaslikni buyurdi, toki dushmanlar tantana qilmasinlar. U Shoul o'ldirilgan o'sha joyda yomg'ir ham va donlar ham bo'lmasligini e'lon qildi hamda butun Isroilni Shoul haqida yig'lashga chaqirdi. Bu aniq xafa bo'lmagan odamning yuragidir. Xafa bo'lgan odam: "U qilmishiga yarasha oldi!"- degan bo'lar edi. Dovud Shoul xonadonidan qolgan urug'ni o'ldirmadi. Buning o'rniga u ularga shafqat ko'rsatdi. U ularga yer, oziq berdi va uning avlodlaridan biriga podshoh dasturxonida o'tirish sharafigini berdi. Bu xafa bo'lgan odamning harakatlariga o'xshaydimi?

Dovud u bilan otalarcha yo'l tutishi kerak bo'lgan odam tomonidan rad etilgan edi, biroq u Shoulga hattoki uning o'limidan so'ng ham sodiq qoldi. Sizni sevadigan yetakchi va otaga sodiq bo'lish oson, ammo sizni halok qilishga harakat qilayotganiga-chi? Siz Xudoning yuragidagi erkak yoki ayol bo'lasizmi, yoki siz o'zingiz uchun qasos olishga harakat qilasizmi?

O'Z QULLARI UCHUN QASOS OLISH
XUDO UCHUN TO'G'RIDIR. O'ZI
UCHUN QASOS OLISH XUDONING
XIZMATCHILARI UCHUN NOTO'G'RIDIR.

Mr. Biver. Men hozirgina sizning: "Shaytonning xo'ragi" kitobingizni o'qib chiqdim. Men uni qo'limdan qo'ya olmadim. Bu men hayotim davomida o'qigan eng zo'r kitoblardan biridir.

– R. A., MISSOURI

RUHIY DARBADARLAR QANDAY TUG'ILADI

Shunda Dovud o'zining odamlariga: "Men unga qo'limni yo'naltirishim uchun Rabbiy meni hukmdorimga, Rabbiyning moylanganiga buni qilishimga yo'l qo'ymasin, zero u Rabbiyning moylanganidir", – dedi. Dovud o'z odamlarini ushbu so'zlar bilan ushlab qoldi va Shoulga qarshi ko'tarilishiga yo'l qo'ymadi. Shoul esa turib, g'or ichidan yo'lga chiqdi.

– 1-Shohliklar 24:6-7

Biz o'tgan bobda Dovud otalarcha munosabatni kutgan odamning, u bilan qanday yomon muomalada bo'lganligini ko'rib chiqdik. Dovud aynan nimada noto'g'ri yo'l tutganligini har doim tushunishga harakat qilib keldi. Shoulning yuragini unga

nisbatan nima qarshi qilib qo'yishi mumkin va uni yana qanday qilib o'ziga jalb qilishi mumkin? Podshohning o'zi Dovudning o'limini izlagan bo'lsa ham, Dovud Shoulning hayotini ayab, unga o'z sodiqligini isbotladi. Ungacha esa yanada ezuvchi xabar yetib keldi: Shoul birinchi bo'lib uni o'ldirishni xohladi. Garchi Xudo Shoulning butun qo'shiniga qattiq uyqu va Dovudga, Shoulni o'ldirishga ruxsat berishini so'ragan hamroh bergan bo'lsa ham, biroq Dovud uning o'limini izlaganga qarshi qo'l qo'tarishni rad etdi. Biroq Dovud bu uyqudagi qo'shin qandaydir boshqa maqsad – uning shaxsiy yuragini sinash maqsadida xizmat qilayotganini qandaydir tarzda his qildi.

Dovud o'z shohligini o'rnatish va mustahkamlash uchun Shoulga o'xshab o'ldirishga boradimi yoki Xudoga uning taxtini haqlik bilan abadiy mustahkamlashga ruxsat beradimi, Xudo shuni ko'rishni xohlagan edi.

Ey sevganlarim, o'zlaringiz uchun qasos olmanglar, ammo Xudoning g'azabiga o'rin beringlar. Chunki yozilgan: “Qasos Menikidir, Men haqini beraman,” – deydi Rabbii.

– RIMLIKLARGA 12:19

O'z qullari uchun qasos olish Xudo uchun to'g'ridir. Biroq Xudoning qullari o'zlari uchun qasos olishlari to'g'ri emas. Shoul o'zi uchun qasos olgan odam edi. U o'n to'rt yil davomida haq odamni – Dovudni ta'qib qildi, ruhoniylarni va ularning oilalarini o'ldirdi.

Dovud uxlayotgan Shoulning tepasida turgan vaqtda, u muhim sinovga duch keldi. U Dovudning yuragida nima borligini namoyon qilishi kerak edi: u hanuzgacha cho'ponning oliyanob yuragiga egami yoki ikkinchi Shoulning qabixligigami? U Xudoning yuragidagi erkak bo'lib qoladimi? Aslida haq Xudoni kutishdan ko'ra, hamma ishni o'z qo'limizga olib qo'ya qolishimiz ancha yengilroqdir.

Xudo o'z xizmatchilarini itoatkorlikda sinaydi. Din talablari va jamiyatning qonunlari bizning harakatlarimizni oqlagandek tuyulganida, U bizni atayin shunday vaziyatlarga aralashtiradi. U boshqalarga, ayniqsa, bizlarga yaqin bo'lganlarga, o'z-o'zimizni

himoya qilishga chorlashlariga ruxsat beradi. Biroq bu Xudoning yo'li emas. Bu dunyoviy donolikning yo'lidir, yerlik va tanaviy yo'ldir.

Men qachonlardir ega bo'lgan, ustimdan turgan yetakchini fosh qilish imkoniyati haqida o'ylaganimda, agar uni fosh qilmasam, u boshqalarni yaralashi mumkinligi haqidagi fikrlar bilan kurashganimni eslayman. O'shanda men o'ylashni davom ettirgan edim: "Men faqatgina haqiqatni yetkazaman. Agar men buni qilmasam, unda bu qachon tugaydi?" Boshqalar ham meni uni fosh qilishga undagan edilar.

Biroq bugun men Xudo menga o'shanda bu dalil xatini faqatgina bir sabab bilan: meni sinash uchun berganligini bilaman. Men o'sha meni halok qilishni xohlagan odam kabi bo'lamanmi? Yoki agarda o'sha odam tavba qilsa, Xudoning hukmi yoki shafqati kelishiga imkon beramanmi?

XUDO BUZUQ YETAKCHILARNI QANDAY ISHLATISHI MUMKIN?

Ko'pchilik odamlar: "Nima uchun Xudo odamlarni jiddiy xatolarni qiladigan, ba'zan esa umuman qonunbuzar bo'lgan yetakchilarning boshqaruvi ostiga joylashtiradi?" – deya so'raydilar.

Shomuilning bolaligiga qarang (1-Shohliklar 2:5). Xudo, shayton emas, bu yosh yigitni Eliy ismli buzuq ruhoniyni va uning ikkita, bular ham ruhoni bo'lmish qonunbuzar o'g'illari Ofni va Finessining boshqaruvi ostiga joylashtirdi. Ular ayyorlik va kuch bilan taqdim qurbonliklarini o'zlariga olar edilar va yig'in chodirining kirish qismida yig'ilgan ayollar bilan zino qilar edilar.

Siz bunday hayot tarzi olib borayotgan xizmatchiga bo'ysunishni tasavvur qila olasizmi? U Muqaddas Ruhga shu qadar sezgir bo'lmagan xizmatchiki, u ibodat qilayotgan ayolni farqlay olmasdan, uni mastlikda ayblaydi. Shu qadar tanaviy odamki, u dahshatli tarzda semizdir. Shu qadar befarqki, u to'g'ridan-to'g'ri jamoat orasida zino qiladigan o'g'illarini to'xtatmaydi.

Bugun ko'pgina Masihiylar o'zlarining sobiq cho'ponlari va yetakchilarining barcha qonunbuzar hayot tarzlari haqida so'zlab, o'zlarini haqoratlangan hisoblaydilar va boshqa jamoatni izlaydilar. Menga bunday buzuqlik orasida yashagan yosh Shomuil haqida gapirilgani yoqadi: "O'spirin Shomuil Eliyning yonida Rabbiyga xizmat qildi" (1-Shohliklar 3:1).

Biroq buzuqlik o'zining cho'qqisiga yetib keldi: O'sha kunlar Rabbiyning So'zi kam kelar, vahiy ham tez bo'lmas edi. (1-Shohliklar 3:1). Xudo butun yahudiylardan uzoqdek tuyuldi. Rabbiyning chirog'i Rabbiyning uyida hademay so'nishi kerak edi. Biroq Shomuil sajda qilish uchun boshqa joy izlashni boshladimi? U oqsollarning oldiga Eliy va o'g'illarining qonunbuzarliklarini ularning qarshisida ochib tashlash uchun bordimi? Eliyni va o'g'illarini cho'ponlikdan tushirish uchun u saylama kengash tuzdimi? Yo'q, u Rabbiyga xizmat qildi!

Xudo Shomuilni u yerga joylashtirdi, ammo Eliyning va o'g'illarining hatti-harakatlari uchun u javobgar emas edi. U ularning boshqaruvi ostiga ularni hukm qilish uchun emas, balki ularga xizmat qilish uchun joylashtirilgan edi. U Eliy Xudoning quli ekanligini va Xudo O'zining xizmatchilarini tartibga solishga qodir ekanligini bilar edi.

Bolalar otalarini to'g'rilamaydilar. O'z bolalarini to'g'rilash va o'qitish otalarning mas'uliyati hisoblanadi. Xudo bizga o'qitish uchun kimni topshirgan bo'lsa, o'shalar bilan aloqada bo'lishimiz kerak. Bu bizning mas'uliyatimiz va qarzimiz. Bizning pog'onamizda bo'lganlarga esa, birodar sifatida dalda va nasihat berishimiz kerak. Biroq men bu bobda xuddi avvalgi bobdagidek, bizning ustimizdan qo'yilganlarning hatti-harakatlariga nisbatan bo'lgan munosabatimizni ko'rib chiqaman.

Shomuil Xudo tomonidan qo'yilgan xizmatchiga imkon qadar yaxshi, uni hukm qilish yoki to'g'rilash bosimisiz xizmat qildi. Shomuil to'g'rilash uchun aytgan yagona so'z – bu Eliy Shomuilning oldiga kelib, o'tgan tunda Xudo unga qanday bashorat berganligini aytishini so'raganidagi so'z edi. Biroq bu vaziyatda ham, bu Shomuil tomonidan emas, balki Xudo tomonidan bo'lgan to'g'rilash so'zi

edi. Agar ko'pchilik odamlar bu haqiqatni qabul qilganlarida edilar, bizlarning jamoatlarimiz umuman boshqacha bo'lar edi.

JAMOATLAR – KAFE EMAS

Hozirgi kunlarda agar odamlar jamoat boshqaruvida qandaydir kamchilikni ko'rsalar, ko'pincha, ular jamoatni tezda tashlab ketadilar. Balki ular cho'pon qurbonlikni qanday yig'ayotganidan yoki pullar qanday sarf qilinayotganidan norozidirlar. Agar ularga cho'ponning nima haqida voizlik qilayotgani yoqmasa, ular jamoatdan ketadilar. Yoki cho'pon o'ta qo'l yetmas, yoki o'ta mashhur. Bu ro'yxatning chek-chegarasi yo'q. Qiyinchiliklar bilan to'qnashganda umidni saqlashning o'rniga, ular hech qanday kamchiligi yo'qdek tuyulgan joyga yuguradilar. Keling, shunday dalil keltiramiz: Iso yagona mukammal cho'pon hisoblanadi. Unda nima uchun biz qiyinchiliklarga yuzma-yuz kelib, ularni hal qilishning o'rniga undan darrov qochamiz? Biz kelishmovchiliklarni hal qila olmaganimizda, odatda, xafa bo'lgan holda ketamiz. Ba'zida bizning payg'ambarchilik xizmatimiz qabul qilinmaganligini gapiramiz. So'ngra benuqson boshqaruvi bo'lgan yig'inni izlab, jamoatdan jamoatga o'tib yuramiz.

Men mazkur kitobni yozayotgan mana shu vaqtgacha, o'n to'rt yil davomida men faqat ikkita, turli xil shtatlardagi jamoatning a'zosi bo'lganman. Menda tepamda turgan jamoat boshqaruvchilaridan xafa bo'lishga ikki marta, aniqroq aytganda, bir necha marta imkoniyat bo'lgan edi. Shuni qo'shib qo'yishim mumkinki, bu xafalikning ko'pchiligi o'z aybim yoki g'o'rligim tufayli bo'lgan edi. Menda o'z boshliqlarimga nisbatan munosabatimda tanqidchi va hukm qiluvchi bo'lish imkoni bor edi, jamoatdan ketish javob emas edi. Bir kuni men qiyin sharoitda qolganimda, Rabbiiy menga Muqaddas Yozuvdagi oyat orqali gapirdi: "Agar sen qachonlardir jamoatdan ketmoqchi bo'lsang, Men seni faqat shunday qilishingni xohlayman":

Shunday qilib, sizlar shodlik bilan chiqasizlar va tinchlik bilan kuzatilasizlar.

– ISHA'YO 55:12

Ko'pchilik Masihiylar o'z jamoatlaridan bu tarzda ketmaydilar. Ular jamoat kafe kabi deb o'ylaydilar: ular o'zlari istagan narsalarini olishlari va yoqtirgan narsalarini tanlashlari mumkin! Ular jamoatda muammolar ko'tarilmaguniga qadar, o'zlarini jamoatda bo'lishga to'la haqli hisoblaydilar. Biroq bu umuman Muquddas Yozuv o'rgatayotgan narsa emas. Qanaqa jamoatga borishingizni siz hal qilmaysiz. Buni Xudo hal qiladi. Muqaddas Yozuvda: "Xudo a'zolarining har birini tanada ular xohlaganidek joylashtirdi", – deyilgan emas. Buning o'rniga unda: "Lekin Xudo a'zolarining har birini tanada O'zi xohlaganidek joylashtirdi", – deyilmoqda (1-Korinfliklarga 12:18).

Bilib olingki, agar siz Xudo sizni ko'rishni xohlagan joyda bo'lsangiz, shayton kelishmovchiliklar orqali sizni u yerdan quvishga harakat qiladi.

TANQIDIY ALDOV

Men bir necha yildan buyon jamoatda edim. Cho'ponimiz Amerikadagi eng yaxshi voizlardan biri edi. Men bu jamoatga birinchi bo'lib kelishni boshlaganimda, uning og'zidan chiqayotgan Muqaddas Yozuv ta'limotining kuchidan lazzatlanib, og'zim ochilib o'tirar edim.

Vaqtlar o'tishi bilan cho'ponning yordamchisi xizmatidaligim tufayli, unga yetarlicha yaqin bo'lganligim tufayli uning kamchiliklarini ko'ra boshladim. Men uning jamoatga aloqador qarorlarining to'g'riligiga shubha qila boshladim. Men uni tanqid qilishni va hukm qilishni boshladim hamda xafalik meni azoblashni boshladi. U voizlik qilar, men esa hech qanday ruhlanishni va moylanishni his qilmas edim. Uning voizliklari boshqa mening yuragimga ta'sir qilmas edi va menga yordam bermas edi.

Bizning do'stimiz bo'lgan va ular ham xizmatchilar shtatida bo'lgan boshqa bir er-xotin ham xuddi shunday o'ylayotgandek tuyular edi. Xudo ularni jamoatdan olib chiqdi va ular alohida xizmat boshladilar. Ular bizlarni ham o'zlari bilan birga ketishga taklif qildilar. Ular bizlarning naqadar kurashayotganimizni bilar edilar. Ular bizlarni hayotimizdagi da'vatning ortidan bo'lishga ruhlantirdilar. Cho'pon, uning xotini va jamoat boshqaruvchilari qilgan barcha yanglishishlar va xatolar haqida aytib berdilar. Biz birgalikda yig'ilib, o'zimizni umidsiz holatda, qopqonga tushgandek his qildik.

Bu er-xotin bizning baxt-saodatimiz haqida chin yurakdan tashvishlanayotgandek tuyuldi. Biroq bu muhokama olovga yog' quyib, bizning noroziligimizni va xafagarchiligimizni yanada kuchaytirdi. Hikmatlar 26:20da aytilganidek:

“O'tin qolmagan joyda olov o'chadi, g'iybatchi bo'lmagan joyda janjal to'xtaydi”. Ular bizlarga gapirganlarining barchasi to'g'ri edi, biroq bularning barchasi Xudoning nigohida noto'g'ri edi, chunki olovga xafalik o'tinlari tashlangan edi.

“Sen Xudoning odami ekanligingni bilamiz, – deyishdi ular menga, – shuning uchun sen bu joyda bu muammolarga duch kelding”. Ularning gaplari juda yoqimli jarangladi.

Biz xotinim bilan bir-birimizga: “Yetar. Biz dahshatli holatga tushib qoldik. Biz bu jamoatdan ketishimiz kerak. Do'stlarimiz bizni sevadi. Ular bizga yaxshi ruhiy ustoz bo'ladilar. Bu jamoatdagi odamlar bizni va Xudo bizga bergan bu xizmatni qabul qiladilar”, – dedik.

Biz o'z jamoatimizdan ketib, o'sha oila boshqargan jamoatga borishni boshladik, ammo bu faqat bir necha oyga cho'zildi.

Bizlar muammodan qochib qutuldik deb o'ylagan bo'lsakda, bizda hanuz kurashish jarayoni davom etayotganligini sezib qoldik. Bizning ruhimizda quvonch yo'q edi. Biz kimni tark etgan bo'lsak, xuddi ularga o'xshab qolish qo'rquvi bizni bog'lab qo'ydi. Bizning barcha qilganlarimiz, biz tomondan majburlik ostida va qandaydir notabiiylikda amalga oshirilayotgandek tuyular edi. Biz Ruhning oqimiga kira olmadik. Hattoki endi yangi cho'pon va uning xotini

bilan bizning munosabatlarimiz keskinlashdi. Oqibatda, men biz avvalgi jamoatimizga qaytishimiz kerakligini tushunib yetdim. Biz shunday qilgach, garchi tashqaridan biz boshqa joyda ko'proq qabul qilinadigan va sevimli bo'ladigandek tuyulgan bo'lsa ham, endi yana Xudoning irodasida ekanligimizni darrov his qildik.

Shundan so'ng Xudo: "Jon, Men hech qachon senga bu jamoatdan ketishingni aytmaganman. Sen undan o'zingning xafaliging sababli ketding", – dedi.

Kelishmovchiliklarda boshqa cho'pon va uning xotini emas, balki bizning o'zimiz aybdor edik. Ular bizni tushundi va o'sha savollarni o'z yuraklarida yechishga harakat qildilar. Siz Xudoning irodasida bo'lmaganingizda, siz hech bir jamoat uchun baraka va ko'makchi bo'la olmaysiz. Siz Xudoning irodasidan tashqarida bo'lganingizda, hattoki, eng yaxshi munosabatlar ham zo'rma-zo'raki va keskin bo'ladi. Biz xotinim bilan o'shanda Xudoning irodasidan chiqqan edik.

Xafa bo'lgan odamlar vaziyatlarga noto'g'ri munosabat bildiradilar va Xudo tomonidan ruhlantirilgan ishni emas, faqatgina tashqaridan to'g'ri bo'lib ko'ringan ishni qiladilar. Biz shaxsiy hissiyotlarda qaynash uchun emas, balki harakat qilish uchun da'vat qilinganmiz.

Agar biz Xudoga itoatkor bo'lsak va Uni izlasak, U esa bizga hech narsa demasa, unda qanday javob bo'lishini bilasizmi? Ehtimol U sizga: "Sen hozir qayerda bo'lsang, o'sha joyda qol. Hech narsani o'zgartirma", – deb aytar.

Ko'pincha biz bosimni his qilib, yengillik olish uchun Xudodan so'z izlaymiz. Ammo Xudo bizni halok qilish uchun emas, poklanishimiz, mustahkamlanishimiz va yetuk bo'lishimiz uchun bu qozonga soladi!

Bir oy ichida men birinchi jamoatimdagi cho'pon bilan uchrashish imkoniyatiga ega bo'ldim. Men qilgan tanqidim va isyonim uchun tavba qildim. U oliyjanoblik qilib meni kechirdi. Bizning u bilan munosabatlarimiz mustahkamlandi va quvonch mening yuragimga qaytib keldi. Men yana cho'ponning voizliklaridan barpo qilinishni ola boshladim va bu jamoatda uzoq vaqt qoldim.

EKILGANLAR GULLAYDILAR

Muqaddas Yozuv Sanolar 91:14da shunday deydi: “Rabbiyning uyida ekilganlar Xudoyimizning hovlilarida gullaydilar”. E’tibor qiling, aynan Rabbiyning uyida “ekilganlar” gullaydilar. Agar siz o’simlikni har uch haftada ko’chirsangiz, u bilan nima sodir bo’ladi? Uning tomir tizimi kasallanishini, kamayishib borishini va u yaxshi o’sa olmasligini sizlarning ko’pchiligingiz bilasizlar. Agar siz ko’chirishni davom ettirsangiz, o’simlik shokdan o’ladi!

Ko’p odamlar o’z shaxsiy xizmatini mukammallashtirish uchun jamoatdan jamoatga, bir xizmatdan boshqasiga o’tadilar. Agar Xudo hech kim ularni nazar-pisand qilmaydigan va dalda bermaydigan joyga ularni qo’ysa, xafa bo’ladilar. Agar ular nimadandir norozi bo’lsalar, ketadilar. Keta turib, ular bunda jamoat boshqaruvchilarini ayblaydilar. Ularning ko’zlari ojizdir va Xudo tozalashni hamda ular boshdan kechirayotgan o’sha bosim orqali ularni mukammallashtirishni xohlayotganini anglab turib, o’z xulq-atvorlaridagi kamchiliklarni ko’rmaydilar.

Keling, Xudo bizga o’simlik va daraxt orqali ko’rsatayotgan misollarni o’rganamiz. Yerga ekilgan mevali daraxtning oldida yomg’ir bo’roni, quyoshning jaziramasini va shamol bilan to’qnashish turibdi.

Mabodo yosh daraxt gapira olganida edi, balki u: “Iltimos, meni bu yerdan oling! Meni bu dahshatli jazirama ham, bu shamollar ham va bo’ron ham bo’lmagan joyga ko’chiring!” – degan bo’lar edi.

Agar bog’bon daraxtni eshitganida edi, u haqiqatan unga zarar yetkazar edi. Daraxtlar jazirama issiqqa yoki bo’ronga chidaganlarida, ular tomirlarini chuqurroq yoyadilar. Ular duchor bo’ladigan bu qiyinchiliklar, natijada, ular uchun katta barqarorlikning manbaiga aylanadi. Ularni o’rab turgan atrof-muhitning og’irliklari ularni boshqa hayot manbaini izlashga majbur qiladi. Ular shunday holatga keladigan kunlar keladiki, hattoki, eng kuchli bo’ron ham ularning hosil keltirish qobiliyatiga ta’sir qila olmaydi.

Bir necha yil oldin men Floridada, sitruslar poytaxtida yashagan

edim. Floridaning ko'pchilik aholisi, qish qanchalik sovuq bo'lsa, apelsinlar shunchalik shirin bo'lishini biladilar. Agar biz ruhiy qarshiliklardan shunchalik tez qochib ketmaganimizda edi, bizning tomir tizimimizda kuchliroq bo'lish va ichkariga o'sib borish imkoni bo'lgan bo'lar edi; bizning hosillarimiz esa, serhosil, Xudoning ko'z o'ngida yoqimli va Uning xalqi uchun yanada ishtaha ochuvchi va shirinroq bo'lgan bo'lar edi! Biz hosillari yo'qligi sababli rad etilgan daraxtlar bo'lishning o'rniga, Rabbiiy zavqlanadigan yetilgan daraxtlar bo'lgan bo'lar edik (Luqo 13:6-9). Rabbiiy bizning ruhiy kamolotga erishishimiz uchun atayin yuborayotgan narsalarga qarshilik qilmasligimiz kerak.

Muqaddas Ruhdan ruhlangan sanochi Dovud xafalik bilan Xudoning qonuni va bizning ruhiy o'sishimiz orasidagi kuchli aloqani ko'rsatib bergan. U birinchi sanosida shunday yozgan:

Betavfiqlar maslahatiga bormaydigan, gunohkorlar yo'lida
turmaydigan... ammo istagi Rabbiiyning qonunida bo'lgan
va Uning qonunini tun-u kun o'ylaydigan odam baxtlidir!

— SANO 1:1-2

So'ngra u bizga Sano 118:165da Xudoning qonunlarini sevuvchi odamlar haqida yana bir vahiyi bermoqda:

Sening qonuningni sevuvchilarda buyuk tinchlik bor va
ularga to'siq yo'qdir ("hech narsa ularni xafa qila olmaydi
va vasvasa qila olmaydi" — inglizcha matnda).

Nihoyat, birinchi Sanoning uchinchi oyatida bunday odamning taqdiri bayon qilinmoqda:

U suv yoqasiga ekilgan daraxtdек bo'ladi, o'z vaqtida
hosil keltiradi va uning barglari so'lmaydi; nimaiki qilsa
muvaffaqiyat qozonadi.

— SANO 1:3

Boshqacha qilib aytganda, ulkan qiyinchiliklar orasida irodasi Xudoning so'zida bo'lishiga harakat qilayotgan odamni xafachiliklar chetlab o'tadi. Bu odam Ruh kuch va oziqlanish beradigan joyga tomiri chuqur kirib boradigan daraxt kabi bo'ladi. U Xudoning bulog'idan o'z ruhining chuqurligiga suvni botirib oladi. Bu uni shu qadar yetuk qilib mustahkamlaydiki, noqulay sharoitlar endi u uchun hosil keltirishni tezlashtiradigan katalizatorga aylanadi. Halliluyya!

Biz endi Iso Masihning ekuvchi haqidagi masalga O'z izohining mazmuniga chuqurlashamiz:

Shu singari, toshloq yerga sepilganlar shundaylarni bildiradi: ular so'zni eshitganlarida, o'sha zahoti uni quvonch bilan qabul qiladi, biroq o'zlarida ildizga va doimiylikka ega bo'lmaydilar. Keyinchalik so'z uchun qayg'u yoki quvg'in bo'lganida, o'sha zahoti vasvasaga tushadilar.

— MARK 4:16-17

Xudo siz uchun tanlagan joyni birinchi bor tark etganingiz zahoti, sizning tomir tizimingiz o'sishdan to'xtaydi. Keyingi safar siz uchun noqulay sharoitlardan qochish yanada osonroq bo'ladi, chunki siz o'z tomingizni yerga chuqur kirmasligiga astoydil harakat qildingiz. Buning natijasida siz shunday holatga tushasizki, azobga va quvg'inga bardosh berishga umuman kuchingiz qolmaydi.

Keyin siz joydan joyga ko'chib yuruvchi, boshqalar siz bilan yomon munosabatda bo'lishidan cho'chiydigan va shunga shubha qiladigan ruhiy darbadarga aylanassiz. O'rmalab va haqiqiy ruh hosillari keltirish qobiliyatini yashirib, boshqalarning hosillarining qoldig'ini yeb, siz o'zingizni diqqat markaziga qo'ygan hayotingizda kurashib yashaysiz.

Odamning birinchi o'g'illari Ka'nga va Hobilga nazar soling. Ka'n Rabbiyga qo'llarining ishi bo'lmish dehqonchilik hosilini qurbonlikka olib keldi. Bu hosil ko'p mehnat bilan yetishtirilgan edi. U yerni toshlardan, to'nkalardan va yot jismlardan tozalashi kerak edi. Yerni

ag'darishi va shudgor qilishi, ekishi, sug'orishi, o'g'it solishi va o'z hosilini himoyalashi kerak edi. U Xudoga bo'lgan xizmatida juda ko'p kuch sarfladi. Biroq bu Xudoning irodasiga bo'ysunish emas, balki o'zining shaxsiy qurbonligi edi. Bu Xudoning inoyati bilan emas, o'zining kuchi va layoqati bilan Xudoga sajda qilishning ramzidir.

Hobil esa aksincha, bo'ysunuvchanlik qurbonligini – o'z podasidan saralangan to'ng'ich qo'y va yog'ni keltirdi. U Ka'ndek bu qo'zichoqni o'stirish uchun mehnat qilmadi, ammo bu hayvon unga qadrli edi. Ikkala birodarlar ham ota-onalaridan qachonlardir ular o'zlarining yalang'ochligini anjir daraxtining barglari bilan yopishga harakat qilganliklarini va bu gunohlarini yashirish uchun qilgan o'z shaxsiy ishlarining timsoli ekanligini eshitganlar. Biroq Xudo aybsiz hayvonning terisi bilan Odam Ato va Havvani yopib, Uning uchun ma'qul bo'lgan qurbonlikni ko'rsatgan. Bungacha Odam Ato va Havva o'z gunohlarini o'zlaricha yopishning noma'qulligi haqida bilmas edilar. Biroq ularga Xudoning yo'li ko'rsatilgandan so'ng, kim ularning gunohlarini yopishga qodir ekanligi ulardan ham va ularning bolalaridan ham yashirin emas edi.

Ka'n Xudoning maslahatiga kirmasdan Xudoning iltifotiga sazovor bo'lishni xohladi. Xudo esa Uning oldiga Uning inoyati ko'rsatkichi (Hobilning qurbonligi) asosida kelganlarni qabul qilishini va "yaxshilik va yovuzlikni tanib-bilish" nomi (Ka'nning diniy ishlari) asosida qilingan qurbonlikni rad qilishini U ko'rsatdi. So'ng U agar Ka'n shunday ezgulik qabul qilinishini; agar u hayotni tanlamasa, unda gunoh unga hukmronlik qilishini Ka'nga tushuntirdi.

Ka'n Rabbiydan xafa bo'ldi. U tavba qilish va hayotini o'zgartirishning o'rniga, Xudoga bo'lgan g'azabini va xafagarchiligini o'z birodari Hobilga quydi. U Hobilni o'ldirdi. Xudo Ka'nni la'natladi:

Endi sening qo'lingdan ukangning qonini qabul qilish uchun og'zini ochgan yerdan la'natisan. Yerga ishlov berganingda u senga boshqa quvvatini bermaydi. Yer yuzida quvg'in (inglizcha matnda – qochoq) va daydi bo'lasan.

– IBTIDO 4:11-12

Xudo tomonidan rad etilgan bo'lish... Ka'n hamma narsadan ham ko'ra ko'proq qo'rqqan narsa – uning aybi bilan sodir bo'ldi. U Xudoning maqtoviga ega bo'lish uchun qo'llagan narsa – yer, endi uning o'z qo'llari bilan la'natlandi. Qon to'kish la'natni olib keldi. Yer unga o'zining kuchini boshqa bermasligi kerak edi. Endi hosil faqatgina katta kuch yordamida yetilishi mumkin.

Shuningdek, xafa bo'lgan Masihiylar o'zlarining shaxsiy hosil keltirish qobiliyatlarini yo'q qiladilar. Iso urug' sochuvchi haqidagi masalida yurakni yer bilan tenglashtiryapti. Ka'nning dalasi qanday hosilsiz bo'lib qolgan bo'lsa, alam bilan zaharlangan xafa bo'lgan yurakning yeri ham xuddi shunday hosilsizdir. Xafa bo'lgan odamlar o'z hayotlarida avvalgiday mo'jizalarni, bashoratlarni, kuchli voizliklarni va shifolanishlarni boshdan kechirishlari mumkin. Biroq bularning barchasi hosil bilan emas, Ruhning in'omlari bilan namoyon bo'ladi. Bizlar esa, in'omlarga ko'ra emas, o'z hosillarimizga ko'ra hukm qilinamiz.

E'tibor bering, Xudo Ka'n o'z harakatlarining natijasida quvg'in (yoki qochoq) va daydi bo'lishini aytdi. Bugun bizning jamoatlarimizda ulkan miqdorda ruhiy quvg'inda bo'lganlar, qochoqlar va daydilar bor. Ularning ashulachilik, voizlik qilish, bashorat qilish in'omlari keyinchalik ham ularning avvalgi jamoatlarida yetakchilari tomonidan qabul qilinmagan, shuning uchun ular u yerdan ketganlar. Bu odamlar o'zida xafalikni ko'tarib yurib, maqsadsiz sang'iydilar va ularning in'omlarini qabul qiladigan hamda jarohatlarini shifolaydigan mukammal jamoatni izlaydilar.

Ular o'zlarini jarohatlangan va quvilgan hisoblaydilar. Ular zamonaviy Yeremiahlarni mavjud deb o'ylaydilar. Faqat "ular va Xudo" bor, qolganlar esa ularning halokatini izlaydilar. Ular o'rganishga layoqatsiz bo'lib qoladilar. Ularda men: "Quvg'inlik kompleksi", deb ataydigan paydo bo'ladi: "Hamma odamlar meni ta'qib qilmoqdalar". Ular o'zlarini odamlarning quvg'inlarini qo'tarib yurgan muqaddas va Xudoning payg'ambarlari deya yupatadilar. Ular har bir kishiga shubha bilan qaraydilar. Bu aynan Ka'n bilan sodir bo'lgani kabidir. U nima deyayotganiga e'tibor bering:

Yerda quvg'in va daydi bo'laman. Uchragan har kimsa meni o'ldiradi.

— IBTIDO 4:14

Qarang, Ka'nda "quvg'inlik kompleksi" bo'lgan: go'yoki hamma odamlar uni quvg'in qilishga ko'tariladilar! Bugun ham xuddi shuning o'zi sodir bo'lmoqda. Xafa bo'lgan odamlar hamma ularni ovlamoqchi deya hisoblaydilar. Bunday nuqtai-nazar sababli, ular o'z hayotlarida o'zgarishga muhtoj bo'lgan sohalarni ko'rishlari juda ham qiyin. Ular o'zlarini ajratadilar va o'zlarini shunday tutadilarki, bu yomon munosabatni taklif qiladi.

Qaysar (o'zini ajratadigan) odam o'z nafsini qondirishni (istagini) izlaydi va bor donolikka qarshi turadi.

— HIKMATLAR 18:1

— INGLIZCHADAN SO'ZMA-SO'Z TARJIMASI.

Xudo bizlarni hech qachon bir-birimizdan alohida va mustaqil yashash uchun yaratgan emas. Unga bolalari bir-birlariga g'amxo'rlik qilsalar va jon kuydirlsalar yoqadi. Biz o'zimizning baxtsizligimizda boshqalarni aybdor hisoblab, o'z-o'zimizdan xafa bo'lganimizda, g'azablanganimizda va noliganimizda Rabbiiy xafa bo'ladi. Biz Uning faol oila a'zolari bo'lishimizni xohlaydi. U bizning hayotimizni Undan olishimizni xohlaydi. O'zini ajratadigan odam Xudoning istagini emas, faqatgina o'z istagini qondirishni izlaydi. U hech kimning maslahatiga quloq solmaydi va aldov uchun ochiq bo'ladi.

Men ba'zan Xudo ba'zi odamlarni qaytadan ruhiy qurollantirish va tetiklashtirish uchun chaqiradigan davrlar haqida gapirayotganim yo'q. Men o'z-o'zini qamoqxonaga qamab qo'yg'anlar haqida gapiryapman. Ular bir jamoatdan boshqa jamoatga, bir munosabatdan boshqa munosabatga sang'ib yuribdilar va o'zlarini shaxsiy dunyolarida hammadan ajratadilar. Kim ular bilan rozi bo'lmasa, ularni nohaq va ularga qarshi deb hisoblaydilar. Ular alohidalanish vositasida himoyalanadilar va o'zlarini faqat o'zlari

yaratgan va nazorat ostida bo'lgan muhitda bexatar his qiladilar. Ular endi o'z xulq-atvorlaridagi kamchiliklar ustidan ishlamaydilar. Qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz ko'rishishning o'rniga, sinovlardan qochishga urinadilar. Faqat bahsli vaziyatlarda o'sishi mumkin bo'lgan xulq-atvorning rivojlanishi – xafachilikning yangi doirasi boshlanganida tugaydi.

**XAFALIKNI TUTIB TURISH – SIZNI
O‘Z XULQ-ATVORINGIZDAGI
KAMCHILIKLARNI KO‘RISHINGIZGA
XALAQIT BERADI, CHUNKI AYB
BOSHQA KISHIGA YUKLATILADI.**

Er-xotin sifatida, biz ko‘p yillar davomida ko‘plab kechirmaslikka va yaralarga ega edik. Biz shu darajaga yetdikki, bizning bir nechagina do‘stimiz qoldi va men a‘lo darajadagi jamoatning sodiq a‘zosi bo‘lsam ham, o‘zimni yolg‘iz va hech kim sevmaydigandek his qilar edim. So‘ngra men sizning “Shaytonning xo‘ragi” kitobingizni o‘qib chiqdim va hamma narsa o‘zgardi. Men o‘zimdagi kechirmaslik va yaralar bilan yuzma-yuz keldim va Xudoning yordami bilan ozod bo‘ldim!

– S. G., BELFAST, IRLANDIYA

HAQIQATDAN YASHIRINIB

*Ular doimo o'qib yuradilar, lekin hech qachon
haqiqatni bilishga erisha olmaydilar.*

– 2-Timotiyga 3:7

Mendan ko'pincha so'raydilar: “Men jamoatni va xizmatni qachon tashlab ketishim mumkin? Buning oqibati naqadar yomon?” Men javoban: “Hozir siz borayotgan jamoatga sizni kim yuborgan?” – deb so'rayman.

Ko'pincha ular menga: “Xudo”, – deb javob beradilar.

Shunda men ularga deyman: “Agar Xudo sizlarni yuborgan bo'lsa, U sizlarni ozod qilgunicha ketmang. Agarda Rabbiy hech nima demasa, unda U jimjitlik bilan sizlarga: “Hech narsani o'zgartirma. Ketma, Men seni qayerga joylashtirgan bo'lsam, o'sha joyda qolgin”, – demoqchi”.

Xudo sizga jamoatdan ketishingizni buyurganida, uning vaziyati qanday bo'lishidan qat'iy-nazar, undan tinchlikda ketasiz.

Shunday qilib, sizlar shodlik bilan chiqasizlar va tinchlik bilan yetaklanasizlar.

– ISHA'YO 55:12

Shu tarzda sizning jamoatdan ketishingiz boshqa odamlarning harakatlariga va ishlariga emas, biroq Muqaddas Ruhning boshqaruviga asoslangan bo'ladi. Xizmatni qoldirish qarori – hamma narsa naqadar yomon ekanligiga asoslangan bo'lishi kerak emas. Xafalikda va tanqidiy holatda ketish – Xudoning irodasi emas. Bunday yo'l tutish, Uning boshqaruvi asosida harakat qilishdan ko'ra, vaziyatlarga qarshi javob berishni anglatadi. Rimliklarga 8:14da: “Zero Xudoning Ruhi bilan boshqariladiganlarning hammasi Xudoning o'g'illaridir”, – deyilmoqda. E'tibor bering, bu yerda: “Zero og'ir vaziyatlarga qarshi javob beradiganlarning hammasi Xudoning o'g'illaridir”, – deyilgani yo'q.

Yangi Ahdda deyarli barcha vaziyatlarda foydalanilgan “o'g'il” so'zi, ikki yunoncha: *teknon* va *huios* so'zlariga mos keladi. *Teknon* so'zi: “shu odamdan tug'ilganligi uchun o'g'il” ma'nosini anglatadi.

Mening birinchi o'g'lim Edison tug'ilganida, u faqatgina men va xotinimdan tug'ilganligi sababli Jon Biverning o'g'li bo'ldi. U tug'ruqxonada boshqa yangi tug'ilganlarning orasida bo'lganida, o'g'limni boshqa barcha chaqaloqlardan ajrata olmas edingiz. Do'stlarim va qarindoshlarim tug'ruqxonaga ko'rgani kelganlarida, uni tanib, ko'tarib ola olmas edilar, uni faqat krovatchasiga yopishtirib qo'yilgan, nom bitilgan yorliqqa qarab tanir edilar. Unda uni boshqalardan ajratib turadigan hech narsasi yo'q edi. Edison bu vaziyatda Jon va Liza Biverning *teknoni* hisoblangan.

Teknon so'zi – Rimliklar 8:15-16da foydalanganligini ko'rdik. Bu yerda shunday deyilmoqdaki, biz o'g'illik ruhini qabul qildik va “ana shu Ruhning O'zi bizning ruhimizga, biz Xudoning farzandlari ekanligimiz haqida guvohlik bermoqda”. Odam Iso Masihni Rabb

deb qabul qilganida, u samodan tug'ilganlik, yangi tug'ilganlik dalili tufayli Xudoning farzandiga aylanadi (Yuhanno 1:12).

Yangi Ahdda "o'g'illar" deb tarjima qilingan ikkinchi yunoncha so'z – bu *huios* so'zidir. Yangi Ahdda bu so'zdan ko'p marta "Ota-onasining xulq-atvorini o'zida aks ettirganligi uchun o'g'il deb tan olinishi mumkin bo'lgan shaxs"ni ta'riflash uchun foydalanilgan.

O'g'lim Eddison o'sishi jarayonida, tashqi ko'rinishidan va hatti-harakatlaridan otasiga o'xshay boshladi. U olti yoshga to'lganida, men xotinim bilan ish yuzasidan jo'nab ketdik va uni ota-onamiznikida qoldirdik. Keyin onam xotinimga Eddison xuddi otasining to'liq nusxasi ekanligini aytibdi. Men uning yoshida qanday bo'lgan bo'lsam, uning shaxsiyati xuddi shunday edi. U voyaga yetganida, yana ham ko'proq otasiga o'xshab qoldi. Endi uni Jon Biverning o'g'li sifatida nafaqat tug'ilganligining daliliga ko'ra, balki otasinikini eslatib turuvchi xulq-atvorining xususiyatlari bo'yicha ham bilib olish mumkin.

Oddiy qilib aytganda, yunoncha *teknon* so'zi – "chaqaloq yoki yetuk bo'lmagan o'g'illarni" anglatadi, *huios* so'zi esa ko'pincha "yetuk o'g'illarni" ta'riflash uchun ishlatilgan.

Vanner tomonidan tuzilgan Yangi Ahd so'zlarining ma'noviy lug'atida, muallif mazkur so'zlarning: "teknon" – tug'ilganligi tufayli o'g'il ekanlik va "huios" xulq-atvori jihatidan otasiga o'xshaganligi tufayli uning o'g'li ekanligi o'rtasidagi farqqa jiddiy urg'u bergan.

Imonlilarning Xudoning farzandlari "teknon" va Xudoning o'g'illari "huios" sifatidagi farqlari Rimliklar 8:14-21da ko'rsatilgan. Ana shu Ruhning O'zi ularning ruhiga, ular "Xudoning farzandlari" ekanliklari haqida guvohlik bermoqda, shuning uchun Ular Uning merosxo'rlari va Masihning vorisdoshlaridir. Bu yerda ularning ruhiy tug'ilish dalili ta'kidlanmoqda (16-17-oyatlar). Ammo boshqa tomondan, "Xudoning Ruhitomonidan boshqariladiganlarning hammasi Xudoning o'g'illaridir", ya'ni: "faqat shunday imonlilar va boshqa hech qandaylar emas!" Ularning hatti-harakatlari ularning Xudo bilan o'zaro munosabatlarining sifati va xulq-atvorlari Uning xulq-atvoriga o'xshashligi haqida

guvohlik beradi. Rabbiy Iso Masih Matto 5:9-oyatda “huios” so’zini maxsus ravishda qo’llagan: “Tinchlik o’rnatuvchilar baxtlidirlar, chunki ular Xudoning o’g’illari deb atalurlar” va 44-45-oyatlarda: “Dushmanlaringni sevinglar, sizlarga ozor berayotganlar va sizlarni quvg’in qilayotganlar uchun ibodat qilinglar. Shunda sizlar Osmondagi Otangizning farzandlari bo’lasizlar”. Iso Masihning shogirdlari, Xudoning farzandlari bo’lishlari uchun emas, balki, farzandlar bo’lgan holda (e’tibor bering, bu yerda hamma joyda “Sizning Otangiz” so’zi ishlatilmoqda) – ular bu dalilning o’z xulq-atvorlarida namoyon bo’lishiga erisha olsinlar, toki ular “Xudoning o’g’illari”ga aylansinlar (shuningdek, 2-Korinfliklarga 6:17-18ga qarang).

Kelinglar, Rimliklarga 8:14ga nima deyilayotganiga yana bir bora nazar tashlaymiz: “Zero Xudoning Ruhi tomonidan boshqariladiganlarning hammasi Xudoning o’g’illaridir (huios)”. Bizlar aniq ko’rishimiz mumkinki, bular – Xudoning Ruhi tomonidan boshqarilayotgan yetuk o’g’illardir. Yetuk bo’lmagan Masihiylar, Xudo Ruhining boshqaruviga to’liq ergasha olmaydilar. Ko’pincha ular o’zlari duch keladigan vaziyatlarga hissiyot bilan, ong bilan javob berishga harakat qiladilar. Ular hali faqatgina Xudoning Ruhining boshqaruvi ostida harakat qilishni o’rgangan emaslar.

Eddison ulg’ayib borishiga ko’ra uning xulq-atvori ham rivojlanadi. U naqadar yetuk bo’lib borgani sari, men unga shu qadar ko’p ma’suliyatlar yuklayman. U uchun g’o’r holatda turaverish noto’g’ri. Bizning go’dak holimizda qolib ketishimiz Xudoning irodasi emas.

O’g’lim Eddisonning xulq-atvori shakllanishining yo’llaridan biri – bu qiyin vaziyatlar bilan to’qnashishidir. U maktabga borishni boshlaganida, ba’zi bir “urushqoqlar” bilan to’qnashdi. Men ularning o’g’limga qarshi qilgan ishlari haqida eshitdim va borib, ularni tartibga solib qo’yishni xohladim. Ammo bu noto’g’ri bo’lishini tushunar edim: mening aralashuvim Eddisonning o’sishiga to’sqinlik qilar edi. Shuning uchun men va xotinim uni maktabdagi quvg’inlarga tayyorlab, uyda unga maslahat berishni davom ettirdik. Uning xulq-atvori azoblar orqali va bizning maslahatlarimizga itoat etish orqali mustahkamlandi.

Bu Xudo bizlar bilan qanday yo'l tutishiga o'xshaydi. Muqaddas Yozuv shunday deydi: U (Iso Masih) Xudoning O'g'li (Nuio's) bo'lsa ham, *azob chekish* orqali itoat qilishni o'rgandi (Ibroniylar 5:8).

Jismoniy o'sish – bu vaqtga bog'liq masala. Hech bir ikki yoshli go'dakning bo'yi 180 santimetr bo'lmaydi. Aqliy o'sish ta'lim jarayonida amalga oshadi. Biroq ruhiy o'sish – vaqt yoki ta'lim bilan bog'liq masala emas, bu itoatkorlik bilan bog'liqdir. Endi esa, Petrusning so'zlariga e'tibor bering:

Shunday qilib, Masih biz uchun O'z tanasi bilan azob chekkanidek, sizlar ham xuddi shu fikr bilan qurollaninglar. Chunki tanasi bilan azob chekayotgan odam gunoh qilishdan to'xtaydi.

– 1-PETRUS 4:1

Gunoh qilishni to'xtatgan odam Xudoning haqiqiy itoatkor farzandidir. U yetukdir. U o'zining emas, Xudoning yo'lini tanlaydi. Iso Masih Unga kelgan azoblar orqali itoatkorlikni o'rgangani kabi, biz ham qiyin vaziyatlar natijasida itoatkorlikni o'rganamiz. Biz Muqaddas Ruh tomonidan aytilgan Xudoning So'ziga bo'ysunganimizda – kelishmovchiliklar va azoblar vaqtida o'samiz va yetuklikka erishamiz. Bizning Muqaddas Yozuvni bilishimiz ruhiy o'sish uchun kalit bo'lib xizmat qilmaydi, balki itoatkorlik kalit hisoblanadi.

Endi biz nima uchun bizning jamoatimizda o'n yillik Masihiy odamlar bor ekanligini, ular oyatlarni va hattoki, Muqaddas Yozuvdan oyatlarni, hatto butun boblarni aytib bera olishlarini, minglab voizliklarni eshitishlarini va ko'pgina kitoblarni o'qishlarini, ammo, avvalgidek "ruhiy taglik"larda yurishlarining sababini tushunamiz. Ular har safar qiyin vaziyatlarga duch kelganlarida, Xudoning Ruhi boshqaruvida harakat qilishning o'rniga, o'zlaricha o'zlarini himoya qilishga urinadilar. Ular har doim "o'qib yuradilar, lekin hech qachon haqiqatni bilishga erisha olmaydilar" (2-Timotiyya 3:7ga qarang). Ular haqiqatni tanib bilishga yetib kelolmaydilar, chunki uni o'z hayotlarida qo'llamaydilar.

Agar biz o'smoqchi va yetuk bo'lmoqchi bo'lsak – hayotimizni haqiqatga to'liq ochishimiz lozim. Unga itoat qilmasdan turib, shunchaki aqliy rozilik berish yetarli emas. Agar biz itoatkor bo'lmasak, hattoki o'rganishni davom ettiraversak ham, hech qachon yetuk bo'la olmaymiz.

O'Z-O'ZINI ASRASH

Itoatsizlik orqali o'z-o'zini asrashga umumiy oqlov – bu xafalikdir. Xafalikni yashirishda – o'z-o'zini himoya qilishning yolg'on hissi mavjuddir. U sizga o'z xulq-atvoringizdagi kamchiliklarni ko'rmaslikni beradi, chunki aybni boshqa odamga yuklashga sizni majbur qiladi. Shunda siz hech qachon o'z harakatlaringiz, o'z g'o'rligingiz yoki gunohlaringiz bilan yuzlashishingiz kerak bo'lmaydi, chunki siz faqat sizni xafa qilgan odamning kamchiliklarini ko'rasiz. Shuning uchun, mazkur qarama-qarshilik orqali sizning xulq-atvoringizni rivojlantirishga qaratilgan Xudoning urinishlari tashlab ketiladi. Xafa bo'lgan odam – xafaligining manbaidan qochadi va oqibat natijada ruhiy daydiga aylanib qochib yuradi.

Yaqinda bir ayol menga bir jamoatdan ketib boshqasiga borishni boshlagan dugonasi haqida so'zlab berdi. U yangi cho'ponni o'z uyiga tushlikka chaqiribdi. Suhbat davomida cho'pon nima uchun u o'z jamoatidan ketganligini undan so'rabdi. Ayol unga avvalgi jamoatidagi barcha muammolar haqida so'zlab beribdi.

Cho'pon tinglab, uni yupatishga urinibdi. Men o'z tajribamdan bilamanki, o'sha cho'pon tomonidan, ayolni Xudoning So'zidan foydalanib, o'z yaralari va tanqidiy qarashlarini yengishga ruhlantirish – donolik bo'lar edi. Agar kerak bo'lsa, u ayolga Xudo uni u jamoatdan tinchlik bilan qo'yib yubormagunigacha, u o'zining avvalgi jamoatiga qaytishini maslahat berishi kerak.

Xudo sizni jamoatdan tinchlik bilan olib chiqqanida, siz boshqa odamlarga ketishingizni oqlash bosimini boshdan kechirmaysiz. Sizning avvalgi jamoatingizda bo'lgan o'sha muammolarni hukm

qilish yoki tanqidiy ochish bosimi ostida yurmaysiz. Men bilamanki, ma'lum vaqt o'tganidan so'ng bu ayol yangi cho'ponga va uning boshqaruviga o'zining avvalgi jamoatidagidek munosabatda bo'ladi. Biz o'z yuragimizda xafalikni saqlab yursak, bizlar hamma narsani u orqali o'tkazamiz.

Mazkur holatga to'g'ri keladigan qadimgi bir masal bor. Ilgarigi zamonlarda, ko'chmanchilar g'arbga yo'l olgan kunlarida, yangi G'arbiy shahar tashqarisidagi tepalikda bir donishmand turgan ekan. Ko'chmanchilar sharqdan kelganlarida, ular bu shaharga kirgunlarigacha uchratgan birinchi odam – shu donishmand bo'lgan ekan. Ular qiziqish bilan bu shaharning odamlari qanday odamlar ekanliklarini so'rashibdi.

U ularga savol bilan javob qaytaribdi: “Sizlar ketgan shahardagi odamlar qanday edi?”

Ba'zilari: “Biz chiqib ketgan shahar, betavfiq shahar edi. Undagi odamlar o'ta g'iybatchi edi, ular begunoh odamlardan foydalanar edilar. U shunchaki o'g'rilar va yolg'onchilar bilan to'lib ketgan”, – deb javob beribdilar.

Donishmand javob berib: “Bu shahar ham xuddi sizlar chiqib ketgan shahar kabidir,” – debdi.

Ular donishmandga ularni o'zlari endigina chiqib kelgan muammodan qutqarib qolgani uchun minnatdorchilik bildiribdilar. So'ngra g'arbiy tomonga, yanada ichkari kirib ketibdilar.

So'ngra boshqa bir guruh ko'chmanchilar kelib, xuddi o'sha: “Bu shaharda qanday odamlar yashaydi?” – degan savolni beribdi.

Donishmand odam yana so'rabdi: “Sizlar kelayotgan shaharda qanday odamlar yashaydi?”

Bu guruh odamlari deyishibdi: “U ajoyib shahar edi. U yerdagi odamlar ham ajoyib. U yerda bizning yaqin do'stlarimiz qolgan. Har bir kishi boshqa biriga yordam berishga harakat qilar edi. Hech bir kishi biror narsaga muhtoj emas edi, chunki barchasi bir-biriga g'amxo'rlik qilar edi. Agar kimdadir qiyinchiliklar bo'lsa, butun jamoa yordamga kelar edi. U yerdan ketish bizlar uchun og'ir bo'ldi,

biroq bizlar birinchilardan bo'lib g'arbga jo'nab, kelgusi avlod uchun joy tayyorlash lozimligini his qildik".

Qari donishmand avvalgi guruhga nima degan bo'lsa, bularga ham xuddi shuni aytibdi: "Bu shahar ham sizlar chiqib ketgan o'sha shahar kabidir".

Bu odamlar xursand bo'lib: "Kelinglar, bu shaharga joylashamiz," – debdilar.

Ular o'zlarining o'tmishlaridagi munosabatlariga qanday qaragan bo'lsalar, kelajaklariga ham xuddi shunday qarar edilar.

Siz jamoatdan qanday ketganligingiz, o'zingizning keyingi jamoatingizga qanday kirishingizni belgilaydi. Siz qanday munosabatlar bilan jo'nab ketgan bo'lsangiz, xuddi shunday munosabatlar bilan kirib borasiz. Iso Masih Yuhanno 20:23da shunday degan: "Kimning gunohlarini kechirsangiz, u kechiriladi, kimning gunohlarini kechirmasangizlar, kechirilmaydi".

Biz o'zimizga xafalikni kiritganimizda va kechirmaslikni saqlaganimizda, biz o'zga odamlarning gunohlarini qoldiramiz. Agar biz jamoatdan ayrilsak yoki alamda va xafalikda kim bilandir munosabatlarimizni uzsak, biz boshqa jamoatga yoki boshqa munosabatlarga xuddi o'sha hislar bilan boramiz. So'ngra, muammo ko'tarilganida, yangi aloqalarimizni uzish bizga yanada osonroq bo'ladi. Biz faqatgina yangi munosabatlarimiz natijasida paydo bo'ladigan jarohatlarimiz bilangina emas, balki bizning avvalgi munosabatlarimizdan qolgan jarohatlar bilan ham aloqada bo'lamiz.

Hisoblarga ko'ra, 60-65% odamlar yangidan tuzilgan nikohlarini yana buzadilar. Odam o'zining birinchi nikohidan qanday chiqsa, ikkinchisiga ham shunday kiradi. U o'zining birinchi turmush o'rtog'iga qarshi saqlagan kechirimsizligi, uning ikkinchi turmush o'rtog'i bilan bo'lgan hayotiga to'siq bo'ladi. Boshqalarni ayblab, bunday odamlarning bu kelishmovchiliklardagi o'zlarining rollariga nisbatan ko'zlari ojizdir, o'zlarining kamchiliklariga nisbatan ko'zlari ojizdir. Hammasidan yomoni, endi yana og'riqni boshdan kechirishga bo'lgan qo'rquv – ularda ikki barobardir.

Bu qoida faqatgina nikoh va ajralishga tegishli emas. Buni barcha munosabatlarga qo'llash mumkin. Bizning xizmatimizga bungacha boshqa xizmatchilar bilan ishlagan va ular tomonidan xafa qilingan bir odam keldi. Biroq vaqt o'tishi bilan men uni biz bilan ishlashga taklif qilishimni Rabbiy xohlayotganini his qildim. Men uning o'z xafaligini yengib o'tish yo'lida ekanligiga ishonar edim.

Men uning avvalgi ish beruvchisiga qo'ng'iroq qildim, u bilan bu odamni o'z shtatimga olish haqidagi rejam bilan bo'lishdim. U bu ish yaxshi degan xulosaga kelib, meni qo'llab-quvvatladi. U bu odam biz bilan ishlashni boshlaganida, to'liq shifolanish bo'ladi deb hisobladi. Men ularning ikkalasiga ham, ularning o'zaro munosabatlari tiklanishi va shifolanishi uchun ibodat qilishimni aytdim.

O'sha odam bizning guruhimizga qo'shilganida, deyarli tez orada muammolar ko'tarildi. Men yuzaga kelgan holatlarni yechishga harakat qilar edim, biroq, bular faqatgina vaqtinchalik yengillik keltirar edi. U o'zining avvalgi o'zaro munosabatlarining chegarasidan chiqa olmayotgandek tuyular edi. Ular uni azoblash uchun ta'qib qilar edilar. U meni hattoki o'zining ilgari yetakchisi qilgan ishlarni qilayotganlikda aybladi.

Men tashvishlanib qoldim, chunki bu odamning ishchi sifatida men uchun nimadir qilishidan ko'ra, uning ahvoli men uchun muhimroq edi. Men ishchilarimdan hech biri uchun qilmagan narsalarni u uchun qildim, chunki men uni shifo topgan holda ko'rishni istagan edim.

Bor-yo'g'i ikki oy o'tib, u ketish haqida menga ariza berdi. U o'zini xuddi avvalgidek vaziyatga tuzoqqa tushgandek his qilar edi. U keta turib: "Jon, men hech qachon boshqa Masihiy xizmatlarda ishlamayman", – dedi.

Men uni duo qildim va uning ketishiga qarab qoldim. Biz uni va xotinini yaxshi ko'ramiz. Garchi bu unda qandaydir boshqa sohalarda muvaffaqiyat bo'lmasligini bildirmasa-da, aynan u tark etgan xizmatga unda kuchli da'vat borligi achinarli edi. U ketgandan so'ng, men xavotir his qildim, shu sababli, Rabbiyni izlay boshladim:

“Biz ikkalamiz ham bu ishni uning uchun to'g'ri joy deb hisoblagan vaqtda nima uchun u tezda ketib qoldi?”

Bir necha hafta o'tgandan so'ng, Rabbiiy bu savolga javob berish uchun mening do'stim bo'lmish bir dono cho'ponni ishlatdi: “Xudo odamlarga ko'plab marotaba U yuzlashishlarini istagan vaziyatlardan qochishlariga imkon beradi, agar ular o'z yuraklarida bu vaziyatlardan qochishga qaror qilgan bo'lsalar”.

Keyin u Iyezaveldan qochib ketgan Eliyahning tarixini misol qilib keltirdi (3-Shohliklar 18-19). U endigina betavfiq payg'ambarlar Baal va Astartani qatl qilgan edi. Mamlakatni butparastlikka olib kelgan bu odamlar Iyezavelning dasturxonidan ovqatlanar edilar. Iyezavel bu haqda eshitganida, u yigirma to'rt soat ichida Eliyahni o'ldirishi haqida tahdid qildi.

Xudo Eliyahni Iyezavelga qarshilik qilishini xohlagan edi, buning o'rniga esa, u qochib ketdi. U shunday tushkunlikda ediki, hatto o'ziga o'lim so'radi. U endi Xudoning topshirig'ini bajara olmas edi, chunki qo'rquvda edi. Xudo uni ikkita non bilan oziqlantirish uchun farishtani yubordi va unga Horib tog'iga qirq kecha-kunduz davomida qochib borishiga ruxsat berdi.

U o'sha yerga yetib borganida, Xudoning birinchi so'ragani: “Eliyah, sen bu yerda nima qilyapsan?” – degan savol bo'ldi. Qo'rqinchli savol! Rabbiiy tog'da faqat undan: “Sen bu yerda nima qilyapsan?” – deb so'rash uchungina uning ketishiga ruxsat berib, Uning O'zi bu yo'l uchun unga ozuqa berdi. Eliyah qiyin vaziyatlardan qochib ketishga qaror qilganini Xudo bilar edi. Garchi Uning savolidan bu Uning rejasida bo'lmaganligi aniq bo'lsada, U unga buni qilishga ruxsat berdi.

Keyin U Eliyaga dedi: “Damashqqa sahro orqali o'z yo'ling bilan qaytib borgin, yetib borganingda Hazayelni Aram ustidan podshohlikka, Nimshining o'g'li Yehuni Isroil ustidan podshohlikka moylagin. Abel-Meholahdan Shafatning o'g'li Elishani esa o'z o'rniga payg'ambarlikka moylagin” (3-Shohliklar 19:15).

Elishaning va Yehuning xizmati tufayli, bu malika va uning

qonunbuzar yo'li yo'q qilindi (4-Shohliklar 9-10). Bu topshiriq Eliyah tomonidan emas, biroq Xudo Eliyahga o'zining o'rniga moylashni buyurgan uning davomchisi tomonidan amalga oshirilgan edi.

O'sha cho'pon menga: "Agar biz o'z yuraklarimizda og'ir vaziyatlar orqali o'tmaslikka qat'iy qaror qilsak, garchi bu Uning haqiqiy irodasi bo'lmasa ham, Xudo haqiqatan ham bizni ulardan ozod qiladi", – dedi.

Men keyinroq o'sha fikr tasdiqlangan joyni, Sonlar kitobining 22-bobidan bir voqeani esladim. Balaam unga la'natlash uchun taklif qilingan katta mukofot tufayli Isroilni la'natlashni xohladi.

U Rabbiydan birinchi marotaba borishi mumkin yoki mumkin emasligini so'radi va Xudo ko'rsatdiki, Uning Balaamga nisbatan irodasi Balakning elchilari bilan birga bormasligi edi. Moab boshliqlari yana ham ko'proq miqdordagi pul va yana ham ko'proq izzat-ikrom bilan qaytib kelganlarida, Balaam yana Xudoga yuz tutdi. Xudo Balaamga endi ko'proq pul va izzat-ikrom taklif qilganliklari sababli O'z qarorini o'zgartiradi, deb hisoblash naqadar ahmoqlikdir. Ammo bu safar Xudo unga ular bilan borishini aytdi.

Xudo nima uchun O'z qarorini o'zgartirdi? Javob shundayki, Xudo O'z qarorini o'zgartirgan emas. Shunchaki Balaam shu qadar bormoqchi ediki, Xudo shunchaki ruxsat berdi. Aynan shuning uchun u yo'lga tushganida Uning g'azabi Balaamga qarshi alangalandi.

Rabbiy bizga allaqachon O'z irodasini aniq ko'rsatgan narsa bilan Uning joniga tegishimiz mumkin. Oqibatda u bizga xohlaganimizni, hattoki, bu Uning ilk rejasiga qarama-qarshi bo'lsa ham, hattoki, bu bizning foydamizga bo'lmasa ham qilishimizga ruxsat beradi.

Ko'pincha Xudoning rejası bizlarnı bizga yoqmaydigan yaralanishlar bilan va munosabatlar bilan yuzma-yuz kelishga olib keladi. Biroq biz haqiqatan ham bizga mustahkamlanish olib keladigan narsalardan qochamiz. Xafalik muammosini hal qilishni rad etish bizni muammodan ozod qilmaydi. U bizga faqatgina vaqtinchalik yengillik beradi, muammoning tomiri esa tegilmasdan qolib ketadi.

Men ishga olgan yosh yigit bilan bo'lgan shaxsiy tajribam menga xafalik va munosabatlar haqida dars berdi. Alamzadalik va xafalik bilan boshqa odam bilan aloqani uzgan odam bilan sog'lom munosabatlar o'rnatishning iloji yo'q. Shifolanish amalga oshishi kerak. U yigit o'zining avvalgi boshlig'ini kechirdim deb yursa ham, biroq bu xafalik unut bo'lmagan edi.

Sevgi noto'g'ri narsalarni unutadi, shuning uchun kelajakka umid bor. Agar biz haqiqatan ham xafalikni yenggan bo'lsak, bizlar tinchlik o'rnatishni juda istaymiz. Balki hali buni amalga oshirish uchun to'g'ri fursat kelgan emasdir, ammo biz o'z yuragimizda bu munosabatlarni tiklash uchun imkoniyatlar izlaymiz.

Keyinchalik dono do'stim menga: "Qadimgi bir maqol bor: "Ustiga qaynoq suv quyilgan it, sovuq suvdan ham qo'rqadi". Qachonlardir qaynoq suvdan kuyganliklari va buni kechira olmayotganliklari tufayli naqadar ko'p odamlar ularni tetiklashtiradigan sovuq suvdan bugungi kunlarda qo'rqadilar?", – dedi.

Iso Masih bizning jarohatlarimizni shifolashni xohlaydi. Ammo ko'pincha biz bu yo'lning qiyin ekanligi tufayli Unga buni qilishiga ruxsat bermaymiz. Shifolanishga va ruhiy yetuklikka yetaklovchi yo'l – itoatkorlik va fidokorlikdir. Bu – boshqalarning manfaatini o'zimiznikidan ustun qo'yish qaroridir, hattoki, bu odam sizga katta azob keltirgan bo'lsa ham.

Mag'rur kishilar bu yo'ldan bora olmaydilar, faqatgina rad etilish xavfi ostida tinchlikni xohlayotgan kishilargina bora oladilar. Bu itoatkorlikka va kamtarlikka o'rgatuvchi sinovdir. Bu – hayotga eltuvchi yo'ldir.

**BIZLAR XUDONING HUZURIDA
O'RGANADIGAN NARSALARNI
ODAMLARNING HUZURIDA
O'RGANA OLMAYMIZ.**

Men “Shaytonning xo‘ragi” kitobini o‘qir edim. Shundan boshlab, mening Xudoning So‘ziga nazarim o‘zgardi. Men juda og‘riqli vaziyatdan o‘tgan edim va bu kitobning mazmuni shu haqida bo‘lmaganida, men abadiy tuzoqda qolar edim.

– F. N., MALAYZIYA

ISHONCHLI POYDEVOR

Shuning uchun Rabbiy Xudo shunday deydi: “Mana, Men Sionga tosh qo‘ymoqdaman – sinalgan tosh, asosiy burchak toshi, mustahkam o‘rnatilgan qimmatbaho tosh – unga ishonadigan uyatda qolmaydi. (ingliz tilidagi tarjimalarning birida: “unga ishonadigan shoshilib harakat qilmaydi”).

– Isha‘yo 28:16

“UNGA ISHONADIGAN shoshilib harakat qilmaydi”. Shoshilib harakat qiladigan odam beqaror odamdir, chunki unda bo‘lishi lozim bo‘lgan poydevor yo‘q. Bunday odam tezda tebranadi va bo‘ronning ta‘qibi, quvg‘in va mashaqqatli sinovlar ostida chetga surilib ketadi. Masalan, keling, Shimyon Petrus bilan nima sodir bo‘lganligini ko‘rib chiqamiz.

Iso Filipp Kesariyasi hududlariga kelib, O'z shogirdlaridan: "Odamlar Meni, Inson O'g'lini, kim deb hisoblaydilar?" – deb so'radi.

Bir qancha shogirdlari zavq-shavq bilan xalqning Masih haqidagi fikrlarini aytib berdilar. Iso ularni tugatgunlaricha kutib turdi, so'ngra ularga qarab, to'g'ridan-to'g'ri ulardan: "Lekin sizlar Meni kim deb hisoblaysizlar?" – deb so'radi (15-oyat).

Ishonchim komilki, ular javobni o'ylab ko'rayotganlarida, ko'pchilik shogirdlarning yuzlarida xijolat va qo'rquv aks etgan edi, ularning og'izlari yarim ochiq holda, ular jim turar edilar. O'zgalarning fikrini jonli aytib bergan odamlar to'satdan jim bo'lib qoldilar. Balki ular hech qachon bu jiddiy savolni o'zlariga bermagandirlar. Sababi nima bo'lishidan qat'iy nazar, ular bu savolga hozir javob bera olmasliklarini angladilar.

Iso Masih yaxshi qila oladigan ishini qildi! Uning savoli ularning yuragini hayajonga solib qo'ydi. U ularni bilgan va bilmagan narsalarini chinakamiga anglab yetishlariga olib keldi. Shogirdlar Iso Masihning haqiqatda kim ekanligini o'z yuraklarida hal qilib olishning o'rniga, boshqa odamlarning fikriga asoslanib yashar edilar. Ular bu savolni o'zlariga to'g'ridan-to'g'ri bermagan edilar.

Iso Masih Petrus deb atagan Shimyon bu savolga javob bera olgan yagona shogird bo'ldi. U: "Sen Barhayot Xudoning O'g'li – Masihsan", – dedi (Matto 16:16). Shunda Iso unga javoban dedi: "Sen, Yunus o'g'li Shimyon baxtlisan, chunki buni senga tana va qon ochgan emas, balki osmondagi Mening Otamdir" (17-oyat).

Iso Shimyon Petrusga bu vahiyni manbaini tushuntirdi. U bu bilimni boshqa odamlardan olgan emas, yoki o'qigan narsalari orqali olgan emas, balki unga buni Xudoning O'zi ochgan.

Shimyon Petrusda ilohiy narsalarga ulkan chanqoqlik bor edi. Isoga ko'pgina savollarni aynan u berar edi. Qolgan o'n bitta shogird bunga faqatgina qarab turgan vaqtda, suv ustida yurgan ham u edi. U boshqalarning fikri bilan yashashni xohlamaydigan odam edi! U barchasini Xudoning og'zidan to'g'ridan-to'g'ri eshitishni xohlar edi.

Bu Muqaddas Ruhdagi Isoni tanib-bilish vahiysi, unga sezgi a'zolari

orqali kelgan emas, balki u ruhiy chanqoqligiga javoban uning yuragini yoritgan in’om edi. Shimyon Petrus ko’rgan narsalarning guvohi bo’lganlar ko’p edi, biroq ularning yuraklarida Xudoning irodasini tanib-bilishga bunday chanqoqlik yo’q edi.

Yuhanning birinchi maktubi 2:27da shunday deyiladi: “Biroq Xudodan olgan moylanish sizlarda bor ekan, sizlarga birovning uqtirishining hojati yo’qdir. Lekin shu moylanishning o’zi sizlarga hamma narsani o’rgatganidek – bu esa yolg’on emas, balki haqiqatdir – shunday qilib, u sizlarga o’rgatganidek, Masihda bo’linglar”.

Bu moylanish Shimyon Petrusni o’rgatdi. U barcha qolganlarni tingladi, so’ngra, o’zining ichiga Xudo unga ochganiga nazar tashladi. Siz Xudoning O’zidan ochilgan bilimni olganingiz zahoti, hech kim sizni tebrata olmaydi. Xudo sizga nimanidir ochganida, butun dunyo nima deyishi hech qanday ahamiyatga ega emas. Hech narsa sizning yuragingizni o’zgartira olmaydi.

So’ng Iso Shimyon Petrusga va qolgan shogirdlarga: “Mana shu tosh ustiga O’z jamoatimni quraman va do’xaxning darvozalari uni yenga olmas”, – dedi (Matto 16:18). Biz aniq ko’ramizki, Muqaddas Ruh tomonidan ochilgan Xudoning so’zi ishonchli poydevorga ega bo’ladi.

XUDONING RUHI TOMONIDAN YORITILGAN SO’Z

Men voizlik qilganimda, ko’pincha jamoatni va alohida odamlarni men orqali jaranglaydigan Xudoning ovozigga quloq solishga chorlayman. Odatda, voizlikni yozib borib, biz voiz tomonidan aytilganlarnigina yozamiz, xolos. Shu sababli, biz Yozuvchi va izohni qo’shimcha bilim sifatida faqatgina ongda tushunamiz.

Agar biz faqat aqliy bilimga ega bo’lsak, unda quyidagi ikki narsa sodir bo’lishi mumkin:

1. Biz o’yinga va mutlaq hissiy harakatlarga oson berilib qolamiz.
2. Biz o’z aqlimiz tomonidan bog’lanib qolamiz.

Biroq bularning barchasi Iso Masih O’z Jamoatini quradigan

ishonchli poydevor hisoblanmaydi. Iso Masih jamoatini yodlab olingan Muqaddas Yozuvning oyatlariga emas, balki Muqaddas Ruhning vahiyiga asoslanishini aytgan.

Biz moylangan xizmatchining voizligini eshitib turib yoki kitob o'qib turib, bizning ruhimizda yonadigan so'zni yoki jumlaning har doim izlashimiz lozim. Bu Xudo bizga ochadigan o'sha so'zdir. U nur va ruhiy anglashni olib keladi. Sanochi yozgani kabi: "Sening so'zlaringning vahiyolari yorishtiradi, soddalarga aql kiritadi" (Sanolar 118:130). Uning so'zi vahiy yordamida bizning ongimizga emas, yuragimizga kiradi va aynan o'shanda u bizni yorishtiradi va aniq ochib beradi.

Ko'pincha xizmatchilar bir mavzuni gapirayotgan bir paytda, Xudo mening yuragimda umuman boshqa narsani yoritishi mumkin. Boshqa tomondan, Xudo aynan xizmatchi aytayotgan so'zlarni moylashi va ular mening ichimda portlashi mumkin. Ikkala usulda ham bu Xudoning menga vahiy tarzida ochgan So'zidir. Mana shu narsa bizlarni go'llikdan (anglash yetishmasligi) yetuklikka (anglashga to'lalik) o'zgartiradi. Xuddi Iso Masih aytganidek, Uning jamoati quriladigan poydevor – bu bizning yuraklarimizda yorishgan So'zdir.

Iso Masih Xudoning vahiyini qoyaga o'xshatadi (inglizcha tarjimada va yunoncha asl nusxasida bu so'z oddiygina toshni emas, balki katta qoyani anglatadi. Yunoncha "Petros" – tosh so'zini anglatadi, Iso Masih tomonidan ishlatilgan "tosh" so'zi Matto 16:18da "mana shu tosh ustiga" – bu yunoncha "petra" so'zi – katta xarsang toshni anglatadi, tarjimonning izohi). Tosh barqarorlikni va mustahkamlikni bildiradi. Biri tosh ustiga, boshqasi esa qum ustiga qurilgan ikkita uy haqidagi Isoning masalini yodga oling. Quvg'inlar, qayg'u va azoblar bu ikkala uyga yog'ilganida, qum ustida qurilgan uy vayron bo'ldi, tosh ustida qurilgan uy esa bardosh berdi.

Biz Xudodan eshitishimiz kerak bo'lgan ba'zi narsalar Muqaddas Yozuvda topilmaydi. Masalan, aynan kimga uylanishimiz kerak? Qayerda ishlashimiz kerak? Qanday jamoatda bo'lishimiz lozim?

Bunday savollar esa nihoyatda ko'p. Biz bu savollarga qaror qabul qilishimiz uchun Xudo Ruhining vahiyiga ega bo'lishimiz lozim. Xudodan bo'lgan bunday so'zsiz, bizning qarorlarimiz beqaror yerga asoslangan bo'ladi.

Xudo O'z Ruhi bilan bizlarga ochadigan narsalarni bizdan hech kim tortib ola olmaydi. Bu bizlar qiladigan hamma narsa uchun asos bo'lishi kerak. Shafqatsiz sinovlar va qayg'ular kelganida biz buningsiz tezda vasvasaga tushib qolamiz.

Eshitib quvonch bilan qabul qilingan, ammo yurakda ildiz otmagan so'z haqida Iso Masih nima deganini eslang. U quvonch bilan faqat ongda va his-tuyg'uda qabul qilingan edi.

Shu singari, toshloq yerga sepilganlar shularni bildiradi: ular so'zni eshitganlarida, shu zahoti uni quvonch bilan qabul qiladilar, lekin o'zlarida ildizga ega emaslar va doimiy emaslar. Keyinchalik so'z uchun qayg'u yoki quvg'in bo'lganida, o'sha zahoti vasvasaga tushadilar.

— MARK 4:16-17

Biz "ildiz" va "poydevor" so'zlarini o'zaro oson almashtirishimiz mumkin, chunki ularning ikkalasi ham o'simlik yoki imorat uchun mustahkamlik manbai ekanligidan yoki turg'unlikdan (yoki barqarorlik) dalolat beradi. Xudo So'zining vahiyiga barqaror bo'lmagan yoki mustahkamlashmagan odam — vasvasa va xafalik bo'roni tomonidan ko'chirib yuborilishga mahkum odamdur.

Naqadar ko'p odamlar Iso Masih savol bergan shogirdlari kabilar? Ular boshqalarning guvohliklaridan va voizliklaridan eshitganlariga asoslanib yashaydilar. Boshqalarning fikrlari va g'oyalarini Muqaddas Ruhning guvohligini va maslahatini izlamasdan haqiqat tariqasida qabul qiladilar. Bizlar faqatgina Xudo shaxsan bizga ochgan vahiy bilan yashashimiz va unigina e'lon qilishimiz lozim. Iso Masih O'z Jamoatini quradigan narsa ana shudir!

Qachonlardir mening qo'limda hali turmushga chiqmagan

kotiba ishlagan edi. U bir yigit bilan uchrashib yurar, u yigit ham jamoatda xizmat qilar edi. Har kun ularning munosabatlari yanada yaqinlashib borar edi. Hamma bu munosabatning to'y bilan yakun topishga borayotganini ko'rib turar edi. Ular bu savolni allaqachon jiddiy muhokama qilib olgan edilar.

Bir yakshanba oqshomi katta cho'pon ularni chaqirib: "Rabbiy Xudo shunday deydi: Siz ikkingiz turmush qurasizlar" – dedi.

Keyingi kun ertalab mening kotibam ishxonaga bulutlar og'ushida kirib keldi. U shu qadar hayajonda ediki! U mendan ularni nikohlab qo'yishimni so'radi va men bu men uchun sharaf ekanligini aytdim. Men ular bilan oldinroq gaplashib olish uchun uchrashuv belgiladim.

Ammo men yuragimda qandaydir og'irlikni his qildim. Ular ofisga kirib kelganlarida mening ruhim bezovta edi. Men kotibamga qarab undan Xudo u uchun tanlagani aynan shu odam ekanligini aniq bilish yoki bilmasligini so'radim. U ishtiyoq va aniqlik bilan: "Ha", – deya javob berdi.

So'ngra men yigitga qarab unga: "Sening aynan shu qizga uylanishing Xudoning irodasi ekanligiga ishonching komilmi?" – deb so'radim.

U menga bir zum yarim ochiq og'iz bilan qarab turdi, keyin esa boshini quyi solib: "Yo'q, ishonchim komil emas," – degandek boshini tebratdi.

Men ularning ikkalovlariga bir qarab olib, so'ng yigitga o'girilib: "Men sizlarni nikohlamayman. Sizlarga kim bashorat qilganining va nima deganining menga farqi yo'q. Naqadar ko'p odamlarning sizlarga: "Bir-birlaringga shunchalik yarashgansizlar", – deganlarining menga farqi yo'q. Agar Xudo O'z irodasini yuragingga ochmagan bo'lsa, turmush qurishing kerak emas", – dedim.

So'ng davom etdim: "Agar bu sen uchun Xudoning aniq irodasi haqidagi vahiyni shaxsan olmasdan turib uylansang, bo'ronlar kelganida, ular esa albatta keladi, senda shubhalar va "Men boshqa qizga uylanganimda nima bo'lar edi? Balki bu muammolar

bo'lmasmidi? Bu uylanish Xudoning irodasi bo'yicha ekanligiga men ishonch hosil qilishim kerak edi. Men o'zimni tuzoqda his qilyapman", – degan savollar keladi. Shunda yuraging eziladi va sen nikohingga yog'ilib kelayotgan muammolarga va qiyinchiliklarga qarshilik qila olmaysan. Sen o'zining barcha yo'llarida mustahkam bo'lmagan, fikrida ikkilanadigan odamga aylanasan".

Ularni jo'nata turib, ularning yana uchrashishidan hech qanday ma'no yo'qligini aytdim. Yigit yengil tortdi. Qiz esa nihoyatda xafa bo'ldi. Keyingi hafta davomida ishxonamizdagi muhit nihoyatda siqiq bo'ldi. Biroq men haqiqatni aytganimni bilar edim. Bu qiz uchun sinov vaqti bo'ldi. Agar Xudo unga haqiqatdan bu odam uning eri bo'lishi kerakligini aytgan bo'lsa, unda u mendan va Xudodan xafa bo'lmasdan, Rabbiy buni yigitga ham ochishiga ishonishi kerak edi. Men qizga undan uzoqlashishni va Xudodan javobni shaxsan izlashi uchun unga imkon berishini maslahat berdim. U shunday qildi.

Uch hafta o'tgandan so'ng, ular yana bir uchrashuv belgilashni so'radilar. Men birdaniga ichimda quvonchni his qildim. Bu safar ular ishxonaga kirganlarida, u menga porlab turgan nigohi bilan qarab: "Xudo menga xotinlikka bergan qiz aynan shu ekanligini aniq bilaman, zarracha ham shubhalanmayman", – dedi. Ular yetti oydan so'ng turmush qurdilar.

Xudo bunday o'zaro munosabatlarni yoki jamoatni sizga berganligini bilganingizda, dushmanga sizni u yerdan sug'urib olish anchagina qiyinroq bo'ladi. Siz Xudoning So'zi vahiyiga asoslangansiz va barcha kelishmovchilardan, hattoki ular ilojisiz tuyulsa ham o'ta olasiz.

BOSHQA YO'L YO'Q

Er-xotinlik hayotining birinchi besh yili men uchun va xotinim uchun juda dahshatli bo'ldi. Biz bir-birimizni shunday yaraladikki, qachonlardir bizda bo'lgan o'sha yoqimli munosabatlarni va sevgini qutqarish imkonsizdek ko'rindi.

Faqat bir narsa bizni birgalikda ushlab turar edi: bizning nikohimizni Xudo qurganligini ikkalamiz ham bilar edik. Shuning uchun bizlar ajralishga – muammolarimizni yechishning yo'llaridan biri deb aslo qaramas edik. Bizning yagona yo'limiz – Xudo bizni shifolashiga va o'zgartirishiga ishonish edi. Bu biz uchun naqadar og'riqli bo'lsa ham, biz ikkalamiz ham o'zimizni shunga bag'ishladik.

Menga yengilish fikri kelganida, Xudoning bizning oilamizga nisbatan menga bergan va'dalarini eslar edim. Men Xudoning bizning birlashmamiz haqida tuzgan va rejalashtirgan narsalarini yo'q qilishni istamas edim.

Xudo menga bergan va'dalaridan biri, bu – biz xotinim bilan birga xizmat qilishimiz edi. Xudo menga bu va'dani bergan vaqtda men: "Men buni tasavvur qilishim juda oson. Uning qo'li xizmat ishlari uchun ikkalamizning ustimizda", – deb o'ylagan edim.

Ammo er-xotinligimizning bo'roni vaqtida men bu va'dani boshqa shunday aniq ko'ra olmas edim. Biroq uni tark etishni rad qildim. Tabiiy umid – bizning nikohimizga janjallar va mag'rurlik kirib kelganligi tufayli yo'qolgan edi. Biroq mening yuragimda hanuz hayotning g'ayritabiiy urug'i bor edi. Men unga muhtoj bo'lgan vaqtlarimda mazkur va'da – men uchun langar va poydevor bo'ldi.

Bularning barchasi Xudo nafaqat bizning munosabatlarimizni shifolashi, balki ularni avvalgidan ham mustahkamroq qilishi bilan yakunlandi. Biz bir-birimizni kechirib va ulardan saboq chiqarib bu kelishmovchiliklarda o'sdik. Endi esa Rabbiyga ikki kishi bo'lib xizmat qilamiz. Men xotinimni nafaqat sevikligim va eng yaxshi do'stim, balki shuningdek, men boshqa biror kishidan ko'ra ko'proq ishonadigan xizmatchi deb hisoblayman.

Er-xotinligimizning birinchi besh yilligida bu qiyin "g'adir-budurliklar" orqali o'tib, men angladimki, Xudo har birimizning kamchiliklarimizni ko'rdi va bizning o'zaro munosabatlarimiz bularning barchasini yorug'likka olib chiqdi.

Bizlarni er va xotin qilib birlashtirgan Xudoning donoligidan hayratda edim. Men Lizani uchratgunimga qadar, men qachonlardir

uylanadigan qiz uchun hafsala bilan ibodat qilar edim. Bu tanlov – mening hayotimda xushxabarga itoatimdan so'ng ikkinchi o'rinda edi. Mening turmush o'rtog'imga nisbatan Xudoning tanlovini kutganim va ibodat qilganim tufayli, boshqa nikohlarda bo'lgan o'sha muammolar menda bo'lmaydi deb o'ylagan edim. Eh, qanchalik adashdim!

Xudo menga ko'ngil istaganidek xotinni tanladi. Biroq u menda yashirin bo'lgan xudbinona g'o'rlikni ochdi! Ajrashish vositasida qarama-qarshiliklardan qochish yoki xotinga aybni to'nkash – o'zining yetuk emasligini “xafalik” deb nomlangan soxta himoya qatlami ostida yashirishni anglatgan bo'lar edi. Bizning nikohimiz to'g'risidagi Xudoning vahiyi meni bunday qochishlardan asrab qoldi.

Men hozir bu bobdagi asosiy fikrdan burilishni xohlayman. Sizlarning ba'zi birlaringiz bu satrlarni o'qib, balki: “Men uylanganimda, najot topmagan edim”, – deb o'ylarsiz.

Xudo sizlarga demoqda: “Nikohda bo'lganlarga esa men emas, balki Rabbiy buyuradi: xotin eridan ajralmasin, – agarda ajralsa, ersiz qolsin yoki o'z eri bilan yarashsin; er ham o'z xotinini qo'yib yubormasin... Shunday qilib, birodarlar, kim qanday holatda da'vat etilgan bo'lsa, shu holatda Xudo bilan qolaversin” (1-Korinfliklarga 7:10-11, 24).

Nikoh ahdiga oid berilgan bu So'z yuragingizda mustahkam o'rnashsin, toki siz xafalik kabi bunday tuzoqlar sababli tebranmang, balki mustahkam bo'lib qoling. So'ngra nikohingizga Rabbiydan vahiy olish uchun Uni izlang.

Sizlarning ba'zilaringiz hattoki imonli bo'la turib, Xudoning irodasisiz turmush qurishingiz mumkin. Siz nikohingizda Xudoning duo-barakatiga kirishingiz uchun, siz turmush qurishdan oldin Uning maslahatini qidirmaganingizga tavba qilishingiz lozim va U sizni kechiradi. Ikkitaxato bitta to'g'rini keltirib chiqarmasligini yuragingizga tugib oling. Xafalik tufayli nikoh ahdini bekor qilish muammoni yechmaydi. So'ng nikohingiz uchun Rabbiyning So'zini izlang.

MUSTAHKAM QOYA

Bizga Muqaddas Ruhning vahiylari orqali berilgan Xudoning So'zi – o'z hayotimizni va xizmatimizni ustiga qurishimiz kerak bo'lgan qoyadir. Ko'plab odamlar menga ular qisqa muddat a'zosi bo'lgan ko'pgina jamoatlar va xizmatlar haqida so'zlab berganlar. Men Xudoning farzandlari Uning amrlari bilan emas, qiyinchiliklar bilan boshqarilganliklarini ko'rganimda xafa bo'lib ketaman. Ular hamma narsa nechog'lik yomon bo'lganini va ularga hamda boshqalarga naqadar yomon munosabatda bo'lganlarini aytib beradilar. Ular o'z qarorlarida o'zlarini oqlangandek his qiladilar. Biroq ularning mulohazalari ularga o'zlarining xafaliklarini va shaxsiy kamchiliklarini ko'rishga imkon bermaydigan aldovning boshqa qavatidir.

Ular jamoatlardagi va xizmatlardagi hozirgi munosabatlarini "vaqtinchalik" yoki "Xudo hozirgi paytda meni qo'ygan joy" deb ataydilar. Men hattoki bir odamning: "Men bu jamoatga garovga berilganman", – deganini ham eshitganman. Qiyinchiliklar paydo bo'lganida qochishi mumkin bo'lgan teshik qoldirish uchun ular shunday gapiradilar. Ularda bir joyda turishga mustahkam poydevor yo'q. Po'rtanalar ularni keyingi portga osongina olib ketishi mumkin.

BIZ QAYERGA BORAYLIK?

Iso Masih O'z shogirdlaridan Uni kim deb hisoblashlarini so'rganidagi misolga qaytsak, biz Xudoning irodasi Shimyon Petrusga ochilganida – unda barqarorlik o'sayotganini ko'ramiz.

Bundan so'ng, Ota Shimyon Petrusning yuragiga haqiqatni ochganida Iso Masih: "Va Men senga aytaman, sen Petrus, mana shu tosh (inglizchada "qoya") ustiga O'z jamoatimni quraman va do'zaxning darvozalari uni yenga olmas", – dedi (Matto 16:18).

Iso Masih Shimyonga yangi Petrus ismini berdi. Bu juda ham

muhim, chunki *Shimyon* ismi “eshitish” ma’nosini anglatadi. Petrus (yunoncha *petros*) ismi “tosh” ma’nosini anglatadi. U Xudoning So’zini eshitishi natijasida imonda mustahkamlandi. Tosh so’zi imoratning mustahkamligini bildiradi. Toshlardan qurilgan va o’z poydevori sifatida qoya toshga ega bo’lgan uy har qanday bo’ronga chidaydi.

Bu oyatdagi “qoya” so’zi – “ulkan tosh” (yoki qoya) ma’nosini anglatadigan yunoncha *petra* so’zidan kelib chiqadi. Iso Masih Shimyon Petrusga u endi uy poydevorining negiziga aylantirilganligini aytdi.

Petrus keyinchalik o’z maktublarida yozgan: “O’zlaringiz ham tirik toshlar kabi o’zlaringizdan ruhiy bino barpo etinglar” (1-Petrus 2:5). Tosh bu ulkan qoyaning kichkina bo’lagidir. Xudoning vahiyida mustahkamlik, barqarorlik va kuch bor hamda uni qabul qiladigan insonning hayotida hosil bor. Bu odam Xudoning barhayot So’zi bo’lgan Iso Masihning quvvati bilan kuchlidir.

Havoriy Pavlus 1-Korinfliklarga 3:11da yozadi: “Chunki hech kim qo’yilgan poydevordan, ya’ni Iso Masihdan boshqa poydevor qo’ya olmaydi”. Biz Uni, ya’ni Xudoning tirik So’zi Bo’lganni izlaganimizda, U bizga ochiladi va biz imonda mustahkam bo’lamiz.

Yuhanno 5:16dan Iso Masihning yerdagi so’nggi kunlarida shogirdlarining ahvoli murakkablashganini ko’ramiz. Din ulamolari va yahudiylar Iso Masihni o’ldirish uchun Uni ta’qib qildilar. Vaziyatlar odamlarga qulay bo’lib ko’ringanida va ular Iso Masihni zo’rlilik bilan podshoh qilishni xohlaganlarida, U rad etib, jo’nab ketdi (Yuhanno 6:15).

“Nima uchun U bunday qildi? – shogirlar hayron bo’lib qoldilar, – Bu Uning uchun va biz uchun qulay fursat edi”. Ularni xavotir egallab oldi. Vaziyat xavfli bo’lib qoldi.

“Biz qartagahammanarsanitikib, bu odamning ortidan ergashish uchun o’z uyimizni va ishimizni qoldirdik. Biz Uning kelayotgan Masih ekanligiga ishonдик. Axir, buni Yahyo cho’mdiruvchi e’lon

qildi, Shimyon Petrus esa buni Filipp Kesariyasida tasdiqladi. Bizda ikki nafar guvoh bor. Biroq nima uchun U hozirgi din ulamolarini g'azablantirishni davom ettirmoqda? Nima uchun U O'ziga qabr qazimoqda? Nima uchun bizlarga, Uning shogirdlariga: "Eh, imonsiz va buzuq avlod, qachongacha Men sizlar bilan birga bo'laman?" – deb bunday qattiq so'zlarni aytdi?"

Masihning ortidan ergashish uchun hamma narsani qoldirgan odamlarning yuraklarida xafalik paydo bo'la boshladi.

Shundan keyin eng yomoni sodir bo'ldi. Iso Masih ularga: "Sizlarga rostini, rostini aytaman: Agar Inson O'g'lining Tanasini yemasangiz va Uning Qonini ichmasangiz, o'zingizda hayotga ega bo'lmaysiz", – deb voizlik qilgani ochiqdan ochiq bid'at bo'lib tuyuldi (Yuhanno 6:53).

"U nimani voizlik qilyapti, – o'yladi ular, – bu endi haddan tashqari!" U bularning barchasini Kapernaumda, sinagoga boshliqlari oldida aytgani nimasi bo'ldi! Bu ularning fahmlashlari uchun og'ir bo'ldi.

Uning shogirdlaridan ko'pchiligi buni eshitib: "Naqadar g'alati so'zlar! Kim bularga quloq sola oladi? – dedilar".

– YUHANNO 6:60

Iso Masihning javobiga diqqat qiling:

Ammo Iso shogirdlari bunga noliyotganlarini O'z ichida bilib, ularga dedi: Sizlarni bu vasvasaga solyaptimi?

– YUHANNO 6:61

Bular Uning shogirdlari edilar! U haqiqat so'zlarini qaytarib olayotgan emas, buning o'rniga ularga qarshi chiqmoqda. Ulardan ba'zilari o'z hayotini mustahkam bo'lmagan poydevorga qurganliklarini U biladi. U mazkur poydevorni fosh qiladi va ularga o'z yuraklarini ko'rish imkonini beradi. Biroq ular Shimyon Petrus

va boshqa shogirdlar kabi haqiqatga tashna emas edilar. Ularning javobiga qarang:

Shu vaqtdan boshlab, Uning shogirdlaridan ko'pchiligi
Undan yiroqlashdilar va boshqa U bilan birga yurmadilar.

– YUHANNO 6:66

E'tibor bering, bu ulardan "ko'pchiligi" edi. Shubhasiz, ularning orasida Filipp Kesariyasiga: "Ba'zilar Yahyo Cho'mdiruvchi, boshqalari Eliy payg'ambar, yana boshqalari esa Yeremiah yoki payg'ambarlardan biri", – deb tezda javob berganlar ham bo'lgan (Matto 16:14). Xudoning vahiyi ularning poydevori bo'lmagan.

Xafalik ularni bugun ko'pchilik qilayotgan ishni qilishga olib keldi: ular ketdilar. Ular o'zlarini aldangan va masxara qilingan deb his qildilar, ammo ular aldangan va masxara qilingan emas edilar. Ular haqiqatni ko'ra olmadilar, chunki ularning nigohlari ularning shaxsiy xudbinona istaklariga qaratilgan edi.

Endi esa, Iso o'n ikkita shogirdini fosh qilgan onda Shimyon Petrusga e'tibor qarating:

Shunda Iso o'n ikkita *shogirdiga*: Sizlar ham ketishni istamaysizlarmi? – dedi.

Shimyon Petrus javob berib dedi: Rabbii! Bizlar kimga boraylik? Sen abadiy hayot so'zlariga egasan. Bizlar imon keltirdik va angladik, Sen Masih – tirik Xudoning O'g'lisan.

– YUHANNO 6:67-69

Iso bu odamlarga: "Iltimos, Mendan ketmang. Men shundoq ham juda ko'p ishchilarimdan ajraldim. Men sizlarsiz nima ham qilaman?" – deya yolvormadi. Yo'q, U ulardan: "Sizlar ham ketishni xohlamaysizlarmi?" – deb so'radi.

E'tibor bering, garchi Shimyon Petrus qolganlar kabi xafa bo'lish imkoniga ega bo'lsa ham, u: "Rabbii! Bizlar kimga boraylik?" – deb javob berdi.

Eshitgan narsasi uni ham dovdiratib qo'yishi kerak edi, biroq unda boshqalarda bo'lmagan bilim bor edi. Petrus Filipp Kesariyasida Barhayot Xudoning O'g'li – Iso haqiqatda kim ekanligi haqidagi vahiyning olgan edi.

U endi, sinov olovi aro uning yuragida ildiz otgan vahiyning oshkor qildi: “Va biz ishonamiz va bilimizki, Sen Barhayot Xudoning O'g'li – Masihsan”. Bu aynan o'sha, u Filipp Kesariyasida aytgan so'zlar edi. U Xudoning barhayot So'zining mustahkam qoyasiga qo'yilgan tosh bo'ldi. Petrus Iso Masihdan xafa bo'lib va vasvasaga tushib ketmadi.

BOSIM OSTIDAGI REAKSIYA

Men ko'pincha og'ir sinovlar odamning haqiqiy holatini belgilashini aytaman. Boshqacha so'z bilan aytganda, ular siz ruhiy qayerda ekanligingizni belgilaydi. Ular yuragimizning asl holatini ochib beradi. Siz bosim ostida bo'lganingizda qanday munosabat bildirishingiz sizning asl mohiyatingizni ko'rsatadi.

Balki sizning besh qavatli va hashamatli, o'ta mohirona ishlangan qurilish materiallari va naqshlar bilan bezatilgan, ammo qum ustida qurilgan dang'illama hovlingiz bordir. Quyosh chaqrab turar ekan bu bino quvvat va go'zallik qal'asidek ko'rinadi.

Bu dang'illama hovlining yonida oddiygina bir qavatli uy bo'lishi mumkin. U deyarli ko'zga tashlanmaydi, yonida turgan ajoyib imorat bilan solishtirganda ko'rkam bo'lmasligi mumkin. Biroq u siz ko'ra olmaydigan qandaydir toshli poydevorda qurilgan.

Hech qanday bo'ron bo'lmagunicha besh qavatli uy bundan ancha chiroyliroq ko'rinadi... Biroq u to'fon bilan yuzlashganida, besh qavatli bino tebranadi va vayron bo'ladi. U bir qancha kichikroq to'fonlar paytida turib berishi mumkin, biroq qattiq to'fon paytida emas. Oddiy, bir qavatli uy turib beradi. Bino qanchalik katta bo'lsa, uning qulashi shunchalik dahshatliroq va kuchliroq bo'ladi.

Jamoatdagi ba'zi odamlar Filipp Kesariyasida shunday tez javob bergan, keyinchalik esa fosh qilingan shogirdlarga o'xshaydilar.

Ular o'zlarida kuch, mustahkamlik, barqarorlik va go'zallik timsolini ko'rsatib, xuddi besh qavatli Masihiylardek ko'rinishi mumkin. Biroq to'fon ko'tarilganida, ularning holatlari juda aniq bilinadi.

O'z hayotingizni boshqalarning so'zlarida emas, Xudo So'zining vahiysi ustida qurayotganingizga ishonch hosil qiling. Rabbiyni izlashni va o'z yuragingizga quloq solishni davom ettiring. Faqatgina buni boshqalar qilayotgani va gapirayotgani uchun nimanidir gapirmang va qilmang. Xudoni izlang va sizning o'z yuragingizda yoritilgan So'zda turing!

**DUSHMAN SIZNI LARZAGA
SOLAYOTGANIDA UNING MAQSADI
HALOK QILISH BO'LADI. AMMO
BUNDA XUDONING MAQSADI
BOSHQACHADIR.**

Men "Shaytonning xo'ragi" nomasi uchun Xudoga minnatdorchilik bildirmoqchiman. Men hayotimda yorib o'tish kelishi uchun ro'za tutib, ibodat qilayotgan edim. Rabbiiy meni mazkur nomaga yo'naltirdi va u mening hayotimni tubdan o'zgartirdi. Bu kitobni yetakchilik xizmatida bo'lgan har bir kishi o'qib chiqishi kerak.

— S. R., YANGI ZELANDIYA



MessengerX


Kundalik shogirdchilik uchun ilova

Umuman bepul!

Mobil moslamangizga yuklang
va undan foydalanishni boshlang!
Yoki saytdagi veb-versiyadan
foydalaning:



MessengerX.com



130 + tilda va bu hali hammasi emas.

- ✓ 130 dan ortiq tilda tarjima qilingan manbalarni tezkorlik bilan ko'zdan kechiring.
- ✓ Biz doimiy ravishda yangi manbalarni qo'shib boramiz.
- ✓ Resurslarni do'stlaringiz bilan bo'lishing yoki o'rganish bo'yicha guruh boshlang.

Ko'ring. O'qing. Tinglang.

Elektron kitoblar, audio kitoblar, qisqa metrajli filmlar va boshqalarni ko'rish, o'qish va tinglashingiz mumkin bo'lgan manbalarni o'z ichiga olgan keng ko'lamdor kutubxonani o'rganing.




Eng muhim sohalarda o'sish

Oila, o'zaro sog'lom munosabatlar, hayotingizdagi maqsad, pornografiyadan ozodlik, imonni mustahkamlash, Xudoning ovozini eshitish, tadbirkorlik, yetakchilik kabi mavzularni o'rganing!

O'sishning yo'li


MessengerXning maqsadi sizga hayotingizda keyingi qadamni qo'yishga yordam berish hisoblanadi. Biz shogirdchilik yo'lini hamda bu yo'lda qolish uchun ko'mak bo'ladigan kuchli omillarni ishlab chiqdik.



Yanada ko'proq sizga yoqadigan imkoniyatlar!

- Ushbu manbalar bilan bo'lishish uchun oddiy va oson uskunalar.
- Sevimli smart televizorlaringizda tomosha qilish uchun Chromecast va AirPlay.
- Taraqqiyotni o'z moslamalaringizda saqlab qo'ying. Sizga yoqqan manbalarni o'zingizning tezda ochiladigan kutubxonangizga saqlab qo'ying.
- Oflaynda ko'rish uchun manbalarni o'z moslamangizga yuklab oling.
- Siz izlayotgan narsani topish uchun aqlli qidirish va filt.

MessengerX - shunchaki 1-2-3 dek!



- 1 **MessengerX**ni App Store va Google Play dasturlaridan yuklab oling.
- 2 Ro'yxatdan o'ting va ilovadan o'z ona tilingizda foydalaning.
- 3 Sizga yoqqan manbalarni ko'zdan kechiring, o'qing, ko'ring, tinglang va yuklab oling hamda ularni boshqalar bilan bo'lishing.


Shogird bo'ling, shogirdlarni ko'taring

MessengerXning bir qismi bo'lib, tarjima qilingan manbalarni butun dunyo bo'ylab taqdim etishimizda bizga yordam berasiz.

Chunki har bir kishi bilishga loyiq!



MessengerX.com



LARZAGA SOLINISHI MUMKIN BO'LGAN HAMMA NARSA LARZAGA SOLINADI

U endi shunday va'dani berdi: “Men yana bir marta faqat yerni emas, balki osmonni ham larzaga solaman”. “Yana bir marta” degan soʻz esa larzaga solinmaydiganning qolishi uchun larzaga solinadigan oʻtkinchi narsaning oʻzgarishini bildiradi.

– Ibroniylarga 12:26-27

Biz avvalgi bobda Xudo soʻzining vahiysi Iso Masih Oʻz Jamoatini quradigan poydevor ekanligini koʻrdik.

Biz hattoki boshqa shogirdlar vasvasaga tushib, xafa boʻlib ketganlarida ham Shimyon Petrus Iso Masih bilan qolganini koʻrdik. Hatto Iso Masih unga ketish imkonini berganida ham, Shimyon Petrus yuragida mustahkamlangan soʻz bilan javob qaytardi.

Keling, endi Iso Masih xoinlarcha tutib berilgan tundagi Shimyon Petrusning ikkinchi marta sinalishini ko'rib chiqamiz. Iso Masih O'zining o'n ikkita havoriylari bilan birga kechlikda minnatdorchilik bildirib o'tirganida, hayratga soladigan narsani aytdi: "Mana Menga xiyonat qiluvchining qo'li ham Men bilan birga shu dasturxon atrofidadir. Biroq Inson O'g'li oldindan belgilab qo'yilgan yo'ldan ketmoqda. Ammo Unga xiyonat qiluvchining holiga voy!" (Luqo 22:21-22). Mana shunday xabar! Bugun biz Iso Masih bunday so'z aytib "bomba tashladi" degan bo'lar edik.

Iso Masih xoinlarcha tutib berilishini oldindan bilar edi, ammo Uning shogirdlari bu haqda birinchi marta eshitdilar. U bilan boshidan birga bo'lgan Uning yaqinlaridan biri Uni xoinlarcha tutib berishini aytganida, shogirdlarni qamragan dahshatni tasavvur qila olasizmi?

Sarosimada: "Buni qiladigan oramizda kim ekan?" – deya havoriylar bir-biridan so'ray boshladilar" (Luqo 22:23). Ulardan biri xoinlik qilishi mumkinligidan ular qotib qolgan edilar. Biroq bu o'z-o'zini imtihon qilishda ularning maqsadlari pok emas edi. Bizlar buni ularning suhbatlari xotimasidan bilamiz. Ularning o'z-o'zlarini imtihon qilishlaridan maqsadlari – xudbinona va kiborga to'la edi. Yozuvdagi shundoqqina keyingi oyatga nazar tashlang:

Havoriylar orasida, kim eng katta hisoblanmog'i kerak,
degan bahslashuv ham yuz berdi.

– LUQO 22:24

Tasavvur qiling: Iso Masih ularga hademay O'zini oliy ruhoniylarning qo'llariga o'lim hukmi chiqarish uchun topshirilishini va Uning ustidan masxara qilishlari, qamchi bilan kaltaklashlari va o'ldirishlari uchun rimliklarning qo'llariga topshirilishini aytdi. Buni qiladigan kishi esa U bilan bir dasturxonda o'tirganligini aytdi.

Shogirdlar buning kimligini oydinlashtirish bilan boshladilar va ulardan kim kattaligi haqida bahslashish bilan tugatdilar. Bu juda xunuk – deyarli meros uchun tortishayotgan bolalar kabi edi. Ularning Iso Masih bilan ishlari yo'q edi, ular faqatgina hokimiyatga

va mavqega erishish uchun sarosimaga tushib, intilar edilar. Qanday tasavvur qilib bo'lmaydigan xudbinlik!

Agar men Iso Masihning o'rnida bo'lganimda edi, men imkon qadar ulardan men aytganimni ular eshitdimi, buning ularga qizig'i bormi, deya so'ragan bo'lar edim. Biz bu yerda Ustoz o'z shogidlariga sevgi va sabr-toqat bilan qanday munosabatda bo'lganligining misolini ko'ramiz. Ko'pchiligimiz Iso Masihning o'rnida: "Sizlarning barchangiz, qani bu yerdan yo'qolib qolinglarchi! Bu men uchun buyuk sinov vaqti, sizlar esa faqat o'zingiz haqingizda o'ylayapsizlar", – degan bo'lar edik. Xafa bo'lish uchun yaxshi imkoniyat!

Bu tortishuvni shogirdlar orasida kim birinchi boshlaganini topishimiz mumkin – Shimyon Petrus, chunki u guruhdagi eng ustun bo'lgan shaxs bo'lgan va odatdagidek, birinchi bo'lib gapirishni boshlagan. Balki u ko'proq boshqa narsalarni: suv ustida yurgan yolg'iz u ekanligini eslagandir. Yoki, ehtimol, u Iso Masihning ilohiyligi haqidagi vahiyini birinchi bo'lib olganligini eslagandir. Yana u Iso Masih, Muso va Eliy haqida aytib berib, O'zgarish tog'ida bo'lgan o'z kechinmalarini ular bilan bo'lisha olgandir. Petrus o'n ikki shogird orasida eng ortig'i ekanligiga ishonchi komilligi asossiz emas edi. Biroq bu ishonch sevgiga asoslanmagan edi. Uning poydevori mag'rurlik edi.

Iso Masih ularga qarab, ular o'zlarini shohlikning o'g'illari kabi emas balki oddiy odamlardek tutayotganini aytdi. "Podshohlar o'z xalqlari ustidan hukmronlik qiladilar. Elni boshqaruvchilarni oliyhimmat, deb ataydilar. Sizlar esa bunday bo'lmanglar. Aksincha, orangizda kimki katta bo'lsa, eng kichikday bo'lsin, kimki boshliq bo'lsa, xizmatkorday bo'lsin. Mana, qaysi biri katta – yonboshlaganmi yoki xizmat qilib yurganimi? Yonboshlagan emasmi? Men esa orangizda xizmatkordayman" (Luqo 22:25-27).

ELAKDAN O'TKAZISHDAN MAQSAD

Garchi Shimyon Petrus Iso Masihning kimligi haqida vahiy olgan bo'lsa ham, u hali Masihning itoatkorligiga ega emas edi. U o'zining eski g'alabalari va mag'rurligidan qurilish materiali

sifatida foydalanib o'z hayotini va xizmatini qurdi. Pavlus bizni o'z poydevorimizni Masihda qanday qurayotganimizni kuzatishga chorlaydi (1-Korinfliklarga 3:10).

Shimyon Petrus Xudoning shohligi uchun zarur bo'lgan maxsus materiallardan emas, balki kuchli iroda va o'z-o'ziga ishonish kabi materiallardan foydalandi. Uning xarakteri Xudoning shohligi uchun o'zgarishi kerak edi. U hozircha "turmush tarzidan mag'rurlanish"ga suyanar edi (1-Yuhanno 2:16).

Mag'rurlik hech qachon unga Masihdagi o'z burchini bajarishga ruxsat bermagan. Agarda mag'rurlik yengilmaganda edi, oxir natijada mag'rurlik uni yo'q qilgan bo'lar edi. Yezekil 28:11-19da ko'ramizki, mag'rurlik – Xudoning moylangan xeruvimi Lyutsiferda topilgan va uning qulashiga olib kelgan illatdir.

Endi esa Iso Masih Shimyon Petrusga nima deganligiga qarang:

Shimyon, Shimyon! Mana, shayton sizlarni bug'doy kabi
sepib yuborishni so'radi...

– LUQO 22:31

Mag'rurlik dushmanning kirishiga va Shimyon Petrusni "sepib tashlashiga" eshik ochib berdi. "Sepish" so'zi yunoncha "siniazo" – so'zidan tarjima qilingan. U "elakdan o'tkazish, g'alvirda silkitishni anglatadi. Timsoliy qilib aytganda: ichki qo'zg'alish vositasida kimningdir imonini qulash darajasigacha sinashdir".

Agar Iso Masih hozirgi zamonaviy jamoatlardagi odamlar ega bo'lgan tushunchaga ega bo'lganida edi, U: "Do'stlar, kelinglar, ibodat qilamiz va shaytonning bu hujumini bog'laymiz. Biz shaytonga buni bizning sevimli Shimyonimizga nisbatan qilishiga ruxsat bermaymiz!" – degan bo'lar edi. Biroq qarang, U nima dedi:

Biroq Men sen uchun, ya'ni imoning g'oyib bo'lmasligi
uchun ibodat qildim, toki sen bir kun qaytib kelganingda,
birodarlaringni mustahkamlagin.

– LUQO 22:32

Iso Masih Shimyon Petrusning qulashgacha olib boradigan kuchli tebranishdan qochishi uchun ibodat qilmadi. U uning imoni bu sinov jarayonida g'oyib bo'lmasligi uchun ibodat qildi. Iso Masih buning natijasida Shimyon Petrusga kerak bo'lgan yangi xulq-atvor tug'ilishini bilar edi, toki u o'z vazifasini bajara olsin va birodarlarini mustahkamlasin.

Shimyon Petrus o'z imonini yo'qotishi uchun shayton uni shunchalik kuchli tebratishga ruxsat so'ragan edi. Dushmanning niyati – bu ulkan imkoniyatli, juda ko'p vahiyalar olgan odamni yo'q qilish edi. Biroq Xudo bu larzaga solinishdan boshqa maqsadga ega edi va har doimgidek Xudo shaytondan oldinda yurar edi. U Shimyon Petrusda larzaga solinishi kerak bo'lgan hamma narsani larzaga solish uchun dushman uni vasvasaga solishiga ruxsat berdi.

Xudo xotinim Lizaga, narsaning larzaga solinishi uchun besh maqsadni ko'rsatdi:

1. Uni o'zining poydevoriga yaqinroq olib kelish;
2. O'lik narsalarni yo'q qilish;
3. Barcha yetilgan hosilni yig'ib olish;
4. Uyg'otish;
5. Birlashtirish va birgalikda aralashtirish, toki u bundan so'ng ajralgan holda bo'lmasin.

Xudbinlikka yoki mag'rurlikka asoslangan har qanday fikrlash yoki munosabat tozalanishdan o'tadi. Bu kuchli larzaga solinish natijasida Shimyon Petrusning har qanday o'z-o'ziga ishonishi yo'qoladi va bor-yo'g'i qolgani – bu Xudoning ishonchli poydevori bo'ladi. U o'zining haqiqiy holatini, o'lik bo'lganni yo'q qilinishini, haqiqiy asos mustahkamlanib, yetilgan hosil esa yig'ib olinishini tushunib yetadi. U ortiq o'zining foydasi uchun harakat qilmaydi, biroq Rabbiyga to'liq ishonadi.

Petrus Iso Masihga dadillik bilan so'zlab: “Rabbiy! Men Sen bilan zindonga ham, o'limga ham borishga tayyorman!” – dedi.

Bu tasdiqlash Ruhdan emas, balki o'z-o'ziga ishonishdan chiqdi. U o'zidagi nuqsonni ko'rmadi.

YAHUDONI SHIMYON BILAN SOLISHTIRGANDA

Ba'zilar Petrusni mahmadana va qo'rqqoq deb hisoblaydilar. Biroq Getsemaniya bog'ida Iso Masihni qo'lga olish uchun askarlar kelganida, u xanjarini shartta sug'urib olib, oliy ruhoniylar xizmatkorining o'ng qulog'ini kesib tashladi (Yuhanno 18:10). Hamma qo'rqqoqlar ham dushman askarlarining soni ularnikidan ortiq bo'lganida tajovuz qila olmaydi. U kuchli odam edi, biroq uning kuchi Xudoning itoatkorligiga emas, balki o'zining shaxsiga asoslangan edi, zero elakdan o'tkazish hali boshlanmagan edi.

Xuddi Iso Masih aytganidek bo'ldi. Iso Masih uchun o'lishga tayyor, to'la askarlar bo'lgan bog'ga xanjar bilan borgan aynan o'sha Shimyon Petrus kichkina xizmatkor qizga duch keldi. U qizdan qo'rqdi va hattoki Iso Masihni bilishidan tondi.

Ba'zilar odamlarning qoqilishga asosan katta qiyinchiliklar majbur qiladi deb hisoblaydilar. Biroq ko'pincha aynan ahamiyatsiz to'siqlar hammasidan ko'proq tebratadi. Bu o'z-o'ziga ishonishning zaif ekanligini ko'rsatadi.

So'ngra Petrus Iso Masihdan yana ikki marta tondi. Xo'roz qichqirdi va Petrus Masihning so'zini eslab yig'ladi. Uning butun o'z-o'ziga ishonishi larzaga solindi va u qachonlardir ko'tarila olishiga umid qildi.

Shimyon Petrus va Yahudo Ishqariyot ko'p narsalarda, shu bilan birga, Iso Masih hayotining so'nggi fojiaiy kunida ularning ikkalasi ham Iso Masihdan tonganligi dalilida o'xshashdirlar. Biroq bu ikki odamning o'rtasida muhim farq bor edi.

Yahudo hech qachon Iso Masihni tanib-bilishga Shimyon kabi chanqoq emas edi. Yahudo Iso Masihni o'zining poydevori qilmagan edi. Go'yo u Iso Masihni sevar edi, chunki Uning ortidan ergashish uchun barcha narsani qoldirdi, doimo Uning odamlari

orasida safarda yurdi, hattoki, qiyin quvg'in vaqtlarida U bilan qoldi. U jinlarni quvdi, kasallarni shifoladi va Xushxabar aytdi. (Iso Masih voizlik qilish, shifolash va jinlarni quvish uchun o'n bitta emas, o'n ikkita shogirdini yuborganini eslang). Biroq uning qurbonliklari Iso Masihga bo'lgan sevgisi va Uning kim ekanligi haqidagi vahiy sababli emas edi.

Yahudo eng boshidan o'zining maqsadi, o'zining shaxsiy rejalariga ega edi. U hech qachon o'zining g'arazli maqsadlari uchun tavba qilmadi. Uning xulq-atvori shunday ifoda bilan ochiladi: "Agar men... menga nima berasizlar?" (Matto 26:14). U foyda olish uchun aldadi va tilyog'lamalik qildi (Matto 26:25). Yahudo Iso Masihning xizmati uchun mo'ljallangan pullardan o'z shaxsiy maqsadlari uchun olar edi (Yuhanno 12:4-6). Bu ro'yxatni davom ettirish mumkin. U garchi Rabbiyning oldida uch yarim yil o'tkazgan bo'lsa ham, Uni tanib-bilmadi.

Petrus va Yahudoning ikkalasi ham qilgan ishlariga afsus qildilar. Biroq Yahudoda Petrusda bo'lgan poydevor yo'q edi. Unda Iso Masihni tanib-bilishga hech qachon chanqoqlik bo'lmaganligi tufayli U unga ochilmagan. Agar Yahudo Iso Masih haqidagi vahiyga ega bo'lganida edi, u hech qachon Uni xoinlarcha tutib bermagan bo'lar edi. Uning hayotiga kuchli bo'ron kelganida, barchasi larzaga solindi va barbod bo'ldi! Qarang, nima sodir bo'ldi:

Shunda Unga xiyonat qilgan Yahudo, Uning hukm qilinganini ko'rib va tavba qilib, oliy ruhoniylar va oqsoqollarga o'ttiz kumush tangani qaytarib berib: "Begunoh qonga xiyonat qilib, gunoh qildim," – dedi. Ular esa unga: "Bu bilan nima ishimiz bor? O'zing qara," – deyishdi. U kumushlarni ma'badga tashlab, chiqib ketdi va borib o'zini osdi.

– MATTO 27:3-5

U gunoh qilganini bildi va bundan afsus chekdi. Biroq u Iso Masihni bilmas edi. U Kimni xoinlarcha tutib berganini umuman tushunmadi.

U faqat: “Men aybsizning qonini to’kdim”, – dedi. Agar u Iso Masihni Petrus kabi bilganida edi, u Rabbiyning ezguligini bilib, Uning oldiga qaytib kelgan va tavba qilgan bo’lar edi. O’z-o’zini o’ldirishi – Xudo inoyatidan tashqarida yashayotganligining yana bir harakati edi. Yahudo hattoki Ustozining ortidan uch yil ergashganidan so’ng ham, unda hech qanday poydevor paydo bo’lmadi.

Masihilikni qabul qilgan odamlarning ko’pchiligi “gunohkorning ibodati bilan” ibodat qilganlar, jamoatga borganlar, uning faol a’zosiga aylanganlar va Muqaddas Yozuvni o’qiganlar. Garchi ular Iso Masihni o’z og’izlari bilan tan olgan bo’lsalar ham, biroq bularning barchasi Iso Masih haqiqatda kim ekanligi haqidagi vahiyni shaxsan olmasdan amalga oshgan. Ularga shafqatsiz sinovlar kelganida, ular vasvasaga tushadilar, Xudodan xafa bo’ladilar va ortiq U bilan hech qanday aloqada bo’lishni xohlamaydilar.

Men shaxsan o’zim bunday odamlarning: “Xudo hech qachon men uchun hech nima qilgani yo’q”, yoki: “Men Masihiy bo’lishga harakat qildim, lekin hayotim yanada achinarli ahvolga tushdi”, yoki: “Men ibodat qildim va Xudodan buni qilishini so’radim, biroq u buni qilmadi!” – deganlarini eshitganman. Ular o’zlarining hayotlarini hech qachon Iso Masihning oyoqlariga qo’ymaganlar, ammo o’zlarining shaxsiy foydasi uchun Uning ittifoqdoshi bo’lishga uringanlar. U ularga nimadir berishi mumkinligi uchungina Unga xizmat qilganlar va osongina vasvasaga tushganlar. Ular Undan osongina xafa bo’ladilar. Mana, Iso Masih ularni qanday ta’riflaydi:

Ular so’zni eshitganlarida, shu zahoti uni quvonch bilan qabul qiladilar, lekin o’zlarida ildizga ega emaslar va doimiy emaslar. Keyinchalik so’z uchun qayg’u yoki quvg’in bo’lganida, o’sha zahoti vasvasaga tushadilar. (Yunon tilida bu so’z “norozi bo’ladilar, qattiq g’azablanadilar, xafa bo’ladilar, qoqiladilar va o’ladilar”ni anglatadi).

– MARK 4:16-17

E'tibor bering, U ularning hech qanday poydevorga ega bo'lmaganliklari tufayli o'sha zahoti vasvasaga tushishlarini aytdi. Biz nimada ildiz otishimiz lozim? Bu savolga javobni Efesliklarga 3:16-18da topamiz: bizlar sevgida ildiz otgan va o'rnatilgan bo'lishimiz lozim. Xudoga bo'lgan sevgi – bizning poydevorimizdir.

Iso Masih: “Kim o'z do'stlari uchun o'z jonini qurbon qilsa, bundan buyukroq sevgi yo'qdir”, – degan (Yuhanno 15:13). Biz o'zimiz ishonmagan odamga jonimizni qurbon qila olmaymiz. Agar biz Xudoga ishonish uchun Uni yetarli darajada yaxshi bilmasak, jonimizni Unga qurbon qila olmaymiz. Biz Xudoning tabiatini va xulq-atvorini bilishimiz va anglashimiz kerak. Bizda U hech qachon bizga zarar yetkazish maqsadi bilan biror narsa qilmasligiga ishonch bo'lishi kerak.

Rabbiy har doim biz uchun bizning foydamizga xizmat qiladigan narsani izlaydi. Agar biz imonni yo'qotmasak, bizga umidni chippakka chiqaruvchi bo'lib ko'ringan narsani har doim bizga ezgulikka o'giradi. Xudo sevgidir. Unda hech qanday xudbinlik va yovuzlik yo'qdir. Bizni halok qilishni xohlovchi – bu shaytondir.

Biz ko'pincha o'z hayotiy vaziyatlarimizga hozirgi vaqt miqyosida qaraymiz va bu haqiqiy manzarani buzib ko'rsatadi. Xudo esa bizning sinovlarimizga abadiylik miqyosida qaraydi. Agar biz o'zimizning vaziyatlarimizga cheklangan manfaatimiz nuqtai-nazaridan qarasak, ikkita narsa sodir bo'lishi mumkin:

Birinchidan, biz Xudoning tozalashidan o'ta turib, osongina yoki Xudodan, yoki Uning xizmatchilarining biridan xafa bo'lishimiz mumkin. Ikkinchidan, biz osongina dushman tomonidan aldanib qolishimiz mumkin. Shayton bizni hozirgi paytda to'g'ri bo'lib ko'ringan narsaga itaradi, biroq uning tub rejasi – bizning qulashimiz yoki o'lishimiz uchun hamma narsadan foydalanishdir. Biz Xudoga qattiq umid qilganimizda, Uning g'amxo'rligidan ayrilmaymiz. Biz o'z-o'zimiz uchun g'amxo'rlik qilish vasvasasiga tushmaymiz.

XUDONING XULQ-ATVORIGA UMID QILISH

Dushman bizlarni Xudoga umid qilishdan uzoqlashtirishga harakat qilishining yo'llaridan biri – bu bizning Xudoning xulq-atvori haqidagi tushunchamizni buzib ko'rsatishdir. U buni Havva bilan Adan bog'ida: “Rostdan ham Xudo, bog'dagi *hech bir daraxtdan yemanglar*, deb aytdimi?” – deb so'rganida amalga oshirdi (Ibtido 3:1). U Xudoning xulq-atvorini buzib ko'rsatish uchun Xudoning amrini buzib ko'rsatdi.

Xudo: “Bog'ning *har bir* daraxtidan bemalol *yeyavergin*. Faqat yaxshilik va yomonlikni bilish daraxtidan yemagin. Chunki undan yegan kuniyoq aniq o'lasan”, – dedi (Ibtido 2:16-17).

Aslida ilon Havvaga: “Xudo hamma yaxshi narsalarni sizlarga bermasdan O'zida saqlab turibdi”, – demoqchi edi.

Ammo Xudo mana bunga urg'u bergan edi: “Sen hamma narsani bemalol yeyishing mumkin, faqatgina...”. Xudo odamzodga rohatlanishi uchun butun bog'ni berdi va bittasidan tashqari barcha mevalarni yeyishga ruxsat berdi.

Ilon Xudoga nisbatan Havvaning fikrini shunday so'zlar bilan buzib ko'rsatdi: “Xudo aslida sizlarga g'amxo'r emas. U qanday yaxshi narsani sizlarga bermasdan O'zida tutib turibdi! U balki siz tasavvur qilganingizdek sizni sevmaydi. U aftidan yaxshi Xudo emas!” Havva aldangan edi va Xudoning xulq-atvori haqidagi yolg'onga ishondi. Shundan so'ng gunoh qilish xohishi ko'tarildi, chunki Xudoning so'zi ortiq hayot so'zi emas edi, u uning uchun qonunga aylandi. “Gunohning kuchi – qonundir” (1-Korinfliklarga 15:56).

Dushman bugun ham shunday harakat qilmoqda. U Ota Xudoning xulq-atvorini Uning bolalari ko'zlari o'ngida buzib ko'rsatmoqda. Bizning barchamiz o'z ustimizdan otalar, o'qituvchilar, boshliqlar yoki hokimlar shaxsida xudbin va sevmaydigan ma'lum hokimiyatlarga ega bo'lganmiz. Ular hokimiyat egalari bo'lganliklari uchun ularning tabiatlarini Xudoning xulq-atvori bilan taqqoslash juda osondir, chunki Xudo eng cho'qqi hokimiyat egasidir.

Dushman bizning yerlik otalarimizga nazarimizni buzib, Samodagi Otamizning xulq-atvorini mohirona buzib ko'rsatadi. Xudo Iso Masihning qaytishi oldidan otalarning yuragi bolalarga qaratilishini aytgan (Malaxi 4:6). Rabbiyning xulq-atvori va tabiati Uning yetakchilarida aks etadi va bu – shifolanishni tezlashtiruvchi bo'ladi.

Xudo hech qachon sizga ziyon yetkazish yoki sizni halok qilish maqsadi bilan nimadir qilmasligini va U hayotingizda nimanidir qilsa yoki qilmasa, bularning hammasi sizning foydangizga ekanligini bilsangiz, shundagina siz o'zingizni Unga ixtiyoriy bag'ishlaysiz. Siz quvonch bilan o'z jonini Rabbiyga ishonib topshirgan odamga aylanasiz.

Agar siz o'zingizni Iso Masihga to'liq topshirgan bo'lsangiz, Uning panohi ostida bo'lasiz, siz vasvasaga tushmaysiz va xafa bo'lmaysiz, chunki siz o'zingizniki emassiz. Xafa bo'lgan va hafsalasi pir bo'lgan odamlar – bu Iso Masihning oldiga Uning Kimligi tufayli emas, balki U ularga nima qila olishi mumkinligi uchungina kelgan odamlardir.

Bizda bunday munosabat bo'lganida, osongina bizning hafsalamiz pir bo'ladi. Diqqatni o'zimizga qaratganlik bizni uzoqni ko'ra olmaydigan qilib qo'yadi. Biz buning orqasidan hozirgi vaziyatlarimizga imon ko'zlari bilan qaray olmaydigan bo'lib qolamiz. Bizning hayotimiz haqiqatan Iso Masihda yashiringan bo'lganida, biz Uning xulq-atvorini bilamiz va Uning quvonchini bo'lisha olamiz. Shunda biz tebranmaymiz yoki kemamiz halokatga uchramaydi.

Biz tabiiy vaziyatlarga va shart-sharoitlarga asoslangan holda hukm yuritganimizda, xafa bo'lib qolishimiz juda ham oson. Bu – Ruhning ko'zlari orqali qarash emasdir. Ko'pincha Xudo menga men kutgan tarzda yoki men javob menga aynan hozir kerak deb o'ylagan vaqtda javob bermaydi. Ammo men orqaga, har bir o'tgan vaziyatlarimga nazar tashlaganimda, hammasini tushunaman va hamma narsada Uning donoligini ko'raman.

Ba'zida bolalarimiz ularning tarbiyalash uchun qo'llanadigan usullarni va tarbiyaning ortidagi mantiqni tushunmaydilar. Biz barchasini to'ng'ich farzandlarimizga tushuntirib berishga harakat qilamiz, toki ular donolikdan naf topsinlar. Biroq ba'zida

ular tushunmasliklari va hali g'o'rliklari tufayli bizning fikrimizga qo'shilmasliklari mumkin, lekin ular buni keyinchalik anglab yetadilar. Ba'zan qiyinchiliklardan sabab, ularning itoatkorliklarini, sevgilarini va yetukliklarini sinovdan o'tkazish bo'ladi. Bizning Samoviy Otamiz bilan bo'lgan munosabatlarimizda ham xuddi shundaydir. Bunday vaziyatlarda imon: "Garchi men buni tushunmasamda Senga ishonaman", - deydi.

Biz Ibromiyliklarga maktubning 11:35-39da ularga berilgan Xudo va'dalarining amalga oshganini ko'ra olmagan, biroq shunda ham imonda mustahkam turgan odamlarning ta'rifini topamiz: "Boshqalari esa qutulishni qabul qilmasdan azoblangan edilar, toki a'loroq tirilishga erishsinlar. Boshqalari esa haqoratlari kaltaklarga, zindonlari kishanlarga chidar edilar, toshbo'ron qilingan, arralangan, qiynoqlarga solingan, qilichdan o'tkazilgan edilar. Qo'y va echki terisiga o'ranib sarson-sargardon kezar, muhtojlikda va quvg'inda yurar, azob-uqubat chekar edilar. Dunyo munosib bo'lmagan bu odamlar sahrolarda, tog'larda, g'orlarda, yerning daralarida darbadar yurar edilar. Ularning hammasi imon orqali ma'qullanishga ega bo'lib, *va'da qilinganini qo'lga kiritmadilar*".

Ular shunday qaror qildilar: Ular istagan hamma narsa bu Xudodir va buning narxi qanday bo'lishining ularga farqi yo'q! Ular hattoki va'dalarning amalga oshganini ko'rmasdan o'lganlarida ham Unga ishondilar. Ular xafa ham bo'lmadilar yoki vasvasaga ham tushmadilar!

Agar biz Xudoga shunday kuchli sevgiga va ishonchga ega bo'lsak, biz ildiz otganmiz va o'rnatilganmiz. Shunda hech qanday bo'ron, u qanchalik kuchli bo'lmasin, bizni hech qachon larzaga sola olmaydi. Bunday qobiliyat kuchli irodadan yoki shaxsdan kelib chiqmaydi. Bu o'z umidini Xudoga bog'lab, o'ziga bo'lgan umiddan voz kechganlarning barchasi uchun inoyat in'omidir. Biroq hayotni Xudoga butunlay bag'ishlash uchun, sizning hayotingizni O'z qo'llarida ushlab turgan Zotni bilishingiz lozim.

INOYAT KAMTARLARGA BERILADI

Shimyon Petrus o'zining ulug'ligi bilan ortiq maqtana olmadi. U o'zining o'z-o'ziga ishonish xulq-atvoridan forig' bo'ldi. U o'z irodasining kuchi behudaligini nihoyatda aniq ko'rdi. U o'zini kamtar qildi. Endi u Xudoning inoyatini olish uchun benuqson nomzodga aylandi. Xudo O'z inoyatini kamtarlarga beradi. Kamtarinlik – buning uchun zarur bo'lgan talab hisoblanadi. Bu dars Petrus o'z maktubida: “Hammangiz esa kamtarlikka burkaninglar, chunki Xudo mag'rurlarga qarshilik qiladi, kamtarlarga esa inoyat beradi”, – deb yozganida, bu uning ongida muhrlangan edi (1-Petrus 5:5).

Petrus to'liq umidsizlikkacha yetib borishiga ozgina qolgan edi. Biz bu haqda qabr yonida Rabbiyning farishtasi magdadalik Maryamga aytgan so'zlardan bilib olamiz: “Shuning uchun boringlar, Uning shogirdlariga va Petrusga U sizlarni Galileyada kutayotganini aytinglar. U sizlarga aytganidek o'sha yerda Uni ko'rasizlar” (Mark 16:7). Farishta Petrusni alohida tilga oldi. Petrus sinish arafasida edi, biroq Xudo tomonidan unda poydevor solingan edi. U larzadan vayron bo'lmadi, balki yanada mustahkamlandi.

Iso Masih nafaqat Petrusni kechirdi, balki uni qayta tikladi. Endi, “larzaga solingan” bo'lib, u jamoatning markaziy shaxslaridan biri bo'lishga tayyor edi. Petrus Iso Masihning xochga mixlanishida aybdor bo'lganlarning qarshisida Uning tirilishini mardlarcha e'lon qildi. U endi faqatgina xizmatkor qiz bilan emas, balki sinedriondagilar bilan yuzma-yuz duch kelishga ham tayyor edi. U ularning qarshisida buyuk hokimiyat va jasorat bilan turar edi.

Tarixning hikoya qilishiga ko'ra, Petrus uzoq yillik sodiq xizmatidan so'ng boshi pastga qilib xochga mixlangan. U Rabbiysi o'lgan o'lim bilan o'lishga loyiq emasligini aytib qattiq turib olgan, shuning uchun uni boshini pastga qilib xochga mixlaganlar. U ortiq qo'rqmadi. U Qoyaning mustahkam asosiga qo'yilgan toshga aylangan edi.

Hayot sinovlari yuragingizdagi haqiqatni ochib beradi va ko'rsatadi: unda Xudoga yoki boshqalarga nisbatan xafalik bormi?

Sinovlar sizni yoki Xudoga va boshqalarga nisbatan darg'azab, yoki yanada kuchliroq odam qiladi. Agar siz sinovlardan o'tsangiz, sizni va kelajagingizni yanada mustahkamroq qilib, ildizingiz yanada chuqurroq kiradi. Sinovlardan o'tmasdan turib, siz imonning yo'qolishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xafa odamga aylanishingiz mumkin.

RABBIY, MEN SENG XIZMAT QILDIM, NIMA UCHUN...?

Men cho'pon bo'lganimda, yoshlar guruhimizda do'stlari va jamoatning yetakchilari hurmat qilgan juda qobiliyatli o'n to'rt yoshli bir bola bor edi. U omadli, ajoyib o'quvchi edi. Xudoning barcha narsalariga rashkli bo'lganligi uchun, u ixtiyoriy ravishda har bir masihiy loyihaga kirishib ketar edi. Ba'zida u biz bilan birga missionerlik safarlariga chiqar va deyarli har bir uchratgan kishisiga guvohlik berar edi.

Hayotining bir davrida u har kuni to'rt soatdan ibodat qildi. U Rabbiydan ko'p vahiyalar olar va ularni boshqalar bilan bo'lishar edi. Uning bo'lishganlari har doim duo-baraka bo'lar edi. U xizmatdagi o'zining da'vatini anglab yetdi va o'n to'rt yoshga to'lganida va tebranmas qoya bo'lib ko'ringanida, cho'pon bo'lishni xohladi.

Men bu yosh yigitni yaxshi ko'rar, Xudoning moylanishi unda ekanligini tan olar va u uchun vaqtimni ayamas edim. Faqatgina bir narsa meni bezovta qilar edi: u nihoyatda o'ziga ishonadigandek ko'rinar edi. Men unga bu haqda aytishni xohladim, lekin hali vaqti kelmagan edi. U bir qancha kuchli bo'ronlarni boshidan o'tkazdi, biroq mustahkam turishda davom etdi. Men uning shafqatsiz sinovlarni o'tkazganligiga qarab turib, ba'zida balki men unga nohaqdirman deb shubhalanar edim.

Bir necha yillar o'tdi. U boshqa joyga ko'chib o'tdi, men esa juda ko'p safarlarda bo'ldim. Biroq biz aloqani tutib turar edik. U tubdan o'zgarish va sinish jarayonidan o'tayotganini his qildim. Bu sodir bo'lishi kerak edi, biroq bu qanday bo'lishidan mutlaqo xabarim yo'q

edi. U o'z vazifasini bajarishi uchun sinovdan o'tishi kerak ekanligini bilar edim. Bu jarayonning sodir bo'lishi Shimyon Petrusning elakdan o'tkazilishiga o'xshash bo'lishi kerak edi. Bu o'spirin o'n sakkiz yoshga to'lganida, uning otasi saraton xastaligining davolab bo'lmaydigan turi bilan betob bo'lib qoldi. U onasi bilan birga otasi shifo topishiga ishonib, ro'za tutib, ibodat qildi. Ularning ibodatiga boshqa imonlilar ham qo'shildilar. Uning otasi bor-yo'g'i bir necha oy ilgari o'z hayotini Iso Masihga bag'ishlagan edi.

Otasining ahvoli og'irlashdi. Xotinim men bu yigit bilan tezda aloqaga chiqishimni so'rab menga qo'ng'iroq qilganida, men Alabamaning bir shahrida xizmatda edim. Men unga qo'ng'iroq qildim va u kimdir unga dalda berishiga va yupatishiga muhtoj ekanligini tushundim.

Xizmatdan so'ng men butun tun mashinada yurib, tonggi to'rtida uning uyiga yetib keldim. Otasi shunday og'ir ahvolda ediki, shifokorlar uning bir necha kun yashashini aytgan edilar. U endi gaplasha olmas edi. Yigitning esa uning otasi sog'ayib ketishiga ishonchi komil edi. Men bu oilaga hafsala bilan xizmat qildim va bir necha soatdan so'ng ketdim. Ertasi kuni ertalab bizga qo'ng'iroq qilib, otasining ahvoli og'irlashayotganini aytishdi.

Biz Liza bilan darhol ibodat qilishga kirishdik. Biz ibodat qilayotganimizda, Xudo xotinimga bergan vahiya kasal odamni O'zining oldiga, samoga olib ketish uchun uning to'shagining yonida turgan Iso Masihni ko'rdi. O'ttiz daqiqadan so'ng, bu yosh yigit menga qo'ng'iroq qilib, otasi vafot etganini aytdi. U xuddi avvalgidek tebranmas bo'lib qolgan kabi ko'rindi. Biroq bu faqatgina boshlanishi edi. O'sha kuni kechqurun otasi vafot etganligini aytish uchun do'stlaridan biriga qo'ng'iroq qildi. Dastakni ko'targanlarida u yerdan yig'i ovozi eshitildi. U hayron qoldi. Nahotki ular allaqachon otasining o'limi haqida bilsalar? Biroq ular boshqa sababdan yig'lar edilar. Hozirgina avtohalokatda uning yaqin do'stlaridan biri halok bo'lgan edi. U bir kunda otasini va uning uchun qadrli bo'lgan do'stini yo'qotdi.

Sinovlar boshlandi. U hayratda, parokandalikda va murdadek qotib

qolgan edi. Xudoning huzuri uni tashlab ketgandek tuyular edi.

Bir oydan so'ng, u mashinada uyiga qaytayotganida, avtohalokat joyiga kelib qoldi. U tez yordam ko'rsatish darsini olgan edi, shuning uchun to'xtadi. To'qnashgan mashinalarning ikkala haydovchisi ham uning yaqin do'stlari edi. U ularga yordam berishga urinayotganida, ularning ikkalasi ham uning qo'lida vafot etdi.

Mening yosh do'stim o'z insoniy imkoniyatlari chegarasiga yetib keldi. U ibodat qilib va Xudoga: "Sen qayerdasan? Sen mening Yupatuvchim bo'lishingni aytgan eding, menda esa hech qanday yupanch yo'q!" – deya yolvorib, uch soatni o'rmonda o'tkazdi.

Xuddi Xudo unga orqasini burgandek tuyuldi. Biroq bu uning shaxsiy kuchi unga ilk bora pand berishi edi.

Uning Xudodan jahli chiqdi. Nima uchun U bularning barchasi sodir bo'lishiga ruxsat berdi? Uning cho'pondan, oilasidan yoki mendan jahli chiqmadi. U Xudodan xafa bo'ldi va jahli chiqdi. U umidsizlik tomonidan yutib yuborilgan edi. Xudo uning kuchli muhtojlik onlarida unga pand berdi.

"Rabbiy, men Senga xizmat qildim va buning uchun ko'p narsadan voz kechdim", – ibodat qilar edi u, – endi esa Sen meni tashlab ketding!" U Xudoga xizmat qilish uchun tark etgan narsalar evaziga U unga nimadir qilishi shart deb hisoblar edi.

Ko'pchilik odamlar bundan ko'ra kamroq jarohatlarni va ko'ngil sovishni boshdan kechirganlar, ba'zilari esa bundan ortiqroq. Ko'plar Xudodan xafa bo'lganlar. Ular Xudo uchun qilganlarini U hisobga olib qo'yishi shart deb hisobladilar.

Ularning Xudoga xizmat qilishlarining sababi noto'g'ri bo'lgan. Biz Rabbiyga U nimadir qila olishidan ko'ra ko'proq, Uning kimligi va U allaqachon bizlar uchun nima qilganligi uchun xizmat qilishimiz kerak. Xafa bo'ladigan odamlar ularning ozod bo'lishi uchun U allaqachon qanchalik buyuk bahoni to'laganini anglab yetmaydilar. Ular qanday o'limdan najot topganliklarini unutib qo'yishgan. Odamlar abadiylik ko'zlari bilan qarashning o'rniga dunyoviy ko'zlari bilan qaraydilar.

Bu yigit jamoatga borishni to'xtatdi va noto'g'ri odamlar bilan barlarda o'tirib, ularning nopok kechalarida qatnashib, ular bilan do'stlashdi. U ko'ngli qolganidan Xudo bilan hech qanday umumiylikka ega bo'lishni xohlamadi va U bilan bo'lgan aloqalardan qochdi.

U bu tarzda ikki haftadan ortiqroq vaqt yashay olmadi, zero yuragi uni fosh qilgan edi. Biroq u avvalgiday Rabbiyga yaqinlashishni olti oycha rad etdi. Shundan keyin ham osmon mis kabi qattiq edi. Xuddi Xudoning huzuri hech qayerda yo'qdek bo'lib qolgan edi.

Taxminan bir yil o'tdi va u Xudo uning uchun avvalgiday g'amxo'rlik qilayotganini ko'rdi. Yosh yigit Xudoga yana yaqinlashishni boshladi, lekin umuman boshqacha tarzda yaqinlashdi. U Uning oldiga itoatda keldi. Sinov vaqtlari tugaganidan so'ng, Rabbiy uni hech qachon tashlab ketmaganini unga ko'rsatdi. Uning ruhiy harakati tiklanganida, u o'zining kuchliliga emas, Xudoning inoyatiga umid qilishni o'rgandi.

Men keyinchalik ham u bilan aloqada bo'ldim. U yarim yildan so'ng menga avval hech qachon hayoliga ham keltirmagan narsani o'zida ko'rganini aytdi: "Men xarakterga ega bo'lmagan odam bo'lganman, mening barcha munosabatlarim yuzaki edi. Otam meni tarbiyalab, tashqi tomondan kuchli va o'ziga ishonuvchan bo'lishga o'rgatgan. Men hech qachon Xudo meni ko'rishni xohlagan tasvirga o'zgara olmas edim. Rabbiy shunday holatimda meni tashlab ketmaganligi uchun Undan minnatdorman.

Biroq yuragimni ko'proq siyoh qilgan narsa, bu men barlarda yurganim va spirtli ichimlik ichganim emas, ammo Muqaddas Ruhga orqamni burganimdir. Men uni juda sevaman. Mening U bilan munosabatlarim avval hech qachon hozirgidek ajoyib emas edi".

Uning hayotida ko'pgina larzaga solishlar sodir bo'ldi. O'ziga bo'lgan ishonch yo'q qilindi. Bu yigit Petrus ega bo'lgan poydevorga ega edi va buni hech kim undan tortib ola olmaydi. U o'z hayotini va xizmatini mag'rurlikning ustiga emas, balki uni endi Xudoning inoyatida qurmoqda.

Vasvasalar va xafaliklar hayotimizdagi zaif va mo'rt joylarni ochib beradi. Ko'pincha biz o'zimizni kuchli deb hisoblagan joyimiz, bizning yashirin, zaif joyimiz bo'lib chiqadi. Kuchli bo'ronlar undan yoping'ichini olib tashlamagunicha, u yashirin bo'lib qolaveradi. Havoriy Pavlus yozgan: "Zero biz – ruh bilan Xudoga xizmat qilayotgan, Iso Masih bilan maqtanayotgan, tanaviy *fazilatlarimizga* tayanmayotgan xatnamiz. (Filippiliklarga 3:3).

Biz o'zimizning kuchimiz bilan abadiy ahamiyatga ega bo'lgan hech bir ishni qila olmaymiz. Buni aytish oson, ammo bu haqiqatni o'z borlig'imizga chuqurroq ildiz otishiga ruxsat berish – bu umuman boshqa narsadir.

ISO MASIH ODAMLAR XAFA BO‘LMASLIKLARI UCHUNGINA HAQIQATDAN KECHMAS EDI.

Sizning “Shaytonning xo‘ragi” kitobingiz, haqiqatan mening ko‘zlarimni ochdi. Men va mening turmush o‘rtog‘im xizmatchilarmiz va men Rabbiy bilan munosabatlarim a‘lo darajada degan fikrda edim. “Shaytonning xo‘ragi” mendagi hammaga nisbatan bo‘lgan o‘n besh yillik xafaligim mening taqdirimda hamma narsani belgilashini ochdi. Bizlar masihiylar sifatida doimo kechirishga o‘rgatilganmiz, lekin toki sizning kitobingiz mening o‘tmishimdagi yaramga yuzimni qaratmagunicha, bu amrni yuragimga qabul qilgan emas edim.

– R. M., TENNESI

VASVASA TOSHI

“Mana, Men tanlangan, qimmatbaho bo’lgan asosiy burchak toshini Sionda o’rnatyapman. Unga ishongan kishi uyatda qolmas”. Shunday qilib, sizlar, ishonuvchilar uchun U bebaholikdir, imonsizlar uchun esa quruvchilar rad qilgan toshdir. Lekin U burchakning boshi, vasvasa va qoqinish toshi bo’ldi, shuning uchun Xudoning So’ziga itoat qilmaganlar Unga qoqinadilar. Ular ana shunga mahkum etilganlar.

– 1-Petrus 2:6-8

Bugun “ishonish” so’zining ma’nosi o’z kuchini yo’qotgan. Aksariyat odamlar uchun u faqatgina ma’lum faktni shunchaki tan olishni bildiradi. Ko’pchilik uchun “ishonish” so’zi

itoatkorlik bilan hech qanday umumiylikka ega emas. Biroq Yozuvda “imon keltirganlar” soʻzi “itoat qilmaslik” soʻzi bilan qarama-qarshidir. “U bizlar, ishonuvchilar uchun bebaholikdir, itoatsizlar uchun esa...”.

Yozuv oʻrgatadiki: “...toki Unga ishongan har bir kishi halok boʻlmasin, balki abadiy hayotga ega boʻlsin” (Yuhanno 3:16). Bizning “ishonish” soʻziga boʻlgan munosabatimiz tufayli koʻpchilik odamlar ulardan talab qilinadigan narsa bu – Iso Masihning bor boʻlganligiga va Goʻlgotada oʻlganiga ishonishlari lozim va shunda ular Xudoning qarshisida toʻgʻri holatda boʻlishadi deb hisoblaydilar. Biroq agarda bu yagona talab boʻlganida edi, jinlar ham shunday Xudoning qarshisida toʻgʻri holatda boʻlgan boʻlar edilar. Yozuv: “Sen Xudoning yagonaligiga ishonasanmi? Yaxshi qilasan! Jinlar ham ishonadilar va dahshatdan titraydilar”, – deydi (Yoqub 2:19). Ammo jinlar uchun najot yoʻq.

“Ishonmoq (yoki imon keltirmoq) soʻzi Yozuvda nimanidir borligini shunchaki tan olishdan yoki qandaydir faktga aqliy rozilikdan koʻra chuqurroq maʼnoga egadir. Avvalgi oyatning maʼnosiga asoslanib aytish mumkinki, ishonishning asosiy tarkibiy qismi itoatkorlikdir. Boshqacha qilib oʻqiganimizda: “Shunday qilib, siz, itoatkorlar uchun U bebaholikdir, itoatsizlar (yoki boʻysunmaslar) uchun esa quruvchilar rad qilgan toshdir. Lekin U burchakning boshi, vasvasa va qoqinish toshi boʻldi”.

Siz boʻysunadigan kishingizning xulq-atvorini va sevgisini bilganingizda, itoatkor boʻlish qiyin boʻlmaydi. Bizning Iso Masih bilan oʻzaro munosabatlarimizning asosi – sevgidir. Prinsiplarga yoki taʼlimotga boʻlgan sevgi emas, balki shaxsan Iso Masihga boʻlgan sevgidir. Agar u sevgi bizlarda oʻrnashmagan boʻlsa, biz vasvasalarga, xafaliklarga va qoqinishlarga duchor boʻlamiz.

Xudo quruvchi boʻlishlari uchun chaqirgan isroilliklar Xudoning burchak toshi boʻlmish Iso Masihni rad etdilar. Ular oʻzlarining Eski Ahdining taʼlimotini sevar edilar, oʻz Qonunining sharhidan mamnun edilar, chunki ulardan oʻzlarining manfaatlari uchun foydalanishlari va ularni boshqa odamlarning ustidan nazorat uchun foydalanishlari mumkin edi. Ammo Iso Masih, boshqa tomondan,

ular shunchalik qattiq yopishib olgan qonunchilikka qarshi chiqdi. U ularga: “Yozuvlarni sinchiklab tekshiringlar, zero ular orqali sizlar abadiy hayotga ega bo’lishni o’ylaysizlar; ular esa Men haqimda guvohlik beradilar”, – dedi (Yuhanno 5:39).

Xudo azaldan U o’zaro yaqin munosabatlarga ega bo’lishi mumkin bo’lgan o’g’illar va qizlarga ega bo’lishni xohlaganligi g’oyasi ularning ichiga sig’madi. Ular esa hukmronlik qilishni va boshqarishni xohladilar. Ularning nigohida qonun Xudo bilan munosabatlardan ko’ra yuqori bo’lib qoldi. Ular Xudo tomonidan sovg’a qilib berilgan narsani rad etdilar. Ular buni yaxshirog’i savob ishlar bilan qo’lga kiritishni afzal ko’rdilar. Shu sababdan Xudoning bepul in’omi, ularning hayot umidi va najoti bo’lgan Iso Masih – ular uchun “qoqinish va vasvasa toshi” bo’ldi.

Shim’o’n ma’badda qo’llariga chaqaloq Isoni olganida bashorat qilib: “Mana, bu chaqaloq Isroilda ko’plarning qulashiga hamda yuksalishiga sababchi bo’ladi”, – dedi (Luqo 2:34). E’tibor bering, “qulashga” va “yuksalishga”. Yerga tinchlik keltirish uchun kelgan Shaxs, oxir natijada, O’zi yuborilgan odamlar uchun bo’linish qilichi (Matto 10:34) va quruvchilarning (o’sha paytdagi xizmatkorlar) qurbonlari bo’lganlarga hayot keltirish bilan yakunladi.

ISO MASIH VA VASVASALAR

Yakshanba kungi maktablarda, Iso Masih ko’pincha O’z yelkasida yo’qolgan qo’zichoqni ko’tarib podaga qaytayotgan Cho’pon sifatida tasvirlanar edi. Yoki Uni kichkina bolalarni quchoqlab turgani ko’rsatilar edi: U O’z qo’llarini duo qilish uchun ularning ustiga qo’yib turar yoki jilmayib: “Men seni sevaman”, – der edi. Bularning barchasi to’g’ri, ammo bular to’liq manzara emas edi.

Xuddi O’sha Iso Masih farziylarni o’zlarining haqliklarida aybladi: Ilonlar, zaharli qora ilon avlodi! Sizlar jahannam hukmidan qanday qochib qutulasizlar? (Matto 23:33). U MA’BADDAGI pul almashtiruvchilarning xontaxtalarini ag’darib tashladi va ularni quvib yubordi (Yuhanno 2:13-22). Unga ergashishdan oldin o’z

otasini dafn qilib kelishni xohlagan odamga U: “Qo’yaver, o’lik bo’lganlar o’z o’liklarini *o’zlari* ko’msin. Sen esa borib, Xudoning Shohligini voizlik qilgin,” – dedi. Bu ham hali hammasi emas edi.

Iso Masihning xizmatiga diqqat bilan nazar tashlash bizga xizmat vaqtida ko’plarni vasvasaga solgan va xafa qilgan Odamni ochib beradi. Keling, bir nechta misollarni ko’rib chiqamiz.

ISO MASIH FARZIYLAR UCHUN VASVASAGA AYLANDI

Iso Masih ko’pgina vaziyatlarda din ulamolariga vasvasa bo’lib, ular bilan qarama-qarshilikda yurgan. Ular Undan xafa bo’lganliklari tufayli Uni xochga yubordilar. Ular Undan nafratlanar edilar.

Biroq Iso Masih ularga haqiqatni ayta olish darajasida ularni sevar edi: “Ikkiyuzlamachilar! Isha’yo sizlar haqingizda yaxshi bashorat qilgan edi: “Bu xalq Menga og’izlari bilan yaqinlashadi va Meni lablari bilan hurmat qiladi, lekin ularning yuraklari Mendan uzoqdir”. Ular odamlarning ta’limoti va amrlarini o’rgatib, Meni behudaga ehtirom qiladilar” (Matto 15:7-9). Iso Masihning bu so’zlari ularni xafa qildi.

Bundan so’ng, tezda Uning shogirdlari nima deganlariga e’tibor bering:

Ular: “Bu gaplarni eshitib farziylar vasvasaga tushganini (ya’ni xafa bo’lganini) bilasanmi? – dedilar”.

– MATTO 15:12

Uning javobiga diqqat qiling:

Mening Samoviy Otam o’tqazmagan har bir o’simlik sug’urib tashlanadi. Ularni qo’yinglar, ular ko’rlarning ko’r yo’lboshlovchilaridir; agar ko’rni ko’r boshqarsa, ikkalasi ham jarga qulaydi.

– MATTO 15:13-14

Iso Masih vasvasalar, ya'ni xafaliklar, Xudoning Shohligini haqiqatan Uning Otasi tomonidan o'tqazilmaganlardan tozalashini ko'rsatdi. Ba'zi odamlar jamoatga yoki xizmatga qo'shilishlari mumkin, shu bilan birga, ular Xudo tomonidan yuborilmagan va Xudodan bo'lmasliklari mumkin. Haqiqatga javoban ko'tariluvchi xafalik (vasvasa) ularning asl maqsadlarini ochadi va ular ketadilar.

Men boshqa jamoatlarda bo'lganimda, jamoat xizmatchilari tarkibidan yoki jamoat a'zolari safidan ketgan ba'zi odamlar uchun cho'ponlarning xafa bo'lganliklarini ko'p marotaba ko'rganman. Ko'p hollarda bu ketgan odamlar ularning hayot tarzini fosh qilgan haqiqat voizlik qilinganidan xafa bo'lganlar. Shundan so'ng, ular jamoatdagi har bir xizmat sohasini tanqid qila boshlaganlar va jamoatdan ketganlar.

Agar cho'ponlar ularning eshiklaridan kirganlarning barchasini nima bo'lganda ham ushlab qolishga harakat qilsalar, oqibatda, ular haqiqatdan kechishlariga to'g'ri keladi. Agar siz haqiqatni voizlik qilsangiz, siz albatta ba'zi odamlarni vasvasaga solasiz va xafa qilasiz hamda ular ketib qoladilar. Ular tufayli qayg'uiga tushmang, biroq yaxshisi Xudo sizga yuborgan odamlarni oziqlantirishda va tarbiyalashda davom eting.

Ba'zi yetakchilar odamlarni yo'qotib qo'yish qo'rquvi tufayli qarama-qarshiliklardan qochadilar.

Ayniqsa, cho'ponlar fosh qilinishi kerak bo'lgan o'sha odamlarning ko'p miqdorda pul qurbonlik qilishi yoki jamoatda va jamiyatda alohida e'tiborli kishilar bo'lganliklari tufayli bundan qo'rqadilar. Boshqalar qandaydir ular bilan uzoq muddat birga bo'lganlarning tuyg'ulariga qattiq tegishdan qo'rqadilar. Buning natijasida cho'ponlar Xudo tomonidan ularga ishonib topshirilgan qo'ylarni oziqlantirish va himoyalash hokimiyatini yo'qotadilar.

Men birinchi marotaba cho'pon bo'lganimda, bir dono kishi meni ogohlantirib: "O'z hokimiyatingda mustahkam turgin, aks holda, boshqa kimdir uni olib qo'yadi va senga qarshi ishlatadi", – degan edi.

Shomuil hech kimning, shu jumladan, podshohning ham oldida haqiqatga qarshi bormaydigan Xudoning odami edi. Shoul Xudoga itoat qilmaganida, Rabbiy Shomuilga uni fosh qilishini aytdi. U xuddi shunday qildi. Afsuski, Shoul Rabbiyning so'ziga astoydil tavba qilish bilan javob qaytarmadi. U ko'proq boshqa odamlarning nighida qanday ko'rinishidan xavotirda edi. Shomuil ketish uchun o'girilganida, Shoul uning kiyimining etagidan tutdi va uni tortib, yirtib oldi. Shomuil uni keyingi ushbu so'zlar bilan yaraladi: "Rabbiy endilikda Isroilning hukmronligini sendan tortib oldi" (1-Shohliklar 15:28).

Bu narsa – Shomuil Shoul uchun xohlagani emas edi. U Shoul uchun xafa bo'ldi. Shomuil Shoulni podshohlikka moyladi, unga toj kiydirdi va unga hukmdorlik qilishni o'rgatdi. U Shoulning shaxsiy do'sti edi. Biroq Xudo Shoul tufayli bo'lgan Shomuilning xafaligiga qanday javob qaytarganligiga quloq soling: "Qachongacha Shoul haqida qayg'urasan? U Isroil ustidan podshoh bo'lmasligi uchun *Men uni rad qildim. Shoxingni moy bilan to'ldirib*, borgin. Men seni... yuboraman" (1-Shohliklar 16:1).

Xudo Shomuilga yangi moy bilan yoki moylanish bilan harakat qilishda davom etishini aytdi, u Xudoning sevgisi va Xudoning hukmi mukammal ekanligini anglab yetishi kerak edi. Agarda Xudo Shoulni rad etgan vaqtda, Shomuil Shoulning oldiga qaytganida edi, Shomuilda yangi moy bo'lmas edi. Agarda u qayg'urishda va yig'lashda davom etganida edi, u oldinga harakat qila olmas edi.

Jamoatni tark etgan odamlar uchun qayg'uradigan va yig'laydigan cho'ponlar fosh qilishni va ular do'stlari bo'lganliklari sababli ularga qarshi turishni rad etadilar va oxirida, bunday cho'ponlarning moylanishlarining moyi quriydi. Ba'zi masihiy xizmatlar o'lmoqda, boshqalari esa faqatgina tirik bo'lib ko'rinoqda. Hattoki anglab yetmasdan turib, ular Xudo bilan o'zaro munosabatlaridan ko'ra, o'zlarining odamlar bilan o'zaro munosabatlarini afzal ko'rdilar.

Muqaddas Yozuv Iso Masih Uni tark etganlarga qanday javob bergani haqida guvohlik bermaydi. Uning istagi faqatgina Xudoning irodasini amalga oshirish edi. U buni qilib, ko'p miqdordagi odamlarga foyda keltira olar edi.

Men bir kuni Muqaddas Ruh bilan to'lgan jamoatda qanday voizlik qilganimni hech qachon unutmayman. Bunga taxminan bir yil bo'ldi. Birinchi yakshanbada men faqat tavba va birinchi sevgiga qaytish mavzusida voizlik qildim. Men qarshilikni his qildim, ammo men o'shanda aynan shuni voizlik qilishim kerakligini bilar edim.

Xizmatdan so'ng cho'pon menga: "Siz bugun ertalab voizlik qilgan mavzuni Xudo menga ko'rsatgan edi, biroq men odamlarim buni eshitishga tayyor emas deb o'ylagan edim," – dedi.

Xotinim Muqaddas Ruh uni cho'ponga savol berishga undaganini his qilib: "Bu jamoatning cho'poni kim, sizmi yoki Iso Masihmi?" – dedi.

Bu cho'pon buni eshitib, boshini quyi soldi. Rabbiy aynan shuni menga bir oycha oldin aytgan edi. U menga odamlar nimani sig'dira olishini Uning O'zi bilishini aytgan edi. Cho'pon bizga jamoatining uchdan bir qismi "eskilik tarafdorlari"dan tashkil topganini aytib berdi. Ular xizmatning olib borilishini: musiqada va voizliklarda hech qanday o'zgarishlar bo'lmasligini xohlar edilar. Biz unga dalda berdik va uni bardam bo'lishga hamda Rabbiyga bo'ysunishga chaqirdik.

Biz uning jamoatida yana to'rtta xizmat o'tkazdik va ular tobora qiyinlashib bordi. Biz shahardan ketayotganimizda, men ichimda xuddi qum to'ldirilgan qopni his qildim. Men gap nimada ekanligini tushuna olmas edim va o'zimni yanada og'irroq va yomon his qila boshladim.

Odatda men jamoatdan ketayoganimda quvonch yuragimni to'ldirar edi. Bu daf'a muammo nimada ekanligini bilmas edim.

Va nihoyat Rabbiy bilan yolg'iz qolganimda men: "Ota, men nimani noto'g'ri qildim, mening xatoim nimada? Nima uchun mening ruhimda bunday og'ir yuk? Balki men cho'ponning hokimiyatini tortib olgandirman?" – deb so'radim.

U shunchaki dedi: "Oyoqlaringizdagi changni qoqib ketinglar" (Luqo 9:5).

Men Undan buni eshitganimda hayratda qoldim. Men ibodat qilib, Undan so'rashda davom etdim, ammo javob tariqasida o'sha

so'zlarni eshitdim: "Oyoqlaringizdagi changni qoqib ketinglar".

Nihoyat Rabbiyga quloq soldim. Qo'llarim oyoqlarimdagi changni qoqib ketganida, og'irlik meni tark etdi va quvonch yuragimni to'ldirdi. Men hayron bo'lib qoldim: "Biroq, Rabbiy, nima uchun buni qilish kerak edi, axir ular menga tashlanmadilar va meni shahardan chiqarib tashlamadilar-ku?"

U jamoatdagi boshliqlar va ko'pchilik odamlar Uning so'zlarini rad etganliklarini menga ko'rsatdi.

Men: "Rabbiy, ularga yana vaqt ber", – deb so'radim.

"Men ularga hattoki yana ellik yil bersam ham, ular baribir o'zgarmaydilar. Ular o'z yuraklarida qat'iy qaror qabul qilganlar".

O'sha cho'pon Xudoga bo'ysunishning o'rniga o'zaro kelishuv vositasida tinchlikni saqlashga qaror qilganligini tushundim. Uning shoxi yangi moy bilan to'ldirilmagan edi. Unda xudojo'ylikning asl mohiyati bo'lmasdan, xudojo'ylikning ko'rinishigina bor edi. Boshqacha so'z bilan aytganda, u tashqi tomondan Ruhga to'lgandek ko'rinar edi, biroq unda Xudoning kuchi ham, Uning huzuri ham yo'q edi. Keyinchalik u cho'ponlikni tashlaganini va o'sha jamoatdan faqat kichkinagina guruh qolganligini eshitdim.

Iso Masih boshqalar Uni boshqarishiga yo'l qo'ymaydi. U haqiqatni, hattoki, bu qarama-qarshilikni va kuchli vasvasani bildirganida ham aytgan. Agar siz faqatgina odamlarning ma'qullashiga ega bo'lishni xohlasangiz, Xudoning moylanishi sizning ustingizga tusha olmaydi. Hattoki siz boshqalarni xafa qilish va vasvasa qilish xavfida bo'lsangiz ham Xudoning so'zini gapirishga va Uning irodasini bajarishga yo'nalgan bo'lishingiz lozim.

ISO MASIH O'Z SHAHRINING AHOLISI UCHUN VASVASAGA AYLANDI

Iso Masih O'zi o'sgan shaharga xizmat qilish uchun keldi. Biroq boshqalarga keltirgan ozodlikni va shifolanishni ularga keltira olmadi. Ular nima deganliklariga diqqat qiling:

Bu duradgorning o'g'li emasmi? Uning onasining ismi Maryam, ukalariniki Yoqub, Yusuf, Simo'n va Yahudo emasmi? Uning hamma singillari bizlarning oramizda emasmi? Bularning hammasi Unga qayerdan ekan? Shunday qilib, Undan vasvasaga tushdilar. Iso esa ularga: "Payg'ambar o'z yurti va uyidan boshqa joyda hurmatsiz bo'lmaydi," – dedi.

– MATTO 13:55-57

Nosira aholisi nima deganini eshiting: U O'zini kim deb ko'rsatmoqdaki, bizni hokimiyat bilan o'qityapti? Biz Uning kimligini bilamiz. U shu yerda katta bo'lgan. Biz Uning oqsoqollarimiz. U shunchaki duradgorning o'g'li. Uning hattoki rasmiy ma'lumoti ham yo'q.

Iso Masih yana ularni vasvasaga solmaslik uchungina haqiqatga qarshi bormadi. Nosira aholisi qoya bilan to'qnashib, Undan shu qadar qattiq jahllandilar-ki, hatto Uni o'ldirishga urindilar (Luqo 4:28-30). Hattoki Uning hayoti xavf ostida bo'lganida ham, U haqiqatni gapirishda davom etdi. Biz bunday odamlarga qanchalar muhtojmiz!

ISO MASIH O'ZINING SHAXSIY OILA A'ZOLARI UCHUN VASVASAGA AYLANDI

Hatto Iso Masihning oila a'zolari U haqda vasvasaga tushdilar. Iso Masihning qilayotgan ishlari tufayli ular boshlaridan o'tkazgan bosim ularga yoqmasdi. Ular uchun Iso Masihning hatti-harakatlariga qarab, bu ishlarni U qilayotganiga ishonish qiyin bo'ldi. Keling, Yozuvga nazar tashlaymiz:

Yaqinlari buni eshitganlarida, Uni olib ketish uchun keldilar, chunki ular: "U aqldan ozgan," – der edilar.

...So'ng Uning birodarlari va onasi keldilar va tashqarida turib Uni chaqirish uchun odam yubordilar. Uning

atrofida ko'pchilik odam o'tirgan edi va ular Unga: – Mana, Sening onang va Sening birodarlaring tashqarida Seni so'rashyapti, – dedilar. U ularga javob berdi: – Kim Mening onam yoki kim birodarlarim? So'ng O'zining atrofida o'tirganlarga qarab: -Mana Mening onam va birodarlarim, – dedi, – zero kimki Xudoning irodasini bajarsa, aynan o'sha Mening birodarim, Mening singlim va Mening onamdir.

– MARK 3:21, 31-35

Oilasi Uni aqldan ozgan deb hisoblar edi. Diqqat qiling, Yoqub aytadiki, Iso Masihning oilasi “Uni olib ketish” uchun Uning orqasidan keldi. Mark Iso Masihni bir uyda voizlik qilayotgan holda topgan odamlar – Uning onasi va ukalari bo'lganligiga urg'u beradi. Hattoki Yuhanning xushxabarida: “Zero uning ukalari Unga ishonmadilar” – deyiladi (Yuhanno 7:5).

Iso Masih o'zining yaqinlari tomonidan rad etilgan bo'lganligini ko'pchilik o'ylab ko'rmaydi. Biroq U uyidagilarning qabul qilishini izlamas edi. U O'zini boshqarishlariga ruxsat bermagan. Uning tug'ishganlari Uni quvvatlashidan yoki quvvatlamasligidan qat'iy nazar, Uning xohishi Xudoning rejasini bajarish bo'lgan.

Men ko'pgina odamlarni, asosan, turmush o'rtoqlarini va oila a'zolarini xafa qilib qo'yish qo'rquvi tufayli Iso Masihning ortidan ergashishni rad etgan er-xotinlarni ko'rganman. Buning natijasida ular imondan qaytganlar yoki o'z da'vatlarini to'liq bajara olmaganlar.

Men yuqoridan tug'ilganimda, mening barcha oila a'zolarim rim-katolik jamoati a'zosi edilar va ular mening xursandchiligimga sherik bo'lmadilar. Ayniqsa, onam meni katta qilgan jamoatdan ketish qarorimdan nihoyatda darg'azab edi. Shubhasiz, Xudoni sevuvchi katoliklar ham bor, biroq, men Xudo meni bu yerdan chiqib ketishga chaqirayotganligini bilar edim.

Men xizmatchi bo'lish qarorimni oilamda e'lon qilganimda, menga ikkinchi zarba tushdi. Men oliygohda mexanik-injener diplomini olganim zahoti, ota-onam menga katta umid bog'lashgan edi. Men esa

Xudo mendan nimani xohlashini bilar edim va bu mening yaqinlarimni xafa qilishini ham bilar edim. Bir necha yil davomida men noqulaylikni his qildim. Ko'p tushunmovchiliklar bo'ldi. Biroq men qaror qildimki, mening ota-onam mendan qanchalik g'azablanishmasin, men baribir Iso Masihning ortidan ergashaman.

Avvaliga men ularga Xushxabar bilan hujum qilishga harakat qildim. Men ularga faqatgina jamoatga qatnayotganliklari bilangina najot topmasliklarini aytdim. Men ularni ularning chegaralariga itardim. Bu bilan men dono ish qilmadim. So'ngra Xudo menga ularning oldida masihiylik hayoti bilan yashashim lozimligini va ularga ezgu ishlarimni ko'rishlariga imkon berishim kerakligini o'rgatdi. Men avvalgidek oilamni rozi qilish uchun o'zaro kelishuvga bormadim.

Bugun ota-onam meni qo'llab-quvvatlaydilar va hammadan ko'ra ko'proq menga qarshilik qilgan buvam, vafotidan ikki yil oldin sakson to'qqiz yoshida najot topdi.

Iso Masihning onasi va ukalari Uni aqldan ozdi deb o'yladilar. Biroq Uning Samoviy Otasiga bo'lgan itoati tufayli ularning barchasi keyinchalik najot topdilar va Elliginchi kunda xonada havoriylar bilan birga edilar. Iso Masihning onasi tomonidan ukasi bo'lmish Yoqub Iyerusalimdagi jamoatning yetakchi havoriysi bo'ldi.

Agar biz oila a'zolarimizga yoqish uchun Xudo bizga aytganlariga qarshi borsak, biz o'z hayotimizda yangi moydan ayrilamiz va o'z yaqinlarimizning ozod bo'lishiga va najot topishiga halaqit beramiz.

ISO MASIH O'Z SHOGIRDLARI UCHUN VASVASAGA AYLANDI

Biz o'tgan bobda, Iso Masihdan vasvasaga tushganlarida shogirdlarining dunyoqarashlarini batafsil muhokama qildik. Keling, bunga yana bir bor nazar tashlaymiz, biroq ularga Iso Masihning ko'zlari bilan qaraymiz.

Uning shogirdlaridan ko'plari bu so'zlarni eshitib:

– Naqadar g'alati so'zlar! Kim bularga quloq sola

oladi? – dedilar. Ammo Iso Masih, shogirdlari bunga noliyotganlarini O'z ichida bilib, ularga dedi: Sizlarni bu vasvasaga solyaptimi? Shu vaqtdan boshlab Uning shogirdlaridan ko'pchiligi Undan yiroqlashdilar va boshqa U bilan birga yurmadilar.

– YUHANNO 6:60-61, 66

Vaziyat keskin edi. Din ulamolari Iso Masihni qanday o'ldirishni o'ylar edilar. Uning shahri Uni rad etdi. O'z oilasi Uni aqldan ozgan deb hisobladi. Buning ustiga, Uning ko'pchilik shogirdlari Undan xafa bo'lib, ketib qolishdi. Biroq Iso Masih baribir o'zaro kelishuvga bormadi. U qolgan shogirdlariga ham agar xohlasalar ketishlari mumkinligini aytdi.

Iso Masih uchun muhim bo'lgan yagona narsa bu – Otaning rejasini bajarish edi. U O'z Otasiga quloq solishga qat'iy qaror qilgan edi.

ISO MASIH O'ZINING BA'ZI BIR YAQIN DO'STLARI UCHUN VASVASAGA AYLANDI

Maryam va uning opasi Marta yashaydigan Baytaniya qishlog'ida Lazar ismli odam betob edi. Bu – Rabbiyga moy surtgan va oyog'ini sochi bilan artgan Maryam edi. Betob yotgan Lazar Maryamning akasi edi. Shu sababli opa-singil: “Rabbiy! Mana, Sen sevgan kishi betob”, – deb aytishi uchun Unga odam yuborishdi.

– YUHANNO 11:1-3

Iso Masih Martani, Maryamni va Lazarni yaxshi ko'rar edi. Ular Uning yaqinlari edi. U ular bilan oz muddat birga bo'lmagan edi. Iso Masihga Lazarning betobligini aytganlarida U qanday javob berganiga diqqat qiling:

Uning betob ekanligini eshitib, U o'sha joyda yana ikki kun qoldi.

– YUHANNO 11:6

Lazarning kasalligi o'limga olib kelishini Iso Masih bilar edi. Biroq U o'sha joyda yana ikki kun qoldi. Va nihoyat, U Baytaniyaga kelganida, Lazar allaqachon vafot etgan edi.

Marta va Maryam Isoga: “Rabbiy, agar Sen shu yerda bo'lganingda edi, mening akam o'lmagan bo'lar edi” – dedi (Yuhanno 11:21, 32). Boshqacha qilib aytganda: “Seni chaqirgandan so'ng nima uchun darhol kelmading? Sen uni qutqarib qola olarding!”

Muhimi, ikkala opa-singillar Undan ozgina xafa bo'lgan edilar. Ular akalarining kasalligi haqida chopar orqali xabar berdilar, ammo Iso Masih yana ikki kun ushlanib qoldi. Iso Masih ular xohlaganidek javob bermadi. U boshqacha yo'l tutdi. U o'sha joyga borish uchun hammasini tashlab ketmadi. Buning o'rniga Muqaddas Ruhning boshqaruviga ergashdi. Va bu har bir kishi uchun yaxshi tanlov edi. Biroq o'sha paytda, Iso Masihga baribirdek va bu Unga umuman tegishli emasdek ko'rinar edi.

Xuddi shunday, ko'pincha xizmatchilar o'z odamlarining nazorati ostida yuradilar. Ular o'ylaydilarki, odamlar ulardan nimani so'rasalar, shularni qilishlari kerak.

Bir kuni yaqinida cho'ponidan ayrilgan bir Ruhga to'la jamoatning jamoat kengashi a'zolaridan biri menga: “Bizlarga ehtiyojlarimizni qondiradigan, shunchaki mening oldimga tonggi soat sakkizda kofe ichishga kela oladigan cho'ponni xohlaymiz”, – dedi.

Men o'ylab qoldim: *“Siz bu tarzda Muqaddas Ruh tomonidan boshqariladigan odamni emas, balki siz boshqarishingiz mumkin bo'lgan ijtimoiy shaxsni topishgagina muvaffaq bo'lasiz”*. Keyinchalik men so'nggi bir yarim yil ichida bu jamoat to'rt nafar cho'ponni almashtirganini eshitdim.

Men yoshlarning cho'poni bo'lganimga olti oy bo'lganida, mening oldimga bir yosh yigit keldi. U: “Mening do'stim bo'lasizmi? – deb so'radi, – Bizning oxirgi yoshlar cho'ponimiz mening do'stim edi”.

Mendan oldin yoshlar xizmatining cho'poni bo'lgan odam yoshlar bilan juda yaxshi kelisha oladigan odam bo'lgan. Ular har turli harakatli o'yinlar va mashg'ulotlar bilan mashg'ul bo'lganlar.

U nima haqida so'rayotganini tushundim. Umuman olganda, bu jamoat kengashi a'zosi o'z cho'ponidan istagan narsa edi.

Men unga Matto 10:41dan parcha keltirdim, Iso u yerda: "Kim payg'ambarni payg'ambar nomi bilan qabul qilsa, payg'ambar mukofotini oladi. Kim haq odamni haq odam nomi bilan qabul qilsa, haq odamning mukofotini oladi" – deydi.

"Sening o'rtoqlaring juda ham ko'p, shunday emasmi?" – deb so'radim men.

"Ha," – javob berdi u.

"Lekin sening yoshlar cho'poning faqatgina bitta, shundaymi?"
"Ha".

"Qanday mukofotni xohlaysan, yoshlar cho'ponining mukofotini yoki o'rtoqnikinimi? Chunki sening Xudodan nimani qabul qilishing, meni kim deb qabul qilishingga bog'liq".

Men nimani nazarda tutganimni u tushundi. "Men yoshlar cho'ponining mukofotini xohlayman".

Ko'pgina masihiy xizmatchilar o'z qo'l ostilaridagi odamlarning umidlarini puchga chiqarishdan, ularning hissiyotlarini jarohatlashdan va qo'llab-quvvatlashlarini yo'qotishdan qo'rqadilar. Ular boshqalarni xafa qilib qo'yish qo'rquvi tuzog'iga tushib qolganlar. Ular Xudo tomonidan emas, odamlar tomonidan boshqariladilar. Buning natijasida, ularning jamoatlarida yoki jamoalarida abadiyatda qadrlil bo'lgan narsalar nihoyatda kam amalga oshadi.

ISO MASIH YAHYO CHO'MDIRUVCHI UCHUN VASVASAGA AYLANDI

Hattoki Yahyo Cho'mdiruvchi vasvasaga tushish va Iso Masihdan xafa bo'lish vasvasasi bilan kurashishga to'g'ri keldi.

Yahyoning shogirdlari unga bularning hammasi haqida xabar qildilar. Yahyo esa o'z shogirdlaridan ikkitasini

chaqirib, Iso Masihdan: “Kelishi kerak Bo’lgan Senmisan yoki biz boshqasini kutaylikmi?” deb so’rash uchun ularni Uning oldiga yubordi. Ular Isoning oldiga kelgach, Unga dedilar: “Bizni Yahyo Cho’mdiruvchi Sening oldingga Sendan so’rash uchun yubordi: “Kelishi kerak Bo’lgan Senmisan yoki biz boshqasini kutaylikmi?”

– Luqo 7:18-20

Bir daqiqa! Nima uchun Yahyo Iso Masihdan kelishi kerak bo’lgan Masih Senmisan deb so’ramoqda? Yahyoning o’zi Uning uchun yo’l tayyorlovchi va kelishi haqida ovoza qilib: “Mana, dunyoning gunohini O’ziga oladigan – Xudoning Qo’zisi”, – degan Uning darakchisi edi (Yuhanno 1:29). Aynan Yahyo Cho’mdiruvchi: “O’sha Muqaddas Ruhga Cho’mdiruvchidir”, – degan (Yuhanno 1:33). U shuningdek: “U ulg’ayishi, men esa kichrayishim kerak”, – degan (Yuhanno 3:30). Yahyo Cho’mdiruvchi o’sha paytda Iso Masihning kimligini haqiqatan biluvchi yagona odam edi. (Shimyon Petrusga bu hali ochilmagan edi).

Nima uchun u unda: “Iso Messiyami yoki biz boshqasini kutaylikmi?” – deb so’radi.

O’zingizni Yahyoning o’rniga qo’yib ko’ring. Siz Xudo amalga oshirayotgan ishlarning oldida bo’lgan odamsiz. Ko’plab va ko’plab odamlarga xizmat qildingiz. Siz bu mamlakatda davlatdan tashqaridagi xizmatlari eng ko’p tilga olinadigan odamsiz. Siz fidokorona hayot kechirgansiz. Siz o’z ichki imkoniyatlaringizni da’vatingizni bajarish uchun maksimal darajada ishlatish uchun hattoki turmush qurmagansiz. Siz sahroda chigirtka va yovvoyi asal bilan oziqlanib va tez-tez ro’za tutib hayot kechirgansiz. Siz farziylar bilan jangga kirgansiz va jinga chalingan degan ayblovni ko’tarib yurgansiz. Sizning butun hayotingiz kelayotgan Masih uchun yo’l tayyorlashga yo’naltirilgan bo’lgan.

Endi esa siz qamoqdasiz. Siz qancha vaqtdan buyon hibsdasiz. Juda ham oz kishi sizni ko’rish uchun kelmoqda, chunki siz tayyorlagan odamlarning e’tibori endi Nosiralik Iso Masihga qaratilgan. Hattoki

sizning shaxsiy shogirdlaringiz Bu Odamga qo'shildilar. Faqatgina bir necha odam sizga xizmat qilish uchun siz bilan birga qoldi. Ular sizni yo'qlab kelganlarida, Bu Odam va Uning shogirdlari naqadar sizning hayot tarzingizdan farq qiladigan hayot tarzi kechirishini aytib beradilar. Ular soliqchilar va gunohkorlar bilan yeb-ichmoqdalar. Ular shabbatni buzmoqdalar va hattoki ro'za tutmayaptilar.

Siz o'zingizga o'zingiz: "Xudoning Ruhi Uning ustiga kabutar qiyofasida tushib kelganligini ko'rdim, biroq nahotki Masih o'zini shunday tutishi kerak bo'lsa?", – deysiz.

Siz qancha ko'p qamoqxonada o'tirsangiz, shuncha ko'p xafa bo'lish va vasvasaga tushish vasvasasi kuchli bo'ladi. "Men o'zimning butun hayotimni Bu Odamga yo'l tayyorlash uchun sarflasam-u, U hattoki meni yo'qlab qamoqxonaga, mening oldimga kelmasa! Bu qanday bo'lishi mumkin? Agar U Masih bo'lsa, unda nima uchun U meni bu qamoqxonadan xalos etmaydi? Men hech qanday jinoyat sodir etgan emasman".

Shuning uchun siz shogirdlaringizdan ikki nafarini Iso Masihdan: "Kelishi kerak bo'lgan Senmi yoki biz boshqasini kutaylikmi?" – deb so'rash uchun yuborasiz.

Keling, Iso Masih Yahyoga qanday javob berganiga nazar tashlaymiz:

Iso Masih esa shu vaqtda ko'plarni kasalliklari xastaliklardan hamda yovuz ruhlardan shifolagan va ko'p ko'rlarning ko'zlarini ham ochib yurgan edi. Shunday qilib, Iso Masih ularga javob berdi: "Borib, siz ko'rganlaringizni va eshitganlaringizni Yahyoga aytinglar: ko'rlar ko'rmoqda, cho'loqlar yurmoqda, moxovlar poklanmoqda, karlar eshitmoqda, o'liklar tirilmoqda va qashshoqlarga Xushxabar voizlik qilinmoqda. Men haqimda vasvasaga tushmagan baxtlidir!

– LUQO 7:21-23

Iso Masih bashorat bilan javob berdi. U Isha'yoning Yahyoga ma'lum bo'lgan so'zini keltirdi. Isha'yo 29:18, 35:4-6 va 61:1-oyatlari, Yahyoning shogirdlari Iso Masihga savol berish uchun o'z navbatlarini kutib turgan paytda ko'rgan narsalariga tegishli edi. Ular Masih haqida guvohlik berdilar. Biroq U bu bilan tugatmadi. U qo'shimcha qilib: "Men haqimda vasvasaga tushmagan odam baxtlidir!" – dedi.

U: "Yahyo, sen bilan sodir bo'layotgan narsalarni tushunmayotganingni Men bilaman va sen Mening ko'p yo'llarimni bilmaysan, biroq Men haqimda vasvasaga tushma, chunki Men sen kutgandek harakat qilmayman", – dedi. U Yahyoni Xudoning yo'llarini o'zining shaxsiy tushunchalari bilan hukm qilmaslikka chaqirdi. Yahyo to'liq manzarani va Xudoning rejasini biz bugun uni bilganchalik aniq bilmas edi. Iso: "Senga aytilganidek qilding. Sening mukofoting buyuk bo'ladi. Faqatgina Men haqimda vasvasaga tushmagin", – deya uni ruhlantirdi.

AYAMASDAN HAQIQATDA TURISH

Hatto agarda siz Yahyo kabi Xudoning yo'llariga o'rgatilgan bo'lsangiz ham, siz baribir Iso Masih haqida vasvasaga tushish va Undan xafa bo'lish uchun sabab topishingiz mumkin. Agarda siz Uni haqiqatan sevsangiz va Unga ishonsangiz, Uning yo'llari siznikidan har doim ustun ekanligini anglagan holda, U haqda vasvasaga tushmaslikka va xafa bo'lmaslikka har qanaqasiga harakat qilasiz.

Agar siz Xudoning Ruhiga itoatkor bo'lsangiz, odamlar siz haqingizda vasvasaga tushadilar va xafa bo'ladilar. Iso Masih Yuhanno 3:8da: "Ruh qayerda istasa, o'sha yerda nafas oladi va uning ovozi eshitasan: qayerdan kelganini va qayerga ketishini bilmaysan. Har bir Ruhdan tug'ilgan odam bilan shunday bo'ladi", – degan (inglizchadan so'zma-so'z tarjima).

Siz Muqaddas Ruhning boshqaruvi ostida harakat qilganingizda, ayrim odamlar sizni tushunmaydilar. Ularning g'azablanish va

norozilik reaksiyalari sizni haqiqatdan olib ketishiga yo'l qo'ymang. Odamlarning istaklarini bajo keltirish uchun Ruhni rad etmang. Petrus buni shunday xulosa qiladi:

Shunday qilib, Masih biz uchun O'z tanasi bilan azob chekkanidek, sizlar ham xuddi shu fikr bilan qurollaninglar. Chunki tanasi bilan azob chekayotgan odam Korinfliklar gunoh qilishdan to'xtaydi, toki bu tanada qolgan vaqtda insoniy ehtiroslar (istaklar) bo'yicha emas, balki Xudoning irodasi bo'yicha kun kechirsin".

– 1-PETRUS 4:1-2

Siz Xudoning irodasiga binoan yashayotganingizda, odamlarning istaklarini bajarmaysiz. Buning natijasida siz tanangiz bilan azob chekasiz. Iso Masih din ulamolarining ko'p sonli qarshiliklarini boshidan kechirdi. Dindor odamlar Xudo faqatgina ular tomonidan belgilangan chegaralarda harakat qiladi deb hisoblaydilar. Ular o'zlarini Xudoning oldiga kirish huquqiga ega bo'lgan yagona odamlar deb ishonadilar. Rabbiiy ikki ming yil oldin Muqaddas Ruh tomonidan boshqarilganida dindor odamlarni xafa qilgan bo'lsa va vasvasaga solgan bo'lsa, unda Uning ortidan ergashgan odamlar, shubhasiz shundaylarni xafa qiladilar.

Havoriy Pavlusning quvg'inlari buning yaxshigina namunasidir. Galatiyadagi ba'zi odamlar go'yoki Pavlus din ulamolarining najot topish uchun xatna qilinish muhim degan so'zlarining tomonini olib, xoch xushxabarini u bilan kelishuvga olib bordi, deb noto'g'ri eshittidilar. Ammo Pavlus ularga buning asl mohiyatini aniq tushuntirib qo'ydi.

"Menga qaranglar, – dedi u, – Men hamma joyda din ulamolari tomonidan quvg'in qilinmoqdaman. Agar men xatna qilinishni voizlik qilganimda, ular meni quvg'in qilar edilarmi? Gap shundaki, xoch odamlarning najot topishi uchun yagona yo'l ekanligi ularni vasvasaga soladi,

ammo bu haqiqat va mening boshqa biror narsani voizlik qilishimga sabab yo'q!"

— GALATIYALIKLARGA 5:11QARANG.

Agar biror kishi xushxabar haqiqatiga hujum qilsa, bu ayamasdan haqiqatda turish vaqtidir. Biz qanday to'lov to'lash kerak bo'lsa ham Xudoning Ruhiga bo'ysunishga o'z yuragimizda qaror qilishimiz lozim. Shunda biz odamlarning va vaziyatlarning bosimi ostida qaror qilishimizga to'g'ri kelmaydi, chunki bizlar allaqachon qaror qabul qilganmiz.

ISO MASIH O'Z OTASIGA BO'YSUNISHI BILAN BA'ZI ODAMLARNI VASVASAGA SOLDI, AMMO HECHQACHON O'Z HUQUQINI HIMOYA QILISH UCHUN VASVASAGA SABAB BO'LGAN EMAS.

Men yaqin kunlarda sizning: “Shaytonning xo’ragi” kitobingizni o’qib chiqdim. Men sizga shuni aytmoqchi edimki, bu kitob meni, men hech qachon ozod bo’la olmayman deb o’ylagan hayotimning bir sohasida ozod qildi. Men shunchaki siz bu kitobni yozganingiz uchun sizga minnatdorchilik bildirmoqchi edim, chunki u mening hayotimni o’zgartirdi.

– S. R., TENNESSI

TOKI BIZ ULARNI VASVASAGA SOLMAYLIK

*Endi bir-birimizni boshqa hukm qilmaylik,
yaxshisi, birodaringizga vasvasa yoki
to'siq qo'ymaslik haqida mulohaza qilinglar.*

– Rimliklarga 14:13

Biz hozirgina Iso Masih yerda bo'lganida va xizmat qilganida, ko'pgina odamlar Iso Masihdan xafa bo'lganini muhokama qildik. Deyarli hamma joyda odamlar Undan xafa bo'lgandek va vasvasaga tushgandek tuyuladi. Men bu bobda ushbu narsaning boshqa tomonini ko'rib chiqmoqchiman.

Iso Masih va Uning shogirdlari yaqindagina Kafarnahumga qaytib kelgan edilar. Ular xizmat davrasini tugatib, qisqa, ammo zarur bo'lgan dam olishga keldilar.

Agar qandaydir joyni Uning xizmatining bazasi deb hisoblash mumkin bo'lsa – unda bu Kafarnahum edi.

Ular o'sha joyda bo'lganlarida, ma'bad uchun beriladigan pulni yig'ishga mas'ul bo'lgan ushbu shaharning rasmiy amaldorlaridan biri Shimyon Petrusning oldiga kelib: “Sizning Ustozingiz soliq bermaydimi?” – dedi (Matto 17:24).

Petrus: “Ha”, – deb javob berdi va Iso Masihning oldiga ushbu savol bilan keldi.

Iso Masih soliq yig'uvchining so'rovini eshitishni kutdi, chunki U Shimyon Petrusdan shunday deb so'radi: “Shimyon, sen, nima deb o'ylaysan? Yerning shohlari o'lpon va soliqni kimdan oladilar? O'z bolalaridanmi yoki begonalardanmi?” – dedi.

Petrus Unga: “Begonalardan,” – dedi.

Iso Masih unga: “Unda bolalar ozoddir,” – dedi (Matto 17:25-26).

Iso Masih Petrusni o'g'illar soliqlardan ozod degan fikrga olib keldi. Ulardan soliq olmaydilar. Aksincha, ular bu soliqlardan foydalanadilar. Ular yig'ilgan soliqlar xarajat qilinishi natijasida mavjud bo'lgan saroylarda yashaydilar. O'g'illar shohning dasturxonidan ovqatlanadilar va shohlik kiyimlarini kiyadilar hamda bularning barchasi soliqlar hisobiga ta'minlanadi. Ular ozod va ularni bepul ta'minlaydilar.

Bu soliq yig'uvchi ma'bad uchun soliq oldi. Biroq ma'badning boshqaruvchisi va shohi kim edi? U kim uchun qurilgan edi? Javob: Ota Xudo uchun. Petrus Iso Masih, “Barhayot Xudoning O'g'li – Masih” haqidagi vahiyni Xudodan endigina olgan edi.

Buning asosida Iso Masih Petrusdan: “Agar Men ushbu ma'bad tegishli bo'lganning O'g'li bo'lsam, nahotki Men ma'bad uchun soliq to'lovidan ozod bo'lmasam?” – deb so'radi. Albatta U ozod edi va soliq to'lamaslikka to'la haqqi bor edi. Biroq U Petrusga nima deyayotganiga e'tibor bering:

Shunga qaramay, ularni vasvasaga solmaslik uchun dengizga bor va qarmoq tashla, birinchi ilingan baliqni

ol, uning og'zini och va tanga topasan; uni olgin va Men hamda o'zing uchun ularga ber.

– MATTO 17:27

U ozodlikka ega ekanligini isbotladi. Biroq U ushbu odamlarni (xafa qilmaslik) vasvasaga solmaslik uchun Petrusga dedi: “Kel, to'laymiz!” U Petrusga borib, qarmoq tashlashini va u tutadigan birinchi baliqning og'zida pul topishini aytganida, bu Uning ozodligining yana bir isboti edi. Ota Xudo ularni hatto soliqni to'lash uchun pul bilan ta'minladi.

Iso Masih – butun yerning Rabbiysi. U – Xudoning O'g'li. Yer va undagi barcha narsa U tomonidan yaratilgan va Uning izmida. Shunday ekan, U baliqning og'zida pul bo'lishini bilgan. U bu pullarni olish uchun ishlashi kerak bo'lmagan, chunki U Xudoning O'g'li edi. Biroq U baribir soliq to'lashga va odamlarni xafa qilmaslikka qaror qildi.

Bu biz o'tgan bobda ko'rgan va odamlarni vasvasaga solgan hamda buning uchun hech qanday uzr so'ramagan O'sha Iso Masihmi? U soliq to'lovidan ozod ekanligini isbotladi, ammo shunday dedi: “Biroq ularni vasvasaga solmaslik uchun borib, to'lagin!”. Bu yerda qandaydir mantiqsizlik bordek, shunday emasmi? Biz javobni keyingi oyatda topamiz.

O'sha vaqtda shogirdlar Iso Masihga kelib: Osmon Shohligida kim buyuk? - deb aytdilar. Iso Masih bolani oldiga chaqirib, uni ularning o'rtasiga qo'ydi va dedi: Sizga rostini aytaman, agarda o'zgarmasangiz va boladek bo'lmasangiz, Osmon Shohligiga kira olmaysizlar. Shunday qilib, kim bu bola kabi o'zini past olsa, Osmon Shohligida buyuk bo'ladi.

– MATTO 18:1-4

Bu yerda kalit so'z “kim o'zini past olsa”dir (inglizchada “o'zini bo'ysundirgan har bir kishi”). Biroz keyinroq, Iso Masih bunga to'liqroq tushuntirish berib, deydi:

Kim sizlarning orangizda katta bo'lishni istasa, sizlarga xizmatkor bo'lsin Shunday qilib, Inson O'g'li Unga xizmat qilishlari uchun emas, lekin xizmat qilish va ko'plarni o'limdan sotib olish uchun O'z jonini berish uchun keldi.

– MATTO 20:26-28

Ana bunisi qoyil! Qanday fikr! Unga xizmat qilishlari uchun U kelmagan, balki Uning O'zi xizmat qilish uchun kelgan. U O'g'il bo'lgan. U ozod bo'lgan. U hech kimga hech narsa qarz bo'lmagan. U hech bir odamning hokimiyati ostida emas edi. Biroq xizmat qilish uchun O'z ozodligidan foydalanishga qaror qildi.

XIZMAT QILISH UCHUN OZOD BO'LISH

Yangi Ahd bizlarni – Xudoning farzandlari sifatida, akamiz Iso Masihga o'xshashga va xuddi Unda bo'lgan yurakka ega bo'lishga ruhlantiradi.

Birodarlar, sizlar ozodlikka da'vat qilingansizlar. Faqatgina bu ozodlik tana ehtiroslariga imkon bermasin, ammo bir-biringizga sevgi bilan xizmat qilinglar.

– GALATIYALIKLARGA 5:13

Ozodlikni bildiradigan boshqa bir so'z bor – bu so'z imtiyozdir. Biz Barhayot Xudoning o'g'illari sifatida o'z ozodligimizdan yoki imtiyozimizdan o'z-o'zimizga xizmat qilish uchun foydalanmasligimiz kerak. Ozodlik boshqalarga xizmat qilish uchun ishlatilishi lozim. Xizmat – bu ozod mehnatdir. Erkinlikda va ozodlikda bo'lmagan mehnat – bu qullikdir. Qul bu xizmat qilishga majbur bo'lgan kishidir, shu bilan birga xizmatkor – bu xizmat qilishni xohlaydigan kishidir. Keling qul va xizmatkorning ishga bo'lgan munosabatlari o'rtasidagi ba'zi farqlarni ko'rib chiqamiz:

- Qul xizmat qilishga majbur, xizmatkor o'zi ishni qo'lga oladi.
- Qul talab qilinganning kam qismini qiladi, xizmatkor o'z

imkoniyatidan mumkin qadar ko'p foydalanadi.

- Qul bir chaqirim yuradi, xizmatkor yana qo'shimcha chaqirim yuradi.
- Qul o'zini talab ketilgan his qiladi, xizmatkor esa o'zi beradi.
- Qul bog'langandir, xizmatkor esa ozod.
- Qul o'zining huquqi uchun kurashadi, xizmatkor o'z huquqlaridan voz kechadi.

Men o'z yuraklarida xafalik bilan xizmat qiluvchi ko'pgina Masihiylarni bilaman. Ular o'z soliqlarini to'layotganlarida norozilik bilan beradilar va noliydilar. Ular garchi qonundan ozod bo'lsalarda, avvalgidek qonunning qullari kabi yashaydilar. Ular o'z yuraklarida qul holda qoladilar.

Achinarlisi shundaki, bu qonun Yangi Ahd asosida ular tomonidan yaratilgan. Ularda Iso Masih bu amrlarni berayotganida ega bo'lgan "Ruh" yo'q. Ular xizmat uchun ozod ekanliklarini anglamaganlar. Shuning uchun ular boshqalarning manfaatlari uchun emas, balki o'zlarining shaxsiy manfaatlari uchun kurashishni davom ettiradilar.

Pavlus o'zining rimliklarga va korinfliklarga maktublarida bunday munosabatga qarshi turishning jonli namunasini ko'rsatgan. Bu Masihiylarning ozodligiga ozuqa masalasida bahs paydo bo'lgan edi. Pavlus ularga shunday so'zlar bilan nasihat qilishdan boshlaydi: "Imonda zaif bo'lgan odamni, uning fikrlari haqida bahslashmay qabul qilinglar. Kimdir hamma narsani yeyish mumkinligiga ishonadi, zaif esa faqat sabzavot yeydi" (Rimliklarga 14:1-2).

Og'izga kiradigan narsa emas, balki undan chiqadigan narsa odamni harom qilishini Iso Masih aniq aytgan. U bu bilan imonli uchun har qanday ozuqa pok ekanligini tushuntirgan (Mark 7:18-19).

Pavlus imonda zaif ba'zi imonlilar borligini aytgan. Ular butlarga bag'ishlangan qurbonliklardan harom bo'lish qo'rquvi tufayli avvalgidek go'sht yeya olmaydilar. Garchi Iso Masih bu masalada qanday yo'l tutishni aniq tushuntirgan bo'lsa ham, bunday odamlar baribir go'shtni xotirjam yeya olmaydilar.

Shunday qilib, butlarga bag'ishlangan qurbonlik taomlarini yeyish haqida biz bilamizki, but dunyoda hech narsa emasdir. Yagona Xudodan boshqasi yo'qdir. Biroq bizning Yagona Xudo – Otamiz bor, hamma narsa Undandir va biz U uchunmiz, hamda bizning yagona Rabbimiz – Iso Masih bor, hamma narsa U orqali yaratilgan, biz ham U orqalimiz. Lekin bunday bilim barcha odamlarda yo'q. Ba'zilar hozirgacha ham butlarni tan oladigan vijdoni bilan butga bag'ishlanganni yeydilar. Ularning vijdoni esa zaif bo'lgani uchun bulg'anadi.

– 1-KORINFLIKLARGA 8:4, 6-7

Rimdagi va Korindagi jamoatlarda imonda kuchliroq bo'lgan Masihiylar vasvasaga tushgan imonda zaifroq bo'lgan odamlar bilan yonma-yon ozuqani yeganlar. Zaif imonlilar qurbongohda but uchun keltirilgan go'sht timsolidan qutula olmaganlar. Kuchliroq imonlilar but hech narsa ekanligini bilganlar va bu go'shtni yeganlarida hech qanday vijdon azobini his qilmaganlar.

Biroq ular birodarlarini vasvasaga solishlaridan tashvishlanishdan ko'ra, Yangi Ahdning imonlilari sifatida o'zlari ega bo'lgan ozodlik haqida ko'proq tashvishlanganlar. Ular buni anglab yetmasdan, o'zlarining imonda zaifroq bo'lgan birodarlarining yo'lga to'siq toshini qo'yganlar. Xizmatkorning yuragida bunday munosabat bo'lmasligi lozim. Pavlus ularga qanday murojaat qilishiga e'tibor bering:

Endi bir-birimizni boshqa hukm qilmaylik, yaxshisi, birodaringizga vasvasa yoki to'siq qo'ymaslik haqida mulohaza qilinglar. Chunki Xudoning Shohligi yeyish va ichish emas, balki Muqaddas Ruhdagi quvonch, haqlik va tinchlikdir.

– RIMLIKLARGA 14:13-17

U: "Keling, Xudo Shohligi haqiqatda nima ekanligini yodga olamiz, bu Muqaddas Ruhdagi quvonch, haqlik va tinchlikdir", –

demoqda. Bu barcha duo-barakatlar yangi imonlilarda hali yo'q edi.

Imonda kuchliroq imonlilar o'z ozodliklarini xizmat qilish uchun emas, balki o'z "huquqlarini" himoya qilish uchun ishlata edilar. Ular Yangi Ahdga binoan ozodlikka ega ekanliklarini bilar edilar. Biroq bilim sevgisiz vayron qiladi.

Bu Iso Masihning yuragi emas edi! Iso Masih Petrusga va boshqa shogirdlarga ma'bad uchun soliq to'lash to'g'risidagi O'z huquqlarini tushuntirib, boshqalarga xizmat qilish uchun o'z manfaatlarini bo'ysundirish qanchalik ahamiyatli ekanligini O'z namunasida ko'rsatdi. Ozodlik – o'z huquqlarini himoya qilish uchun bahona, vasvasa sababchisi va boshqa odamlar uchun to'siq bo'lishini Iso Masih xohlamadi.

Masihda o'z huquqlarini bilgan, ammo xizmat uchun Uning yuragiga ega bo'lmagan kishilarni Pavlus shunday ogohlantiradi:

Shunday qilib, sening biliming tufayli ana shu zaif birodar halok bo'ladi. U uchun esa Masih o'lgan. Shu tarzda birodarlaringizga qarshi gunoh qilib, ularning zaif vijdonini jarohatlaganingizda, sizlar Masihga qarshi gunoh qilasizlar.

– 1-KORINFLIKLARGA 8:11-12

Biz o'z ozodligimizdan gunoh uchun foydalanishimiz mumkin. Qanday qilib? Imonda zaifroq bo'lgan imonlilarni xafa qilib, bu bilan "Rabbiy bolalarining shu kichiklaridan biriga" vasvasa va to'siq qo'yish yo'li bilan.

O'Z HUQUQIMIZDAN VOZ KECHISH

Iso Masih ma'bad soliqlaridan ozodlikka ega ekanligini isbotlab, bundan so'ng, O'z shogirdlariga itoatkorlikning muhimligini ko'rsatdi:

Lekin kim Menga ishongan shu kichiklardan birini vasvasaga solsa, uning bo'yniga tegirmon toshini osib, dengiz tubiga

uloqtirish u uchun yaxshiroq bo'lar edi. Vasvasalardan dunyoning holiga voy! Chunki vasvasalar kelishi muqarrar. Lekin kim orqali vasvasa kelsa, uning holiga voy! Agarda sening qo'ling yoki oyog'ing seni vasvasaga solsa, ularni o'zingdan kesib olib tashla: ikki qo'l yoki ikki oyoqqa ega bo'lib, abadiy olovga tashlangandan ko'ra, qo'lsiz yoki oyoqsiz abadiy hayotga kirish sen uchun yaxshiroqdir. Agarda sening ko'zing seni vasvasaga solsa, o'zingdan uni yulib, olib tashla: ikki ko'zga ega bo'lib, olovli jahannamga tashlangandan ko'ra, bir ko'z bilan abadiy hayotga kirishing sen uchun yaxshiroqdir. Qaranglar, shu kichiklardan biriga nazar tashlamay qo'ymanglar. Chunki sizlarga aytaman, osmonda ularning farishtalari har doim osmondagi Otamning yuzini ko'rib turadi.

– Matto 18:6-10

Matto Xushxabaridagi butun bu bob vasvasalar haqida gapiradi. Biz gunohga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan barcha narsadan, hattoki, agar bu bizning yangi ahddagi imtiyozlarimizdan biri bo'lganida ham undan ozod bo'lishimiz kerakligini Iso Masih yaqqol ko'rsatgan. Agar bu sizning zaif birodaringizni gunohga tortsa, buni to'g'ridan-to'g'ri uning qarshisida kesib tashlang.

Ehtimol, siz Iso Masih nima uchun o'shanda ko'p odamlarni vasvasaga soldi, deb o'ylagandirsiz. Javob oddiy: Iso Masih O'z Otasiga itoati va boshqalarga xizmati oqibatida ba'zi odamlarni vasvasaga soldi. U buni O'z huquqlarini himoya qilish uchun qilgan emas.

U Shabbat kuni shifolaganida, farziylar vasvasaga tushdilar. Uning shogirdlari Ota Unga voizlik qilishni buyurgan haqiqatni eshitganlarida vasvasaga tushdilar. U Lazarni shifolash uchun kelayotib, ushlanib qolganida, Maryam va Marta vasvasaga tushdi (xafa bo'ldi). Biroq siz Iso Masihning O'z-O'ziga xizmat qilib boshqalarni vasvasaga solganini va xafa qilganini hech qayerdan topa olmaysiz.

Pavlus o'zining korinfliklarga maktubida quyidagicha ogohlantirgan:

Biroq sizlarning bu ozodligingiz zaif bo'lganlarga vasvasa bo'lmasligi uchun ehtiyot bo'linglar.

– 1-KORINFLIKLARGA 8:9

Bizning ozodligimiz bizga xizmat qilishimiz uchun va boshqalarga o'z hayotimizni bag'ishlashimiz uchun berilgan. Biz barbod qilishimiz emas, barpo qilishimiz kerak. Shuningdek, bu ozodlik bizlarga boylik orttirish uchun berilgan emas. Biz ozodlikdan noto'g'ri tarzda foydalanganimiz tufayli bugun ko'p odamlar zamonaviy Masihiylarning hayot tarzi tufayli vasvasaga tushmoqdalar.

1-Korinfliklarga 8:9da bizga berilgan ogohlantirishni yana bir marta tinglang: "Biroq sizlarning bu ozodligingiz zaif bo'lganlarga vasvasa bo'lmasligi uchun ehtiyot bo'linglar".

Men sizlarga bu amrning buzilishi namunasini keltiraman. Mening Indoneziyaga ikkinchi missionerlik safarim vaqtida, men o'zim bilan Lizani, farzandlarimni va bizga farzandlarimizni tarbiyalashda yordam beradigan enagani oldim. Biz Baliga, Denpasardagi kurort oroliga keldik.

Biz tashrif buyurgan jamoatning oqsoqoli shaharning sershovqin qismidagi zamonaviy mehmonxonaning rahbari edi. Biz uzoq masofadan uxlamasdan keldik. Tabiiyki, biz nihoyatda charchagan edik. Biz o'sha tunda kuchli shovqindan va itning hurishidan bir necha marotaba uyg'onib ketdik va biz yetarlicha dam ola olmadik.

Keyingi kunda biz Yavaga jo'nadik va keyingi ikki hafta davomida nihoyatda tirband jadval bo'yicha xizmat qildik. Bizning birgina dam olish kunimiz bor edi, u ham ko'chishga ketar edi. Biz yigirma to'rt soat davomida, o'ttiz ming nafar odamga, jamoatda besh marotaba xizmat qildik. Biz Bali orqali orqaga qaytishimiz kerak edi. Cho'pon biz yana uning oqsoqolining mehmonxonasida tunashimizni bizga yetkazdi. Biz bunday xabardan xursand emas edik, biz dam olishsiz

ikki haftalik qizg'in xizmatdan so'ng yana azoblanishni xohlamas edik.

Biz tongda Yavadan Baliga ketish uchun tayyorlanayotganimizda, nonushta paytida bir ayol Balidagi eng yaxshi kurort mehmonxonalarning birida tunashimiz uchun pul to'lashni taklif qildi. Men juda xursand bo'ldim, chunki bizlar dam olib olishimiz va ko'rkam joyda turishimiz mumkin edi.

Biz narsalarimizni yig'ish uchun restorandan ketayotganimizda, Liza menga o'sha ayolning taklifini qabul qilish borasida unda yomon his paydo bo'lganini aytdi. Men tarjimon bilan birga u bilan gaplashdik va hammasi yaxshi bo'lishini aytdim. Biz Yavadan Baliga uchayotganimizda, u yana bir bora noto'g'ri qilayotganimizni aytdi.

Men ahmoqlik qildim va unga quloq solmadim. Men jamoatning puli bunga ketmasligini va hammasi yaxshi bo'lishini aytdim. Biz Baliga yetib kelganimizda, yuklarni olish joyida u yana bir bor meni ko'ndirishga urindi, biroq men yana unga quloq solmadim.

Biz mahalliy cho'pon bilan gaplashganimizda, men ayolning mehmonxona uchun qurbonlik qilgani uchun uning oqsoqolining mehmonxonasiga muhtoj emasligimizni aytdim. U mening so'zlarimdan xijolat bo'ldi va men undan nima gapligini so'radim.

Baxtinga u men bilan ochiq edi va dedi: "Jon, bu oqsoqolni va uning oilasini xafa qiladi. Garchi bu kecha barcha mehmonxona joylari sotib bo'lingan bo'lsa ham, ular allaqachon sizlar uchun xonani band qilib olib qo'ygan edilar".

Shubhasiz, men cho'ponni ham xafa qildim, chunki ular bizlar uchun band qilgan mehmonxonani qadrlamadim. Nihoyat men unga biz o'sha ayolning taklifidan voz kechib, uning oqsoqolining mehmonxonasida tunashga va'da berdim.

Rabbiy mening munosabatimga ko'ra O'z ishini mening yuragimda amalga oshirdi. Men cho'ponga og'riq yetkazganimni bilar edim. Mening o'z huquqlarimni talab qilishim bu birodarni xafa qilgan edi va bu gunoh edi. Shuning uchun men undan kechirim so'radim. U meni kechirdi. Umid qilamanki, men bu darsni yana bir bora o'tishimga to'g'ri kelmaydi.

BARPO QILUVCHI SINOV

Havoriy Pavlus rimliklarga maktubida mazkur masalaga binoan Xudo yuragi istagini shunday yakunlaydi:

Shuning uchun tinchlikka va bir-birini barpo qilishga xizmat qiladigan narsalarga intilaylik.

– RIMLIKLARGA 14:19

Bizlar o'z ozodligimiz bilan boshqalarga vasvasaga yo'l ochib bermaslik maqsadini – o'z hayotimizning shartiga aylantirishimiz kerak. Bizning qilayotganimiz, hattoki, Muqaddas Yozuvning harflariga mos kelishi mumkin. Biroq o'zingizga shunday savol bering: Bu boshqalarning barpo bo'lishiga xizmat qiladimi yoki faqatgina sizga foyda keltiradimi?

Menga hamma narsa joiz ekan, lekin hamma narsa ham foydali emas. Menga hamma narsa joiz ekan, lekin hamma narsa ham barpo qilmaydi. Har bir kishi o'zining emas, balki boshqaning manfaatini izlasin. Shunday qilib, yeysizlarmi, ichasizlarmi, nimaiki qilsangizlar, hamma narsani Xudoning shuhrati uchun qilinglar. Na yahudiylarni, na yunonlarni, na Xudoning Jamoatini qoqintiradigan biron narsa qilmanglar. Men ham o'z manfaatimni emas, balki ko'plarning manfaatini izlayman. Ular najot topishlari uchun men hammaga, hamma narsada ma'qul bo'lishga harakat qilmoqdaman.

– 1-KORINFLIKLARGA 10:23, 24, 31-33

Men sizlarni Muqaddas Ruhga hayotingizning har bir sohasini bu Yozuv oyati orqali elakdan o'tkazish uchun ruxsat berishga chaqiraman. Unga barcha yashirin maqsadlaringizni yoki boshqalarning foydasiga emas, balki sizning foydangizga qaratilgan niyatlaringizni ochishiga ruxsat bering. Hayotingizning

qaysi sohasiga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, barchaga xizmatkor bo'lish uchun Muqaddas Ruhning da'vatini qabul qiling. Masihdagi ozodligingizni o'z shaxsiy huquqlaringizni himoya qilish uchun emas, balki boshqalarni ozod qilish uchun ishlating. Bu Pavlusning xizmat shartlaridan biri bo'lgan. U shunday yozgan: "Xizmatimiz qoralanmasligi uchun biz hech kimga hech narsada qoqinishga yo'l qo'ymayapmiz" (2-Korinfliklarga 6:3).

KECHIRA OLMAYDIGAN ODAM XUDO UNING NAQADAR KATTA QARZINI KECHIRGANINI UNUTGANDIR.

Bir yildan ortiq vaqt mobaynida mening kutubxonamda: “Shaytonning xo’ragi” kitobi bor edi va axiyr men uni o’qiy boshladim. Birdaniga mening hayotimga kirib olgan ruhning nomini payqadim. Shubhasiz meni bu kitobni Muqaddas Ruh yetaklaganini men bilar edim. Men uni o’qiganim sari o’zimning aybdorligimni his qilib bordim. Jamoatda cho’ponimiz agar biror kishi birovni kechirishga muhtoj bo’lsa oldinga chiqishini aytdi. Men qurbongohga meni xafa qilganlarning barchasini, asosan otamni kechirish uchun ikkilanmasdan chiqdim. So’ngra otamdan meni kechirishini so’radim. U meni kechirganidan men minnatdorman va endi men ozodman! Bu kitob uchun sizga rahmat!

– R. P., VIRJINIYA

KECHIRIM: BERMASANGIZ – OLA OLMAYSIZ

Shuning uchun Men sizlarga aytaman: Ibodatda nimaiki so'rasangiz, olishingizga ishonning va sizlar olasizlar. Ibodatda turganlaringizda, agar biror kishiga qarshi da'voingiz bo'lsa kechiringlar, toki sizning Osmondagi Otangiz ham sizning gunohlaringizni kechirsin. Biroq agar kechirmasangizlar, sizlarning Osmondagi Otangiz ham sizlarning gunohlaringizni kechirmaydi.

– Mark 11:24-26

Kitobning qolgan qismida men sizning e'tiboringizni kechirmaslikning oqibatlariga, shuningdek, undan ozod bo'lish yo'liga qaratmoqchiman.

Iso Masih: “Biroq agar kechirmasangizlar, sizlarning Osmondagi

Otangiz ham sizlarning gunohlaringizni kechirmaydi”, – deganida aynan aytgan soʻzini nazarda tutgan edi. Biz bir narsani aytib, boshqa narsani nazarda tutadigan madaniyatda tarbiyalanganmiz. Buning natijasida odamlar bir-birlarining soʻzlariga jiddiy qaramaydilar.

Bu bolalikdan boshlanadi. Ota-onalar bolasiga: “Agar sen buni yana bir marta qilsang, jazolanasan”, – deydilar. Biroq bola buni nafaqat qayta qiladi, balki yana bir necha marta takrorlaydi. U har bir qilgʻidan soʻng, ota-onasidan xuddi oʻsha ogohlantirishlarni eshitadi. Odatda, bundan soʻng hech qanday ahloqni tuzatadigan jazo amalga oshirilmaydi. Agarda amalga oshirilganda ham, u aytilganidan koʻra yengilroq yoki ota-ona gʻazablanganligi tufayli shafqatsizroq boʻladi.

Ota-onalarning bu ikkala reaksiyalari bolaga quyidagilarni soʻzlaydi: Biz aytganimizni nazarda tutmaymiz yoki bizning gapirganimiz notoʻgʻridir. Bola hokimiyatda turadigan odamlarning aytgan barcha soʻzlari ham toʻgʻri emas deb oʻylashga oʻrganadi. Shuning uchun u chalkashadi va umuman, hokimiyatdagilarning soʻzlarini jiddiy qabul qilish kerakmi, deb oʻylaydi. Bunday munosabat uning hayotining boshqa sohalariga ham keng tarqaladi. U oʻz oʻqituvchilariga, doʻstlariga, rahbarlariga xuddi shunday qarashni boshlaydi. Uning voyaga yetishining ayni vaqtida bunday munosabat meʼyorga aylanadi. Uning gap-soʻzlari u umuman nazarda tutmaydigan vaʼdalardan va tasdiqlashlardan tashkil topadi.

Men sizlarga tipik suhbatni misol qilib koʻrsatishimga ijozat bering. Jim qandaydir muddat muloqot qilmagan tanishi Tom bilan uchrashadi. Jim shoshilmoqda va shu sababli shunday oʻylaydi: “Bu Tom boʻlsa kerak. Qarang-a, suhbatlashish uchun mening umuman vaqtim yoʻq”.

Ikkalasi ham bir-biriga qarab turadi. Jim gap boshlaydi: “Oʻrtoq, Xudoga shukur. Men seni koʻrganimdan xursandman”. Ular ozroq gaplashadilar. Jim shoshib suhbatni shunday soʻzlar bilan yakunlaydi: “Sen bilan qandaydir uchrashishimiz kerak, birga oʻtirishimiz, tushlik qilishimiz kerak”.

Birinchidan, Jim shoshib turgan edi va Tomni uchratganidan xursand emas edi. Ikkinchidan, u Tomni “Xudoga shukur” degan soʻzlar bilan qutlaganida, Rabbiy haqida oʻylamagan edi. Uchinchidan, uning tushlik qilish uchun Tom bilan uchrashish niyati yoʻq. U oʻz taklifini bajarishga umuman harakat qilmaydi. U oʻz vijdonini tinchlantirish va u bilan tezroq xayrlashish uchungina shunday dedi. Shunday boʻlgach, Jim aslida, suhbatlashayotganida aytganlarining hech birini nazarda tutmagan edi.

Biroq bunga oʻxshash hodisalar haqiqiy hayotda har kuni sodir boʻladi. Bugun odamlar gapirayotganlarining chorak qismini ham nazarda tutmaydilar. Shuning uchun biror kishini soʻzidan ushlashga qiynalishimiz ajablanarli holatmi?

Ammo Iso Masih nimanidir gapirganida, biz Uning soʻzlariga juda jiddiy munosabatda boʻlishimizni xohlaydi. Biz Uning soʻzlariga odamlarning soʻzlariga qaragandek qaramasligimiz kerak. Iso Masih nimanidir gapirsa, U Oʻz soʻzlari uchun javob beradi. Biz sodiq boʻlmaganimizda ham U sodiqdir. U bizning jamiyatimizning madaniyatidan ustun boʻlgan haqiqat, haqqoniylik va halollik darajasida yashaydi. Iso Masih: “Biroq agar kechirmasangizlar, sizlarning Osmondagi Otangiz ham sizlarning gunohlaringizni kechirmaydi”, – deb aytganida, U aynan shuni nazarda tutgan.

Agar yana bir qadam tashlansa, U buni Xushxabarda bir marotaba emas, balki koʻp marta qaytarishini koʻrishimiz mumkin. Iso Masih bu ogohlantirishlarning muhimligiga urgʻu bergan. Keling, ulardan baʼzilarini koʻrib chiqamiz.

Agar sizlar boshqalarning sizga qarshi qilgan gunohlarini kechirsangizlar, Samoviy Otangiz ham sizlarning gunohlaringizni kechiradi. Agar sizlar boshqalarning gunohlarini kechirmasangizlar, Samodagi Otangiz ham sizlarning gunohlaringizni kechirmaydi.

– MATTO 6:14, 15

Va yana: "Kechiringlar, sizlar ham kechirilasizlar".

– Luqo 6:37

Shuningdek "Bizning samodagi Otamiz" ibodatida ham: "Bizdan qarzдор bo'lganlarni biz kechirganimizdek, bizning qarzlirimizni ham kechirgin" (Matto 6:12).

Qiziq, qancha Masihiylar ularni xafa qilganlarni kechirganidek, xuddi shunday, Xudo ularning gunohlarini kechirishini xohlar ekanlar? Biroq ular aynan shunday kechiriladilar. Bizning jamoatlarimizda kechirmaslik naqadar kuchli avj olayotganligi tufayli, biz Iso Masihning bu so'zlariga jiddiy qarashni xohlamaymiz. Lekin kechirmaslik naqadar keng tarqalgan bo'lishiga qaramasdan haqiqat haqiqatligicha qoladi. Bizning o'z yuragimizda boshqa odamlarni kechirishimiz, qo'yib yuborishimiz va tiklashimiz, bizning o'zimizning kechirilishimiz uchun yo'l ochadi.

Men Filippindagi bir xizmatkor haqida g'ayritabiiy guvohlik eshitdim. Avvaldan uni biladigan mening do'stlarim uning boshidan o'tganlari ta'riflangan maqolani menga ko'rsatdilar.

Bu odamning biznesi gullab-yashnagani sababli, u Xudoning da'vatiga bir necha yillar davomida qarshilik qilgan. U juda ham ko'p pul ishlab topgan. Biroq, oxir natijada, uning itoatsizligi uni quvib yetgan va u yurak kasalligi bilan shifoxonaga tushgan.

U jarrohlik stolidagi vafot etgan va o'zini jannat darvozalarining ortida ko'rgan. Yonida Iso Masih turar va uning itoatsizligi haqida gapirar edi. Bu odam uning hayoti uzaygan taqdirda Iso Masihga xizmat qilishga va'da berib, Rabbiydan yolvorgan. Rabbiy rozi bo'lgan.

Uni tanaga qaytarishdan oldin, Rabbiy unga do'zaxni vahiya ko'rsatgan. U do'zax olovida yonayotgan xotining onasini ko'rgan.

Erkak nihoyatda hayratda edi. Qaynonasi "gunohkorning ibodatini" aytar, Masihiy ekanligini va jamoatga qatnaganini e'tirof etar edi. Erkak Rabbiydan: "Nima uchun u do'zaxda?" – deb so'rabdi.

U o'zining bir qarindoshini kechirishni rad etganligini va shuning uchun o'zi ham kechirila olmasligini Rabbiy unga aytibdi.

KECHIRIM VA RUHIY O'SISH

Biz o'zimizning xizmatimizda kechirmaslikning ko'pgina tuzoqlarini ko'rdik. Men Indoneziyada xizmat o'tkazishni boshlaganimda, bir boy biznesmenning uyida yashar edim. U va uning oilasi men xizmat qilgan jamoatga borar edilar, ammo ular najot topmagan edilar.

Men u yerda bo'lgan hafta davomida uning xotini imonga keldi, so'ngra, u va ularning uch farzandi imonga keldilar. Ularning hayotlariga ozodlikka chiqish keldi va uydagi barcha muhit o'zgardi. Ularning uyini buyuk quvonch to'ldirdi.

Men xotinim bilan yana bir bor Indoneziyaga borishga tayyorlanayotganimni ular eshitganlarida, o'z uylariga yashashga taklif qildilar hamda farzandlarimiz va ularga qaraydigan enaga uchun samolyotga chipta haqini to'lashni taklif qildilar.

Biz kelib, ularning jamoatida o'nta xizmat o'tkazdik. Men tavba qilish va Xudoning huzuri haqida voizlik qildim. Biz xizmat paytida zalda tavba ko'z yoshlari bilan davom etgan Xudoning huzurini his qildik.

Shuningdek, butun bu oila ham o'sha yerda edi. Erining o'sha shaharda yashaydigan onasi ham har bir yig'inga kelar edi.

Shuningdek, u farzandlarimizning aviachiptasiga to'lash uchun katta miqdordagi pulni olib keldi.

Haftaning oxirlarida bu odamning onasi to'g'ri ko'zlarimga qarab turib: "Jon, nima uchun men biror marta ham Xudoning huzurini his qilmadim?" – deb so'radi.

Biz endigina nonushtani tugatgan va boshqalarning barchasi allaqachon ketgan edi.

"Men har bir yig'inga bordim, – davom etdi u, – sen aytganlaringni barchasini diqqat bilan tingladim. Men tavba qilish uchun oldinga chiqdim, tavba qildim, biroq biror marta Xudoning huzurini his qilmadim". Men u bilan ozroq suhbatlashib, so'ngra dedim: "Keling,

siz Xudoning Ruhi bilan to'lishingizga siz uchun ibodat qilamiz". Men qo'llarimni uning qo'llari ustiga qo'yib, u Muqaddas Ruhni qabul qilishi haqida ibodat qilishni boshladim. Biroq umuman, hech qanday Xudoning huzurining hissi yo'q edi.

So'ngra Xudo mening ruhimga gapirib: "U o'z eriga nisbatan kechirmaslikni ushlab turibdi. Unga aytgin, u erini kechirsin," – dedi.

Men qo'limni oldim. Men uning eri allaqachon vafot etganini bilar edim, biroq unga boqib: "Rabbiy menga siz o'z eringizga nisbatan kechirmaslikni ushlab turganligingizni ko'rsatdi," – dedim.

U: "Ha, – deb tasdiqladi, – biroq men uni kechirish uchun kuchim boricha hamma ishni qildim".

So'ngra u eri unga qilgan dahshatli narsa haqida aytib berdi. Men nima uchun u erini kechirishi oson emasligini tushundim.

Lekin men unga: "Xudodan nimadir ola olishingiz uchun kechirish kerak," – dedim va unga Iso Masihning kechirish haqida o'rgatganlarini tushuntirib berdim.

"Siz uni o'z kuchingiz bilan kechira olmaysiz. Xudo sizni kechirishini so'rashdan avval, buni Xudoga olib kelishingiz kerak. Shundan so'ng siz eringizni kechira olasiz. Eringizni qo'yib yuborishni istaysizmi?" – deb so'radim.

U: "Ha," – deb javob berdi.

Men uni oddiy ibodatda boshqardim: "Samoviy Ota, mening erimga nisbatan kechirimsizligim uchun Sendan Iso Masih nomi bilan kechirim so'rayman. Rabbiy, men uni o'z kuchim bilan kechira olmasligimni bilaman, men allaqachon muvaffaqiyatsizlikka uchradim. Biroq men o'z yuragimdan erimni Sening qarshingda hozir qo'yib yuboraman. Men uni kechiraman".

U bu so'zlarni aytgan zahoti yonoqlari bo'ylab ko'z yoshlar oqdi. Men: "Qo'llaringizni ko'tarib, noma'lum tilda ibodat qiling," – deya uni ibodat qilishga undadim. Hayotda birinchi marotaba u samoviy ajoyib tilda ibodat qilishni boshladi. Biz Rabbiyning huzurini shu qadar kuchli his qildikki, Uning qarshisida titroqda va ehtiromda

edik. U besh daqiqacha yig'ladi. Biz ozroq suhbatlashdik, so'ngra, men shunchaki unga Rabbiyning huzurida rohatlanishni taklif qildim. U Rabbiyga sajda qilishni davom ettirdi, men esa uni yolg'iz qoldirib, oshxonadan chiqib ketdim.

Bu xabar uning o'g'liga va kelinigacha yetib borganida, ular hayron qoldilar. O'g'li hech qachon onasining yig'laganini ko'rmaganligini aytdi. Uning o'zi ham oxirgi marta qachon yig'laganini eslay olmaydi:

“Hattoki erim vafot etganida, men bir tomchi ham ko'z yosh to'kmaganman”.

O'sha kech xizmatda u suvga cho'mdi. Keyingi uch kun davomida uning yuzidan ajoyib, porloq kulgu arimadi. Men qachondir bungacha uning kulib yurganini ko'rganimni eslay olmayman. U kechirmagan, shu sababli, kechirmaslik qarmog'ida bo'lgan. Biroq u o'z erini qo'yib yuborgan va kechirgan zahoti, o'z hayotiga Rabbiyning kuchini qabul qildi hamda Uning huzurini haqiqatan his qilishni boshladi.

KECHIRMAGAN XIZMATKOR

Matto Xushxabarining 18-bobida Iso Masih kechirmaslik va xafalik natijasida kelib chiqadigan qullikni yanada yoritadi. U shogirdlariga ularni xafa qilgan birodarlari bilan qanday yarashish kerakligini aytgan. (Biz keyingi boblarning birida yarashishni ko'rib chiqamiz).

Petrus: “Rabbiy, mening birodarim menga qarshi necha marta gunoh qilsa, uni kechirishim kerak? Yetti martagachami?” – deb so'radi (Matto 18:21). U o'zini oliyjanoblik qilyapman deb hisobladi.

Petrus quyushqondan chiqadigan gaplarni gapirishni yaxshi ko'rar edi. O'zgarish tog'ida: “Uchta chayla qilamiz. Birisi Senga, birisi Musoga va birisi Eliyga”, – degan ham shu edi (Matto 17:4ga qarang). Endi esa u o'ziga shunchalik oliyjanob bo'lib tuyuldi: “Men Ustozimga yetti marta kechirishga tayyorligimni ko'rsataman”.

Biroq u hayron qolarli javobni oldi. Petrus oliyjanoblik hisoblaganini Iso Masih tarqatib yubordi: “Senga yetti martagacha

deганим yo'q, lekin yetti martadan yetmish martagacha" (Matto 18:22). Boshqacha qilib aytganda, Xudo kabi cheksiz kechirgin.

So'ngra, Iso Masih O'z fikriga urg'u berish uchun masal aytib berdi.

Shunday qilib, Osmon Shohligi o'z xizmatkorlari bilan hisoblashishga chiqqan shohga o'xshaydi. Hisoblashishni boshlaganda, undan o'n ming talant qarz olgan bir kishini unga olib kelishdi.

– MATTO 18:23-24

Iso Masih aytgan naqadar ko'p pul mablag'ini tasavvur qilish uchun biz talant nima ekanligini bilishimiz kerak. O'sha vaqtlarda talant o'lchov birligi bo'lgan. U oltin (2-Shohliklar 12:30), kumush (3-Shohliklar 20:39) va boshqa metallarni hamda tovarlarni o'lchashda foydalanilgan. Bu masalda qarz nazarda tutilmoqda, shu sababli, biz ikkilanmasdan Iso Masih oltin va kumush kabi ayirboshlash birligi haqida so'zlayotganini aytishimiz mumkin. Faraz qilamizki, bu oltin bo'lgan.

Oddiy talant taxminan 34 kilogrammga teng bo'lgan. Bu odam ko'tara oladigan og'irlik bo'lgan (4-Shohliklar 5:23ga qarang). O'n ming talant taxminan 375 tonnaga teng keladi. Shunday bo'lgach, bu xizmatkor o'z shohiga 375 tonna oltin qarzidor bo'lgan.

Hozir bir unsiya (28,3 gr) oltinning bahosi 375 AQSH dollari. Hozirgi bozorda bir talant oltin 450.000 dollar turadi. Demak, 10.000 talant oltin 4,5 milliard dollar turadi. Bu xizmatkor o'z shohiga 4,5 milliard dollar qarzidor bo'lgan. Iso Masih bu yerda hech qachon bera olmaydigan qarzga ega bo'lgan xizmatkorni ko'rsatmoqda. Biz o'qiymiz:

Modomiki, u qarzni to'lay olmaganligi uchun shoh unga o'zini, uning xotini va bolalari hamda undagi bor narsalarni sotishni va qarzni to'lashni buyurdi. Shunda xizmatkor yiqildi va ta'zim qilib: Shohim, menga sabr qiling va sizga

hammasini to'layman, – dedi. Shunda shohning xizmatkorga rahmi keldi, uni ozod qildi va qarzlarni kechirdi.

– MATTO 18:25-27

Keling, endi, bu masal bizga xafalik haqida gapirayotganligini ko'rib chiqamiz. Xafalik ko'tarilganida, kimdir qarzdorga aylanadi. Siz: "U bu uchun javob beradi", – degan iborani eshitgansiz. Shuning uchun kechirim – qarzning bekor qilinishi singaridir. Shoh hech qachon to'lay olmaydigan bunday qarzga ega bo'lgan xizmatkorni kechirgan Ota Xudoni tasvirlaydi. Biz buni Kolossaliklarga 2:13-14da topamiz: "Ilgari sizlar tanangizning xatnasizligida va gunohlaringizda o'lik edingizlar, lekin Xudo barcha gunohlaringizni kechirib, sizlarni Masih bilan birga jonlantirdi. U bizga qarshi bo'lgan qo'lyozma qoidalarini o'chirdi, uni dunyoning orasidan olib xochga mixladi".

Bizning kechirilgan qarzimizni to'lashning iloji yo'q edi. Bizning Xudoning qarshisidagi barcha qarzlarni Unga qaytarishimizning hech qanday imkoni yo'q edi. Bizning gunohlarimiz to'lib toshgan edi. Shuning uchun Xudo najotni bepul sovg'a sifatida berdi. Iso Masih bizga qarshi bo'lgan qarzlarni ro'yxatini to'liq to'ladi. Biz bu xizmatkor bilan shohning o'zaro munosabatlari va bizning Xudo bilan o'zaro munosabatlarimiz o'rtasida parallellikni ko'rishimiz mumkin.

Lekin o'sha xizmatkor chiqdi va undan yuz dinariy qarz olgan sheriklaridan birini topdi. Uni tutib oldi va yoqasidan bo'g'ib: Mendan olgan qarzingni to'la, – dedi.

– MATTO 18:28

Dinariy taxminan bir ish kunlik maoshga teng bo'lgan. Demak, hozirgi AQSH reytingiga ko'ra 100 dinariy 4.000 dollarga teng bo'lgan. Endi o'qishni davom ettiring:

Shunda uning sherigi uning oyog'iga yiqildi va unga yolvorib: Menga sabr qil va senga hammasini to'layman,

– dedi. U esa xohlamadi, lekin borib, qarzlarni to'lamagunicha uni zindonga tashladi.

– Matto 18:29-30

Uning sherigi unga ma'lum miqdordagi pul – yillik maoshning uchdan bir qismi miqdorida qarzdor bo'lgan. Agar siz yillik daromadingizning uchdan bir qismini yo'qotsangiz, sizga yoqqan bo'larmidi? Biroq bu odamning 4,5 milliard dollar qarzi kechirilganligini yodga oling. Hattoki u butun umrida ham shuncha pulni ishlab topa olmagan bo'lar edi!

Bizlarni bir-birimizdan xafa bo'lishimizni, biz Xudoni xafa qilishimiz bilan taqqoslaganda, bu ko'rsatkich 4.000 dollarga nisbatni 4,5 milliardni tashkil qilishiga o'xshashdir. Kimdir bizlarga yomon munosabatda bo'lgan bo'lishi mumkin, biroq buni bizning Xudoga qarshi qilgan gunohlarimiz bilan solishtirib bo'lmaydi.

Hech kimga, hech qachon sizchalik yomon bo'lmagandek tuyulishi mumkin. Biroq siz Iso Masih bilan naqadar yomon munosabatda bo'lganliklarini bilmaysiz. U aybsiz, benuqson qurbon qo'zisi bo'ldi.

Kechira olmaydigan odam, uning naqadar ulkan qarzi kechirilganligini unutgan odamdir. Iso Masih sizni abadiy o'limdan va azoblardan ozod qilganligini anglab yetsangiz, siz boshqalarni hech qanday shartlarsiz ozod qilasiz (Buni qanday amalga oshirish haqida 13-bobda hikoya qilingan).

Abadiylikni olovli ko'lda o'tkazishdan ko'ra yomonroq narsa yo'q. U joyda hech qanday yengillik yo'q, u yerning qurti o'lmaydi va olovi so'nmaydi. Bu Xudo bizni O'z O'g'li Iso Masihning o'limi orqali kechirmagunicha biz uchun tayyorlangan joy edi. Halliluyya! Agar kechirishingiz qiyin bo'lsa, do'zaxning borligi va undan sizni qutqargan Xudoning sevgisi haqida o'ylang.

IMONLILAR UCHUN SABOQLAR

Keling, bu masalni o'qishni davom ettiramiz:

Uning boshqa sheriklari esa buni ko'rib juda qayg'urdilar va kelib o'z shohiga bo'lib o'tgan hamma voqeani aytib berdilar. Shunda uning shohi uni chaqirib oldi va unga dedi: Eh, sen, yovuz xizmatkor. Mendan so'raganing uchun hamma qarzlaringni kechirdim. Xuddi Men senga rahm qilganim kabi sen ham o'z sherigingga rahm qilishing kerak emasmidi?

– MATTO 18:31-33

Iso Masih bu masalda imonsizlar haqida so'zlayotgan emas. U shohning xizmatkorlari haqida gapirgan. Bu odamning ulkan qarzi allaqachon kechirilgan edi (najot) va u shohning "xizmatkori" deb atalgan edi. U qarzini kechirmagan kishi esa uning hamkori edi. Biz shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, bunday kechirishni xohlamaydigan imonlining taqdiri halokatdir:

Shunda uning shohi g'azablandi va uni hamma qarzlarini to'lamagunicha zolimlarga topshirdi. Agar yuragingizdan o'z birodaringizning gunohlarini kechirmasangiz, Mening osmondagi Otam ham sizlarga xuddi shunday qiladi.

– MATTO 18:34-35

Bu oyatlarda uchta asosiy fikr bor:

1. Kechirmagan xizmatkor qiynoqlarga topshirildi.
2. U dastlabki qarzni 375 tonna oltinni to'lashi shart bo'ldi.
3. Ota Xudo o'z birodarini kechirmagan har bir imonli bilan ham xuddi shunday yo'l tutadi.

1. Kechirmagan xizmatkor qiynoqlarga topshirildi

Vebster lug'atida "qiynoq" (yoki azob) so'zi quyidagicha ta'riflanadi: "tana yoki ongning talvasaga tushishi" yoki "jazolash uchun qattiq og'riq yetkazish, zo'rlash, azoblashdan rohatlanishni amalga oshirish".

Shunday azob beruvchilar – bu yovuz ruhlardir. Biz imonli bo'lishimizga qaramasdan, Xudo "azoblovchilarga" bizning tanamizga va jonimizga azob berishga ruxsat beradi. Men o'z yuraklarida boshqalarni kechirishni rad etganliklari sababli shifolanish, yupanch va ozodlik ololmayotgan odamlar uchun xizmat yig'inlarida ko'p marta ibodat qilganman.

Vrachlar va olimlar kechirmaslikni va alamni – artrit va rak kabi kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi demoqdalar. Ko'p hollarda ruhiy xastaliklar – alamli kechirmaslik bilan bog'liqdir.

Odatda odamlar boshqa odamlarni kechirmaydilar, biroq ba'zida ular o'z-o'zlarini kechira olmaydilar. Iso Masih: "Agar sening biror kishiga qarshi da'voing bo'lsa, kechir..." – degan (Matto 5:24ga qarang). Shuningdek, "biror kishi" so'zi sizning o'zingizni ham o'z ichiga oladi. Agar Xudo sizni kechirgan bo'lsa, unda siz kimsizki, o'z-o'zingizni kechirmaysiz?

2. Kechirmaydigan xizmatkor to'lab bo'lmaydigan dastlabki qarzni to'lashi kerak

Undan imkonsiz narsani talab qildilar. Bu bizdan Iso Masih Golgo'tada to'lagan qarzni to'lash talab qilingani bilan tengdir. Biz bunday holda o'z najotimizni yo'qotgan bo'lar edik.

Siz: "Bir daqiqa! Biroq men odam gunohkorning ibodati bilan tavba qilgani zahoti va hayotini Iso Masihga bag'ishlagani zahoti halok bo'lmaydi deb o'ylagan edim", – dersiz.

Agar siz shunday ishonsangiz, unda Petrusning keyingi so'zlarini tushuntirib bering:

Agarda ular Rabbiy va Qutqaruvchi Iso Masihni tanib bilish orqali dunyoning haromliklaridan qutulgan bo'lib, o'sha haromliklarga yana o'ralib qolib qayta mag'lub bo'lsalar, unda ularning so'nggi ahvollari avvalgi ahvollaridan battar bo'ladi. Haqlik yo'lini tanib bilgandan keyin, tan olgan muqaddas amrdan yuz o'girgandan ko'ra, bu yo'lni hech bilmagani ular uchun yaxshiroq bo'lar edi.

– 2-PETRUS 2:20-21

Petrus Iso Masihda najot topish orqali (dunyoning haromliklaridan) qutulgan odamlar haqida gapirgan. Biroq ular yana gunohda (ulardan birortasi kechirmaslik bo'lishi mumkin) o'ralib qoldilar va mag'lubiyatga uchradilar. Mag'lub bo'lish – o'z gunohida tavba qilish bilan Rabbiyga qaytmaslikni bildiradi. Petrus haqlikdan voz kechish, uni hech qachon bilmaslikdan ko'ra yomonroq ekanligini tasdiqlamoqda. Boshqacha qilib aytganda, Xudo abadiy hayot ino'mini qabul qilib, so'ngra undan umrbod voz kechgandan ko'ra, hech qachon najot topmaslik yaxshiroq ekanligini aytmoqda.

Shuningdek, havoriy Yahudo jamoatdagi “ikki marta o'lgan” odamlarni ta'riflagan (Yahudo 12-13). Ikki marta o'lgan bo'lish, siz qachonlardir Iso Masihsiz o'lik bo'lganingiz, so'ngra yuqoridan tug'ilib tirilganingiz, shundan so'ng, Xudoning yo'llaridan ozib yana o'lganingizni anglatadi.

Biz ko'pchilikning o'zlarini quyidagi so'zlar bilan oqlab, Iso Masihga kelishlarini ko'ramiz: “Rabbiy, Rabbiy, bizlar Sening noming bilan bashorat qilmadikmi? Sening noming bilan jinlarni quvib chiqarmadikmi? Sening noming bilan ko'pgina mo'jizalarni yaratmadikmi?” – deydilar. Shunda Men ularga e'lon qilaman: “Men sizlarni hech qachon bilmaganman; Mening oldimdan ketinglar, qonunbuzarlar” (Matto 7:22-23). Ular Iso Masihni bilar edilar. Ular Uni Rabbiy deb atar va Uning nomi bilan mo'jizalar qilar edilar. Biroq Iso Masih ularni bilmagan. Unda Iso Masih kimni biladi?

Havoriy Pavlus yozgan: “Lekin kim Xudoni sevsa, u Xudo

tomonidan tanib bilingandir" (1-Korinfliklarga 8:3). Xudo Uni sevganlarni biladi.

Siz: "Men Xudoni sevaman. Men shunchaki meni jarohatlagan birodarimni sevmayman", – deyishingiz mumkin.

Unda siz adashgansiz, chunki yozilgan: "Kimki men Xudoni sevaman deb, o'z birodaridan nafratlansa, bunday odam yolg'onchidir. Chunki ko'rib turgan birodarini sevmaydigan odam qanday qilib ko'rmayotgan Xudoni seva olar ekan?" (1-Yuhanno 4:20). Yo'ldan ozish bu dahshatli narsa. Yo'ldan ozishda bo'lganlar butun yuraklari bilan o'zlarining haq ekanliklariga ishonadilar. Haq bo'lmagan vaqtlarida ham haqman deb o'ylaydilar. Xudoning So'ziga bo'ysunishni rad etadigan odam shaxsan o'z yuragini yo'ldan ozdiradi.

"Ko'pchilik" samoga ko'tarilishni kutishi va rad qilinishi hamda Iso Masihning so'nggi kunlarda "ko'pchilik"ning xafa bo'lishini yoki vasvasaga tushishini aytishi qiziq emasmi? Bu ikki guruh balki bir xil odamlarni o'z ichiga olar?

Ba'zi imonlilar kechirmaslikdan shu qadar kuchli azoblanadilarki, ular o'limni, u ularga yengillik olib kelishi umidida kutmoqdalar. Biroq bu noto'g'ri! Biz kechirimsizlik masalasini hoziroq hal qilishimiz kerak, aks holda, bizdan to'lashning iloji yo'q narsa talab qilinadi.

3. Xafalik yoki jarohat naqadar katta bo'lmasin, yuragidan kechirishni rad etgan har bir imonli bilan Ota Xudo shunday yo'l tutadi

Iso Masih bizlar Uning mazkur masalini tushunishimiz uchun juda aniq gapirgan. Iso Masih deyarli har bir masaliga, agar Uning shogirdlari bu haqda so'ramasalar izoh berib o'tirmagan. Biroq bu holda esa, har holda, U kechirishni rad etadiganlar uchun sudning og'ir bo'lishiga nisbatan odamlarda hech qanday shubha va noaniqlik bo'lmasligini xohlagan.

Shuningdek, Iso Masih ko'pgina boshqa joylarda, agar biz kechirmasak, o'zimiz ham kechirilmasligimizni juda aniq aytgan.

Yodda tuting, U biz kabi emas: U aytgan narsasini nazarda tutadi.

Jamoatda bundayini kam uchratasiz. Buning o'rniga, kechirimsizlik ko'tarib yurishlarini oqlaydilar. Kechirimsizlikni gomoseksualizm, zino, o'g'irlik, ichkilikbozlik va boshqa gunohlardan kichikroq gunoh hisoblanadi. Biroq boshqa gunohlarni qilib yurgan kishilar kabi, kechirishni rad etadiganlar ham Xudoning Shohligini meros qilib olmaydilar.

Ba'zilar bu og'ir voizlik deb o'ylashlari mumkin. Biroq men unga og'ir sud kabi emas, rahm-shafqat va ogohlantirish xabariga qaragandek qarayman. Siz nimani afzal deb bilasiz: bugun Muqaddas Ruh tomonidan fosh qilingan va uqtirilgan bo'lishni hamda haqiqiy tavbani va kechirimni his etishnimi yoki kechirimni rad etishni va tavba qilishga juda kech bo'lganida Rabbiy sizlarga: "Mening oldimdan ketinglar", – deb aytishini eshitishnimi?

**BIZ O‘ZIMIZ UCHUN QASOS OLISHDAN
SHU QADAR YIROQ BO‘LISHIMIZ
KERAKKI, HATTO YANA XAFA
QILISHLARI XAVFIGA O‘ZIMIZNI
IXTIYORIY QO‘YIB BERISHIMIZ KERAK.**

Siz “Shaytonning xo‘ragi”ni yozish uchun Xudoga itoat qilganingiz uchun men Xudodan minnatdorman. Bu kitob shu qadar moylanganki, men ikki kun uni o‘qishim jarayonida, Rabbiyning Ruhi to‘liq mening ustimda ishladi. Bu kitob mening hayotimni to‘liq o‘zgartirdi. Men xafalik zanjirlaridan qutuldim va ozodligimni saqlab qolish uchun yuragim, ongim va hissiyotlarim ustidan ishlashda davom etaman.

– L. M., JANUBIY KAROLINA

QASOS – BU TUZOQ

*Hech kimga yomonlikka yomonlik
qaytarmanglar. Hamma odamlarning
oldida yaxshilik uchun jon kuydiringlar.*

– Rimliklarga 12:17

Biz endi o'tgan bobda kechirimsizlikni tutib turish, kimnidir o'zining qarzdori deb hisoblash bilan teng ekanligini ko'rib chiqdik. Kimdir boshqa odam bilan nohaq munosabatda bo'lganida, uni xafa qilgan kishini endi o'zining qarzdori deb hisoblaydi. U qandaydir pul yoki ruhiy to'lovni kutadi.

Zarar ko'rgan yoki jarohatlangan tomonning huquqlarini himoya qilish uchun bizning sud tizimimiz mavjud. Sud tizimi odamlarning o'z qarzlarini qaytarib olish haqidagi da'volarini qondirishga harakat

qiladi. Bir odam boshqasini xafa qilganida, insoniy adolat: "Ular qilgan ishi uchun sud qarshisida turadilar va agar aybdor bo'lsalar, to'laydilar", – deydi.

Kechirmagan xizmatkor sherigi unga qarzini to'lashini xohladi, shuning uchun uni sudga berdi. Bu haqlik yo'li emas.

Ey sevganlarim, o'zlarinigiz uchun qasos olmanglar, ammo Xudoning g'azabiga o'rin beringlar. Chunki yozilgan: "Qasos Menikidir, Men haqini beraman, - deydi Rabbii.

– RIMLIKLARGA 12:19

Xudoning farzandlari sifatida bizlarning o'zimiz uchun qasos olishimiz haqlikdan emas. Biroq biz kechirimni rad etganimizda aynan shunga, ya'ni qasosga intilamiz. Biz qasos olishga chanqoq bo'lamiz, o'ylaymiz va amalga oshiramiz. Bizga qarzni to'liq qaytarmagunlaricha kechirmaymiz va bu badalning ma'qul bo'lgan o'lchovini faqatgina biz belgilashimiz mumkin. Bizga yetkazilgan zararining o'rnini to'ldirishga o'zimiz harakat qilganimizda, o'zimizni sudyaning o'rniga qo'yamiz. Lekin biz bilamizki:

Qutqarishga hamda halok qilishga qodir bo'lgan Qonun chiqaruvchi va hukm qiluvchi Xudo yagonadir. Sen kim bo'libsanki, o'z birodaringni hukm qilsang? Birodarlarim, mahkum bo'lmasligingiz uchun bir-biringizdan nolimanglar. Mana, Hukm qiluvchi eshik oldida turibdi.

– YOQUB 4:12, 5:9

Xudo – haq Sudyadir. U adolatli hukm chiqaradi. Agar kimdir gunoh qilib, haqiqatan tavba qilsa, Iso Masihning Golgo'tada to'kilgan Qoni bu qarzni o'chiradi. Siz: "Biroq Iso Masih bilan emas, men bilan yomon munosabatda bo'ldilar-ku!" – deyishingiz mumkin.

To'g'ri, biroq siz Iso Masihga qanchalik dahshatli yovuzlik qilganligingizni anglamayapsiz. Bizlarning har birimiz gunoh

qilgan va o'limga loyiq bo'lgan vaqtda, U dog'siz va benuqson aybsiz qurbonlik bo'ldi. Bizlarning har birimiz davlat qonunidan ancha ustun bo'lgan Xudoning qonunlarini buzganmiz. Agar adolat yuzasidan ish qilinsa, unda har birimiz dunyodagi eng oliy adolatning qo'li bilan o'limga hukm qilingan bo'lishimiz kerak edi. Balki siz boshqa odamning sizga yovuzlik qilishi mumkin bo'lgan hech nima qilmagandirsiz? Biroq, agar sizga qilingan munosabat bilan, sizning kechirilgan ishlaringizni solishtirsangiz, unda bu hech qanday narsa bilan tenglasha olmasligini ko'rasiz. Bundan Xudoga bo'lgan sizning qarzingiz bir grammga ham kamaymaydi. Agar siz o'zingizni aldangan his qilayotgan bo'lsangiz, sizga qanday rahm-shafqat ko'rsatilganini unutgansiz.

XAFALIKNING KUL RANG SOHALARI QOLMASIN

Agar sizlar Eski Ahd davrida menga qarshi gunoh qilganlaringizda edi, xuddi shunday o'lchamda qasos talab qilishga mening qonuniy huquqim bo'lgan bo'lar edi. Shunda yovuzlikka yovuzlik bilan javob qaytarib, qarzni to'lashni talab qilish mumkin edi (Levit 24:19, Chiqish 21:23-25). Qonun oliy sudya edi. Iso Masih qonun ostidagilarni ozod qilish uchun hali o'lmagan edi.

U Yangi Ahdning imonlilariga qanday murojaat qilayotganiga e'tibor bering:

Sizlar: “Ko'zga ko'z, tishga tish,” – deyilganini eshitgansizlar. Ammo men sizlarga aytaman: Yovuzga qarshilik qilmanglar. Kim sizni o'ng chakkangizga ursa, unga chap chakkangizni ham tutib beringlar. Kim siz bilan sudlashib, sizning ko'yilagingizni olmoqchi bo'lsa, unga to'ningizni ham bering. Kim sizni bir mil yurishga majbur qilsa, u bilan ikki mil yuring. Sizdan so'rayotganga bering va qarz olmoqchi bo'lgandan yuzingizni o'girmang.

– MATTO 5:38-42

Iso Masih xafalikning barcha kul rang sohalarini yo'q qilmoqda. Aslida Iso Masih bizning munosabatimiz quyidagicha bo'lishi lozimligini so'zlamogda: Biz o'zimiz uchun qasos olishdan shu qadar uzoq bo'lishimiz kerakki, toki bizlar o'zimizni yana xafa qilishlari xavfiga ochib bera olishimiz lozim.

Bizga nisbatan qilingan yomonlikni mustaqil ravishda to'g'rilashga harakat qilganimizda o'zimizni sudyaning o'rniga qo'yamiz. Matto Xushxabarining 18-bobidagi kechirimsiz qul o'z sherigini zindonga tashlaganida shunday qilgan edi. O'z navbatida bu kechirimsiz qulning o'zi ham azoblovchilarga topshirildi, uning oilasi esa, u barcha qarzini to'liq to'lamagunicha sotildi.

Biz haq Sudyaga o'rin berishimiz kerak. U haqiqat bo'yicha qarimtani beradi. Haq hukm faqatgina Undadir.

Bir safar men Florida shtatining Tampa shahridagi jamoatda xafalik mavzuida voizlik qildim. Voizlikdan so'ng mening oldimga bir ayol keldi. U sobiq erini unga nisbatan qilgan barcha ishi uchun kechirganligini aytdi. Biroq u mening xafalikdan voz kechish kerakligi haqidagi voizligimni eshitganida, hanuz ichida tinchlik yo'qligini va o'zini noqulay his qilishini tushunib yetgan edi.

Men unga yumshoq ohangda: "Demak, shunday qilib, siz uni kechirmagansiz," – dedim.

"Yo'q, kechirganman, – dedi u, – men kechirim ko'z yoshlarini to'kib yig'laganman".

"Siz kechirishingiz va shu bilan birga uni qo'yib yubormasligingiz mumkin".

U uni kechirganligini qattiq turib tasdiqladi: "Menga undan hech narsa kerak emas. Men uni qo'yib yuborganman".

"U sizga nima qilganligini menga aytib bering," – deya iltimos qildim.

"Men erim bilan birga jamoatda cho'ponlik xizmatini olib borar edik. U meni va uch nafar farzandimizni qoldirib, jamoatning yetakchilaridan biri bo'lgan bir ayol bilan qochib ketdi, – uning ko'zlarida yosh paydo bo'ldi, – u menga Xudoning irodasiga ko'ra

uyanmaganligini aytdi, chunki uning uchun Xudoning haqiqiy irodasi u keyinchalik qochib ketgan ayolga uylanish bo'lganligini aytdi. Erim menga yana u ayol uning xizmatida muhim hissa qo'shganligini, chunki u unga mendan ko'ra ko'proq yordam berganligini aytdi. Yana men uning uchun to'siq bo'lganligimni, uni tanqid qilganligimni aytdi. Nikohimizning buzilishidagi barcha aybni mening bo'ynimga to'nkadi. U shunday qilib, bunda uning ham aybi borligini tan olmadi".

Bu odam aldangan va o'z xotini hamda bolalariga nisbatan yomon ish qilganiga shubha yo'q. Xotini uning hatti-harakatidan azob tortgan va eri unga qarzini to'lashini kutgan. Bu qarz – aliment to'lash yoki bolalarga moddiy yordam berish tarzida emas edi, chunki uning yangi eri uni bularning barchasi bilan yaxshi ta'minlar edi. Ayol sobiq eri to'lashini istagan qarz – eri nohaq bo'lganligini, xotini esa haq bo'lganligini tan olishi edi.

Men unga: "U sizning oldingizga kelib, hamma narsada siz emas, u aybdor ekanligini aytib, so'ngra sizdan kechirim so'ramagunicha, siz uni kechirmaysiz," – dedim. So'ng: "Mana shu to'lanmagan qarz sizni bog'lab turibdi," – deb urg'u berdim.

Agar Iso Masih biz Uning oldiga kechirim bilan borib: "Sen haqsan, biz esa nohaqmiz. Bizni kechir", – deyishimizni kutganida edi, U bizni xochda kechirmagan bo'lar edi. U xochda azoblana turib, hayqirdi: "Otam! Ularni kechirgin, chunki ular nima qilayotganlarini bilmaydilar" (Luqo 23:34). U bizni hali biz Uning oldiga kelib, gunohlarimizni e'tirof etgunimizga qadar kechirdi. Havoriy Pavlus bizni ogohlantiradi: Agar birortangiz kimdandir xafa bo'lgan bo'lsa, Masih sizlarni kechirgani kabi, sizlar ham bir-biringizni kechiringlar (Kolosaliklarga 3:13). Va: "Ammo bir-biringizga nisbatan mehribon va hamdard bo'linglar. Xudo sizlarni Masihda kechirgani kabi sizlar ham bir-biringizni kechiringlar" (Efesliklarga 4:32).

Men bu ayolga: U: "Men aybdorman, sen esa haqsan", – demagunicha, siz uni kechirmaysiz, – deganimda, uning yuzlari bo'ylab ko'z yoshlari oqdi. Eri unga va farzandlariga keltirgan o'sha barcha og'riqlari bilan uning o'zining xohlagani tenglashtirilganda

zig'irdek bo'lib qoldi. Biroq u odamiylik adolatining qulligida edi. U qarzni olish huquqlarini talab qilib va uning to'lovini kutib, o'zini sudya qilib qo'ydi. Bu xafalik uning yangi eri bilan munosabatlariga xalaqit berdi. Shuningdek, bu uning hokimiyatga ega barcha erkaklarga nisbatan munosabatlariga ta'sir qildi, chunki uning sobiq eri xuddi shunday cho'pon edi.

Iso Masih ko'pincha bizning yuragimizning holatini yerning holati bilan tenglashtiradi. Bizga Xudoning sevgisida tomir yoyish va mustahkamlanish buyurilgan. Shunda Xudo so'zining tomiri bizning yuraklarimizda tomir yoyadi, o'sadi va oxir natijada haqiqat hosilini keltiradilar. Ushbu hosillar: sevgi, tinchlik, quvonch, uzoq sabr-toqat, ezgulik, mehribonlik, imon, muloyimlik va o'zini tiyishdir (Galatyaliklarga 5:22-23ga qarang).

Biroq yer faqatgina unga ekilgan narsani undiradi. Agar biz qarzdorlik, kechirimsizlik va xafalik urug'larini eksak, Xudoning sevgisi o'rniga U achchiq tomir deb atagan yovvoyi o't (yoki alam tomirlari) o'sadi. Frensis Frenjipeyn alamga juda yaxshi ta'rif bergan: "Alam – bu amalga oshirilmagan qasosdir". Alam – bizlar o'zimiz istagan darajada qasos ola olmagan vaqtda vujudga keladi.

Ibroniylklarga maktubning muallifi bu haqda to'g'ridan-to'g'ri aytgan:

Hamma bilan tinchlik va muqaddaslik payida bo'linglar, zero muqaddasliksiz hech kim Rabbiyni ko'rmaydi. Hech kim Xudoning inoyatidan mahrum bo'lib qolmasligi uchun e'tibor beringlar, toki biror achchiq ildiz paydo bo'lib, zarar yetkazmasin hamda u orqali ko'plar harom bo'lmasinlar.

– IBRONIYLARGA 12:14-15

"U orqali ko'plar harom bo'lmasinlar" jumlasiga e'tibor bering. Bu ko'plar Iso Masih Matto 24:10da so'nggi kunlarda "ko'plar" vasvasaga tushadilar (yoki xafa bo'ladilar) deb aytgan odamlar bo'lishi mumkinmi?

Alam – bu tomirdir. Agar tomir parvarish qilinsa: sug’orilsa, himoyalansa, oziqlantirilsa u mustahkamlanadi va chuqurlashadi. Agarda tezda tomir tartibga solinmasa, keyin uni sug’urib olish nihoyatda qiyin bo’ladi. Xafalik har kuni o’sadi. Shuning uchun Pavlus shunday so’zlar bilan bizga nasihat qiladi: “G’azabingizda quyosh botmasin” (Efesliklarga 4:26). Aks holda, biz haqlik hosillarining o’rniga g’azab, xafalik, nolish, hasad, nafrat, janjalchilik va kelishmovchilik hosilini ko’ramiz. Iso Masih bularning barchasini yovuz va yomon hosillar deb atagan (Matto 7:19-20).

Muqaddas Yozuv xafalikni qo’yib yuborib, tinchlikka intilmaydigan odam oqibat natijada bulg’anishini aytadi. Oqibatda qimmatbaho narsa kechirmaslik alami bilan buziladi.

PODSHOHLIKKA NOMZOD ODAMNING BULG’ANISHI

Biz bu kitobda qanday qilib Dovud Shoulga, hattoki, Shoul u bilan makkorona yo’l tutganida ham u shohga sodiq qolganligini ko’rib chiqdik. Hattoki Dovudda ikki marta shunday vaziyat tug’ilganda ham, u o’zi uchun qasos olishga intilmadi. U Xudoning yuragidagi erkak edi hamda o’zi va Shoul uchun hukm chiqarishga Xudoga imkon berdi. Xudoning hukmi Shoulga kelganida, Dovud bunga quvonmadi. U Shoul uchun xafa bo’ldi, chunki uning yuragida Shoulga nisbatan hech qanday alam yo’q edi.

Shoulning vafotidan so’ng Dovud taxtga ko’tarildi. U mamlakatni mustahkamladi, xarbiy va moddiy muvaffaqiyatlarga erishdi hamda taxtni mustahkam egalladi. Dovud bir qancha xotinlar oldi. Ular unga bolalar, shu jumladan, to’ng’ichi Amnonni va uchinchi o’g’li Abusalomni tug’ib berdilar.

Dovudning o’g’li Amnon noqonuniy tarzda o’zining ota tomonidan singlisi, Abusalomning qondosh singlisi bo’lgan Tamarni vasvasa qildi. U o’zini kasalga soldi va otasidan Tamar unga ovqat tayyorlab berishi uchun uning oldiga yuborishini so’radi. Qiz ovqat tayyorlayotganida, u xonadan barcha xizmatkorlarni chiqarib yuborib, uni zo’rladi.

Shundan so'ng u Tamardan nafratlanib qoldi va uni ko'z oldidan yo'qotishlarini buyurdi. U shohning aybsiz qizini badnom qildi, uni sharmandalik bilan qopladi (2-Shohliklar 13ga qarang).

Abusalom o'z akasiga hech bir so'z aytmasdan, singlisini uyiga olib ketdi va Tamarni bulg'aganligi tufayli Amnonni yomon ko'rib qoldi.

Abusalom otasi qandaydir tarzda akasini jazolashini kutdi. Shoh Dovud Amnonning qonunbuzarligi haqida eshitganida qattiq g'azablendi, biroq bu vaziyat yuzasidan hech nima qilmadi. Abusalom otasi adolatli hukm chiqarmaganligidan benihoya xafa edi.

Qachonlardir Tamar shohning bokira qizlari uchun mo'ljallangan shohona kiyimlarni kiyar edi, endi esa uyatga va sharmandalikka burkandi. U nihoyatda go'zal va ehtimol, xalqning ulkan hurmatida edi. Endi esa u turmushga chiqish huquqiga ega bo'lmasdan yolg'izlikda yashadi, chunki bokira emas edi.

Bu nohaqlik edi. Axir u shohning amriga ko'ra Amnonni ovqatlantirgani borganida uni badnom qilishdi. Bu yovuzlikni amalga oshirgan kishi go'yo hech nima bo'lmagandek yashayotgan bir vaqtda, uning hayoti tugagan edi. U bu kulfatning butun og'irligini bir o'zi ko'tardi.

Abusalom kundan-kunga o'zining motamsaro singlisini ko'rib turar edi. Malikaning ajoyib hayoti – dahshatga aylantirilgan edi. Abusalom otasi adolatli hukm chiqarishini yil bo'yi kutdi, biroq Dovud hech narsa qilmadi. Abusalom otasidan xafa bo'ldi va nopok Amnonni yomon ko'rib qoldi.

Ikki yildan so'ng uning Amnonga bo'lgan nafrati o'ldirish rejasining tug'ilishiga olib keldi. Abusalom balki: *“Hokimiyat tepasida turganlar hech nima qilmaslikni tanlagan ekan, singlim uchun men qasos olaman”*, – deb o'ylagandir.

U barcha shoh o'g'illari uchun bazm uyushtirdi. Amnon nech narsadan shubha qilmasdan keldi va Abusalom uni o'ldirdi. Abusalom o'z qasosini shu tarzda amalga oshirib, Gessurga qochib ketdi. Biroq uning otasiga nisbatan xafaligi, ayniqsa, u saroydan uzoqda bo'lganida tobora kuchliroq alangalandi. Abusalomning

fikrlari alamdanda zaharlandi. U Dovudning kamchiliklarini tanqid qila boshladi. Biroq u otasi uni chaqirishini xohlar edi. Biroq Dovud bunday qilmadi. Bu Abusalomning xafalik oloviga yogʻ quydi.

Balki unda shunday fikrlar boʻlgan: *“Xalq mening otamdan zavqlanmoqda, biroq ular faqat koʻzlari ojiz kishilardir va uning asl mohiyatini koʻrmayaptilar. U parda ortiga yashiringani kabi Xudoning ortiga yashirinadigan, oʻzinikini izlaydigan tamagir odam. Ha, u shoh Shouldan koʻra yomonroqdir! Shoul Amaliklarning shohini oʻldirmaganligi va uning qoʻy hamda buqalaridan bir qanchasini ayaganligi tufayli taxtdan ajraldi. Mening otam esa, unga sodiq kishilardan birining xotini bilan zino qildi. Soʻngra u bu odamni oʻldirib, oʻz gunohini yashirdi. Uning oʻzi qotil va zinokordir, mana nima uchun u Amnonni jazolamadi! U yana bularning hammasini Rabbii Xudoga oʻzining otashin sajdalari bilan toʻsib olgan”.*

Abusalom Gessurda uch yil qoldi. Vaqti kelib, Dovud oʻgʻli Amnonning oʻlimi tufayli boʻlgan qaygʻusidan yupandi. Shunda loab Abusalomni uyga chaqirishga shohni koʻndirdi. Biroq Dovud avvaliga oʻgʻli bilan uchrashishni rad etdi. Yana ikki yil oʻtdi va Dovud nihoyat barcha imtiyozlarni qaytarib, unga nisbatan oʻz ezguligini tikladi. Ammo Abusalomning yuragidagi xafalik xuddi avvaldagidek qoldi.

Abusalom ichidagini sirtiga chiqarmaslikka mohir edi. Amnonni oʻldirishidan oldin: *“Abusalom Amnonga yaxshi ham, yomon ham gapirmadi, zero Abusalom Amnondan nafratlanar edi (2-Shohliklar 13:22). Koʻpgina odamlar xuddi Abusalom kabi oʻz xafaliklarini va nafratlarini yashirishga qodirlar.*

U xafalik holatida boʻlib, barchaga nisbatan tanqidiy munosabatga ega holda, shohdan norozi boʻlgan har bir kishini oʻziga jalb qilishni boshladi. U har bir kishining shikoyatlarini eshitishga vaqt ajratib, Isroildagi barcha norozi kishilarni oʻziga jalb qildi. Agar u shoh boʻlganida hammasi boshqacha boʻlishini aytib, yigʻladi. Goʻyoki, shohning bu uchun vaqti yoʻqdek koʻrsatib, isroilliklarning ishlarini oʻzi koʻrib chiqdi va hukm qildi. Balki Abusalom uning oʻziga adolat koʻrsatilmagandek his qilgani uchun ularning ishlarini koʻrib chiqqandir.

U xalqqa g'amxo'rlik qilayotgandek tuyuldi. Muqaddas Yozuv Abusalom o'z otasi Dovuddan Isroilliklarning yuragini o'g'irladi, deydi. Ammo, aslida nima ro'y berdi? U haqiqatan odamlarga g'amxo'rlik qildimi yoki u faqatgina uni xafa qilgan Dovudni qulatish yo'lini qidirdimi?

BIROVNING XATOSI BO'YICHA MUTAXASSISLAR

Abusalom Isroilni o'z tomoniga og'dirdi va Dovudga qarshi ko'tarildi. Shoh Dovud o'z hayotini qutqarib, Iyerusalimdan qochishiga to'g'ri keldi. Barchasi xuddi Abusalom o'zining shohligini o'rnatayotgandek ko'rindi. Dovud uni tirik qoldirishni buyurganiga qaramasdan, u Dovudni ta'qib qilib o'zi o'ldi.

Aslida Abusalomni uning o'z alami va xafaligi nobud qildi. Shunday imkoniyatlari bo'lgan odam, taxtning vorisi o'zining qarzdori deb hisoblagan otasini kechirishni rad etganligi tufayli kuchga to'lgan paytida o'ldi. Buning natijasida u bulg'andi.

Ko'pincha jamoat yetakchilarining yordamchilari o'zlari xizmat qiladigan yetakchilardan xafa bo'ladilar. Ko'p o'tmay ular tanqidchi bo'lib boradilar va o'z yetakchilarida yoki uning atrofidagilarda nima noto'g'ri ekanligi bo'yicha mutaxassislarga aylanadilar. Ular xafa bo'lganlar. Ularning nigohlari buzilgan. Ular narsalarga Xudo qaraydigan tomondan emas, umuman boshqa tomondan qaraydilar.

Atrofdagi barchani adolatsiz yetakchidan ozod qilishni ular o'z hayotlaridagi da'vatlari deb hisoblaydilar va g'azablangan, norozi va bilimsiz odamlarni o'zlariga og'diradilar. Ular buni anglab yetishlaridan avval jamoatda yoki xizmatda bo'linishlar sodir bo'ladi. Xuddi Abusalom bilan sodir bo'lgan voqea kabi.

Ba'zida ularning kuzatishlari to'g'ri va aniq bo'lib chiqadi. Ehtimol, Dovud Amnon bilan nimadir qilishi kerak edi. Balki yetakchilarning xato qiladigan sohalari bordir. Ammo kim sudya: sizmi yoki Rabbiymi? Yodda tuting, agar siz dushmanlikni eksangiz, uni o'rib ham olasiz.

Abusalom bilan ro'y bergan va zamonaviy xizmatlarda sodir bo'layotgan narsa – bu ma'lum muddatni oladigan jarayondir. Biz ko'pincha yuragimizga xafalik kirganligini bilmaymiz. Achchiq tomir o'sishining boshida arang seziladi. Biroq uni parvarishlaganda u o'sadi va mustahkamlanadi. Ibroniylarga maktubning muallifi nasihat bergani kabi biz diqqat bilan e'tibor berishimiz kerak “toki biror achchiq ildiz paydo bo'lib, zarar yetkazmasin hamda u orqali ko'plar harom bo'lmasinlar” (Ibroniylarga 12:15).

Rabbiy bizni to'g'rilashi uchun biz o'z yuraklarimizni tekshirishimiz va o'zimizni Rabbiyga ochishimiz kerak, zero faqat Uning So'zi yuragimizdagi xayolu niyatlarimizni farqlashi va hukm qilishi mumkin (Ibroniylarga 4:12). Muqaddas Ruh odamning vijdoni orqali so'zlab fosh qiladi. Biz Uning fosh qilishlarini rad etmasligimiz va Uni so'ndirmasligimiz kerak. Agar sizlarning birortangiz shunday qilgan bo'lsangiz, Xudoning qarshisida tavba qiling va Muqaddas Ruhga o'z yuragingizni oching.

Bir kuni bir xizmatchi men bilan bir vaziyatda Dovud kabi harakat qilganmi, yoki Abusalom kabi harakat qilganmi, shu haqida maslahatlashdi. U bir shahardagi cho'ponning yordamchisi bo'lib xizmat qilgan edi va cho'pon uni haydab yuborgan edi. Bu cho'pon unga hasad qilgandek va Xudoning qo'li unda ekanligi sababli bu yosh kishidan qo'rqqandek tuyular edi.

Bir yildan so'ng bu haydalgan xizmatchi Rabbiy uni shu shaharning boshqa tumanidan yangi jamoat boshlashini istayotgandek his qildi. U shunday qildi va u tark etgan jamoatdan ba'zi odamlar kelib unga qo'shilishdi. U bundan bezovta edi, chunki Abusalom kabi yo'l tutishni xohlamas edi. Biroq u o'zida sobiq cho'poniga nisbatan hech qanday xafalikni topmadi. U Rabbiyning boshqaruviga binoan yangi jamoatni boshlagan edi va bu uning avvalgi jamoatida uni qadrlamaganliklariga bo'lgan javob reaksiyasi emas edi.

Men unga Abusalom va Dovud o'rtasidagi farqni ko'rsatdim. Abusalom o'z yetakchisidan xafa bo'lganligi tufayli boshqa odamlarning yuragiga bildirmay kirib oldi. Garchi Shoul uni ta'qib qilgan bo'lsa ham, Dovud boshqalarni Shoulga sodiq qolishga

chorladi. Abusalom odamlarni o'ziga og'dirib oldi, Dovud esa yolg'iz qoldi.

Men undan: "Siz jamoatingizni yolg'iz o'zingiz tark etdingizmi? Siz odamlarni siz bilan birga ketishga yoki sizni qo'llab-quvvatlashga chorladingizmi?" – deb so'radim.

"Men yolg'iz o'zim ketdim va ortimdan odamlarni ergashtirish uchun biror harakat qilgan emasman," – javob berdi u.

"Bu yaxshi. Siz Dovuddek yo'l tutgansiz. Sizning oldingizga keladigan odamlarni sobiq cho'pondan xafa emasligiga ishonch hosil qiling, agarda, ular shunga qaramasdan undan xafa bo'lsalar, ularni ozodlikka va shifolanishga olib chiqing".

Hozir bu odamning jamoati gullab-yashnamoqda. Menga asosan undagi yoqqan narsa, bu u o'z yuragini tekshirishdan qo'rqmaganligidir. Faqatgina bu emas, balki u yana xudojo'yning maslahatiga itoat qilganligidir. Uning uchun o'z "haqligini" isbot qilishdan ko'ra, Xudoning yo'llariga itoatkor bo'lish muhimroq edi.

Muqaddas Ruh sizga xafaligingizni va alamingizni ochishiga ruxsat berishdan qo'rqmang. Siz ularni qancha ko'p yashirsangiz, ular shuncha kuchli bo'lib boradi va yuragingiz shuncha qattiqlashib boradi. Yuragingizni qattiq qilmang! Qanday qilib?

Har qanday achchiqlanish, qahr, g'azab, baqirish, g'iybatchilik va har qanday adovat sizlardan chetlatilgan bo'lsin. Ammo bir-biringizga nisbatan mehribon va hamdard bo'linglar. Xudo sizlarni Masihda kechirgani kabi sizlar ham bir-biringizni kechiringlar.

– EFESLIKLARGA 4:31-32

**SIZ ENG KUCHLI XAFALIKNI –
SIZ QARSHI TURISHGA HALI
O‘RGANMAGAN XAFALIKNI
YENGGANINGIZDA KO‘PROQ O‘SASIZ.**

Men “Shaytonning xo‘ragi” kitobini qo‘lga kiritdim. Naqadar barakat bu kitob. Men bu kitobni ko‘plarga tavsiya qilaman. Xudo buni mening hayotimda haqiqatan ishlatdi. Rahmat!

– S. T., JORJIYA

QOPQONNI CHETLAB O'TISH

Shuning uchun ham Xudo va insonlarga nisbatan aybsiz vijdonga (inglizcha tekstda "xafaliklardan ozod bo'lgan vijdonga") ega bo'lishga harakat qilaman (inglizcha tekstda "mashq qilaman").

– Havoriylar 24:16

Har qanday xafaliklardan ozod bo'lish uchun kuch talab qilinadi. Pavlus buni mashqlar bilan tenglashtiradi.

Agar biz tanamizni mashq qildirsak, jarohatlarga oson berilmaymiz. Bir marta men Gavay orollarida suratga tushish uchun devorga chiqishga harakat qildim. Chiqa turib, tizzamdagi mushaklarimni shikastlab oldim va to'rt kun davomida yura olmadim.

Agar siz doimiy shug'ullanganingizda edi, – dedi menga terapevt vrach, – bu narsa sodir bo'lmagan bo'lar edi. Sizning mushaklaringiz zaiflashgan va siz osongina jarohat olishingiz mumkin.

Men yana yurishni boshlaganimda, boshqa mutaxassis menga maslahat berdi: “Siz tizzangizdagi mushaklaringizni kerakli holatga keltirishingiz uchun ma'lum mashqlarni qilishingiz kerak”. Tizzalarimni normal holga keltirish uchun menga bir necha oy zarur bo'ldi.

Havoriylar 24:16 dagi “harakat qilaman” (inglizcha matnda “mashq qilaman”) so'zi yunoncha “askeo” so'zidan olingan. “Mashq qilaman” so'ziga Vayna lug'atida shunday izoh berilgan: “og'riqni boshdan kechirish, kuch sarflash, bardosh berish, mashq yoki mashg'ulot yordamida shug'ullanish”.

Ba'zida bizni xafa qilganlarni kechirish qiyin bo'lmaydi. Bizlar yuraklarimizni shug'ullantirganmiz, shu sababli, ular xafalikni qo'lga olish holatidadirlar. Shu tufayli jarohatlanish ham, turg'un zarar ham yetkazilmaydi.

Ko'p odamlar Gavaydagi devorlarga chiqishi mumkin va shu bilan birga hech qanday mushaklar jarohati olmasliklari mumkin, chunki ular yaxshi tayyorlanganlar. Xuddi shuningdek, ba'zi imonlilar o'z yuraklarini shug'ullantirishlari yordamida Xudo tomonidan kerakli holatga keltirilganlar. Bizlarning jarohat olmasdan xafalikni boshdan kechirishdagi muvaffaqiyatimiz – bizning ruhiy yetukligimizning darajasini belgilaydi.

Siz tayyor bo'lgan xafaliklardan ko'ra, boshqa ayrim xafaliklar jiddiyroq bo'ladi. Bu qo'shimcha keskinlik jarohat yoki shikast keltirishi mumkin. Bulardan so'ng to'liq ozodlikkacha va shifolanishgacha biz o'zimizni ruhiy shug'ullantirishimizga to'g'ri keladi. Biroq natija sarf qilingan kuchga teng keladi. Men bu bobda bartaraf qilish uchun katta kuch kerak bo'ladigan, odatdagidan tashqari xafaliklarni ko'rib chiqaman.

Meni bir xizmatchi xafa qilgan edi. U meni haqorat qildi va bu yarim yil ichidagi yagona hodisa emas edi. Atrofdagilarning barchasi

sodir bo'layotgan narsa haqida bilar edilar. Ular mendan: "Bu seni jarohatlamadimi? – deb so'radilar, – Sen nima qilmoqchisan? Nahotki sen hech narsa qilmasdan shunday jim turasan?"

"Hammasi joyida, – o'zimni dadil tutdim men, – bu menga ta'sir qilmaydi. Men Xudoning hayotimdagi da'vati ortidan ergashishni davom ettiraman.

Biroq mening javobim mag'rurlikdan boshqasi emas edi. Men qattiq jarohatlangan edim, biroq buni hattoki o'zim ham tan olishni xohlamas edim. Bularning barchasi men bilan qanday sodir bo'lishi mumkinligini soatlab hal qilishga harakat qilgan vaqtlarim bo'lgan. Men shokda, hayratda va dong qotib qolgan edim. Biroq men bu fikrlarni bosdim hamda haqiqatan zaif va chuqur jarohatlangan bo'lsam ham, o'sha vaqtda o'zimni kuchli qilib ko'rsatdim.

Oylar o'tdi. Barchasi quruq bo'lib qoldi, mening xizmatim jonsiz bo'lib qoldi, ibodatxonam huvillab qoldi, men esa doimiy azob-uqubatda edim. Men har kuni jinlar bilan kurashdim. Men bu barcha qarshiliklar mening hayotimdagi da'vatim uchun deb o'yladim, lekin aslida bu azoblar mening kechirimsizligim tufayli kelgan azoblar edi. Men har safar meni xafa qilgan kishining yonidan o'tganimda, o'zimni ruhiy kaltaklangan his qilar edim.

So'ngra men hech qachon unutmeydigan tong keldi. Men uyimning orqasidagi hovlidagi stulda o'tirib, ibodat qilar edim. "Rabbiy, nahotki men jarohatlangan bo'lsam?" – deb so'radim. Bu so'zlarni aytganim zahoti ruhimning tubida eshitdim: "Ha!"

Xudo mening jarohatlanganimni aniq bilishimni xohlagan edi.

"Xudoyim, iltimos, bu jarohatdan va xafachilikdan ozod bo'lishga menga yordam ber, – deb yolvordim, – bunga mening o'zimning kuchim yetmaydi".

Bu Rabbiy meni olib o'tishni xohlagan aynan o'sha holat – o'z imkoniyatlarimning sinish holati edi. Biz o'z jonimizning kuchi bilan har xil narsalar qilishga juda ham ko'p harakat qilamiz. Biroq biz bundan ruhiy o'smaymiz. Aksincha, biz qulashga yanada moyilroq bo'lib qolamiz.

Shifolanishga va ozod bo'lishga birinchi qadam quyidagidan iboratdir: Siz jarohatlangan ekanligingizni tan oling. Ko'pincha mag'rurlik bizga jarohatlanganligimizni va xafa bo'lganligimizni tan olishga yo'l bermaydi. Men o'zimning asl holatimni tan oldim, Rabbiyni izlashni boshladim va Uning fosh qilishi hamda to'g'rilashiga o'zimni ochdim. Rabbiy mening bir necha kun ro'za olishimni xohlayotganini his qildim. Ro'za meni Muqaddas Ruhning ovozigga sezgirroq qildi:

Mana, Men tanlagan ro'za: qonunbuzarlik kishanlarini ochgin, bo'yinturuq zanjirlarini yechgin, jabrlanganlarni ozodlikka qo'yib yubor va har qanday bo'yinturuqni uzgin.

– ISHA'YO 58:6

Men ushbu qonunbuzarlik kishanlari uzilishiga va jabrlanganlikdan ozod bo'lishga tayyor edim.

Bir necha kundan so'ng men dafn qilish marosimiga keldim. Shuningdek, meni xafa qilgan odam ham o'sha yerda edi. Men uning ortidan uzoqdan qarab turib, yig'lashni boshladim: "Rabbiy, men uni kechiraman. Men uni menga qilganlarining barchasidan ozod qilaman". Men darhol og'irlik mening yuragimdan qanday qulaganligini his qildim. Men uni kechirdim. Meni qandaydir yengillik to'ldirdi!

Biroq bu faqatgina tiklanishga bo'lgan yo'limning boshlanishi edi. Men avvalgidek zaifligimcha qoldim va yana xafa bo'lishim mumkin edi. Buning barchasi jismoniy jarohatdan so'ng sog'ayishga o'xshar edi. Keyingi keladigan biror bir jarohatlarning oldini olish uchun men o'z yuragimni, ongimni va hissiyotimni mustahkamlab shug'ullanishim kerak edi.

TAKRORLASH HAQIDA NIMA DEYSIZ?

Bir qancha oylar o'tdi. Ba'zan men kechirgunimga qadar menda bo'lgan xuddi o'sha fikrlardan uzoqlashishimga to'g'ri kelar edi. Bu – mening oldimga xuddi shu tarzda xafa qilingan odam o'z shikoyati

bilan kelganida yoki meni xafa qilgan odamni ko'rganimda, uning ismini eshitganimda sodir bo'lar edi. Men bu fikrlarni payqaganim zahoti ularga qarshilik qilar edim va ularni o'zimdan uzoqlashtirar edim (2-Korinfliklarga 10:5ga qarang). Bu mening ozodligim uchun kurashim edi. Nihoyat men qanday qilib bu fikrlar meni yana kechirmaslikka olib bormasligini Rabbiydan so'radim. U meni ozodlikning yanada yuqoriroq darajasiga olib chiqishni xohlayotganligini bilar edim. Ha, o'zim ham hayotimning butun qolgan qismida meni ta'qib qilayotgan xafalik bilan kurashishni xohlamas edim. Rabbiy menga meni xafa qilgan odam uchun ibodat qilishimni aytdi va O'zining so'zlarini eslatdi:

Ammo Men sizlarga aytaman: Dushmanlaringni sevinglar, sizlarni la'natlayotganlarni duo qilinglar, sizlardan nafratlanayotganlarga yaxshilik qilinglar, sizlarga ozor berayotganlar va sizlarni quvg'in qilayotganlar uchun ibodat qilinglar.

– MATTO 5:44

Men ibodat qilishni boshladim. Boshida zarracha hissiz, quruq, bir ohangli ovozdagi ibodatlar edi. Men majburiyat hissisiz shunday deb qo'shib qo'yar edim: "Rabbiy, uni duo qilgin. Unga muvaffaqiyatli kun bergin. Uning barcha ishlarida unga yordam bergin. Iso nomi bilan, Omin".

Bu bir necha hafta mobaynida davom etdi. Bu meni hech narsaga olib bormayotgandek tuyuldi. Bir kuni tongda Rabbiy menga 34-sanoni ko'rsatdi. Men uni eslay olmadim, shu sababli ochib, o'qishni boshladim. Men o'rtasiga yetib kelganimda, unda o'zimni va o'zimning vaziyatimni ko'rdim.

Menga qarshi soxta guvohlar ko'tarildilar; Mendan Men bilmaydigan narsani so'rashmoqda. Jonimga yetimlik bilan (ingl. qayg'u bilan), yaxshilikka yomonlik bilan javob qaytarmoqdalar.

– SANO 34:11-12

Men o'zimni Dovud bilan tenglashtirishim mumkin edi. Mening fikrimcha, o'sha odam ham, uning hamkorlari ham menga xuddi shunday yaxshilikka yomonlik bilan javob qaytardilar. Mening ko'nglim to'liq xafalikda edi. Oxirgi bir necha yil davomida sodir bo'layotgan o'z kurashimni menga ko'rsatish uchun Xudo bu sanoni ishlatdi. Bir joy meni shunchalik baland irg'ib ketishimga majbur qildiki, men boshimni shiftga urishimga sal qoldi!

Men esa ular bemor bo'lgan vaqtda qanor kiyar edim, jonimni ro'za bilan azoblar edim va ibodatim bag'rimga qaytib kelar edi. Men o'zimni bu go'yo do'stim, birodarimdek tutar edim. Men onasiga motam tutayotgandek boshimni egib, tund yurar edim.

– SANO 34:13-14

Dovud bu odamlar uni halok qilishga uringanliklarini aytgan. Garchi u ularga hech qanday yomonlik qilmagan bo'lsa ham, ular unga yomonlik qildilar.

So'ngra mening javobim keldi: "Men esa..."

Dovudning javobi boshqalarning qanday yo'l tutganliklariga asoslanmagan edi. U to'g'ri yo'l tutishga qaror qilib, xuddi ular uning yaqin birodarlari bo'lgani kabi ular uchun ibodat qildi yoki onasining o'limiga motam tutayotgandek, tund yurdi. Xudo menga bu odam uchun qanday ibodat qilish kerakligini ko'rsatayotgan edi: "Ibodat qilgin va aynan o'zing Mendan olishni xohlaganingni uning uchun so'ragin!"

Endi mening ibodatim to'liq o'zgardi. U endi: "Xudoyim, uni duo qilgin, unga yaxshi kunni bergin"ga o'xshash ibodat emas edi. U hayot bilan to'ldi. Men: "Rabbiy, unga yanada ko'proq ochilgin. Uni O'z huzuring bilan duo qilgin. U Seni yaqinroq tanib-bilsin. Ha, u Senga ma'qul bo'lsin va Sening ismingni sharaflasın". Men Xudo mening hayotimga nima qilishini istasam u uchun shularni so'ray boshladim.

Bir oy davomida u uchun ishtiyoq bilan ibodat qildim, baland ovozda qichqirib: “Men seni duo qilaman! Men seni Iso nomi bilan sevaman!” – dedim. Bu ruhimning tubidan chiqqan hayqiriq edi. Men o'zim haqi u uchun ibodat qilishdan, u haqi uchun ibodat qilishga o'tdim. Men ishonamanki, shifolanish shunda to'liq amalga oshdi.

QARAMA – QARSHILIKLAR ORQALI SHIFOLANISH

Yana bir necha hafta o'tdi va men uni yana ko'rdim. Mening yuragimda noxush tuyg'u qolishda davom etar edi. Men avvalgidek tanqidchi bo'lish istagiga qarshi kurashar edim.

– Jon, sen uning oldiga borishing kerak, – dedi xotinim menga.

– Yo'q, nima uchun, – uni ishontirdim, – men shundoq ham allaqachon shifolanganman.

Ammo Muqaddas Ruh mening so'zlarimni qo'llab-quvvatlama-yotganligini his qilar edim. Shu sababli Rabbiydan uning oldiga borishim kerak yoki yo'qligini so'radim. U: “Ha”, – deb javob berdi.

Men o'sha odam bilan uchrashuv haqida kelishdim va unga sovg'a olib bordim. Men o'zimni pasaytirib, unga nisbatan bo'lgan noto'g'ri munosabatimni tan oldim va undan kechirim so'radim. Biz yarashdik, kechirim va shifolanish yuragimga kirdi. Men uning ishxonasidan shifolangan va mustahkamlangan holda chiqdim. Mening endi og'riq bilan kurashishim kerak emas edi va uni tanqid qilishni boshqa xohlamas edim. O'sha vaqtdan boshlab bizning munosabatlarimiz mustahkam bo'ldi va bizning oramizda muammolar boshqa ko'tarilmadi. Hozir biz zarur paytda bir-birimizni tez-tez qo'llab turamiz.

“Men bu odamni birinchi marotaba uchratganimda, – dedim Lizaga, – u mening nigohimda hech qanday noto'g'ri narsa qilmagan edi. Men unda hech qanday kamchiliklarni ko'rmaganman. Men uni yaxshi ko'rar edim, chunki uni mukammal deb hisoblar edim. Biroq men u tomonidan jarohatlanganimda, uni yaxshi ko'rishim qiyin bo'lib qoldi. Endi, bu qayta tiklanish va shifolanish jarayoni orqali

o'tib, uning hech qanday kamchiliklariga ham qaramasdan, men uni birinchi marotaba uchratganimdagi kabi kuchli yaxshi ko'raman. Bu yetuk sevgidir".

Mening ongimga quyidagi oyat keldi:

Eng avvalo bir-biringizga nisbatan otashin sevgiga ega bo'linglar, chunki sevgi ko'p gunohlarni qoplaydi.

— 1-PETRUS 4:8

Sizga hech qanday yomonlik qilmaydigan odamlarni sevish oson. Bu asal oyining sevgisidir. Biroq odamning kamchiliklari va xatolari ko'rinishni boshlaganida, ayniqsa, bizning o'zimiz bu kamchiliklarning qurboni bo'lganimizda, bu odamni sevish umuman boshqa narsa. Xudoning sevgisi meni mukammallashtirdi va yuragimni mustahkamladi.

O'sha vaqtdan beri men bunga o'xshash vaziyat bilan biror marotaba to'qnashmadim, biroq menga odamlarni kechirish va xafalikdan ozod bo'lish hech gap emas. Aynan shuning uchun mening yuragim xafa bo'lmaslikka va har qanday xafaliklardan ozod bo'lishga chiniqtirilgan.

Xudo menga uyim ortida gapirgan paytdan, men o'sha odamning ishxonasidan shifolangan holda chiqib ketgan vaqtgacha bir necha oylar o'tdi. Bu shug'ullanish davri bo'lib, bu davrda mening yuragim mashq qildi va mustahkamlandi. O'sha oylar mobaynida men o'zimni hech qayerga yetib bormayotgandek his qildim. Men hatto, balki yomon tomonga o'zgarayotgandirman degan xayollarga ham bordim.

Biroq men tiklanishga olib boradigan to'g'ri yo'lda edim. Rabbiyning Ruhi men yura oladigan yo'llardan meni yetaklab bordi. Bu mening mukammallikka erishishim jarayonining bir qismi edi. Men bu kechinmani hech bir narsaga almashmagan bo'lar edim va bu hosil mening hayotimga olib kelgan narsa uchun undan minnatdorman.

QIYINCHILIKLAR ORQALI YETUKLIKKA ERISHISH

Biz oson vaqtlarda emas, aynan qiyin vaqtlarda ruhiy o'samiz. Biz Rabbiy bilan sayohatlarda har doim qiyinchiliklar bilan to'qnash kelamiz. Biz ulardan qocha olmaymiz, chunki ular Xudodagi bizning mukammallashuvimiz jarayoniga kiradi. Agar siz ulardan qochishga qaror qilsangiz, bu sizning o'sishingizga jiddiy to'sqinlik qiladi.

Turli xil to'siqlarni yengib, siz yanada kuchli va rahmdil bo'lib borasiz. Siz Iso Masihni yanada ko'proq sevib qolasiz. Agar siz qiyinchiliklardan chiqqan bo'lsangiz-u, biroq Iso Masihga nisbatan sevgining oshishini sezmasangiz, balki siz xafalikdan tiklanmagansiz va shifolanmagansiz. Shifolanish bu sizning tanlovingizdir. Ayrim odamlar jarohatlar olib, hech qachon shifolanmaydilar. Bu qanchalik shafqatsiz yangramasin, biroq bu ularning shaxsiy tanlovidir.

Iso Masih Unga kelgan azoblar orqali itoatkorlikni o'rgandi. Petrus unga kelgan azoblar orqali itoatkorlikni o'rgandi. Pavlus unga kelgan azoblar orqali itoatkorlikni o'rgandi. Siz-chi? Siz bunga o'rgandingizmi? Yoki siz qo'pol, bag'ritosh, qo'rs va alam, kechirimsizlik hamda xafalik bilan to'lgan odammisiz? Agar bu siz haqingizda bo'lsa, siz itoatkorlikni o'rganmagansiz.

Ha, ba'zi xafaliklar borki, ular surbetlarcha tez ketmaydi. Ulardan ozod bo'lish uchun zo'r berishingizga, ular ustidan ishlashingizga to'g'ri keladi. Biroq siz bu jarayonda o'sasiz va ruhiy yetuk bo'lasiz.

Ruhiy yetuklikka osonlikcha yetishib bo'lmaydi, aks holda, barcha odamlar unga ega bo'lgan bo'lar edilar. Ayrim odamlargina uchraydigan qarshiliklar tufayli hayotning bunday darajasiga yetib keladilar. Qarshiliklar esa mavjuddir, chunki jamiyatimizning hayot tarzi xudojo'ylik emas, balki xudbinlikdir. Dunyoni "havoda hukmronlik qilayotgan hukmdor" boshqaradi (Efisliklarga 2:2). Buning natijasida, Masihning mukammalligiga kirish uchun xudbinlik oqimiga qarshi turish tufayli keladigan qiyinchiliklarni boshdan kechirishga to'g'ri keladi.

Pavlus o'zi jamoat o'rnatgan uchta shaharlarda yana bo'ldi.

Uning maqsadi shogirdlarning jonini mustahkamlash edi. Biroq u buni aynan qanday amalga oshirganini ko'zdan kechirish qiziqarlidir. U ularni shunday ruhlantirdi:

Imonda turishni nasihat qilib: "Xudoning Shohligiga ko'p qayg'ular orqali kirishimiz kerak," – der edi.

– HAVORIYLAR 14:21-22

U ularga oson hayotni va'da qilmadi. U ularga dunyo standartlariga muvofiq omadni va muvaffaqiyatni va'da bermadi. U agar ular belgilangan butun yo'lni quvunch bilan bosib o'tishga tayyorlanayotgan bo'lsalar, Pavlus "ko'p qayg'ular" deb atagan katta qarshiliklarga duch kelishlariga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.

Agar siz daryo bo'ylab oqimga qarshi oddiy qayiqda suzayotgan bo'lsangiz, oldinga siljish uchun doim eshkak eshishingiz kerak. Agar siz eshkak eshishni to'xtatsangiz va bo'shshsangiz, oxir oqibat, siz oqim bo'yicha suzasiz. Shuningdek, biz ham Xudoning yo'lidan borishga qaror qabul qilib, ko'p qayg'ular bilan to'qnashamiz. Barcha bu sinovlar sizning asosiy savolga javobingizni namoyon qiladi. Xuddi dunyo qilayotgandek, siz ham o'zingiznikini izlaysizmi yoki fidokorona hayot bilan yashaysizmi?

Yodda tuting, agar biz hayotimizni Iso Masih haqi yo'qotsak, Uning hayotini topamiz. O'z nigohingizni jangga emas, so'nggi natijaga qaratishni o'rganing.

Petrus buni yaxshi ifodalagan:

Sevganlarim! Sizlarni vasvasa qilish uchun boshingizga tushayotgan alangali sinovni g'alati voqea deb, hayron bo'lmanglar. Aksincha, Masihning azoblariga sherik bo'layotganingiz uchun quvoninglar. Uning shuhrati zohir bo'lganida, sizlar yanada ko'proq quvonib, tantana qilasizlar.

– 1-PETRUS 4:12-13

E'tibor bering, u azob darajasini quvonch darajasi bilan taqqoslamogda. Bu quvonchga qanday erishish mumkin? Masih sharafi ochilganda, siz U bilan birga sharaflanasiz. Bu sharaf darajasi – sizning ichingizda Iso Masihning xulq-atvorini shakllantirishiga Unga naqadar ruxsat berishingizga bog'liq. Shunday ekan, xafaliklarga qaramang. Keladigan sharafiga qarang. Halliluyya!

O'ZINGIZNING HAQ EKANLIGINGIZNI ISBOTLASHDAN, QOQILAYOTGAN BIRODARGA YORDAM BERISHINGIZ MUHIMROQDIR.

Mening yoshim o'n sakkizda. Men egizak singlim bilan yolg'iz ona katta qilgan oiladan kelib chiqqanman va katta oila a'zosiman. Men o'zimning biologik otamni hech qachon ko'rmaganman va butun hayotim davomida unga nisbatan kechirimsizlikka ega edim. Mening bobom, Xudoning ajoyib kishisi, menga: "Shaytonning xo'ragi" kitobini o'qishga berdilar. Buni o'qib chiqqanimdan so'ng, men o'z otamni to'liq kechira oldim.

– N. M., YANGI MEKSIKA

MAQSADIMIZ: YARASHISH

Sizlar qadimgilarning: “O’ldirma, kim odam o’ldirsa sud hukmiga mahkum bo’ladi,” – deganlarini eshitgansizlar.

Ammo Men sizlarga aytaman: kim o’z birodaridan behudaga g’azablansa sud hukmiga muhkum bo’ladi; kim o’z birodariga ahmoq desa, sinedrion hukmiga mahkum bo’ladi; kim birodariga telba desa, do’zax oloviga mahkum bo’ladi. Shunday qilib, sen qurbongohga bag’ishlovingni olib kelganingda va o’sha joyda birodaringning senga qarshi da’vosi borligi yodingga tushsa, bag’ishlovingni qurbongohning oldiga qoldir va borib oldin birodaring bilan yarashgin, so’ngra kelib bag’ishlovingni qurbon qilgin.

– Matto 5:21-24

Bu Tog’dagi voizliklikdan parcha. Iso Masih shunday so’zlar bilan boshlaydi: “Sizlar qadimgilarning... deganlarini

eshitgansizlar". So'ngra U: "Ammo Men sizlarga aytaman...", – deydi. Iso Masih bu voizlikning barcha qismi davomida shunday tenglashtirishni davom ettiradi. U dastlab bizning harakatlarimizni boshqaradigan qonundan parcha keltiradi. So'ngra uni yurakka keltirish orqali ham uning amalga oshirilishini ko'rsatadi. Faqatgina jismoniy qotillikni amalga oshirgan kishigina emas, shuningdek, balki o'z birodaridan nafratlangan kishi ham Xudoning ko'z o'ngida qotildir. Siz o'z yuragingizda qanday bo'lsangiz, haqiqatda ham xuddi shundaysiz! Iso Masih voizlikning bu qismida xafalikning oqibati haqida aniq gapiradi. U g'azab yoki qattiq xafalik uchun jazoning shafqatsizligini yaqqol ko'rsatadi. Kim o'z birodaridan behudaga g'azablansa sud hukmiga muhkum bo'ladi. Agar bu g'azab hosil keltirsa va u o'z birodariga "raca" desa, u sinedrion hukmiga mahkum bo'ladi!

"Raca" so'zi miyasi yo'q odam yoki tentak degan ma'noni anglatadi. Bu Masih kunlaridagi yahudiylar orasida keng yoyilgan haqorat so'zi edi. Agar g'azab odamni o'z birodarini ahmoq deb atashgacha olib borsa, u do'zaxga tushib qolish xavfida bo'ladi. "Ahmoq" so'zi xudosizlikni anglatadi. Ahmoq o'z yuragida: "Xudo yo'q," – dedi (Sano 13:1). O'sha kunlarda birodarini aqlsiz deb atash juda jiddiy ayblov hisoblangan. Agar bu odamdagi g'azab nafratga aylanmaganida edi, hech qachon bunday demagan bo'lar edi. Bu so'z bugungi kunlarda birodariga: "Do'zaxga tush", – deb aytish va shuni nazarda tutish bilan teng edi.

Bu bilan Iso Masih agar g'azab tinchlantirilmasa, nafratga aylanishi mumkinligini ko'rsatdi. Agar nafratga barham berilmasa, u odamni do'zaxga tushish xavfiga olib kelishi mumkin. So'ngra U, agar birodari ularga qarshi da'vosi borligi yodiga tushsa, birinchi navbatda uni topib, u bilan yarashishi kerakligini aytgan.

Nima uchun biz yarashishga darhol harakat qilishimiz kerak, o'zimiz uchunmi yoki birodarimiz uchunmi? Biz birodarimiz haqi, unga xafalikdan ozod bo'lishiga yordam berishni tezlashtirish uchun borishimiz kerak. Agar biz undan xafa bo'lmasak, Xudoning sevgisi uning jahldor bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaydi, ammo tiklanish uchun

unga yordam qo'lini cho'zadi. Ehtimol, biz hech qanday yomonlik qilmagandirmiz. Yaxshimi yoki yomonmi – bu muhim emas. Biz uchun bu qoqilgan birodarga o'z haqligini isbotlashdan ko'ra, yordam berish muhimroqdir.

Xafachilik uchun behisob sabablar mavjud.

Balki biz xafa qilgan odam, garchi haqiqatan biz unga hech qanday yomonlik qilmagan bo'lsak-da, u bilan nohaq munosabatda bo'lishdi deb o'ylashi mumkin. Unda shunchaki noto'g'ri ma'lumotlar bo'lishi mumkin, bular tufayli u noto'g'ri xulosa qilgan bo'lishi mumkin.

Boshqa tomondan, unda *to'g'ri* ma'lumotlar bo'lib, u ulardan noto'g'ri xulosa chiqargan bo'lishi mumkin. Bizning aytgan gapimiz, turli munosabatlar kanallari orqali o'tib borayotganida buzib yetkazilgandir. Bizning niyatimiz odamni jarohatlash bo'lmasa-da, bizning so'zlarimiz va harakatlarimiz boshqacha manzarani namoyon qilgan bo'lishi mumkin.

Biz ko'pincha o'zimizni niyatlarimiz asosida, qolgan barchani esa, ularning ishlari asosida hukm qilamiz. Shunday bo'ladiki, bir ishni qilishni niyat qilasan, lekin umuman boshqasini qilishga to'g'ri keladi. Ba'zan bizning yashirin maqsadlarimiz, hattoki, bizning o'zimizdan mohirona yashirinadi. Biz ularning tozaligiga ishonishni xohlaymiz. Biroq biz ularni Xudoning So'zi orqali filtdan o'tkazganimizda, ularni boshqacha ko'ramiz.

Nihoyat, balki biz haqiqatan bu odamga qarshi gunoh qilgandirmiz. Biz g'azablandik yoki bosim ostida yurdik, bularning barchasi tufayli esa, zarba unga kelib tushadi. Yoki, ehtimol bu odam doimo va atayin bizga qarshi hujum qilib yurgandir va biz bunga chiday olmasdan, unga xuddi shunday javob qaytargandirmiz.

Xafa bo'lishga nima olib kelganligidan qat'iy-nazar, xafa bo'lgan odamning ongi xiralashadi va u o'z hukmini taxminlarga, ovozalarga, odamlar o'rtasidagi mish-mish gaplarga va tashqi alomatlarga quradi. U hatto o'z-o'zini bizning haqiqiy maqsadimizni angladim deb o'ylab aldaydi. Bizlar u odam u bilan nohaqlarcha yo'l tutganliklariga butun yuragi bilan ishonishi faktiga sezgir holda munosabatda bo'lishimiz kerak. Qanday sabab bo'lishidan qat'iy-

nazar, biz o'zimizni bo'ysundirishga va kechirim so'rashga tayyor bo'lishimiz kerak.

Iso Masih bizlarni, hatto xafalik bizning aybimiz bilan bo'lmagan bo'lsa ham yarashishga ruhlantiradi. Itoatkorlikda yurish va murosaga kelish uchun yetuklik zarur. Biroq ko'pincha aynan xafa qilingan odamga birinchi qadamni bosish qiyinroqdir. Aynan shuning uchun Iso Masih xafa qilgan odamga "uning oldiga bor" degan.

XAFA BO'LGAN ODAMDAN KECHIRIM SO'RASH

Havoriy Pavlus shunday degan:

Shuning uchun tinchlikka va bir-birini barpo qilishga xizmat qiladigan narsalarga intilaylik.

— RIMLIKLARGA 14:19

Bu biz xafa qilgan odamning oldiga qanday borishimizni ko'rsatmoqda. Agar uning oldiga jahl bilan va hafsalasizlik bilan borsak, biz yarashuvga erisha olmaymiz. Biz faqatgina xafa bo'lgan insonni yanada qiyinroq ahvolga solib qo'yamiz. Biz bo'ysunish va mag'rurlikdan voz kechish orqali yuraklarimizda tinchlikka intilishni saqlashimiz kerak. Faqatgina shunday holda yarashuvga muvaffaq bo'lish mumkin.

Ba'zan men xafa qilgan yoki mendan g'azablangan odamlarning oldilariga borishimga to'g'ri kelgan va ular menga shunchaki tashlanganlar. Menga xudbinligimni, boshqalarga befarq, mag'rur, qo'rs, tez ekanligimni va boshqa narsalarni aytdilar.

Tabiiyki, men javob qaytarishni xohlayman: "Yo'q, unday emas. Shunchaki, sizlar meni tushunmayapsizlar!" Biroq men himoyalanganimda, bu faqatgina olovga yog' quygan va ularning xafaligi yanada kuchliroq alangalangan. Bu tinchlikka intilish bo'lmagan. "O'z huquqlarini" himoya qilish hech qachon haqiqiy tinchlikni olib kelmaydi.

Buning o'rniga men ular o'zlariga kerak bo'lgan narsani aytmaganlaricha tinglashni va tilimni tiyishni o'rgandim. Agar men ularga qo'shilmasam, ularning aytganlarini hurmat qilishimni aytaman va o'z munosabatimni hamda o'y-niyatimni tekshiraman. So'ngra men ularni xafa qilganimdan afsusda ekanligimni ularga aytaman.

Ba'zan ular men haqimda haqiqatni gapirib, meni to'g'ri baholashadi. U holda men tan olaman: "Siz haqsiz. Men sizdan uzr so'rayman".

Bundan tashqari, yarashuvga erishish uchun shunchaki o'zini bo'ysundirish kerak. Ehtimol, shu sababli Iso Masih quyidagi so'zlarni aytgan:

Raqibing bilan hali yo'lda ketayotganingda tezda yarashib olgin, toki raqibing seni sudyaga va sudya esa mirshabga topshirib, seni qamoqqa tashlamasin. Senga rostini aytaman, oxirgi kodrantni bermaguningcha u yerdan chiqqa olmayсан.

— MATTO 5:25-26

Mag'rurlik himoyalanađi. Itoatkorlik esa rozi bo'lib, deydi: "Siz haqsiz. Men aynan shunday yo'l tutdim. Iltimos, meni kechiring".

Ammo yuqoridan kelayotgan donolik esa, birinchidan pok, keyin tinchliksevar, kamtar, itoatli, mehr-shafqatli, yaxshi hosillarga to'la, beg'araz va riyosizdir.

— YOQUB 3:17

Xudoning donoligi itoatlidir (inglizchadan so'zma-so'z tarjima qilinganda "past kelishga tayyor"). Gap shaxsiy nizolar haqida ketganida, u gapga ko'nmaydigan yoki qaysar bo'lmaydi. Xudoning donoligiga ega bo'lgan odam, agar boshqa odamning gapi haqiqatga qarshi bo'lmasa, past kelishdan yoki uning fikrini qabul qilishdan qo'rqmaydi.

SIZNI XAFA QILGAN ODAMGA YAQINLASHISH

Agar biz birodarimizni xafa qilganimizda nima qilishni ko'rib chiqqan bo'lsak, keling endi, agar birodarimiz bizni xafa qilsa nima qilish kerakligini ko'rib chiqamiz:

Zero, agar sening birodaring senga qarshi gunoh qilsa, borgin va u bilan alohida unga uning aybini aytgin, agar u senga quloq solsa, birodaringni qaytarib olgan bo'lasan.

– MATTO 18:15

Ko'pgina odamlar bu oyatni Iso Masih istagan ruhda qo'llamaydilar. Agar ularni xafa qilgan bo'lsalar, ularni xafa qilganing oldiga borib, qasos va g'azab ruhida uni fosh qiladilar. Ularni xafa qilgan odamni hukm qilish uchun ular bu oyatni o'zlarini oqlash uchun qo'llaydilar.

Ammo ular asl mohiyatni o'tkazib yuboradilar: Iso Masih bu yerda qanday maqsadlar bilan bir-birimizning oldimizga borishimiz lozimligini o'rgatmoqda. Biz bir-birimizning oldimizga hukm qilish uchun emas, balki yarashish uchun borishimiz kerak. U birodarlarimizga ular biz bilan qanchalik nohaqlarcha yo'l tutganliklarini aytishimizni xohlamaydi. Bizlar o'zaro munosabatlarimizning tiklanishiga xalaqit beradigan to'siqlarni olib tashlash uchun borishimiz kerak.

Bu – Xudo U bilan bizning munosabatlarimizni qanday tiklashiga o'xshashdir. Biz Xudoga qarshi gunoh qildik, ammo U "O'zining sevgisini bizga shu bilan isbot qilyaptiki – biz hali gunohkor bo'lgan paytimizda, Masih biz uchun o'ldi" (Rimliklarga 5:8). Biz o'zimizni himoya qilishdan voz kechib, bizni xafa qilgan bilan yarashib, mag'rurlik uchun o'lishga tayyormizmi? Xudo bizga o'z sevgisini biz Undan kechirim so'rashimizdan avval uzatgan. Biz qonunbuzarligimizni anglab yetishimizdan oldin Iso Masih bizni kechirishga qaror qilgan.

U bizga O'z qo'llarini cho'zgan bo'lsada, ammo biz Uning yarashuv so'zini qabul qilmagunimizcha, Ota bilan yarasha olmaymiz.

Buning hammasi esa Xudodandir. U Masih orqali bizni O'zi bilan yarashtirdi va bizga yarashtirish xizmatini berdi. Chunki Xudo Masihda odamlarning gunohlarini hisobga olmasdan, dunyoni O'zi bilan yarashtirdi va bizga yarashtirish So'zini topshirdi. Shunday qilib, biz Masih haqi elchilarmiz va go'yo Xudoning O'zi biz orqali insonlardan o'tinib so'rayapti. Biz Masih haqi yolvoryapmiz: Xudo bilan yarashinglar!

– 2-KORINFLIKLARGA 5:18-20

Yarashish so'zi barcha uchun bir bo'lgan asosdan, ya'ni bizlarning barchamiz Xudoga qarshi gunoh qilganimizdan boshlanadi. Bizning Xudodan ajratilganligimiz bizga ma'lum bo'lmagunicha, yarashishni yoki najotni istamaymiz.

Yangi Ahdda shogirdlar, odamlar Xudoga qarshi gunoh qilganliklarini voizlik qilganlar. Lekin nima uchun odamlarga ular gunoh qilganliklarini aytish kerak? Ularni hukm qilish uchunmi? Xudo hukm qilmaydi. "Zero Xudo O'z O'g'lini dunyoni hukm qilish uchun dunyoga yubormadi, balki dunyo U orqali najot topishi uchun yubordi" (Yuhanno 3:17). Balki buni odamlar o'zlarining qanday holatda ekanliklarini anglashlari, gunohlariga tavba qilishlari va kechirim so'rashlari uchun qilish kerakdir?

Insonni tavbaga nima olib boradi? Javobni Rimliklarga 2:4da topamiz:

Yoki Xudoning ezguligi seni tavbaga olib borayotganini fahmlamasdan, Xudoning ezguligining va muloyimligining hamda uzoq sabr-toqatining boyligini mensimayapsanmi?

– RIMLIKLARGA 2:4

Xudoning ezguligi bizni tavbaga olib boradi. Uning sevgisi do'zaxdagi azoblarga hukm qilinganlarni, ya'ni bizni qutqaradi. U O'zining yagona O'g'li Iso Masihni biz uchun xochda o'lishga yuborish bilan O'z sevgisini isbotladi. Garchi biz Xudoga qarshi gunoh qilgan

bo'lsak-da, U birinchi bo'lib bizga peshvoz chiqdi. U O'z qo'llarini hukm qilish uchun emas, balki tiklash va qutqarish uchun cho'zadi.

Biz Xudoga taqlid qilgan holda (Efesliklarga 5:1ga qarang), bizga qarshi gunoh qilgan birodarimizga birinchi bo'lib yarashishni taklif qilishimiz kerak. Iso Masih quyidagi namunani o'rnatdi: Birodaringni oldiga borgan va uni hukm qilish uchun emas, balki sizlarni ajratayotgan har qanday to'siqlarni bartaraf qilish uchun unga gunohini ko'rsatgin hamda shu tarzda munosabatlar tiklanib, yarashinglar. Bizning ichimizdagi Xudoning ezguligi birodarimizni tavgaga va munosabatlarimizning tiklanishiga olib boradi.

Shunday qilib, men, Rabbiydagi mahbus sizlardan shuni o'tinib so'raymanki, sizlar chaqirilgan da'vatingizga munosib tarzda yashanglar. Ongoingizda bor kamtarlik, bor muloyimlik va sabr-toqat bilan bir-biringizga sevgida bardosh berib, tinchlik birlashuvida Ruhning birligini saqlashga intilinglar.

– EFESLIKLARGA 4:1-3

Biz bir-birimizning kamchiliklarimizni sevgida qoplab, itoatkorlik, ezgulik, kamtarlik munosabatlarini qo'llab-quvvatlash bilan bu tinchlik birlashuvini saqlaymiz va shu tarzda sevgi rishtalari mustahkamlanadi.

Men xafa qilgan odamlarning ba'zilari mening oldimga hukm qilishga kelganlar. Buning natijasida men har qanday yarashish xohishini yo'qotganman. Aytgancha, men ular umuman yarashishni xohlamaydilar, ular shunchaki jahllari chiqqanligini bilishimni xohlaganlar deb o'ylaganman.

Men xafa qilgan boshqa odamlar esa mening oldimga kamtarlikda kelganlar. Shundan so'ng men fikrlarimni tez o'zgartirganman, ba'zan ular hali gaplarini tugatmaslaridan ulardan kechirim so'raganman. Sizning oldingizga kelib: "Siz yaxshi do'st bo'lmaganligingiz, men uchun buni va buni qilmaganligingiz uchun men sizni kechirganligimni bilishingizni xohlayman", – deb aytgan odamlar bo'lganmi?

Ular buni sizga bidirlab aytganidan so'ng, ular sizga: "Sen mening oldimda kechirim so'rashing kerak", – deydigan nazarni tashlaydilar.

Siz xijolat chekib, shoshib qolasiz, bu sizni jarohatladi. Ular yarashish uchun emas, biroq sizni qo'rqitish va sizning ustingizdan nazoratga ega bo'lish uchun kelganlar.

Bizni xafa qilgan birodarimizning oldiga, u bizga qanday javob berishidan qat'iy-nazar uni butun yuragimiz bilan kechirishga qaror qilmagunimizcha bormasligimiz kerak. Biz uning oldiga borishimizdan oldin unga nisbatan har qanday dushmanlik hislaridan qutulishimiz kerak. Aks holda, biz, ehtimol bu salbiy hislardan kelib chiqqan holda javob qaytaramiz va shifolamasdan, jarohatlaymiz.

Agar bizda to'g'ri munosabat bo'lsa va bizga qarshi gunoh qilgan odam bilan yarashishga urinsak, biroq u bizni eshitishni istamasa, unda nima qilish kerak?

Lekin agar u quloq solmasa, o'zing bilan bir yoki yana ikki kishini ol, toki ikki yoki uch guvohlarning og'zi bilan har bir so'z tasdiqlansin. Ammo agar ularni mensimasa, jamoatga ayt, lekin agar jamoatni ham eshitmasa, unda sen uchun majusiy va soliqchi kabi bo'lsin.

– MATTO 18:16-17

Bu pog'onalarning har birida umumiy bir maqsad bor: yarashish. Aslida Iso Masih shunday demoqda: "Urinishni davom ettir". E'tibor bering, xafa qiluvchi jarayonning har bir bosqichiga qo'shiladi. Biz ko'pincha Iso Masih bizga buyurgani kabi bizga qarshi gunoh qilgan odamning oldiga borishdan oldin, xafalik haqida boshqa barcha odamlarga aytamiz!

Biz buni o'z yuragimizni tinchlantira olmaganimiz uchun qilamiz. Biz voqeaning biz tomonimizdan tahlilini aytib o'zimizni oqlangandek his qilamiz. Bizlarga naqadar yomon munosabatda bo'lganlarini boshqalar tasdiqlasalar bu bizning holatimizni mustahkamlaydi va bizlarni yupatadi. Bu – xulq-atvordagi xudbinlik xolos.

BARCHA NARSANING ASOSI

Agar biz Xudoning sevgisini o'z maqsadimiz qilsak, biz qulamaymiz. Sevgi pand bermaydi. Agar biz boshqalarni Iso Masih bizni sevganchalik sevsak, hattoki boshqa odam biz bilan yarashmaslikka qaror qilgan bo'lsa ham, biz ozod bo'lamiz. Yozuvning keyingi oyatlariga diqqat bilan qarang. Biz har qanday vaziyatlarda Xudoning donoligiga tayanishimiz mumkin. U biz uchun har doim ochiq.

Ilojingiz boricha hamma odamlar bilan tinch-totuv bo'linglar.

— RIMLIKLARGA 12:18

U "iloji boricha" demoqda, chunki vaqtlar keladiki, boshqalar biz bilan tinchlikda bo'lishni rad etadilar. Yoki yarashishlarining sharti Rabbiiy bilan munosabatlarimizga qarshi borishimiz bo'lgan odamlar uchrashi mumkin. Bu vaziyatlarning birortasida ham, bu odam bilan munosabatni tiklashning imkoni bo'lmaydi.

Xudo nima deyayotganiga e'tibor bering: "Agar siz tomondan imkoni bo'lsa" (inglizchadan so'zma-so'z tarjima qilinganda: "bu nechog'lik sizga bog'liq bo'lsa"). Bu haqiqatga qarshi bormagunicha, biz bu odam bilan yarashish uchun qo'limizdan kelgan barcha ishni qilishimiz kerak. Biz ko'pincha munosabatlar tiklanishidan juda ham tez voz kechamiz.

Men bir do'stim menga bir ko'ngilsiz vaziyatdan qochmasligimni maslahat berganligini hech qachon unutmayman: "Jon, sen ketishingni Muqaddas Yozuvdagi oyatlar bilan oqlay olishingni bilaman. Biroq buni qilishdan oldin sen bu muammoga ibodatda qarshi turganingga va bu vaziyatga Xudoning tinchligini olib kelish uchun qo'lingdan kelgan hamma narsani qilganingga ishonch hosil qilgin".

So'ngra u qo'shimcha qildi: "Bir kun orqaga nazar tashlasang va bu munosabatlarni saqlab qolish uchun qo'lingdan kelgan barcha ishni qilmagan bo'lsang achinasan. Agar senda boshqa yo'l yo'qligiga va

buning ustiga haqiqatga qarshi bormasdan imkon qadar barchasini qilganingga ishonching komil bo'lsa yaxshiroq bo'ladi".

Men bu maslahat uchun nihoyatda minnatdorman va Xudoning bu donoligini tan olganman.

Iso Masihning so'zlarini eslang:

Tinchlik o'rnatuvchilar baxtlidirlar, chunki ular Xudoning o'g'illari deb atalurlar.

– MATTO 5:9

U: "Tinchlikni saqlaganlar baxtlidirlar", – deb aytmagan. Tinchlik saqlovchi kishi har qanday baho bilan qarama-qarshilikdan qochishga harakat qiladi, shu bilan birga, u, hattoki, haqiqatga qarshi borishga ham tayyordir. Biroq u saqlaydigan tinchlik haqiqiy tinchlik emasdir. Bu yuzaki, uzoq davom etmaydigan tinchlikdir.

Tinchlik o'rnatuvchi esa, sevgi bilan boradi, u qarama-qarshilikka ham haqiqatni aytib boradi, toki buning natijasida amalga oshadigan yarashish abadiy bo'lib qolsin. U qalbaki va yuzaki munosabatlarga erishishga harakat qilmaydi. U samimiyligni, haqiqatni va sevgini istaydi, xafalikni siyosiy tabassumning ortiga yashirishni rad etadi va hech qachon pand bermaydigan jasoratli sevgi bilan tinchlik o'rnatadi.

Xudo insoniyat bilan aynan shunday yo'l tutadi. U kimningdir halok bo'lishini istamaydi. Biroq U munosabatlar uchun haqiqatga qarshi bormaydi. U insoniy yuzaki so'zlarga asoslangan emas, haqiqiy bag'ishlanish asosidagi yarashishni izlaydi. Bu hech bir yovuzlik uza olmaydigan sevgi rishtalarini o'stiradi. U biz uchun O'z hayotini bergan. Biz faqatgina U kabi yo'l tutishimiz mumkin.

Xudoning sevgisi barcha narsaning asosi ekanligini yodda tuting. U hech qachon to'xtamaydi, so'nmaydi va tugamaydi. U o'z manfaatini izlamaydi. U tez achchiqlanmaydi va xafa bo'lmaydi (1-Korinfliklarga 13:5).

Havoriy Pavlus sevgi har qanday gunohni yengishini yozgan:

Sizlarning sevgingiz bilimda va har qanday his-tuyg'uda ko'pdan-ko'p ortib borishi uchun ibodat qilmoqdaman, toki sizlar a'loroq bo'lgan narsani aniqlab, Masihning kunida pok va benuqson bo'linglar, hamda Xudoning shuhrati va maqtovi uchun Iso Masih orqali haqlikning hosillariga to'lib-toshgan bo'linglar.

– FILIPPILIKLARGA 1:9-11

Xudoning sevgisi – bu xafalik xo'ragi bo'lgan tuzoqdan ozodlikka kalitdir. Biroq bu mo'l-ko'l sevgi, ya'ni doimo o'sadigan va bizning yuraklarimizda mustahkamlanadigan sevgi bo'lishi lozim.

Bugun jamiyatimizdagi qanchalik ko'p odamlar so'zlaydigan, ammo harakat qilmaydigan yuzaki sevgi bilan aldanganlar. Bizni to'siqlardan saqlaydigan sevgi hattoki dushmanning ezguligi uchun ham o'z hayotini fidokorlik bilan beradi. Agar biz aynan shu sevgida yursak, yo'ldan ozishga tushib qolmaymiz va shaytonning xo'ragiga ilinmaymiz.

XOTIMA

AMALIY QADAMLAR

Bu kitobni o'qish davomida Rabbiyning Ruhi sizga o'tmishdagi yoki hozirgi kundagi kimgadir qarshi yoki nimanidir yashirin saqlayotgan, qandaydir munosabatlaringiz haqida eslatishi mumkin. Sizdan Men bilan birga oddiy ozod bo'lish ibodati bilan ibodat qilishni so'rashga Rabbiy meni yetaklayotganligini his qildim.

Biroq ibodat qilishdan oldin, siz xafa bo'lgan odamlarni esga olishga yordam berib, U O'z Ruhi bilan sizning o'tmishingiz bo'ylab siz bilan birga o'tishini Rabbiydan so'rang. U bu odamlar kim ekanligini sizga ko'rsatishni boshlaganida, Uning qarshisida sukunatda turing. Yo'q narsaning payidan tushishingizning keragi yo'q. U o'sha odamlarni sizga aniq va ravshan eslatadi va sizda hech qanday shubha bo'lmaydi. U buni qilgan vaqtda, siz o'shanda qanday og'riqni boshdan o'tkazganingizni yodga olishingiz mumkin. Qo'rqmang. U sizni yupatib, yoningizda bo'ladi.

Odamlarning sizga qilgan ayblarini kechirgan vaqtingizda, bu odamlarning har birini alohida-alohida tasavvur qiling. Ularning shaxsan har birini kechiring. Ular sizga qarzidor bo'lgan qarzni bekor qiling. So'ngra ushbu ibodat bilan ibodat qiling, biroq faqatgina ushbu so'zlar bilan cheklanib qolmang. Buni qo'llanma sifatida ishlatib va Xudoning Ruhi sizni yetaklashiga ruxsat bering.

Samoviy Ota, meni xafa qilgan odamlarni kechirmasdan, Senga qarshi gunoh qilganligimni Iso Masih nomi bilan tan olaman. Men bunga tavba qilaman va kechirishingni so'rayman.

Shuningdek, men ularni Sensiz kechirishga qodir emasligimni ham tan olaman. Shu sababli, butun yuragim bilan kechirishga qaror qilaman. (Ularning ismlarini qo'ying, har birini alohida qo'yib yuboring va kechiring). Ular menga qilgan barcha yomon ishlarni Iso Masihning qoni bilan yuvaman. Ular menga boshqa hech narsa qarzidor emaslar. Menga qarshi qilingan ularning gunohlarini kechiraman.

Samoviy Ota, Rabbim Iso Sendan Unga qarshi gunoh qilganlarni kechirishingni so'ragani kabi, men ham Sening kechiriming menga qarshi gunoh qilganlarga kelishi haqida Senga ibodat qilaman.

Sendan ularni duo qilishingni va Sen bilan o'zaro munosabatlarga yanada yaqinroq olib kelishingni so'rayman. Omin.

So'ngra kechirgan odamlaringizning ismlarini yon daftarchaga yozib va falon kuni siz ularni kechirishga qaror qilganligingizni belgilab qo'ying. Ehtimol, siz xafalikdan ozodlikda qolishingiz uchun mashq qilishingizga to'g'ri kelar. (Agar bu aytilgan fikrni tushunmasangiz 13-bobni o'qib chiqing). O'zingiz uchun qanday ibodat qilsangiz, ular uchun ham shunday ibodat qilish majburiyatini oling. Sizning yozuvlaringiz sizga bu haqida eslashingizga yordam beradi. Agar fikrlar sizning onginingizni bombardimon qilishni davom

ettirsa, ularni Xudoning So'zi bilan uloqtirib tashlang va kechirish qaroringizni e'lon qiling. Siz kechira olishingiz uchun Xudodan Uning inoyatini so'ratingiz. Dadil bo'ling va imon jasorati bilan ezgulikda xizmat qiling.

Yuragingiz kuchli va mustahkam ekanligini bilganingizda uning ortidan boring. Yodingizda tuting, siz o'zingizga emas, balki ularga yaxshi bo'lishi uchun yarashish maqsadi bilan bormoqdasiz. Siz buni amalga oshirib, o'zingizga g'alabani kafolatlamoqdasiz. Siz birodar orttirmoqdasiz (Matto 18:15ga qarang). Bu Xudoning qarshisida ma'quldir.

“Sizlarni esa yiqilishdan saqlab qolishga, O'zining shuhratining huzurida benuqson va shod-xurram qilib, turg'izishga qodir bo'lgan, yakkayu-yagona, dono Qutqaruvchimiz Xudoga Iso Masih orqali azaldan, hozir va abadul-abad shuhrat, ulug'vorlik, saltanat va hokimiyat bo'lsin! Omin”.

— YAHUDO 24-25

X: XUDO TOMONIDAN BERILGAN IMKONIYATINGIZNI OSHIRING



Siz biror marta Osmon Shohligida o'zingizni kuzatuvchi sifatida his qilgansizmi? Ehtimol, nimadir qilishingiz lozimligini bilasiz, biroq aynan nima qilish kerakligini batamom bilmaysiz. Bizning oramizda ko'pchilik o'z hayoti orqali katta ta'sir ko'rsatishni istaydi, biroq sizda javob olmagan savollar qolgan bo'lishi mumkin.


Jumladan:

- O'z hayotimda Xudoning irodasini nazardan qochirmayotganimni qanday bilish mumkin? Mening noyob in'omlarim Xudo Shohligini qurishda qanday ahamiyatga ega?
- Xudo tomonidan menga berilgan imkoniyatni ishlatayotganimga qanday ishonch hosil qilishim mumkin?
- Agar men «xizmatda» bo'lmasam, mening burchim kamroq ahamiyatga ega hisoblanadimi?
- Xudo inoyati ostida bo'lish va Uning Shohligi uchun harakat qilishda qanday muvozanat saqlash mumkin?
- Hatto ishonchsizlik va xavf – xatar mavjud bo'lgan vaziyatlarda ham qanday qilib qo'rquvni yengish va olg'a yurish mumkin?


Bu ta'sirli kitobda muallif Jon Biver Muqaddas Kitobning batafsil tadqiqotiga asoslanadi va sizning o'z burchingiz haqida boshqacha o'ylashingizga va uning Xudoga nima uchun muhimligini tushunishingizga yordam berish maqsadida ishonchli hikoyalarni ishlatadi. Bu kitobning sahifalarida sizga Xudodan berilgan in'omlarni ko'paytirishni va o'z imkoniyatingizni ishlatishni o'rganasiz!

X MessengerX

Har bir kishi uchun, hamma joyda shogirdlikka yo'l



- 130 dan ortiq tillarda bepul
- Ilova hamda onlayn sifatida olish mumkin
- Sizning ruhiy o'sishingiz uchun mo'ljallangan manbalar
- O'zingizning o'tmishingizni va shogirdlik yo'lingizni kuzatib boring



“Messenger” yordamida o'qish uchun zahiralalar kutubxonasini oling – elektron kitoblar, video va audio darsliklar, audio kitoblar, Muqaddas Kitob va hokozolar. O'zingizning barcha moslamalaringizda ko'ring, o'qing va tinglang.

MessengerX.com



Dunyoning barcha joyida App Store va Google Play orqali olish mumkin.

Dushmannning halokatli tuzog'idan qanday qutulish mumkin

“Shaytonning xo'ragi” kitobi shayton imonlilarni Xudoning irodasidan chiqarish maqsadida ishlatadigan eng ayyor tuzoqlardan birini – xafagarchilikni fosh qiladi. Shaytonning xo'ragi bilan tuzoqqa ilingan ko'pchilik odamlar buni sezishmaydi ham.

Aldanmang! Siz xafagarchilikka duch kelasiz va bu sizning Xudo bilan bo'lgan munosabatingizga qanday ta'sir qilishini o'zingiz hal qilasiz. Sizning xafagarchilikka javobingiz kelajagingizni belgilaydi. Agar siz xafagarchilikka to'g'ri munosabat bildirsangiz, alamga to'lib-toshishning o'rniga kuchliroq bo'lasiz.

Jon Biver o'zining bozorgir kitobining 10 yilligining ushbu nashrida, qanday qilib xafagarchilikdan ozod bo'lishni va qurbon sifatida fikrlashdan qutulishni ochib beradi. 6 000 000 nusxadan ortiq nusxada, turli shaklda dunyo bo'ylab tarqatilgan ushbu kitob, bu ta'limotni o'qib, undan barakalangan, o'zgargan insonlarning guvohliklarini o'z ichiga oladi.

Siz quyidagi qiyin savollarga javoblarni topasiz:

- Hikoyaning “menga daxldor tomoni”ni aytishimga nima majbur qiladi?
- Shubhalar va ishonchsizlik bilan qanday kurashishim mumkin?
- O'tmishdagi jarohatlarga ortiq qaytmaslik uchun nima qila olaman?
- Nimadir meni qattiq xafa qilganidan so'ng, yana qanday qilib odamlarga ishona olaman?

Bu kitob sizga dushmanning xavfli tuzog'idan qochishingizga yordam beradi, shuningdek, xafagarchilikdan ozodlikda yashash va Xudo bilan to'siqsiz o'zaro munosabatlardan lazzatlanish uchun kuch beradi.



JON BIVER va uning rafiqasi Liza Biver “Messenger Interneshnl” xizmati asoschilaridir. Jon xizmatchi va bozorgir kitoblarning muallifi sifatida murosasiz haqiqatni jasorat va g'ayrat bilan voizlik qiladi. U mahalliy jamoatni qo'llab-quvvatlashga va jamoat yetakchilariga yashash joyi, tili yoki moliyaviy holatidan qat'i-nazar, manbalarni taqdim etishga intiladi. Uning manbalari 130 dan ortiq tillarga tarjima qilingan, millionlab nusxalari butun dunyo bo'ylab cho'ponlar va yetakchilar orasida tarqatilgan.



Ko'proginl ishtaysizmi?
Skaneirlang


MessengerX



Messenger
INTERNATIONAL

Bepul yuklash va tarmoqli video uchun
MessengerX.com ga kiring

Bu kitob – muallifning sovg'asi.
Sotish uchun mo'ljallanmagan.

